

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**BIOLOGIYA KAFEDRASI**



**78  
FANIDAN  
*O'QUV-USLUBIY MAJMUA***

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>100000 - Gumanitar fanlar</b>
<b>Ta'lif sohasi:</b>	<b>1100000 – Pedagogika</b>
<b>Ta'lif yo'nalishi:</b>	<b>5112000 - Jismoniy madaniyat</b>

Odam fiziologiyasi fanidan o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 18.08. 2017 yil tasdiqlangan Fiziologiya fani namunaviy dasturi (№ BD – 5140100- 2.03) asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchi:**

**O.Yunusov**

Gul DU Biologiya kafedrasи o'qtiuvchisi.

**Taqrizchilar:**

**M.Allamuratov.**

Gul DU Biologiya kafedrasи, dotsent.

**I.Shirinova.**

Gul DU Biologiya kafedrasи, dotsent.

O'quv uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan (2017 yil “\_\_” \_\_\_\_dagi “\_\_” sonli bayonnoma)

## **MUNDARIJA**

So'z boshi.....	4
Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi ).....	5
Laboratoriya ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko'rsatmalar.....	63
Mustaqil ta'lim buyicha materiallar.....	82
Glossariy.....	85
Ilovalar.....	84
Fan dasturi.....	88
Ishchi fan dasturi.....	103
Test savollari.....	116
Tarqatma materiallar.....	128

## So'z boshi

Fiziologiya so'zi yunoncha physis - tabiat va logos - ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Fiziologiya fani tirik organizmlarni, ularning alohida tizimlari, a'zolari, to'qimalari va hujayralari faoliyatining qonuniyatlarini urganadi. Ushbu, alohida funksiyalarni o'rganish, organizm atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini, mexanizmlarni, sabablarini to'laligicha tushunishga, uni evolyutsiya hamda individual rivojlanish davridagi turli sharoitlarda yashashi, kelib chiqishi va shakllanishi paytidagi xulq - atvorini o'rganishga qaratilgan.

Uzoq vaqtlar davomida (XVI asrdan boshlab), fiziologiyaga jonivor va o'simliklarni o'rganuvchi fan sifatida qaralgan. Keyinchalik esa, undan anatomiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlar ajralib chiqqan. Ayni paytda, fiziologiyaga anatomiya fanining bir qismi sifatida qaralgan. XIX asrga kelib, organizm faoliyati bilan shug'ullanadigan fiziologiya, mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Albatta, fiziologik mexanizmlarni tushunib etish to'g'ridan-to'g'ri anatomiya, gistologiya, tsitologiya, bionika va biologik fanlarni boshqa yo'naliishlarining ma'lumotlariga asoslanadi hamda ularni yagona bilimlar tizimiga birlashtiradi. Shu bilan birga fiziologiyada fizika, kimyo, kibernetika, matematik apparat usullari ham keng foydalaniladi.

Fiziologik bilimlar majmuasi uchta alohida, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan umumiyl, xususiy va amaliy fiziologiya kabi yo'naliishlarga bo'linadi.

Umumiy fiziologiyaga quyidagi ma'lumotlar: asosiy hiyotiy jarayonlarni kelib chiqish tabiat; hayot faoliyatlarini umumiy ko'rinishlari, ya'ni masalan, a'zolar va to'qimalar metabolizmi; biologik membranalar va alohida hujayralar xususiyatlari; organizm va uning tarkibiy qismlarini muhit ta'siriga (ta'sirchanlik, quzg'aluvchanlik, qo'zg'алиш va tormozlanish jarayonlari) javob reaktsiyasining umumiy qonuniyatlarini kiradi.

Xususiy fiziologiya alohida to'qimalarning (mushak, asab va boshqalar), a'zolarning (jigar, buyrak, yurak va boshqalar) xususiyatlarini, ularning tizim (ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas tizimi) hamda alohida sinflari, guruhlari va turlarining (masalan, hasharotlar, qushlar, xo'jalikda foydali hayvonlardan - sigir, quyon va boshqalar) fiziologiyasini o'rganadi.

Amaliy fiziologiya organizmni, ayniqsa inson organizmini, maxsus vazifalar va sharoitlar bilan bog'liq faoliyatini namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganadi. Bularga mehnat, sport, ovqatlanish, suv osti va kosmos, qishloq xo'jalik hayvonlari fiziologiyasi kiradi.

Bundan tashqari fiziologiya shartli ravishda normal va patologik fiziologiyalarga bo'linadi. Normal fiziologiya, deyarli barcha tibbiy va veterinariya fanlarining nazariy asosi hisoblanadi. U, sog'lom organizm hayoti qonuniyatlarini, faoliyatlarini turli omillar ta'siriga moslashish mexanizmlarini, hamda organizmning turg'unligini o'rganadi. Organizmdagi normal fiziologik jarayonlarni va faoliyat yo'naliishlarini bilmasdan turib, patologik holatlarning oldini olish va davolashning iloji yo'q. Patologik fiziologiya kasal organizm faoliyatining o'zgarishlarini, organizmdagi patologik jarayonlarni paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'sishining umumiy qonuniyatlarini, kasallik paytidagi faoliyatni adaptatsiyasi va kompensatsiyasi jarayonlarini hamda sog'ayish va rehabilitatsiya mexanizmlarini o'rganadi.

Fiziologiya fani - eksperimental fan bo'lib, unda mexanizm va qonuniyatlarini o'rganishning asosiy usuli - eksperimentdir. Eksperiment, organizmda qanday hodisalar ro'y berayotganligiga, u yoki bu fiziologik jarayon qanday va nima sababdan sodir bo'layotganligiga, u qanday paydo bo'ladi, qaysi mexanizmlar tomonidan boshqariladi va qo'llab-quvvatlaniladi kabi savollarga javob topish imkoniyatini yaratadi. Quyilgan maqsadta qarab, eksperiment utkazishning ham o'ziga mos uslubiy yo'naliishlari farqlanadi.

# MA'RUZALAR KURSI

## 1-Mavzu: Odam fiziologiyasi faniga kirish

### Asosiy savollar:

1. Fiziologiya fanining predmeti.
2. Fiziologiya fanining o'rGANISH usullari.
3. Fiziologiya fanining rivojlanish tarixi.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:** *fiziologiya, solishtinna fiziologiya, evolutsion fiziologiya, ekologik fiziologiya, me'yoriy fizioiogiya, patologik fiziologiya ekstirpatsiya, denervatsiya, kaleterizatsiya.*

### Birinchi savol bayoni.

Fiziologiya (yunon. fizis-tabiat, logos-ta'lilot, fan) tirik organizmning funksiyalarini, unda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rGANADI. Bu fan hujayra, to'qima, a'zo va tuzilmalarning hayotiy faoliyatini yaxlit organizmga xos bo'lgan barcha murakkab va muhim jarayonlarning asosiy mexanizmlarini, ularning funksional aloqamandligini, ichki va tashqi muhit sharoitiga bog'langan holda teng ma'noda o'rGANADI. Organizmni ta'minlaydigan moddalar almashinuvi, ovqatlanish, nafas olish, qon aylantsh, ayiruv, ichki sekreisiya bezlari, asab tizimi faoliyati va boshqa vazifalar fiziolgiyaning asosiy o'rGANISH maqsadidir. Fiziologiya organizmda sodir bo'ladigan funksiyalarni, ularning hamma xususiyatlarini, ko'rinishlarini o'zaro munosabatlarini orgsnizmning turii funksional holatiarida va tashqi muhitning turli sharoitida aniqlashga intiladi. Fiziologiya funksiyalarining larixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) rivojlanishini. ularning doimo o'zgaruvchi tashqi muhit sharoitiga moslashishini o'rGANADI. Shunday qilib, fiziologiya organizm funksiyasini (lohncha «funksio»- ijro qilish, faoliyat ko'rsatish) har bir hujayra, to'qima, a'zo, tizilmaning bir butun organizm sathidagi bajaradigan vazifasi va faoliyatini o'rGANADI. Odam fiziologiyasi - tibbiyot nazariyasining poydevori hisobtanайди, uning rivojlanishi pedagogika va psixologiya uchun juda katta ahamiyatga ega. Qadamda uchrab turadigan to'pgina kasalliklarni oldini olishda, me'yorida o'sish va rivojlanishini ta'minlashda, mrlil mtthit sharoitlariga moslanishda, atrof-muhit tozaligini saqlab turishtia, mehnal va sport mashqlarini ko'ngildagidek maqsadga muvofiq holda tashkil qilishda, kishi nmrini uzaytirish muammolarini yechishda fiziologiya yutuqlariga tayaniladi. Odam fiziologiyasi bioiogik fanlar orasida eng sertsrmoq fan hisobtanadi. Bu tarmoqlardan solishtinna fiziologiya, evolutsion fiziologiya, ekologik fiziologiya, me'yoriy fizioiogiya, patologik fiziologiya va boshqalami qayd qilib o'tish mumkin. Biroq, fiziologiya o'z tekshirishlarida boshqa tabiiy faclar bilan yaqin aloqada bolib, o'z navbatida turli faniarning rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Masalan, odam fiziologiyasi fizika bilan kimyo qonunjariga tayanadi va ularning lekshirish usullaridagi keng foydatanadi. Har bir bayotiy hodisalarini tekshirishning fizik va kimyoviy yo'nalishlari biofizika va biokimyo degan musiaqil fanlarning paydo bo'lishiga asos bo'lidi.

Fiziologiya morfologik fanlar anatomiya, gislologiya va sitologiya biiait yaqin aloqada bo'lib, rivojtanib kelmoqda, ehunki morfologik va hodisalar bir-biri bilan chambarehas bog'langan, Organizm va uning a'zolarining shakli, tuzilmasi va funksiyalarini bilmay turib yaxlit organizmning faoliyatini o'rGANIB bo'lmaydi. Fiziologiya bilan tibbiyotni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Fiziologiya tibbiyotga nazariy oziqa beradi va uni poydevori bo'lib xizmat qttadi, Tibbiyotda fiziologiyaning qonuniyallari, uning aazariy va amaliy ultan yutuqlari mtintazam ruvishda keng tadbiq etiladi. Tibbiyot esa o'z navbatida ftziologiya uchun g'oyat ko'p qimmatli ma'lumot beradi. "Patologik hodisalar dunyosi fiziologik hodisalarining har xil favqtlodda, ya'ni hayot mo'tadil o'tayotganda ro'y berataydigan kombinatsiyalarining cheksiz qatoridir. Bular iabiatda va hayotda bo'ladigan fiziologik tajribaiarning go'yo bir qatori ekanligi shubhasiz, bular ko'pincha hodisalarining shunday kombinalsiyalariki, zamonaviy fiziologlarning hali xayoliga ham kelmaydi va ba'zan ularni fiziologiyaning hozirgi texnikaviy vositalari bilan

ataylab gavdaiaatirib bo'lmaydi. Shu tufayli fiziologiyaning alohida bo'limi sifatida klinik fiziologiya shakliangan. Fiziologiya pedagogika va psixologiya fanlar bilan ham bog'liq. Oliy asab faoliyati haqidagi ta'ltmot zamonaviy psixologiya va pedagogikaning asosidir. Fiziologiyaning pedagogika uchud amaliy ahamiyati shundan iboratki, bolaning mehnali va (unnush sharoitini to'g'ri tashkil etish, to'g'ri tarbiya tadbirlarini o'kazish uchun pedagog va psixolog bola organizmida ro'y beradigan fiziologik jarayonlarning yoshga aloqador xususiyatlarini bilishi kerak. Bu soha uchun ma'lumotlar beradigan fan yosh flziologiyasidir.

### ***Ikkinci savol bayoni.***

Umumiy fiziologiyaning eng asosiy usuli - eksperiment. (tajriba) hisobtanadi. Fiziolog flziologik jarayonlaming qanday qilib va nima uchun sodir bo'layotganligini bilishga intiladi. Buning uchun eksperimentator yaratadigan va o'zgarib turadigan sharoitda tajriba o'tkazilishi kerak. Organizmdagi biror a'zoning funksiyasi yoki ahamiyatini bilish uchun fiziolog shu a'zoni yoki uning biror qismini olib tashlaydi (olib tashlash yoki ekstirpatsiya usuli) yoki organizmning yangi joyiga ko'chirib o'tkazadi (ko'chirib o'kazish yoki transplantatsiya usuli) va bu jarrohlikdan keyin qanday oqibatlar qolishini kuzatishadi. Bunday usullar ayniqsa ichki sekretsiya bezlarini va markaziy asab tizimini o'rganishda juda qo'l keladi. A'zo faoliyati asab tizimining ta'siriga bog'liq ekanini bilish uchun shu a'zoga boradigan asab tolalari qirqiladi (denervatsiya usuli), A'zolarning qon tomirlar tizilmasi bilan aloqasini uzish, turli qon tomirlari bog'lab tashlanadi (ligatura solish usuli) yoki bir tomirning markaziy qismi' ikkinchi tomirning periferik qismiga tikib ulanadi (tomirlar anostomozi usuli). Organizmning ichkarisida joylashgan va shuning uchun bevosta kuzatib bo'lmaydigan ba'zi a'zolar faoliyatini o'rganish uchun naycha usuli qo'llaniladi, Bu usulning bir variantida a'zo, masalan, me'da, ichak, qovuq bo'shlig'iga plastmassa yoki metall nay kiritilib, buiting ikkinchi uchi teriga mahkamiab qo'yiladi; boshqa variantda esa bezlar yo'li teri yuzasiga chiqarib qo'yiladi. Yurak qon tomirlari, bez yo'llarida o'tkaziladigan ko'p tekshirishlarda ularga ingichka naylar-kateterlar turli asboblarga utanadi yoki muayyan moddalar shu kateterlar orqali yuboriladi (kaleteerizatsiya usuli), A'zolar faoliyatini sun'ty qo'zg'atish uchun fiziologlar elektr, mechanik, kimyoviy va boshqa biror yo'l bilan ia'sir ko'rsatishadi,

A'zolarning funksiyatarimi tekshirish uchun qo'llaniladigan boyagi usullarning ko'pchiligi lirik organizmning yorish yoki jarrohlik qilishni talab etadi. Bu usullar o'tkir va sunrunkali-xronik tajribalarda latbiq etiladi. Odatda uzoq davom elmaydigan o'tkir tajribalarda (yoki viviseksiyalarda) hayvonga narkoz berib yoki uni boshqa usulda harakatsiz qilib qo'yib, a'zolarning funksiyasi o'rganiladi, asablarga ta'sir etish, dori moddalar yuborish va shunga o'xshashlarning ta'siri tekshiriladi. Surunkali-xronik tajribalarda fiziologlar hayvonni har xil xirurgik operatsiya qilib, u tuzalgandan keyin tekshira boshlashadi. Operatsiya qilingan hayvonni ko'pincha bir necha hafta, oy va yillab kuzatsa bo'ladi.

A'zolar funksiya si butun organizmdagina cmas, organizmdan ajratilgan sharoitda ham o'rganiladi. Qirqib olingan (boshqacha aytganda, organizmdan ajratib olingan) a'zo tomirlaridan shu maqsadda muayyan eritmalar o'tkaziladi, bu eritmalar tarkibini eksperimentator tartibga solib iuradi (perfuziya usuli) va tirik to'qimalar uchun zarur tashqi muhit-muayyan harorat, namlik va shu kabilar muxayyo qilinadi.

Yuqorida "sanab o'tilgan usullaming hammasi organizmda sodir bo'ladigan jarayonlar tabiatini chuqur bilib olishga xizmat qiladi. Ular hujayra darajasigacha, hatto uning a'zolarigacha tahlil qilinadi, mikrofiziologik tajribalarda, masalan, yakka mushak, asab hujayrasi va boshqa hujayralar tekshiriladi. Biror a'zo to'qima yoki hujayrada ro'y beradigan har bir fiziologik jarayonni organizmda sodir bo'ladigan boshqa hamma jarayonlardan alohida o'rganish fiziologiyadagi analitik (tahliliy) tadqiqot vazifasidir. Bu holda yolg'iz a'zo, to'qima, hujayraning funksiyasi, faqat shu jarayon haqida har tomonlama tasavvur olish mumkin. Ammo organizmning hayot faoliyatini to'g'ri bilib olish uchun buning o'zi kamlik qiladi. I.P.Pavlov «Sintetik fiziologiya» deb atagan tadqiqotlar yo'nalishi zarur. Bu faoliyatni I.P.Pavlov ayrim a'zo, to'qima va hujayraiami o'rganadigan "tahliliy fiziologiya" ga qarshi qo'ygan edi. I.P.Pavlov

so'zlari bilan aytganda organizmning tashqi muhit bilan hamma aloqalarini va o'zaro munosabatlarini o'rganish sintetik fiziologiyaning vazifasidir. Bunday tekshirishda fiziolog organizm o'rganilayotgan sharoitni tabiiy sharoitga maksimal darajada yaqinlashtirishga intiladi.

So'nggi yillarda fiziologlar va tibbiyat xodimlari fizika, radiotexnika, elektronika va kibernetikaning zamonaviy muvoffaqiyallaridan foydalanmoqdalar, bu esa sog'lom va kasal organizm funksiyalarini o'rganishda katta yordam beradi. Organizm funksiyalarini tekshirishning yangi usullari ishlab chiqildi, eski usullar takommillashtirildi, odam va hayvonlar organizmiga qanday bo'lmasin shikast yetkazmasdan, uning ko'p funksiyalarini o'rganish mumkin bo'lib qoldi. Masalan, miyachaga elektrodlar qo'yib va elektr o'lchash jihozlarini tatbiq etib miyachada sodir bo'ladigan elektr hodisalari o'rganitmoqda va shu ma'lumotlarga asoslanib boshqa a'zolarning holati haqida tasavvur olinmoqda. Elektr usullari organizmda bo'ladigan mexanik, tovush, harorat va boshqa jarayonlarni o'rganishga ham imkon beradi[1].

Odam va hayvonlar butun organizmming funksiyalarini tekshirish uchun turli hujayra, a'zo, tuzilmalarda ro'y beruvchi ko'p va turli-luman fiziologik, fizikaviy va kimyoviy jarayonlami bir yo'la yozib olish g'oyatda muhimdir. Zamonaviy texnika bunday imkoniyatlari muhayyo qilib berdi. Ayni vaqtda ko'p turli jarayonlarni kuzalish natijalarini tez tahlil qilish va bu jarayonlamining qonuniy nisbatlarini aniqlashdek murakkab vazifa kelib chiqdi. So'nggi yiltarda fiziologlar fiziologik axborotni tahlil qilish va qayta ishlash uchun kompyuterlarni tatbiq eta boshladi, bu esa hozirdayoq yangi muhim natijalar bermoqda,

### *Uchunchi savol bayoni.*

Odam fiziologiyasi tarixi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Qadimgi ilmiy izlanishltirda tajribalar kishi tanasining tuzilishi va uning faoliyatini bilish, o'rganish uchun turki bo'lib xizmat qildi. Bu inilish, tabiatshunoslar va labiblar uchun muhim nazariyaviy va ilmiy poydevor bo'lib xizmat ko'rsatdi, chunki tabiblar upfun kasallikning kelib chiqish sabablari, uni davolash yo'llarini qidirib topish uchun zarurat edi.

Odam fiziologiyasining taraqqiyoti asosan ikki bosqichda rivojlandi. Birinchisi, odam anatomiyasi, ya'ni a'zolarning tuzilishini va joylanishini o'rganish, ikkinchisi, shu a'zolarning faoliyati (funksiyasi), ya'ni a'zolarda bo'lib o'tadigan turli jarayonlarni o'rganish.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun avvalo odam a'zolariga o'xshash a'zoli hayvonlar o'liklarini kesib, a'zolarning joylanishini va tuzilishini o'rganila boshladi, so'ngra a'zolarning funksiyasi to'g'risida fikr yuritila boshladi.

Odam organizmining hayot faoliyatini o'rganishga qadimgi Yunoniston, Rim, Xitoy, Hipdiston va Misr otimlari asos sotgan. Masalan, Buqrot eramizdan oldingi (460-377) yillarda tabiat va tibbiyat sohasida o'zigacha bo'lган ma'lumotlarni to'plab kuzatishlari asosida tibbiyot fanidan 7-ta ilmiy asarlar yozgan, bu qo'llanmalardan tabiatshunoslar, shifokorlar va faylasuflar 2000 yil davomida foydalanib kelmoqda. Buqroq ko'hna Yunoniston tibbiyotining reformatori (qayta quruvchisi) hisobtanadi, yurak va qon (oqirlari. hamda odamning tnijozi (iemperamenti) haqida muhim ma'lmoilar bergen.

Buqrotning birinchi ustozи uning otasi Geraktid bo'lган. U Yunonisionda, Rimda, Kichik Osiyoda va Liviyada shifokorlik maklablarini o'tgan va uni insoniyat klinik tibbiyolining asoschisi sifatida tan olgan. Uning nomi bilan «Gippokrat qasami» shifokorlar orasida keng tarqalgan. Buqrotning shifokorlarga «Zarar keltirma» degan vasiyati hozirgi zamon tibbiyot xodimlariga ham taalluqlidir.

Turli hulq-atvor va hatti-harakatlarga ega bo'lган odamlar mijozи bo'yicha Buqrot quyidagilarni yozgan: mijozи issiq odamlarni sangvinik- serharakal, ildam deb atalgan. Vujudi sovuq, fihilimshiq bo'lган ktshilami flegmatik - «sovuuqqon», vazmin mijozga ajratgan. Qiziqqon, serjahl kishilami xoterik deb atagan va vujudi qora, qo'yilgan o't ko'payib kelgan kishilar melanxoliklarni tashkil qilib, ular ivrisiydigan, o'ziga ishonmaganlardir.

Yunonistonda yashagan yirik olim, faylasuf Arastu tibbiyot fanlarining, tibbiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U solishtirish usulidan foydalanib, hayvonlarning 500 dan ortiq turining tashqi tuzilishini tasvifladi va yangi ma'lumotlar berdi. Arastu asabni bir-biridan

farq qitdi, yurak bilan qon tomiriarining tuzilishini, o'zaro bog'liqligini bayon etdi. U tabiatshunosiikda vitalistik nazariyaning btrinchı vakiJlaridan bo'lgan olimdir. Arasluning ilmiy qarashlarida ruh birlamchi, maieriya ikkilamchi degan fikrtarni ham ilgari surdi. Araslu, Buqrot va boshqa ba'zi olimlarning tabiatshunoslikga oid ayrim noto'g'ri fikrlari bir necha yuz yillar mobaynida o'z kuchini saqlab keldi.

Jolinus Hakim (Kladviy Galen, 129-201) hayvonlar yuragini va qon tomirlarini o'rganib, arteriyalarda havo emas, balki qon oqishini, birinchi bo'lib isbotlagan. Jolinus qonning tomirlard,a to'xtovsiz aylanishini bilmagan. U «xom» qon jigarda hosil bo'lib, yurakning o'ng tomoniga kejadi va qorinchalar o'rtasidagi teshik orqali chap tomonga o'tib, qon tomirlar bo'ylab ichki a'zolarda tarqaladi. dcb o'ylagan. Jolinusning qon harakati to'g'risidagi bu xato g'oyatari o'rta asrlargacha hukmron bo'lib keldi. Jolinus organizm tuzilishi va funksiyasini aniq bilmay turib, kasallikni aniqlash, bemorni davolash mumkin emasligini yaxshi bilar edi.

Tabiat fanlari va tibbiyotga tajribani, kiritish Jolinusning buyuk xizmatlaridan biridir. U bosh va orqa mtya faotiyatlatini tekshirib, odamning ruhiy sususiyatlari bosh miya faoliyatiga bog'liq bo'lishini aytgan.

O'rta asrlar davomida Sharq mamlakatlarida ilm va fan juda rivojlandi. Xurosonda yashab ijod etgan labib va dorishunoslardan Abu Zayd Husayn ibn Isoq al Ibodi (808-877) arab, fors, qadimgi grek tillarini yahshi egallangan. Buqrot, Arastu, Jolinus va boshqa antik olimlamtnig ilmiy asariarini arab tiliga tarjima qilgan olim-tarjimon edi. Tarjimalaridan tashqari Husayn ibn Isoq tomonidan yoziigan 100 dan ortiq asarlaridan aksariyati tibbiyot va dorishunoslikka bag'ishlangan asliy asarlar nusxalari bizga yetib kclgan. Buqrot va Jolinusdan keyingi qadimgi Sharq tabobatining yfrik nazariyotchi namoyondasi Husayn ibn Isoq tomonidan yozib qoldirgan meros asarlari boshqa tiiwga ham tarjima-.qilingan. Shunday asarlandan biri «Javome' kitob Jolinus fi-l-Bavl» (Jotinusning siyidik haqidagi hamma narsani qamrab olgan kitobi) dir, Arab tiliga Husayn tarjima qilingai bu asar siyidik lahliliga va uning asosida tashxis qo'yishga bag'ishlangan.

Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug' ibn Tarxon al-Farobi Toshkentning shimoli-g'arbida joylashgan Farobda harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. U qomusiy bilimlar sardori, o'z zamonasining yirik tibbiyot nazariyotchisi va shu sohada jahonshumul asarlar, yozgan alloma hamdir. Al-Farobiyning 160 dan ortiq astronomiya, matematika, falsafa, tarix, mantiq, psixologiya, tilshunoslik, adabiyot, musiqa, tabiatshunoslik, tibbiyot, kimyo sohalarni qamrab olgan asarlari mavjud.

Al-Farobi o'zining tibbiyot asarlarida, inson organizmi, uning funksiyasi haqida yozar ekan, organizm bir butun yaxlit tizimdan iboratligini, turli o'zgarishlar va kasalliklar esa ovqatlanishning o'zgarishi bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Farobi, odam organizmi markaziy asab tizimi orgali boshqariladi, bosh miya organizmda o'zaro munosabatni yuzaga keltirib turadi deydi. Uning ta'kidlashicha, organizmda ikki xil boshqarish kuchi mavjud: bulardan biri hayvoniy boshqarilish, bu hayvonlarga xos xislat yoki noaql (Al-hayvon g'ayri itotiq) va fikrlovchi, aqli (At-hayvon an notiq) nutqiy xususiyat deb ta'riflaydi. Shunday qilib, u tiayvonlarda nutq o'smagan-birlamchi signal tizimiga bo'ysunuvchilar deb ko'rsatgan bo'lsa, odamlarni nutqiy fazilati bo'lgan-ikkinci signal tizimiga xos fazilatli deb ta'riflaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, Farobi hali Oyrupa olimlaricha qadar xususan rus fiziologiyasining olasi-I.M Sechenovgacha ming yil avval fiziologiya, fanining poydevori bo'lgan eng murakkab sohasi-oliv asab faoliyatining birlamchi va ikkilamchi signal tizimining rivojlanishiga ilmiy asos solgan.

Abu Sahl Masihiy Jurjoniy (970-1010) Jurjonda tug'ilgan, Xorazmda yashab, ijod etgan. o'sha vaqtida Xorazmda Aburayhon Bemniy, Ibn Sino, Abul Xayr, Ibn Iroq va boshqalar ham yashar edi. Masihiy zamonasining<sup>1</sup> yirik tabiatshunosi, Uibibi, astronomi va faylasufi bo'Mgan va shu sohalarga oid asarlar yozgan. Btrog, fan tarixida Masihiy tabib sifatida mashhurdir. U tbn Sinoning yaqin do'sti va tabobat sohasida uning ustoziaridan biri bo'lgan. Masihiy Ibn Sino bilan birgalikda Xorazmdan Xurosonga o'tib ketganda 40 yoshda 1010 yili vafot etgan. Masihiy yozgan 8 tibbiy asar bizgacha yetib kelgan, ulardan biri qomusiy ahamiyatga ega, qolganlari tabobatning ayrim masalalari: umumiyl terapiyaga, odam a'zolarining fiziofogiyasiga, chechakka,

o'lat (chuma) ga, mijozga, tomir urushiga va badantarbiyaga bag'ishlangan. Masihiyning asosiy va eng katta asari «Quiub al-mi'a fi-s-san'ai at tibiya» (Tabobat san'ati bo'yicha yuz kitob) deb nomlangan. Bu asar bizgacha ko'pgina nusxalarda yetib kelgan.

X-XI asrlarda o'rta Osiyo hulqlarining Ovrupada Avitsenna nomi bilan shuhrat qozongan ulug' tabibi, muifafakkir va olim Abu Ali ibn Sino yashagan. Ibn Sino 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'iladi. U 450 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan bo'lsa ham bizgacha ularning 242 tasigina yetib kelgan. Shulardan 43 tasi tabobatga oid.

Bulardan barcha tibbiy sohalarni qamrab olgan asar Tib qonunlari hisoblanadi. Bu asar beshta katta kitobdan iborat. Birinchi kitob - tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiylasalalari haqida ma'lumot beradi. Ikkinci kitob o'sha davr tabobatida qo'llaniladigan dori-darmonlar haqida zaruriy ma'lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir. Uchinchi kilob - inson tanasining a'zolarida yuz, beradigan «xususiy yoki mahalliy kasallikkleri haqida ma'lumot beradi. To'rtinchi kitob - kishi a'zolarining birontasiga xos bo'limgan umumiylasalliklarga bag'ishlangan. Jumladan, turli isitmalar, kasallik davridagi buxronlar, shishlar, toshma-jarohatlanishi, bosh suyagi, ko'krak qafasi. umurtqa va qo'l-oyoqlarning shikasilantshi kiritilgan. Beshinchi kitob farmokologiya bo'lib, unda murakkab tarkibli dori-darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan.

Ibn Sinoning tib qonunlaridan tashqari «Tabobat haqidagi urjuza»si alohida abamiyatga molikdir. Urjuza she'riy asar bo'lib, Ibn Sino qalamiga mansub she'riy asarlaming eng baritamoli va ulug' idir. Ibn Siiio bundagi g'oyataming halqqa lezda yetib borishini istaganligi haqida shunday dedi: «Men bu «Urjuzagaga» kamolot to'nini va husn saruposini kiygizdim, uffi o'rganish osonroq, mashaqqati kamroq bo'lsin deb, to'qillshini oson, vaznini yengil qildim». Buni natijasida, - deydi Ibn Sino, kimki unga idrok ko'zi bilan qarasa, bu hajmni kichik asar tufayli katta ilmga erisha olishi mumkin. "Tib qonunlari" asarlarida Ibn Sino sport tibbiyotiga laslluqli ko'pgina fikrlami bayon eigan. U kishilarning sog'ligini mustahkamlashda va har xil kasallikkarning oldini olishda jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning ahamiyatini alohida takidlab o'tgan. Masalan, «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri va uyqu ta'diri» yoki «Mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odara buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasallikkarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kaialliklar tufayli keluvchi kasallikfaming davosiga muhtoj bo'lmaydi».

Shunday qilib, Ibn Sinoning cheksiz ilmiy qarashlari, tibbiyotga kiritilgan yangiliklari o'rta asrlarda Sharq va G'arb olimlari dunyoqarashiga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

XVI asrning o'rtalarida ijod qilgan va tibbiyotda ko'pgina yangiliklar yaratgan mashhur anatom A.Vezaliy Ibn Sino asarlarini o'rganib, uning anatomiya sohasidagi ma'lumotlari aniqligini tan oigan. A.Vezatiy dunyoda birinchi bo'lib hayvonlarda tajriba o'kazishga bag'ishlangan qo'llanmani yaratdi. Bu kitob olimlar o'rtasida tajribaga bolgan qiziqishni uyg'otdi, keyingi asrlar davomida bu qiziqish tobora orta bordi.

Eksperimental taddiqot usulini talbiq etadigan fiziologiya'fani mgliz. shifokori, anaiom va fiziologi Uilyam Garvey ishlaridan boshianadi. Garyey hozirgi fiziologiyaning asoschisi hisoblanadi. Organizmda qon aylanishini ilk bor kashf etdi va odam fiziologiyasini fanga aylantirdi. Garvey «Hayvonlarda yurak va qon harakatini anatomik tekshirish» nomi bilan 1628 yili nashr qilingan mashhur asarida ko'p kuzatishlarga va tajribalarga asoslainib, qon aylanishining katta va kichik doiralari haqida to'g'ri tasavvur bergen.

Qon aylanishining kashf etilishi fiziologiyaning rivojlanishi uchun kuchli turtki bo'ldi. Uni o'sha zamon g'oyatarida sodir bo'lган to'ntarish va usha zamon ijtimoiy hayotidagi hodisalar yig'indisi taqozo qilgan edi. XVII asming yamida Farangiston faylasufi Rene Dekart refleksni kashf etganligi fiziologiyaning rivojlanishi uchun katta ahamiyalga ega bo'ldi.

Dekartning taxminicha sezgi a'zolari ta'sirlanganda bosh miyaga boruvchi asab tolalari taranglashadi va miyaning ichki yuzasida joylashgan teshiklar ochilib, ular orqali miya qorinchalaridagi hayvon ruhlari chiqadi. Alanga zarrachasiga o'xshash bu «ruxlar» asablar orqali mushaklarga kelib, ularning qisqarishiga sabab bo'ladi. Dekartning bu «dualistik» falsafasi haqiqatdan ancha uzoq edi, uning qarashlari ancha sodda bo'lib ko'rinsa ham, Dekart reflektor

reaksiyasini va refleks vaqtida asab impulsi o'tadigan yo'lni tasvir etganligini tan olmay bo'lmaydi. "Refleks" iborasining o'ziga kelsak uni XVIII asr oxirida chex olimi G.Proxaska joriy qilgan[2]. Eraest Genri Starling mashhur ingliz fiziologi, London Universitetining professori, hazm va qon aylanish fiziologiyasi bo'yicha katta tadqiqotlar olib borgan. U ilk bor «gormon» iborasini ilmiy adabiyotga kiritgan, hamda yurak mushaki tolalarining qisqarish kuchi, ularning qisqara boshlashdan oldingi uzuniigiga bog'liq okanligini aniqlab "yurak qononi" ga asos solgan. Uning fikricha, diastola vaqtida mushaklar qancha cho'zilsa yurakning qisqarish kudii shuncha ortiq bo'ladi. XVIII asrning oxirlarida Italiya olimi L.Galvani "Hayvon elektri" haqidagi ta'limotni "Mushak harakatidagi elektr kuchlari to'g'risidagi traktat» degan mashhur asarida (1791) zamonaviy elektrofiziologiyaga asos soldi. Bu sohaning rivojlanishida K.Matteuchi, E.Dyubua-Raymon, E.Pflyuger, V.Yu.Chagoves, Yu.Bernshteyn va A.Xakslilarning xizjnati juda katla. XIX asrda asab faoliyatining reflektor nazariyasi yaratildi. XIX asr boshlarida miya reflekslari o'rganjildi va refleks yoyi tahlil qilindi: Fransua Majandi bilan logans Myuller markazdan qochuvchi va markazga intiluvchi tolalaming orqa miya ildizlarida tarqatishini aniqlashdi (Majandi qonuni). XIX asrning oxirlarida M.Flurans o'z ladqiqotlarida qushlarning bosb miya kaiia yarim sharlartni olib tashlab, sezgi. va ixliiyoriy harakatlaming keiib chiqishida shu yarimsharlarning rolini eksperimentda isbotlab berdi.

1863 yillardan boshlab «Bosh miya reflekslari» degan yirik asarini nashr qilgan rus fiziologiyasining otasi Ivan Mixaylovich Sechenovning ishlari juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, Ushbu kitobida I.M.Sechenov birinchi bo'lib oliy asab faoliyati fiziologiyasiga asos soldi.

Ulug' rus fiziologi, butun jaxon fiziologlaridan biri Ivan Petrovich Pavlov fiziologianing tivojlanishi larixida yangi davr ochdi. I.P.Pavlov organizmning fiziologik funksiyalarini uning levarak-atrofidagi .muhi! sharoiti bilan bog'lab yaxlit holda o'rganish kerak deb talab qildi va shu fikmi ilgari surdi. Odam va hayvon organizmining voqyelikni. aks euiruvchi oliy a'zo - bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining haqiqiy fiziologiyasi, I.P.Pavlovning Ia'rifi bilan aytganda, chinakam fmologiyasi shu tariqa vujudga keldi.

I.P.Pavlovning oliy asab faoliyati to'g'risidagi ta'limoti hozirgi psixologiya, pedagogika va falsafaning tabiiy-iltniy asnsidir. Bu ta'limot jismoniy tarbiya nazariyast uchun ..ham juda katta ahamiyalga egadir. Jtsmoniy tatbiya tadbirtari tizimi la'siri bilan murakkab jarayonlar va funksiyalarning qayta ko'rlishini I.P.Pavlovning oliy asab faoliyati asosidagina to'g'ri tahlil qilish mumkin. I.P.Pavlov hayvonlar bilan odamning oliy asab faoliyatini lekshirib, organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi bog'lanishning yangi shaklini - shartli reflekslarni kashf etdi.

I.P.Pavlov hayvonlar fiziologiyasi fani bilan shug'ullandi. Bu fan hayvon organizmidagi a'zolar faoliyatining asosiy qonanlarini o'rganadi. Ovqatlanish, nafas olish, qon aytanishi va shunga o'xshashlar tiriklikning alomatlaridir. Ammo fiziologiya butun organizm hayotini, uning tashqi muhitga munosabatini ham tekshiradiki, Pavlovni bu ham g'oyat qiziqtirar edi. Shu sababli bo'lsa kerak, daslabki vaqtarda I.P.Pavlov qon aylanish a'zolari fiziologiyasi, jumladan yurak faoliyatini tekshirishga kirdi. Odamlar ustida qilib bo'lmaydigan jarrohliklarni hayvonlarda qilib ko'rdi, chunonchi: qon tomirlarini bo'g'ib bog'lash, asablai^a eiektr energiyasi bilan ta'sir etish, yangi dori moddalarintng yurakka qanday la'sir etishini lekshirish maqsadida qonga shu moddalarni yuborish va boshqalar biian shug'ullandi. 1904 yilda maxsus qo'mita I.P.Pavlova, uning tibbiyotga katta yordam ko'rsatgan ovqat hazm qitish sohasidagi kashfiyollari uchun oliy halqaro ilmiy mukofotini -A.Nobel mukofotini berishga qaror qildi. Haqiqatda, Pavlov ovqat hazm qilish qonunlari ustida ishlab, faqat tibbiyotni emas, balki lirik tabiatning rivojianishiga xos umumiyl qonunlar haqidagf fanni ham ilgari surdi, boshqacha aytganda, u faqat fiziologgina emas, balki biolog ham edi.

I.P.Pavlov eriahgan yutuqlari bilangina qanoallanib qolmadni, u O'Z ishlarining natijalari haqida ajoyib ma'ruzalar qildi va shu bilan birga fiziologianing bundan ham qiziqroq sohasi-oliy asab faoltyati haqidagi ta'limoi borligini va o'zning kelgusi hayotini shu sohaga bag'ishlash niyatida ekanltgini aytди. Ovqat hazm qiltsh fiziologiyasi sohasida jahonga mashhur bo'lgan rus olimi nima sababdan o'z ilmiy tekshirishlari yo'nalishini to'satdan o'zgartirayotganini ko'p olimlar tushunmaydilar. Ammo I.P.Pavluv ular o'ylagandan butunlay boshqacha odam cdi.

Uning fikrini yangi masalalar va ilmiy g'oyatar band qildi. U hamma vaqt chet el fiziologlardan oldinda turar va eksperimental ilmiy lekshirishlar qilish uchun yangi sohalar izlar edi.

Vatanimiz olimlar uchun keng yo'l ochib qo'ygan va shuni etirof etish kerakki, mamlakatimizdagi fan turmushga ayamasdan lalfciq etilmoqda. Bizdagi o'z-o'zidan ayon-ku. Yosh olimlardan hyech narsa ayamaydi, lekin ko'p narsa takb qilinadi. Biz uchun ham, yoshlardan ham sharaflı masala. Vatanimizning fanga qo'ygan buyok ishonchini oqlashdir.

Shunday qilib, I.P Pavlovning ishlari - qon aylanish fiziologiyasi, ovqai hazm qilish fmologiyasi va miya fiziologiyasining eng sirli tomonlarini ochib tashlab, ularni tajribada lekshirish imkoniyatini tug'diradi va I.P.Pavlov bu masalalarning har btrini to'la-to'kis va mukammal yoritib beradi. Alloma, labialshunos olim, rus fmologiyasining iftixori va shon-shavkatni I.P.Pavlovning nomi jahon fiziologlari xotirasida abadiy qoladi.

XX asrning o'rtalarida markaziy asab tizimi quyi qismlarining fiziologiyasini o'rganishga katla hissa qo'shildi: asab markazlari haqidagi ia'limot rivojlantirildi, funksiyalar uyg'unlashuvi, ya'ni koordinasiyaning umumiy qonuniyatları, orqa miya, uzunchoq miya, o'rta miya, miyacha, po'stloq osti yadrolarida reflektor reaksiyalar o'tishining xususiyatlari o'rganildi (Angliyada Ch.S.Sherrington, Gollandiyada R.Magnus, Russiyada N.Ye.Vvedenskiy, A.A.Uxlomskiy, P.K.Anoxin, E.A.Asratyan, Gurjistonda I.S Beritashvili, AQShda J.Dyusser de Bareni, J.Fulton, Avslraliyada J.Ekkls va boshqalarning tadqiqotlari).

O'zbekistonda dastlabki fiziologik tadqiqotlar Turkision dorilfununining hayvonlar fiziologiyasi kafedrasining mudiri prof. E.F.Polyakov va shu oliyohi tibbiyol fakulteti qoshidagi me'yoriy fiziotogiya kaferfrasirmg mudiri prof. I.P. Mixaylovskiy rahbarlik qilishdi. Keyinchalik o'rta Osiy universitetining fiziologiya kafedrasiga prof. A.I.Izrael va prof.

A.S.Shatalina rahbarlik qildilar. Toshkent (ibbiyot instituti tne'yoriy fiziologiya kafedrasiga uzoq vaql prof. A.V. Danilov rahbarlik qildi, Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar rahbarligida o'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, professor Yunusov A.Yu., professorlar: I.G'.Azimov, K.T.Amatov, Sh.J.Allamuratov, R.N.Ahmedov, B.Z.Zaripov, E.S.Mahmudov, K.R.Rahimov. A.S.Sodiqov, Z.T.Tursunov, A.Q.Hamroqulov, A.H.Hoshimov, RJJabborov va boshqalar yetitik olimlar bo'lib yetishdilar.

50-60 yillarda Rossiya akademiyasiing akademigi A.M. Ugolev lomonidan ilk hor kashf elgan membrana (ichakkr shilliq pardasida ovqatning so'rilishi, hazmi) respublikamiz fiziologlari e'tiborini o'ziga jalb etdi. Akademik A.Yu.Yunusov tashabbusi bil&n professorlar K.R.Rahimov, B.Z.Zaripov, Z.T.Tursunov, B.S Sodiqov va boshqalar bu sohada itk bor o'tkazilgan tajribalar yuqori harorat ta'sirida membrana hazmi tezlashib, ichak bo'shlig'ida susaygan moddalar parchalanishining salbiy natijasini kamaytirishni ko'rsatdilar. Prof. X.Sh.Xayritdinov va prof. U.Z.Qodirov ham hazm tizimi fiziologiyasi ustida yirik izlanishlar olib borishdi.

## **2-Mavzu: Fiziologiyasining asosiy qonuniyatları va fiziologik tushunchalar**

### **Asosiy savollar:**

1. Organizm funktsiyalari
2. Fiziologik funktsiyalari
3. Organizm va tashqi muhit
4. Qo'zg'aluvchanlik, ta'sirlanuvchanlik, labillik, tinchlik va harakat potensiali.

### **Birinchi savol bayoni**

Fiziologiya tirik organizm va qismlarining fuiktsiyasini o'rganadi. Shuning uchun, fiziologiyani bayon qilishdan avval «organizm» va «funktsiya» tushunchalariga to'xtab o'tishimiz kerak. *Organizm* — organik olamning mustaqil yashay oluvchi, o'z-o'zini boshqara oluvchi va tashqi muhitning turli o'zgarishlariga bir butun sistema sifatida javob bera oluvchi birligidir. Organizm o'z atrofidagi tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir etib turgandagina yashay oladi va shunday o'zaro ta'sir natijasida o'z-o'zidan yangilanib turadi. I. M. Sechenov ta'kidlaganidek, «organizmning yashashiga yordam beradigan tashqi muhit bo'lmasa, organizmning bo'lishi mumkin emas». Har qanday organizmning xarakterli belgisi shuki, uning strukturalari muayyan tarzda tashkil topgan. Oddiy tirik organizmlar — viruslarda ularni tashkil qiluvchi oqsil molekulalari va nuklein kislotalar tashkil topgan, xolos. Bu erda *organizm tashkilotining molekulyar darajasi* haqida gapirish mumkin. Parametsiya singari ancha yuqori tashkil topgan bir hujayrali organizmlar murakkabroq strukturasi bilan ta'riflanadi: hujayra ichida yadro, mitoxondriyalar, yuza va protoplazma ichidagi membranalar, vakuolalar differentsiallanadi. Bu erda *organizm tashkilotining molekuladan yuqori, hujayra darajasi* bor, unda hujayra ichidagi har xil tuzilmalarning funktsiyalari differentsiallanadi (tabaqlananadi). Masalan, harakat funktsiyasini hujayra ichidagi qisqaruvchi fibrillalar, xivchinlar va kiprikchalar bajaradi; ba'zi hujayralarda ovqat hazm qilish va chiqaruv funktsiyalarini vakuolalar o'taydi va h. k.

Ko'p hujayrali organizmlarning evolyutsion rivojlanish protsessida hujayralar differentsiallanadi, ya'ni ularning kattaligi, shakli, tuzilishi va funktsiyasi farq qila boshlaydi. Bir xil differentsiallashgan hujayralardan *to'qimalar hosil bo'ladi*, hujayralarning tuzilish jihatdan birlashuvi, morfologik va funktsional xossalarning umumiyligi va xuayralarning uzaro ta'siri *to'qimalarning xarakterli belgisidir*. Turli *to'qimalar o'z funktsiyalariga ko'ra ixtisoslashadi*, ya'ni hayot faoliyatining turli protsesslarini bajarishga moslashadi. Masalan, muskul *to'qimasi* harakat funktsiyasini bajarishga ixtisoslashgan bo'lib, xarakterli xossasi qisqaruvchanlikdir, bsz *to'qimasi o'z hujayralarining ba'zi ximiyaviy birikmalar* (gormonlar, fermentlar va h. k.)ni hosil qilishi va ajratishiga ixtisoslashgan. *To'qimalarning yuksak darajada differentsiallashgan hujayralari faoliyatning muayyan turini bajarishga moslanish bilan bir qatorda hamma hujayralar uchun umumiyl funktsiyalar*: modda almashiiushi, ovqatlanish, nafas olish, chiqaruv funktsiyalarini ham bajaradi. *To'qimani hosil qilgan hujayralar o'zaro ta'sir etib turishi, to'qimalar tuzilishining murakkabligi va funktsiyalarining ixtisoslashgailigi* ularning morfologik va funktsional jihatdan o'ziga xos bo'lishini taqozo qiladi, bu esa tirik organizm *tashkilotining to'qima darajasi ajralib chiqishiga asos bo'ldi*.

Organizmlar taraqqiyoti (tur za individ rivojlanishi)ning ma'lum bosqichida turli *to'qimalardan tuzilgan organlar hosil bo'ladi*. *Organlar* — turli *to'qimalarning struktura va funktsiya jihatdan o'ziga xos birlashuvi bilan ta'riflanuvchi anatomik tuzilmadirlar*. Ular butun organizmniig yashashi uchun zarur faoliyatning murakkab turlarini bajarishga ixtisoslashgan ishchi apparatlardan iborat. Masalan, yurak qonni venalardan arteriyalarga haydovchi nasos vazifasini o'taydi, buyraklar modda almashinuvining oxirgi produktlarini organizmdan chiqarib tashlash va qondagi elektrolitlar kontsentratsiyasini doim bir xilda saqlash funktsiyalarini, ko'mik — qon yaratish vazifasini bajaradi.

Organizmda struktura va funktsiya jihatidan turlicha organlar mavjudligi organizm *tashkilotining organ darajasi* haqida gapirishga imkon beradi.

Faoliyatning biror murakkab aktini bajarishda qatnashuvchi organlar yig'indisidan anatomik yoki funktsional birlashma — organlar sistemasi vujudga keladi. Gavdaning barcha organlari faoliyatini boshqaruvchi nerv va endokrin sistemalar, lokomotsiya (fazoda siljish), nafas, qon aylanish, rvqat hazm qilish, chiqaruv, ko'payish organlarining sistemalari shular jumlasidandir. Organizmdagi boshqa hamma sistemalarning holatini va faoliyatini birlashtirib, boshqarib turadigan va uning tashqan muhitda yurish-turishini belgilab beradigan nsrv sistemasi alohida rol o'yaydi. Yaxlit organizm faoliyatining biror turini bajarishga ixtisoslashgan organlar sistemasining mavjudligi *tashkilotning sistema darajasini* belgilab beradi.

Tirik organizmlar tashkilotining sanab o'tilgan har bir darajasi faqat shu darajaga xos bo'lган va boshqa darajalarni o'rganish orqali tushunib bo'lmaydigan fiziologik qonuniyatlar bilan ta'riflanadi. Tirik organizm tashkilotining turli darajalari — molekula, hujayra, to'qima, organ, sistema darajalarini o'rganish va shunda tadqiqotchilar oladigan barcha ma'lumotlarni sintezlash zarurki, buni uqtirib o'tmoq kerak. Sababi shuki, murakkab tuzilgan (murakkab tashkilotga ega bo'lган) tirik *organizm — bir butun yaxlit mavjudotdir*, unda barcha strukturalar, hujayralar, to'qimalar, organlar va ularning sistemalari bir-biriga uyg'un bo'lib, butun, yaxlit organizmga bo'ysungan.

### ***Ikkinchı savol bayoni***

*Fiziologik funktsiyalar* — hayot faoliyatining moslanish uchun ahamiyatli belgilaridir. Organizm turli funktsiyalarni o'tay turib tashqi muhitga moslashadi yoki muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Hujayra, to'qima, organ yoki organizmning har qanday fiziologik funktsiyasi tirik mavjudotlarning tur yoki individda rivojanishi tarixi — filogenez va ontogenezning natijasidir. Bu rivojanish protsessida tirik strukturalarning muayyan funktsiyalari paydo bo'ladi va ular miqdor hamda sifat jihatidan o'zgaradi. Modomiki shunday ekan, har bir ayrim funktsiyaning vujudga kelishi va rivojanishini, ya'ni funktsiogenezni o'rganish fiziologiyaniig muhim vazifasidir. *Modda va energiya almashinuvi* tirik organizmning asosiy funktsiyasidir. Bu protsess organizmda va uning barcha strukturalarida doimo va beto'xtov ro'y berib turuvchi ximiyaviy va fizikaviy o'zgarishlardan, moddalar o'zgarishidan va energiya almashinuvidan iborat. Moddalar almashinuvi, yoki *metabolizm* hayotning zarur shartidir. Tirik o'likdan, tirik mavjudotlar olami anorganik olamdan moddalar almashinuvi bilan farq qiladi. Anorganik olamda ham moddalar o'zgarib va energiya almashinib turadi, biroq tirik organizm bilan o'lik tabiatda bu protsesslar bir-biridan printsipial farq qiladi. Bu farqiing mohiyatini F. Engels «Tabiat dialektikasi»da juda yaxshi ta'riflab bergan: «Anorganik jismlarda ham moddalar shunday almashinuvi mumkin, aslda hamma erda ximiyaviy ta'sirlar garchi juda sekin bo'lsada voqe bo'lgani uchun hamma erda-ham moddalar shunday almashinib turadi. Biroq farq shundaki, anorganik jismlarda moddalar almashinuvi ularni parchalaydi, organik jismlarda esa moddalar almashinuvi ularning yashashi uchun zarur shartdir». Moddalar almashinuvi tirik protoplazmaning yashashiga srdam beradi va uning o'zidan yangilanib turishiga sabab bo'ladi, moddalar almashinib turar ekan, hayot ham mumkin bo'ladi. Moddalar almashinuvining to'xtashi oqibatida organizm o'ladi, protoplazma emirilib ketadi, protoplasmaga xarakterli bo'lган ximiyaviy birikmalar, avvalo oqsil birikmalar parchalanib, hech avvalgi holiga qaytmaydi. Qolgan barcha fiziologik funktsiyalar — o'sish, rivojanish, ko'payish, ovqatlanish va ovqatni hazm qilish, nafas olish, sekretsiya va hayot faoliyati tashlandilarini chiqarish, harakat, tashqi muhitning o'zgarishiga javoban ro'y beruvchi reaktsiyalar va shu kabilar mudda almashinuviga bog'liq. Har qanday fiziologik funktsiya moddalar bilan energiya almashinuvining ma'lum yigindisiga asoslanadi. Bu so'z ayrim hujayra, to'qima, organ yoki butun organizmning funktsiyalariga birday taalluqli.

Har qanday funksiya bajarilayotganda organizm hujayralaridagi fizik-ximiyaviy protsesslar va ximiyaviy o'zgarishlar natijasida struktura o'zgarishlari ro'y beradi. Ba'zan bu o'zgarishlarni mikroskopik tekshirishda aniqlasa bo'ladi. Bunda tsito- va gisto ximiyaviy usullar qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu usullarning mohiyati shundaki, hujayra va to'qimalarda ba'zi moddalarning joylashuvi hamda turli funksiya bajarilastganda shu moddalarning o'zgarishi maxsus reaktivlar bilan aniqlanadi. Hujayra strukturasing o'zgarishini ba'zan optik mikroskopda aniqlab bo'lmaydi, chunki bunday o'zgarishlar submikroskopik (ya'ni optik mikroskopda ko'rish mumkin bo'lgan chegaradan tashqarida) bo'ladi. Ajrim qiluvchi qobiliyati optik mikroskopnikiga nisbatan kattaroq bo'lgan elektron mikroskop bunday o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi (elektron mikroskop tasvirpi 100 000 — 200 000 marta kattalashtiradi). Muskul qisqargan vaqtida muskul hujayrasida, nerv oxiri nerv impulsini nervlanuvchi organga o'tkazayotganda shu nerv oxirida ro'y beruvchi submikroskopik o'zgarishlarni elektron mikroskopda kuzatish mumkin bo'ldi. Har qanday fiziologik funksiya hujayra strukturasing o'zgarishiga chambarchas bog'liq degan tasavvur gisto ximiyaviy va elektronmikroskopik tekshirishlar oqibatida tasdiqlandi. Strukturaning o'zgarishlari qaytar, tez tiklanadigan bo'ladi. Ayrim hollardagipa ular qaytmas o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Misol uchun sekretsiya (ya'ni hujayradan turli moddalar chiqishi)ning ikki turi mavjudligini ko'rsatamiz: ulardan birida hujayra muayyan moddalarni chiqorganiga qaramay butun qoladi, ikkinchisida hujayra qisman yoki butunlay parchalanadi.

Organizm, uning organ va hujayralari bajaradigan turli funktsiyalarga asos bo'lувчи protsesslarning tabiatini tushunish uchun modda va energiya almashinuvining g'oyat qisqa vaqt (millisekundlar va hatto mikrosekundlar) ichidagi juda kichik o'zgarishini o'rganish juda muhim. Buning boisi shuki, hujayralarning ko'nchilik muhim funktsiyalari miqdor jihatidan juda kichik bo'lgan shu protsesslarga bogliq. Modomiki shunday ekan, juda kichik miqdordagi va tez o'tuvchi fizikaviy va ximiyaviy protsesslarni aniqlashga imkon beruvchi sezgir va aniq tekshirish usullarini ishlab chiqish fiziologiya uchun g'oyat muhim. Olimlarni yangi tekshirish usullari bilai qurollantirgan fizika, ximiya va texnikaning zamonaviy muvaffaqiyatlaridan foydalaniш fiziologiyaga shu jihatdan juda ko'p yangilik berdi. Masalan, temperaturani o'lchashda elektr usullarining sezgirligini oshirib, nerv tolasidan bir nerv impulsi o'tayotganida qancha issiqlik hosil bo'lishi aniqlandi; bunda temperatura atigi  $2 \cdot 10^{-6}$  (1 gradusning ikki milliondan bir bo'lagi!) qadar ortadi. Nerv impluslarining o'tishi moddalar almashinuvining oz bo'lsada kuchayishiga bog'liq ekanligi shu tariqa ko'rsatib berildi. Elektron kuchaytirgich va ostsillograflarniig qo'llanilishi tufayli nerv tolalari va ularning oxirlarida mikrovoltlarga teng keladigan elektr potentsiallari farqini o'lchash va shu yo'l bilan organizm to'qimalariga ba'zi nervlarning ta'sir etish mexanizmini aniqlash mumkin bo'ldi. Ximianing yangi usullari organizmda oz miqdorda hosil bo'lувчи va unga  $1 \cdot 10^{-8}$  koitsentratsiyada ta'sir ko'rsatuvchi qo'pchilik ximiyaviy birikmalarining strukturasingi aniqlash imkonini yaratdi, buning natijasida organizmdagi hujayra va to'qimalarning o'zaro ximiyaviy ta'sirini chuqurroq tushunish mumkin bo'ldi. Organizm funktsiyalari ximiyaviy, fizikaviy, shu jumladan, mexanik o'zgarishlarda namoyon bo'lishi bilan birga, ularni ana shu o'zgarishlarning birortasidan iborat deb bo'lmaydi, chunki hayotiy funktsiyalar ximiyaviy, fizikaviy protsesslarning o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab majmuasi, birligidan iborat. Fiziolog har qanday tirik ob'ekt — ayrim hujayra yoki yuksak darajadagi murakkab o'r gan i z m n i o ' r g a n a r e k a n , f i z i k a v i y , x i m i y a v i y va morf o l o g i k t e k s h i r i s h l a r d a o l i n g a n m a ' l u m o t l a r n i sintezlashi lozim, chunki organizm mexanika, fizika va ximiyani o'zida, bir butun qilib birlashtiruvchi oliv birlikdir» (F. Engels).

### *Uchinchi savol bayoni.*

Har qanday organizm — hoh bir hujayrali bo'lsin, hoh ko'p hujayrali bo'lsin — yashash uchun muayyan sharoitga muhtoj. Muayyan turdag'i organizm o'zining evolyutsion rivojlanish yo'lida qaysi hayot muhitiga moslashgan bo'lsa, o'sha muhit hayot sharoitini muhayyo qilib

beradi. Organizm moddiy va energetik sarflarini to'ldiradigan ovqat olishi uchun tashqi muhit imkoniyat bergandagina va organizm o'zi uchun zarur suvli yoki havoli muhitda yashab, ma'lum temperatura, barometrik bosim, yorug'lik intensivligi va spektri va shu kabilar mavjud bo'lgandagina uning (organizmning) funksiyalari normal ravishda ro'yobga chiqishi mumkin. Turli organizmlarning sanab o'tilgan tashqi muhit faktorlariga moslashish formalari va muhit bilan o'zaro munosabatlari g'oyat turlichadir. Masalan, hayvon organizmlari organik oziq moddalarga muhtoj bo'ladi va anorganik moddalardan murakkab organik birikmalarni sintezlay olmaydi. Yashil o'simliklar esa, aksincha, eng muhim biologik protsess — *fotosintez* davomida anorganik moddalardan organik moddalarni sintezlay oladi. Hayvon za o'simlik organizmlarining tashqi muhitga munosabatidagi shu tafovut borligidan, tirik tabiatda moddalar aylanib turadi. Usimlik organizmlari ildizlari orqali tuproqdan anorganik azotli birikmalar (ammiak, selitra)ni olib, azotli oqsil moddalarni sintezlaydi. Hayvon organizmlari esa anorganik azotli birikmalardan oqsillarni sintezlay olmaydi. Hayvon xujayralarida oqsillar faqat ovqat bilan olinadigan amminokislotalardan yaratiladi. Hayot faoliyati protsessida, dezaminlanish va dekarboksillanish natijasida aminokislotalar mudom parchalapib, oddiyroq azotli birikmalar (ammiak, mochevina va b.) xoeil bo'lib turadi. Usimliklar va ba'zi mikroorganizmlar oqsil birikmalarni sintezlash uchun o'sha oddiyroq azotli birikmalardai foydalanadi. Ko'pchilik hayvoilarping hujayralari aeroblardir, ya'ni ular oziq moddalarning suv va karbonat angidridgacha oksidlanishi uchun zarur bo'lgan molekulyar kislorodga muhtoj bo'ladi, bu gaz organizmga tashqi muhitdan kirib turadi. Ba'zi organizmlar *anaeroblaroir*; ular erkin kislorodga muhtoj bo'lmaydi; bu gazdan foydalanmaydi, erkin kislorod ularga hatto zarar qiladi. Ular hayot faoliyati uchun zarur energiyani oziq moddalarni anaerob (kislorodsiz) sharoitda parchalash yo'li bilan oladi. Turli organizmlarning temperatura, barometrik bosim, havo namligi va suvli muhitdagi elektrolitlar miqdoriga munosabati turlicha. Masalan, organizmlarning ba'zi turlari faqat daryo va ko'llarning chuchuk suvida yashay oladi (chuchuk suvdagi tuz miqdori 0.1% dan oshmaydi), boshqa organizmlar esa faqat dengiz suvida yashaydi deigiz sushpshpg tarkibida 3% ga yaqin elektrolit bor). Tashqi muhitning har xil o'zgarishlari: oziq moddalarning miqdori va tarkibi, havo tarkibi — kislorod va karbonat angidrid, suvdagi elektrolitlar tarkibi va ko'ptsentratsiyasi, temperatura va barometrik bosim, yorug'likning spektri va intesivligining o'zgarishi, shuningdek muhitda zaharli moddalar borligi radioaktiv nurlanish va shu kabilar fiziologik funksiyalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu faktorlarning ba'zilari fiziologik protsesslarga xush kelsa, boshqalari bu protsesslarni susaytiradi va organizmni halokatga olib keladi. Oroganismning hayot faoliyati tashqi muhitning ma'lum sharoitidagina normal borishi mumkin. Bu sharoit o'zgarishining yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegarasi uncha katta emas, ya'ni sharoit bir qadar doimiy bo'lishi shart. Shu bilan birga, yuksak hayvonlar toqat qila oladigan tashqi muhit sharoitining o'zgarish chegarasi undagi aksari hujayralarning normal ishlashi uchun zarur chegaradan ancha kengligini nazarda tutish lozim. Bunga sabab shuki, organizm hujayralari tashqi muhitga nisbatan ozroq o'zgarib turadigan ichki muhitda yashaydi. *Ichki muhit* — qon, limfa va organizm hujayralarini yuvib turadigan to'qima suyuqlig'idir.

## GOMEOSTAZ

Yuksak hayvonlar organizmida tashqi muhitning ko'pchilik ta'siriga qarshi turuvchi, hujayralarning yashash sharoiti bir qadar doimiy bo'lishini ta'minlovchi moslanishlar vujudga kelgan. Bu bir butun organizmning hayot faoliyati uchun juda muhim ahamiyatga ega. Misollar bilan ko'rsataylik. Issiq qonli, ya'ni gavda tsmperaturasi doimiy bo'lgan hayvonlarning hujayralari temperatura chegaralari tor (odamda 36—38° atrofida) bo'lgan sharoitda normal ishlaydi. Temperaturaning bu chegaralardan chiqib ketishi hujayralar hayot fao-liyatining buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga issiq qonli hayvonlar organizmi tashqi muhit temperaturasi ancha o'zgargan sharoitda yashay oladi. Masalan, kutb ayigi —70° va Q20° — 30° temperaturada ham yashayveradi. Buning boisi shuki, bir butun organizmning atrof muhit bilan issiqlik almashinishi, ya'ni issiqlik hosil bo'lishi (issiqlik ajralishi bilan davom etuvchi

ximiyaviy protsesslarning intensivligi) va issiqlik chiqib ketishi boshqarilib turadi. Masalan, tashqi muhit temperaturasi past bo'lganda issiqlik ko'proq hosil bo'ladi, issiqlik chiqib ketishi esa kamayadi. Shuning uchun tashqi temperatura bir qadar o'zgarganda gavda temperaturasi doimo bir darajada turaveradi. Organizm hujayralaridagi elektrolitlar va suv miqdorining doimiyligi tufayli osmotik bosim bir qadar doimiy bo'lgandagina hujayralar normal ishlay oladi. Osmotik bosimning o'zgarishi — ortishi yoki kamayishi — hujayra funksiyalari va sturukturasining buzilishiga olib keladi. Organizm bir butun bo'lgani uchun ortiqcha suv kirganda ham, suvdan mahrum bo'lganda ham, ovqatdagi tuzlar miqdori ko'p yoki kam bo'lganida ham ma'lum vaqt yashay oladi. Buning boisi shuki, gavdada suv va elektrolitlarning doim bir xil miqdorda turishiga yordam beruvchi moslamalar bor. Suv ortiqcha kirganda ortiqchasi chiqaruv organlari (buyraklar, ter bezlari, teri) orqali orgaiizmdan tez chiqib ketadi, suv etishmaganda esa gavdada ushlab qolinadi. Chiqaruv organlari organizmdagi elektrolitlar miqdorini shu yo'l bilan boshqarib turadi: chiqaruv organlari ortiqcha suvni tez chiqarib yuboradi yoki organizmga tuzlar etarli kirmaganda ularni organizm suyuqliqlarida ushlab qoladi. Bir tomondan qon va to'qima suyuqlig'idagi, ikkinchi tomondan hujayralar protoplazmasidagi ayrim elektrolitlar kontsentratsiyasi turlicha. Qon va to'qima suyuqlig'ida natriy ionlari ko'proq, hujayra protoplazmasida esa kaliy ionlari ko'proq. Qaliy ionlarini hujayra ichida ushlab turadigan, natriy ionlarining hujayrada to'planishiga yo'l qo'ymaydigan maxus mexanizm borlididan, hujayra ichi va sirtidagi ionlar kontsentratsiyaei farq qiladi. Tabiat hali aniqlanmagan bu mexanizm natriy-kaliy nasosi deb atalgan, u hujayradagi modda almashinuvi protsessi bilan bog'langan. Organizm hujayralari vodorod ionlari kontsentratsiyasining o'zgarishiga juda sezgir. Bu ionlar kontsentratsiyasining biror tomonga o'zgarishi natijasida hujayralarning hayot faoliyati keskin darajada buziladi. Organizmning ichki muhitiga vodorod ionlari kontsentratsiyasining doimiyligi xarakterli bo'lib, bu doimiylik qon va to'qima suyuqlig'ida bufer sistemalar borligiga (50-bet) hamda chiqaruv organlarining faoliyatiga bog'liqdir. Qonda kislotalar yoki ishqorlar ko'payib ketganda organizmdan tezda chiqarib yuboriladi va shu yo'l bilan ichki muhitdagi vodorod ionlari kontsentratsiyasining doimiyligi saklanadi. Hujayralar, ayniqsa nerv hujayralari, kondagn qand miqdorining o'zgarishiga juda sezgir, qand esa muhim oziq modda bo'lib xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, qondagi qand miqdorining doimiyligi hayot faoliyati protsesslari uchun katta ahamiyatga ega. Qondagi qand ko'payib ketganda jigar va muskullarda undan polisaxarid— *glikogen* sintezlanadi, bu modda hujayralarda to'planadi, qondagi qand kamayganda esa, aksincha, glikogen jigar va muskullarda parchalanib, uzum shakari hosil bo'ladi, bu modda qonga o'tadi. Ichki muhit ximiyaviy tarkibi va fizik ximiyaviy xossalaring doimiyligi yuksak hayvonlar organizmining muhim xususiyatidir. Bu doimiylikni ifodalash uchun U. Qennon keng tarqalgan *gomeostaz* ibrasini taklif qilgan. Bir qancha *biologik konstantalar*, ya'ni organizmning normal holatini xarakterlovchi barqaror miqdoriy ko'rsatkichlar mavjudligi gomeostazning ifodasi. Bunday barqaror ko'rsatkichlarga: gavda temperaturasi, qon va to'qima suyuqlig'inining osmotik bosimi, ulardagi natriy, kaliy, kaltsiy, xlor va fosfor ionlari, shuningdek oqsillar bilan qand miqdori, vodorod ionlari kontsentratsiyasi va boshqalar kiradi. Ichki muhit tarkibi, fizik-ximiyaviy va biologik xossalari doimiyligi mutlaq bo'lmay, balki nisbiy va dinamik ekanligini uqtirib o'tish lozim. Bu doimiylikka bir qancha organ va to'qimalarning beto'xtov ishlashi tufayli erishiladi: tashqi muhit o'zgarishlarining ta'sirida va organizm hayot faoliyati natijasida ichki muhit tarkibi va fizik-ximiyaviy xossalarda ro'y beradigan o'zgarishlar bir qancha organ va to'qimalarning beto'xtov ishlashi tufayli baravarlanib qoladi. Gomeostazniga saqlanib turishida turli organlar va ularning sistemalari turlicha rol o'ynaydi. Masalan, ovqat hazm qilish organlari oziq moddalarning organizm hujayralari foydalana oladigan shaklda qonga kirishini ta'minlaydi. Qon aylanish sistemasi organlari qonni to'xtovsiz harakatlantirib va organizmda turli moddalarni tashib turadi, natijada oziq moddalar, kislород va organizmning o'zida hosil bo'luchchi turli ximiyaviy moddalar hujayralarga keladi, hujayralardan ajralib chiqadigan tashlandilar (parchalanish mahsulotlari), shu jumladan, karbonat angidrid ularni organizmdan chiqarib yuboradigan organlarga keladi. Nafas organlari qonga kislород

kirishini va organizmdan karbonat angidridning chiqarib yuborilishini ta'minlaydi. Jigar va boshqa bir qancha organlar ko'pchilik ximiyaviy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi — hujayralarning hayot faoliyatida ahamiyati bo'lgan ximiyaviy birikmalarni sintezlaydi va parchalaydi. Chiqaruv organlari — buyraklar, o'pka, ter bezlari, teri — organik moddalar parchalanishining oxirgi mahsulotlarini organizmdan chiqarib yuboradi va qondagi, demak, to'qima suyuqlig'idagi va organizm hujayralaridagi suv bilan elektrolitlar miqdori doimiyligini saqlab turadi. Gomeostazning saqlanishida nerv sistemasi juda muhim rol o'ynaydi. Nerv sistemasi tashqi va ichki muhitning turli o'zgarishlariga hushyorlik bilan reaksiya ko'rsatib, organlar bilan sistemalar faoliyatini shunday boshqaradiki, organizmda ro'y berayotgan va ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarish va buzilishlarning oldi olinadi va to'g'rilanadi. Organizm ichki muhitining nisbiy doimiyligini ta'minlaydigan moslamalar rivojlangani tufayli, organizm hujayralari tashqi muhitning o'zgaruvchan ta'sirlarini unchalik, pisand qilmaydi. Kl. Bernar ta'biri bilan aytganda, «ichki muhit doimiyligi erkin va mustaqil hayot shartidir». Gomeostazning muayyan chegaralari bor. Organizm qaysi sharoitga moslashgan bo'lsa, o'sha sharoitdan ancha farq qiluvchi sharoitda ayniqsa uzoq turganda gomeostaz buzilib, normal hayotga imkon bermaydigan katta o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Masalan, tashqi temperatura o'zgarganda (oshganda yoki kamayganda) gavda temperaturasi ko'tarilishi yoki pasayishi, organizm qizib ketishi ski sovib qolishi, oqibatida esa haloq bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek, organizmga suv va tuzlar kirishi juda kamayganda yoki u mazkur moddalardan tamomila mahrum bo'lganda ichki muhit tarkibi va fizik-ximiyaviy xossalaring nisbiy doimiyligi bir necha vaqtdan keyin buzilib, organizm yashashdan to'xtaydi. Tur va individ rivojlanishining muayyan bosqichlaridagina gomeostaziing yuksak darajasi vujudga keladi. Tuban darajadagi hayvonlarda tashqi muhit o'zgarishlarining ta'sirini kamaytiradigan yoki barataraf qiladigan moslamalar etaricha rivojlangan emas. Masalan, gavda temperaturasi issiqliqonli hayvonlardagina nisbiy doimiy bo'ladi (*gomoyotermiya*). Sovuqliqonli hayvoilarning gavda temperaturasi tashqi muhit temperaturasiga yaqin bo'lib, o'zgarib turadi (*poykilotermiya*). Yangi tug'ilgan hayvonning gavda tempsraturasi, ichki muhit tarkibi va fizik-ximiyavii xossalari voyaga etgan organizmdagi kabi doimiy emas. Gomeostaznint hatto salgina buzilishi ham patologiyaga olib keladi, modomiki shunday ekan, gavda tsmperaturasi, qonning arterial bosimi, tarkibi, fizik-ximiyaviy va biologik xossalari va shunga o'xshash nisbiy doimiy fiziologik ko'rsagkichlarni aniqlash kasallikkarni aniqlash (diagnostika) uchun katta ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:** *qo'zg'aluvchanlik, ta'sirlanuvchanlik, labillik, tinchlik va harakat potensiali.*

#### *To'rtinchi savol bayoni.*

Ba'zi hujayra va to'qimalar (asab, mushak, bez to'qimalari) turli ta'sirotlarga tez reaksiya ko'rsatishga mahsus moslashgan. Bunday hujayra va to'qimalar qo'zg'aluvchan deb ataladi, ularning ta'sirotga qo'zg'alish bilan javob qaytarish qobiliyati esa qo'zg'aluvchanlik deb yuritiladi.

Ta'sirlovchining qo'zg'alishiga sabab bo'ladigan minimal kuchi qo'zg'aluvchaniik o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Ta'sirotning shu minimal kuchi ta'sirot bo'sag'asi deb ataladi. Reaksiyalarni yuzaga chiqarish uchun zarur ta'sirolning minimal kuchi qancha katia bo'lsa, ya'ni ta'sirot bo'sag'asi qancha yuqori bo'lsa, qo'zg'aluvchanlik o'shancha tezroq paydo bo'ladi va aksincha, ta'sirot bo'sag'asi qancha past bo'lsa, qo'zg'aluvchanlik o'shancha kechroq paydo bo'ladi. Qo'zg'aluvchan hujayralar uchun ta'sirlovchilarning ta'siriga o'ziga xos javob beradigan qobiliyati bor, ularda maxsus fiziologik jarayon -qo'zg'alish ro'y beradi.

Qo'zg'alish fizikaviy va kimyoviy jarayonlar va funksional o'zgarishlar yig'indisida namoyon bo'ladigan murakkab to'lqinsimon biologik reaksiyadir. Qo'zg'alish jarayoaida hujayra membranasining bioelektrik jarayonlari o'zgaradi, hujayra fiziolgik linchlik holatidan shu hujayraga xos fiziologik faol holatiga o'tadi: mushak qisqaradi, bez hujayrasi sekret chiqaradi, asab impulslari paydo bo'ladi. Qo'zg'aluvchan hujaylarda uning sitoplazmasi bilan tashqi muhit o'rtasida, ya'ni hujayra membrananing ikkala tomonida biopotensiallari doim farq

qiladi. Hujayra membranasi shu tariqa qutblangan (polarizalsiyalangan) - ichki yuzasi tashqi yuzasiga nisbatan manfiy zaryadli. Shu potensiallar farqini membrana potensiali deb atashadi. Bu farq bir necha o'n millivoltga mos keladi. Har qanday organizm va uning barcha hujayralari ia'sirlanuvchan bo'ladi, ya'ni tashqi muhit ta'sir etganda yoki hoiati buzilganda o'z strukturasini o'zgartirish, aktiv faoliyat ko'rsatish, bu faoliyatni kuchaytirish yoki susaytirish bilan javob beradi. Turli ta'sirlarga javoban organizm va hujayralari strukturasingning o'zgarishini biologik reaksiyalar, ularni vujudga keltiradigan va yuzaga chiqaradigan ta'sirlarni esa ta'sirlovchi yoki stimullar deb yuritishadi. Tashqi muhitning yoki organizm ichki holatining har qanday o'zgarishi yetaricha katta bo'lsa, u yetaricha tez ro'y bergan bo'lsa va uzoq davom etsa, tirik hujayraning yoki butun organizmnuig ta'sirlovchisi bo'la otadi. Odamda reaksiyalarning maxsus tip-reflekslar rivojlangan. Sezuvchi asab oxirlari-reiseptorlarning ta'sirlanishga javoban albatta asab tizimining ishtiroki bilan organizmda ro'y beradigan reaksiyalar reflekslar deb ataladi. Asab hujayrasi **neyron** deb ataladi. Neyronlar quyidagicha bo'linadi: 1) sezuvchi yoki tetseptor neyronlar, 2) ijrochi yoki effektor neyronlar va 3) kontakt neyronlar.

Turli relseptorlar o'zları uchun adekvat bo'lgan ta'siriovchilarni sezishga moslashgan.

Retseptorlarning quyidagi turlari bor: 1) mexanoretseptorlar: a) tegishni sezadigan-turlari - taktit retseptori; b) cho'zilish va bosilishni sezadigan -pressoretseptorlar va baroretseptortar; v) tovush tebranishlarini sezadigan -fonoretseptorlar: 2) tezlanishni sezadigan-akselleretseptorlar, yoki vestibuloretseptorlar; 3) xemoretseptorlar muayyan kimyoviy moddalarning ta'sirini sezadi; 4) termoretseptorlar harotat o'zgarishini sezadi; 5) osmoretseptorlar osmotik bosimining o'zgarishini sezadi.

Tashqi muhitdan keluvchi ta'sirotlami sezadigan retseptorlar: tovush tebranishlarini, yorug'lik ta'sirini sezadigan retseptorlar, hid bilish, ta'm bilish retseptorlari, harorat o'zgarishini sezadigan va taktil retseptorlar tana sirtiga yaqin joylashgan bo'lib, eksteroretseptorlar deb ataladi. Organizm ichki muhiti, a'zolar holati va faoliyatining o'zgarishiga aloqador o'zgarishlarni sezadigan retseptorlar interoretseptorlar deb ataladi. Skelet mushaklaridagi retseptorlar -proprioretseptorlar ham interoretseptorlarga kiradi.

Asab hujayralarining periferiyadan (tanani turli qismlaridan) markaziy asab tizimiga qo'zg'alish o'tkazadigan shu o'siqlari markazga intiluvchi, yoki afferent tolalar deb ataladi. Effektor neyronlar periferiyaga boradigan o'siqlari markazdan qochuvchi yoki efferent tolalar orqali impulslar o'tkazadi, bular esa turli a'zolar holati va faoliyatini o'zgartiradi[3].

Skelet mushaklarining qisqarishtga sabab bo'ladigan harakatlantiruvchi (motor) neyronlarining bir qismi efferent tolalari markaziy asab tizimida -bosh miyada va orqa miyada bo'lib, har bir neyrondan periferiyaga faqat bitta o'siq ketadi.

Kontakt neyronlar markaziy asab tizimida bo'lib, turli neyronlarni bir-biriga bog'lash funksiyasim o'taydi. Kontakt neyronlar asab impuislarini bir xil neyronlardan ikkinchi xil neyronlarga o'tkazib beruvchi rele stansiyalari desa bo'ladi.

### **3.Mavzu: Qon sistemasi fiziologiyasi. Qon, limfa va to'qima suyuqligi.**

#### **Asosiy savollar.**

1. Qonning asosiy faoliyati, mikdori uning xajmi va tarkibi.
2. Qonning fizik-kimyoviy xossalari. Qonning bufer faoliyati.
3. Plazma va qonning shaklli elementlari.
4. Limfatik tizim va qonning himoya faoliyati. Immunitet.
5. Qon guruhlari. Rezus omil.

#### **Birinchi savol bayoni**

Odam va hayvonlarning ichki muhit suyuqliklariga — qon, limfa, to'qima suyuqligi va boshqa biologik suyuqliklar kiradi. Ular orgaizmda almashinuv reaksiyalarini amalga oshirishda qatnashadi. Hujayralar o'zining protoplazmasida va atrofidagi suyuqlikda harorat, bosim, ozik moddalar, vodorod va kislород ionlari hamda boshqa moddalar miqdori nisbatan doimiy saqlangandagina faoliyat kursatishi mumkin. Ichki muhit dinamik doimiylik yani gomeostaz bilan xarakterlanadi va bu hol organizmning hayot faoliyatida muhim rol uynaydi.

Ichki muhit suyuqliklari orasida eng muhimi qon hisoblanadi va undan boshqa suyuqliklar paydo bo'ladi. Qon va boshqa suyuqliklar o'rtasida doimiy ravishda modda almashinushi sodir bo'lib turadi. qon tizimiga, qonning o'zidan tashqari qon yaratilishini ta'minlaidigan tuzilmalar, qonning emirilishida ishtirok qiluvchi a'zolar va bu jarayonlarni boshqaruvchi mexanizmlar kiradi. Umurtqali hayvonlarning qon hujayralari, asosan, suyak kumigida hosil bo'ladi va shu erda eritrotsitlarning emirilishi, ulardagi temidan qayta foydalapish hamda gemoglobin sintezi ham sodir bo'ladi. Qarib qolgan eritrotsitlarning qondan ajratib olinishi va qayta ishlanishi taloq faoliyatiga bog'liq. Limfa tugunlarida oq qon tanachalari rivojlanib etiladi, bu jarayonda taloqda timus ham ishtirok qiladi. Qon tizimi faoliyatini boshqarishda maxsus gumoral omillar eritropoetinlar, leykopoetinlar va trombopoetinlarning ahamiyati katta. Mediatorlar — atsetilxolin va adrenalin, nafaqat qonning shaklli elementlarini qayta taqsimlashga, balki hujayralarning xolino va adrenoretseptorlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish bilan ham qon tizimi faoliyatiga ta'sir qiladi. Asab tizimi ham bu jarayonlarni boshqariha ishtirok qiladi.

Qonning asosiy funktsiyalari. Qon organizmning asosiy transporg tizimi hisoblanadi. Qon plazma va shaklli elementlardan tashkil topgan suyuq to'qimadir. Qon orqali tashiluvchi moddalarning tabiatи va ahamiyatiga qarab, qonning quyidagi: nafas oldirish, oziklantirish, ekskretor, boshqaruv, kreator boshqarishlarni ta'minlash, gomeostatik haroratni boshqarish va himoya faoliyatları farqlanadi. Gazlar almashinushi, o'pka va to'qimalarda partsial bosimning farqi borligiga asoslangan bo'lib, uning oqibatida gazlarning diffuziyasi sodir bo'ladi. Kislород va karbonat angidrid, asosan, bog'langan holatda va kichik mikdorda erigan gaz ko'rinishida bo'ladi. Kislород qayta o'girilish imkoniyatiga ega holda, nafas pigmenti — gemoglobin bilan, karbonat angidrid esa — suv, qonning asoslari va oksillari bilan bog'lanadi. Azot qonda faqat erigan holda bo'ladi va uning miqdori, hajmi bo'yicha, 1,2 % ni tashqil qiladi. Oziklantirish faoliyati oziq moddalarni hazm tizimi a'zolaridan to'qimalarga etkazib berishdan iborat. Iste'mol qilingan ovqat tarkibidagi murakkab polimer moddalar me'da va ingichka ichakda enzimlar ta'sirida parchalanib, so'rilishi mumkin bo'lgan sodda monomer moddalarga, ya'ni glyukoza, fruktoza, galaktoza, aminokislolar, tuzlar va suvda eruvchi boshqa moddalarga aylanadi va aynan shu moddalar, ichak vorsinkalarining kapillyarlari orqali qonga so'riladi. Ekskretor faoliyat tufayli moddalar almashinushi natijasida xosil bo'lgan koldik moddalar yoki organizmga kirib qolgan boshqa keraksiz moddalar chiqarib tashlanadi. Shu bilan birga ortikcha iste'mol qilingan suv, tuz va oziq moddalarni chiqarib tashlashni ham ekskretor faoliyat ta'minlaydi.

Boshqaruv faoliyatini bajarish uchun qon ayrim to'qimalarda ajratilgan turli biologik faol moddalarni butun organizm bo'ylab tashiydi. Qon berk tomirlar tizimi bo'ylab doimo harakatda bo'lganligi tufayli barcha a'zolar o'rtasida aloqani ta'minlaydi. Oqibatda, organizm bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi va muhit sharoitlarining doimiy o'zgarishlariga moslashishni

ta'minlaydi. Shunday qilib, qon organizmni birlashtiradi va uni gumoral birligini hamda adaptiv reaktsiyalarini belgilaydi. Kreator aloqalar faoliyati qon plazmasi va shaklli elementlarining axborotga ega makromolekulalarini tashiishda ishtirok etishdan iborat. Bu makromolekulalar tegishli joyga etkazilgandan keyin hujayra ichidagi oqsil sintezi jarayonlari, hujayralarning bulinishi va to'qima strukturalari barqarorligini saklashda ishtirok etadi. Gomeostatik faoliyat tufayli qon suyuqliklarining rN ko'rsatgichi, osmotik bosim, organik moddalar miqdori va boshqa ko'rsatgichlarning barqarorligi saqlanib turiladi. Haroratni boshqarish faoliyati kuyidagicha. To'qima va hujayralar faoliyati natijasida uzlusiz ravishda issiqlik ajraladi, uning ko'p kismi ichki yirik a'zolarga (jigar, chuqur joylashgan mushaklar va yurakka) to'g'ri keladi va u, bevosita tashqi muhitga ajratilmaydi. Bu a'zolarning tomirlaridan o'tayotgan qon, malum darajada isiydi va issiqliknii organizm buylab tarqatadi. Qon harorati sezilarli darajada oshsa, gipotalamusdagi termoretseptorlar ko'zg'alib, haroratni boshqarib turadigan mexanizmlarning faolligi oshadi. Himoya faoliyatini kopning turli tarkibiy qismlari bajaradi va suyuqlik immunitetini (antitanalar ishlab chiqarish) hamda hujayra immunitetini (fagatsitoz) ta'minlaydi. Qonning hajmi va tarkibi. Odam va yuksak hayvonlarning qoni suyuq plazma va undagi muallaq shaklli elementlardan tashkil topgan. Qon xajmining 55-56 % plazma, 44-45 % shaklli elementlarga to'g'ri keladi. Qonda qizil qon tanachalari — eritrotsitlar, oq qon tanachalari — leykotsitlar va qon plastinkalari — trombotsitlar farqlanadi. Qonning umumiy hajmidan eritrotsitlarga to'g'ri keladigan qismi gematokrit son deyiladi. Gematokrit soni erkaklarda 44-46%, ayollarda 41-43% ga teng bo'ladi. Normada, 1 mkl qonda taxminan 4-5 mln. eritrotsitlar, 4-9 ming leykotsitlar va 180-320 ming qon plastinkalari bo'ladi. Qonning umumiy mikdori yuksak hayvonlarda turlicha va turiga, jinsiga, moddalar almashinuviga ko'ra har xil bo'ladi. Qonning mikdori nisbatan doimiy ko'rsatkich, ammo, uzoq vaqt davomida muntazam ravishda jiemoniy ish bilan shug'ullanish, baland tog'ga ko'tarilish va shu sharoitda uzoq vaqt bo'lish natijasida, organizmning kislrorodga bo'lgan ehtiyoji ortishi oqibatida qon mikdori ko'payadi. Masalan, sport musobaqalarida qatnashadigan otlarda qonning mikdori tana massasining 14-15 %, oddiy ish bajaruvcchi otlarda esa — 7-8 % ni tashkil qiladi. Organizmdagi qonning umumiy miqdori katta odam gavda vaznining 6-8 % (vazni 70 kg bo'lgan odamda 4-6 l ni) tashkil qiladi. Oddiy sharoitda organizmdagi qonning hammasi ham qon tomirlari bo'ylab harakat qilmaydi, ya'ni uning bir qismi zaxiralarda saqlanadi. Qon umumiy miqdorining 20 % jigarda, 16 % taloqda, 10 % ga yaqini teri tomirlarida bo'ladi va ma'lum vaqtgacha qon aylanishida ishtirok etmasligi mumkin. Kislrorodga ehtiyoj ortganda esa, qonning zaxiradagi qismi tomirlarga utib, kislrorod tashishda ishtirok qila boshlaydi.

### *Ikkinchı savol bayoni*

**Qonning fizik-kimyoviy xossalari.** Qon kolloid — polimer eritma bo'lib, unda erituvchi sifatida suv bo'lsa, erigan moddalarni tuzlar va kichik molekulalni organik moddalar, kolloid qismini esa oqsil va ularning majmua birikmalari tashkil qiladi. Qonnig zichligi kichkina kattalikda uzgaradi va asosan undagi shaklli elementlar, oqsillar va lipidlar mikdoriga bog'liqdir. Baliqlar qonining zichligi 1,035 gG'ml, qushlarniki — 1,052, kemiruvchilarniki — 1,051, odamniki — 1,060-1,064 gG'ml bo'ladi. Leykotsitlar va qon plastinkalarining zichligi eritrotsitlarnikidan past bo'ladi. Ivib qolmagan qon tindirilganda yoki tsentrifuga qilinganda probirkani yuqori qismida sarg'ish suyuqlik — plazma to'planadi, uning tagida ingichka oqimitir qatlama — leykotsitlar va qon plastinkalari, nixoyat pastki qismida qalin qatlama (xajmning 40-45 %) — eritrotsitlar joylashadi. Qondagi kolloid eritma va shaklli elementlar muallakligi ma'lum darajada yopishqoqlikni hosil qiladi. Plazmaning yopishqoqligi 1,7-2,2 ga teng bo'lsa, butun qonni esa 5,0 ga teng. Organizm ko'p miqdorda suv yo'qotsa (qattiq terlash yoki ich ketish natijasida), qonning yopishqokdigi ortib, qon aylanishi buziladi. Qonning osmotik bosimi. Hujayralar, shu jumladan qon hujayralari ham, yarim utkazgich membranaga ega bo'lib, ulardan suv ikki tomonga to'siqsiz bemalol o'tadi, suvda erigan moddalar esa o'tmaydi. Bunday erigan moddalar qon plazmasida juda ko'p bo'lib, ularning ko'p qismini tuzlar tashkil qiladi, osmotik bosim

ularning kontsentratsiyasiga bog'liq. Anorganik tuzlarning plazmada erigan mikdori 0,9 %. Osmotik bosim deganda suvni tuzlar miqdori kamroq bo'lган eritmada, yarim utkazgich membrana orqali, tuzlar miqdori ko'proq bo'lган eritmaga o'tishini ta'minlovchi kuch nazarda tutiladi. Suvni qon va to'qima suyuqligidan hujayralarga o'tishi va ulardan tashqariga chiqishi osmotik bosimga bog'liq. Osmotik bosimning doimiyligi, hujayra faoliyatining mo'tadil bo'lishini ta'minlovchi zarur shart hisoblanadi. Osmotik bosim turg'unligini ushlab turishda qon tarkibida eng ko'p miqdorda bo'ladigan NaSl tuzi katta rol o'ynaydi. Qon plazmasida tuzlarning kontsentratsiyasi oshib ketsa plazmaning osmotik bosimi ham oshadi va bu sharoitda hujayralar faoliyati og'irlashadi. Masalan, eritrotsitlarning kontsentratsiyasi qon plazmasi kontsentratsiyasidan yuqori bulgan NaSl eritmasiga solinsa, eritrotsitlardagi suv eritmaga faol o'tib, ular bujmayib qoladi. Bunday eritmalar gipertonik eritma, ya'ni osmotik bosimi qonnikidan yuqori bulgan eritma deyiladi. NaSl kontsentratsiyasi qon plazmasi kontsentratsiyasidan kam bo'lган eritmaga eritrotsitlar solinganda, ularning ichiga suv faol ravishda kirib burttirib yuboradi va hattoki yorib yuborishi mumkin. Bunday eritmalar gipotonik eritma, ya'ni osmotik bosimi qonnikidan kam bo'lган eritma deyiladi. Osmotik bosimi qonning osmotik bosimiga teng bo'lган eritmalar izotonik eritmalar deyiladi va bunday eritmalar solinganda, ular o'z shakllarini o'zgartirmaydilar. Moddalar almashinuvi natijasida qonning osmotik bosimini o'zgartirib yuboradigan har xil moddalar hosil bo'lishiga qaramasdan qonning osmotik bosimini turg'un ushlab turadigan mexanizmlar mavjud. Bu vazifani birinchi navbatda, qonning oksillari bajaradi, ular, qonda ionlarning kontsentratsiyasi oshib ketib, osmotik bosim ko'tariladigan bo'lsa, bu ionlarni o'z tarkibiga biriktirib olib osmotik bosimni kamaytiradi, Aksincha, qonning osmotik bosimi kamayib ketganda, oqsillarga bog'langan ionlar erkin holga o'tadi va osmotik bosim ko'tariladi. Mg miqdorining qonda juda ham ortib ketishi MAT faoliyatini susaytiradi. Fiziologik eritma hujayra va to'qimalar hayotini saqlab turish uchun bir muncha vaqt xizmat qilsa ham qonning o'rnni bosa olmaydi. Qonning onkotik bosimi. Qon plazmasida tuzlardan tashqari anchagina miqdorda (7-8 %) oqsil bo'lib, ular ham osmotik bosim hosil qiladi. Qonning oqsillarga bog'liq osmotik bosimini — onkotik bosim deb ataladi. Onkotik bosim o'rtacha 30 mm s.u. ga teng yoki qon umumiy osmotik bosimining 1G'200 qismini tashkil qiladi. Juda kichik bo'lishiga qaramay, onkotik bosim kapillyarlardagi qon va to'qima suyuklik o'rtasidagi suv almashinuvida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu almashinuvi ikki kuch amalga oshiradi. Birinchisi, kapillyardagi qonning gidrostatik bosimi bo'lib, u kapillyarning arterial uchida 35 mm s.u. ga teng, qon kapillyarining venoz qismiga etguncha bu bosim 25 mm s.u. gacha pasayadi. Qonning gidrostatik bosimi kapillyardan tashqariga qaratilgan. Ikkinci kuch — qonning onkotik bosimi bo'lib, u, suvni tomirda saqlanib turishini ta'minlaydi va 30 mm s.u. ga teng bo'lib, deyarli o'zgarmaydi.

**Qon reaktsiyasi va bufer faoliyati.** Organizm ichki muhit barkorligining muhim kursatgichi — uning faol reaktsiyasi xisoblanib, bu kursatgich vodorod ( $N^O$ ) va gidrosil (ON<sup>-</sup>) ionlarining mikdori bilan belgilanadi. Qon reaktsiyasini baholashda vodorod kursatkichi — rN dan foydalilanadi. Qonning faol reaktsiyasi g'oyat muhim ahamiyatga ega, chunki almashinuv jarayonlari fakat muayyan reaktsiyadagina mo'tadil o'tadi. U murtqasizlar va ayrim umurtkalilar ichki muhitining rN ko'rsatkichi keng diapazonda o'zgarishi bilan farqlanadi. Masalan, hasharotlarda bu kursatkich 6,4-8,0 atrofida bo'ladi. Odam va sut emizuvchi hayvonlarning qoni past ishqorli reaktsiyaga ega. Odam arterial qonining rN ko'rsatgichi — 7,4 ga teng bo'lsa venoz qonni esa, karbonat kislotosi ko'proq bo'lgani uchun 7,35 ga teng. Qondagi rN ning salgina o'zgarishlari (0,1-0,2 ga) ham uzoq davom etishi mumkin emas. Qonning rN tezda tiklanmasa, organizm halok bo'ladi. Qonga ishqoriy va kislotali tabiatga ega moddalar uluksiz ravishda qo'shilib turishiga qaramay, uning rN kursatkichi bir xilda saqlanadi. Bunga erishishning uchta yo'li ma'lum: 1) qonning bufer tizimlari yordamida; 2) karbonat angidridni o'pka orqali chiqarish yo'li bilan va 3) buyraklar orqali kislotalar ajralishini ko'paytirish, ishqoriy moddalarni saqlab qolish yo'li bilan. Qonning rN doimiyligiga xavf tug'ilganda, birinchi galda bufer tizimlari ishga tushadi. Bunday tizimlardan qonda to'rtta: karbonat, fosfat, plazma oksillari va gemoglobinning bufer tizimi mavjud.

Karbonat bufer tizimi — kuchsiz karbonat kislota ( $\text{N}_2\text{SO}_3$ ) va bu kislotaning kuchsiz asoslari bilan hosil qilgan tuzlaridan ( $\text{NaNSO}_3$ ,  $\text{KNSO}_3$ ) iborat. Qonda karbonat kislotadan kuchliroq kislota paydo bo'lsa, uning anioni natriy yoki kaliy ioni bilan birikib, neytral tuz hosil qiladi. Vodorod  $\text{NSO}_3$  anioni bilan karbonat kislotasi hosil qiladi. Eritrotsitlardagi enzim — karboangidraza karbonat kislotasining  $\text{N}_2\text{O}$  va  $\text{SO}_2$  ga parchalanishini ta'minlaydi, karbonat angidrid o'pka orqali atmosfera havosiga chiqariladi. Agar qonga ishqor tushsa, u karbonat kislota bilan birikib, bikarbonat va suv hosil qiladi, Bu mumtoz bufer tizimning ahamiyati shundaki, u qon reaktsiyasini bir lahzada asli holiga keltiradi. Fosfat bufer tizimi bir asosli ( $\text{NaN}_2\text{RO}_4$ ) va ikki asosli ( $\text{NaNR}_0_4$ ) fosfatlardan iborat.

### *Uchunchi savol bayoni*

**Qon plazmasi.** Qon plazmasi — qonning shaklli elementlari ajratib olingandan keyin qolgan suyuq kismi bo'lib, tarkibida suvda erigan tuzlar, oksillar, uglevodlar, biologik faol birikmalar hamda  $\text{SO}_3$  va  $\text{O}_2$  bor. Plazma 90% suvdan, 7-8% oqsidlardan, 1,1% boshqa organik moddalardan va 0,9% noorganik moddalardan iborat. Plazma va qon zardobining osmotik bosimi 7,6 atm., arterial qonning rN darajasi o'rtacha 7,4 bo'ladi.

Tomirlarda tsirkulyatsiya qiluvchi qon plazmasi tomirlar ichidagi suyuqlik xajmining kislotali-ishqorli muvozanatning doimiiligini ta'minlaydi, shu bilan birga biologik faol moddalarni va metabolizm mahsulotlarini tashiydi. Plazma, kapillyarlar devorining katta yuzasi orqali, hujayralararo suyuqliklar bilan moddalarni almashtiradi. Bu erda ionlar, suv va uncha katta bo'limgan molekulalarning almashinuvi tez sodir bo'ladi, shuning uchun interstitsial (hujayralararo) suyuqlikning tarkibi uncha o'zgarmaydi va plazma tarkibidan sezilarli farq qilmaydi. Bu erdag'i farq oqsillarga taalluklidir, chunki ularning katta modekulalari kapillyarlarning devori orqali o'ta olmaydi. Plazmada kolloidlarning mavjudligi uning yopishqoqligini belgilaydi. Plazma oksillari tuzilishi va funktional xususiyatlari bilan farqlanadi. Odam konining plazmasida 200-300 g oksillar bo'lib, ularni asosan 2 guruxga — albuminlar va globulinlarga ajratiladi. Globulin fraktsiyasining tarkibiga fibrinogen ham kiradi. Bu oqsillarning molekulyar massasi 44000 Da dan 1,3 mln. Da gacha bo'lib, molekulalarining diametri 1-100 nm.ga teng. Albuminlar plazmaning 60% ini tashkil qiladi va ularning katta konsentratsiyasi (taxminan 80%), molekulasingning nisbatan katta bo'limgan razmerlariga karamasdan harakatchanligining yuqoriligi plazmaning onkotik bosimini belgilaydi. Albuminning mayda molekulalari yuzasining kattaligi, qon orqali turli moddalarni — billirubin, og'ir metallarning tuzlarini, yog kislotalarini, farmakalogik preparatlarni (sulfanilamidlar, antibiotiklar va b) transport qilishda muhim rol uynaydi. Albuminning 1 molekulasi bir vaqtning o'zida billirubinning 25-50 molekulasini bog'lashi mumkinligi ma'lumdir. Moddalar almashinuvining yakuniy mahsulotlari ichida eng yuqori kontsentratsiyaga, ayniqsa, og'ir mushak ishi va kislорod etishmagan paytda sut kislotasiga ega bo'ladi. Organizm tomonidan foydalanilmagan va chiqarib yuborilishi lozim bo'lgan moddalar almashinuvining yakuniy mahsulotlari (mochevina, siylik kislota, billirubin, ammiak) plazma bilan buyraklarga olib boriladi va siylik bilan chiqarib yuboriladi. Plazmaning oqsillari plazmada tsirkulyatsiya bo'ladigan past molekulalari birikmalarni bog'lash qobiliyatiga ega bo'lganligi tufayli, shu bilan birga, osmotik bosimni doimiyligini ushlab turishda ham qatnashadi. Ular to'qima suyuqliklari, limfa, siylik kabilarni hosil bo'lish, suvni so'rilib jarayonlarida etakchi rol o'ynaydi.

**Eritrotsitlar** — qonning asosiy massasini tashkil qilib, uning qizil rangda bo'lishini ta'minlaydi. Eritrotsitlar, tarkibida gemoglobin bo'lgan, bir xil turdag'i elektron-optik zichlikdagi tsitoplazmadan tashkil topgan va unda organellalar bo'lmaydi. Hujayra membranasi to'rt qavatdan iborat bo'lib, unda muhim enzimli jarayonlar sodir bo'ladi va immun reaktsiyalar amalga oshadi, shu bilan birga, u, qonning guruhi va to'qima antigeni to'g'risidagi axborotni tashiydi. Membrananing tashqi kavati glikoproteinlardan hosil bo'lgan va guruhlarga birlashgan antigenlarning ketingi bo'limlari majmuasidan iborat. O'rtadagi ikki qavati ko'sh lipidli membranani hosil qiladi. Tsitoplazma bilan yondosh ichki kavati oqsillardan iborat bo'lib, ular bilan glikolitik enzimlar va gemoglobin enzimlari bog'langan. Eritrotsitlar membranasi tanlab

o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lib, undan gazlar, suv, N<sup>Q</sup> ionlari, ON-, S1-, NSO<sub>3</sub> anionlari bemalol o'tadi, glyukoza, mochevina, K<sup>Q</sup> va Na<sup>Q</sup> ionlari uchun u, kam o'tkazuvchidir, ko'p kationlar deyarli o'tmasa, oqsillarni umuman o'tkazmaydi. Eritrotsitlarning quruq qoldigi 95 % atrofida globulindan, kolgan kismi esa lipidlar, uglevodlar, tuzlar, enzimlardan iborat. Eritrotsitlarda KQ ionlari va Ka<sup>Q</sup> ionlariga nisbatan ko'p, plazmada esa buning teskarisi bo'ladi. Elektrolitlarning asosiy funksiyasi kislородни o'pkadan to'qimalarga va karbonat angidridni to'qimalardan o'pkaga tashishdan iborat. Shu bilan birga eritrotsitlar o'zining yuzida adsorbsiyalangan aminokislotali qoldiqlar ko'rinishidagi oziqa moddalarni ham tashiydi, biologik faol moddalar lipidlar bilan plazma o'rtasida almashinadi. Eritrotsitlar organizmda suvtuz almashinuvini boshkarishda ishtirok etadi. Eritrotsitlar, immunitet hodisalarida ham qatnashadi, bunda ular turli zaharlarni adsorbsiya qiladi va keyin, bu zaxarlar, retikuloendotelial tizimning hujayralari tomonidan parchalanadi. Elektrolitlar konni ivitish tizimi faolligini boshqarishda ham muxim rol uynaydi. Butun eritrotsitlar trombotsitlar kabi, tromboplastinlar hosil bo'lishiga ta'sir qiladi. Eritrotsitlarda oqsillarning miqdori plazmadagiga nisbatan yuqori bo'lib, past molekulali moddalarning miqdori esa kam bo'ladi. Hujayra ichidagi oksillar kontsentratsiyasi yaratadigan osmotik bosim, ancha darajada past molekulali moddalarning past kontsentratsiyasi bilan kompensatsiyalanadi. Shuning uchun eritrotsitlardagi osmotik bosim plazmanikidan biroz yuqori, ya'ni ushbu hujayralarning turg'un holatda bo'lishini ta'minlashga etarli bo'ladi. Baliq, amfibiya, reptiliya va qushlarning eritrotsitlari, yadro bo'lgan oval shakldagi, yirik hujayra ko'rinishida bo'ladi. Sut emizuvchilarning eritrotsitlari esa maydarok bo'lib, yadroga ega emas, lekin embriogenezning erta pog'onalarida ularda ham yadro bo'ladi. Eritrotsitning tayanch tuzilmasi — stromasi va yuza qavati — qobig'i farqlanadi. Qobiq tuzilishining boshka hujayra membranalari tuzilishidan farqi yo'q. Uning kationlar uchun o'tkazuvchanligi juda past, anionlarni esa bemalol o'tkazadi. Eritrotsit massasining 34% i quruq modda bo'lib, shundan 90% ini gemoglobin tashkil qiladi. Odam eritrotsitlari o'ziga xos shaklga ega: o'rtasi yupqa kulchaga o'xshaydi, diametri 7,2-7,5 mkm, qalinligi 2,2 mkm, o'rtacha hajmi 90 mkm<sup>1</sup>. Katta odam qonidagi eritrotsitlarning umumiy yuzasi 3000 m<sup>2</sup>, ya'ni butun gavda yuzasidan 1,5 ming marta ortiq.. Bunday katta yuzaning hosil bo'lishi bir tarafdan eritrotsitlar soniga bog'lik bo'lsa, ikkinchidan shakliga bog'liq. Agar eritrotsit hajmi 90 mkm<sup>3</sup> shar shaklida bo'lganda, yuzasi 20 % ga kam bo'lar edi. Bunday sharning radiusi 2,5 mkm ni tashkil qiladi yoki yuzasidan eng uzoq nuqtasigacha bo'lgan masofa 2,5 mkm ga teng bo'lardi. Kulchasimon eritrotsitlar qobig'idan eng uzoq nuqtasigacha bo'lgan masofa 1 mkm dan kam. Shuning uchun, eritrotsitlar ichida eng chuqur joylashgan gemoglobin molekulalarigacha ham kislород tez etib boradi.

**Leykotsitlar.** Leykotsitlar yadro va tsitoplazmaga ega oq qon hujayralari. Ularning qondagi umumiyligi miqdori eritrotsitlarnikiga nisbatan kam bo'ladi. Sutemizuvchilarda leykotsitlar, taxminan, Eritrotsitlar miqdorining 0,1-0,2 %, qushlarda 0,5-1,0 % tashkil qiladi. Katta yoshi odamning nahorda olingan qoni tarkibida 6000-8000 leykotsit mavjud bo'lib, u, vaqt va organizmning fiziologik holatiga qarab o'zgarib turadi. Leykotsitlarning miqdorini oshishi leykotsitoz va kamayishi — leykopeniya deyiladi. Fiziologik va reaktiv leykotsitozlar farqlanadi. Fiziologik leykotsitoz ovqatlanish, jismoniy mehnat qilish, qattiq hayajonlanish, biror joyning juda qattiq og'rishi paytida namoyon bo'lib, periferik qonda leykotsitlar sonining ko'payib ketishidan iborat. Bu leykotsitoz organizmdagi oq qon tanachalarining qayta taqsimlanishi natijasi hisoblanadi. Taloq, kumik o'pkada mavjud bo'lib, lekin qon aylanishida ishtirok etmagan leykotsitlar, aytib o'tilgan omillar ta'sirida qonga o'tadi va soni ortadi. Reaktiv leykotsitoz esa, qon yaratish a'zolaridan ko'p miqdorda, uncha etilmagan leykotsitlarning ajralishiga bog'liq. Leykotsitozning bu turi ko'pincha o'tkir yallig'lanishning belgisi bo'ladi. Leykopeniya ba'zi kuchli toksinlar ishlab chiqaradigan mikroblar paydo qilgan ayrim yuqumli kasalliklarning alomati hisoblanadi. Radioaktiv nurlanish va zaxarli moddalarning surunkali ta'siri ham yuqumli bo'lмаган leykopeniyaga olib keladi. Leykotsitlarning barcha turlari amyobasimon harakat qiladi va ularning tezligi 40 mkmG'min gacha etishi mumkin. Ba'zi kimeviy ta'sirlovchilar leykotsitlarni o'ziga tortadi. Ular kapillyarlar devoridan o'tib, shu ta'sirlovchilar (mikroblar,

organizmning emirilayotgan hujayralari, yot tanachalar va boshqalar) tomon harakat qiladi. Bu hodisani musbat *xemotaksis* deb ataladi. Shikastlovchi omillarga etib borgach, leykotsitlar ularni o'zining tsitoplazmasi bilan qamrab olib, enzimlari erdamida parchalaydi, ya'ni *fagotsitoz* ro'y beradi. Yakka leykotsit 15-20 mikrob hujayrasini qamrab olishi mumkin. Fagotsitzdan tashqari, leykotsitlar organizm himoyasi uchun muhim bo'lган bir qator moddalarni ajratadi. Bu moddalar bakteriyalarga, toksinlarga qarshi xossalarga ega bo'lган aptitanalar, fagotsitoz va jarohatatlarning bitishini tezlashtiruvchi omillar bo'lishi mumkin. Leykotsitlarning tarkibida bir qator enzimlar bor, jumladan proteazalar, peptidazalar, diastazalar, lipazalar, dezoksiribonukleazalar. Odatdagi sharoitda, enzimlar lizosomalarda izolyatsiyalangan holatda bo'ladi. Leykotsitlar ba'zi moddalarni adsorbsiya qilib, qobig'inining yuzasiga biriktirib olib, ularni kerakli joyga etkazish qobiliyatiga ega. Barcha leykotsitlarning 50% tomirlar tizimidan tashqarida, 30% — kumikda joylashadi. Granulotsitlar qonning barcha leykotsitlarini 60% tashkil qiladi va ularning yashash muddati taxminan 2 kun. Donali leykotsitlar kislotali, asosli va neytral buyoklarga bo'yalishiga qarab, ularni eozinofillarga, bazofillarga va neytrofilarga bo'linadi. Donasiz leykotsitlar limfotsit va monotsitlarga bo'linadi. Leykotsitlar turlari o'rtasidagi nisbat *leykotsitar formula* deb ataladi. Katta yoshli odamning leykotsitar formulasi granulotsitlardan: neytrfillar — 50-70%, eozinofillar — 1-5%, bazofillar — 0-1%; agranulotsitlardan: limfotsitlar — 20-40% va monotsitlar — 2-10% ni tashkil qiladi.

Neytrfillar qonda 6-8 soat aylanib, amyoba singari harakat qilib, shilliq pardalarga o'tadi. Organizmda mikroblar kirgan joyga neytrfillar to'planadi va mikroblar bilan to'qnashib ularni o'rabi oladi. Bir neytrfil 15-20 ta bakteriyani qamrab olib, lizosomasidagi proteaza, peptidaza, dezoksiribonukleaza, lipaza yordamida parchalaydi va yo'qotadi. Agar bu ishni neytrfil bajara olmasa o'zi halok bo'ladi. Yiring asosan neytrfillar va ularning qoldiqlaridan iborat. Neytrfillar — nospetsifik immunitetning eng muhim qismi. Ular mikrob va yot oksillarga qarshi antitanalar ishlab chiqarish yoki o'z membranasiga biriktirib olish qobiliyatiga ega.

Eozinofillar oqsil tabiatli toksinlarni va yot oqsillarni parchalaydi hamda zararsizlantiradi. Allergiya holatida, ichakda gijja ko'payib ketganda, organizmda autoimmun jarayonlar rivojlanganda eozinofillarning soni ko'payadi. Qonda kortikosteroid gormonlarning miqdori oshganda, eozinofillar soni kamayadi.

Bazofillar protoplazmasida uchraydigan yirikdonachalarda heparin va gistamin bo'ladi. O'tkir yalliglanishining regenerativ (yakunlovchi) bosqichida qondagi bazofillar soni oshadi. Geparin qonning mayda tomirlarda ivishiga yo'l qo'ymaydi, gistamin esa bu qon tomirlarini kengaytiradi. Bu esa yallig'lanish uchoqlarida so'rilish va bitish jarayonlariga yordam beradi. Yog'li ovqat istemol qilishdan keyin bazofillar soni ortadi.

Agranulotsitlar ikki xil hujayracharga — limfotsitlar va monotsitlarga bo'linadi.

Linfotsitlar ko'pgina a'zolarda: chunonchi, limfa tugunlarida, talokda, ayrisimon bezda, bodomsimon bszlarda, ko'richakda, ichakning shilliq pardasida, kumikda rivojlanadi. Bu hujayralarning yadroси yirik atrofidagi protoplazmasi kam miqdorda bo'ladi. Odam qonida bir necha xil limfoitlar uchraydi. Ular ko'mikdagi limfotsit hujayralarda rivojlanib, qon orqali o'zlari differentsiatsiya bo'ladigan (etiladigan) to'qimalarga etkaziladi. Limfotsitlarning bir qismi ayrisimon bezda (timusda) joylashib, ko'paya boshlaydi. Timusda etilgan limfotsitlar T-linfotsitlar deb ataladi. Ular qondagi limfotsitlarning 60% ini tashkil qiladi. Limfotsitlar organizmning o'z hujayralaridan mutatsiya tufayli paydo bo'lган yot hujayralarni ham topib emradi. *Har* lahzada odam organizmida bunday hujayradan bir necha millioni bo'ladi. Mutatsiya uchrab, organizm uchun yot bo'lib qolgan hujayralar yo'qotilmasa, tez ko'payib, badanda shish paydo bo'lishiga olib keladi. Demak limfotsitlar organizmning hujayra barqarorligini saqlanib turishini ham ta'minlaydi. Limfotsitlar jarohatlangan to'qimalarning tiklanishida bevosita qatnashadi.

Monotsitlar — leykotsitlarning eng yirigi, ularning diametri 12-20 mkm. Monotsitlar ko'mikda hosil bo'ladi, ammo qonda hali etilmagan holda paydo bo'ladi. Monotsitlar qon tomirlaridan atrofdagi to'qimalarga chiqib etiladi va harakatsiz hujayralarga — gistiotsit va makrofaglarga aylanadi. Makrofaglar kislotali sharoitda ham fagotsitar va hazm qilish faoliyatini saqlab qoladi.

**Trombotsitlar yoki qon plastinkalari**, qonning shaklli elementlarini uchinchi turi, diametri 2-5 mkm, yadrosiz va rangsiz, oval va duksimon shakldagi plazmatik tuzilmalar bo'lib, ko'mik va taloqdagi gigant hujayralar — megokariotsitlarda hosil bo'ladi. Trombotsitlarning soni ovqat hazm qilish, jismoniy ish bajarish va homiladorlik davrida ko'payadi. Ularning qondagi soni, kunduzi tundagidan ko'proq bo'ladi va qon ivish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Trombotsitlarda tomirni toraytiruvchi modda — serotonin va kengaytiruvchi modda — gistamin sezilarli miqdorda bo'ladi.

Sog'lom odamning 1 mm<sup>3</sup> qonida 150-400 mingtagacha qon plastinkalari bo'lib, ko'p miqdorda qon yo'qotilganda, ovqatda A va V vitaminlar etishmaganda, ayollar xayz ko'rishi paytida, shu bilan birga chaqaloqlarda va qariyalarda ham ularning soni kam bo'ladi. Qon plastinkalarining kamayishi — trombopeniya deyiladi. Ba'zi bir fiziologik sharoitlarda, masalan sportchilar mashq qilayotgan paytda qon plastinkalarining soni ko'payadi. Bunda taloq qisqarib, o'zida saqlab turgan qon plastinkalarini qon tomirlariga chiqaradi. Taloqning qisqarishi adrenalin ta'sirida yuz beradi. Qon plastinkalari miqdorining qonda ko'payib ketishi trombotsitoz deyiladi.

### **To'rtinchı savol bayoni**

**Limfatik tizim.** Organizmda, qon tomirlari bilan bir qatorda, limfatik tizim ham mavjud bo'lib, u, qo'shimcha drenaj tizim ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu tizim bo'ylab, to'qimalardagi suv-oqsillarning kolloid qorishmalari, lipidlarning emulsiyalari, suvda erigan kristallar, hujayrada parchalangan mahsulotlar va boshqalar qon oqimiga qaytib keladi.

Limfatik tizimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. To'qima suyuqligi hajmi va tarkibining turg'unligini ushlab turishi; 2. Barcha a'zo va to'qimalar suyuqligi hamda qon o'rtasida gumoral aloqani ta'minlash; 3. Ovqat hazm qilish kanalidan oziq moddalarini venoz tizimga so'rish va o'tkazish; 4. Organizmning immunologik reaksiyalarida limfold a'zolardan limfotsitlarni, plazmatik qatorning hujayralarini, antitanalarni etkazib berish ro'li bilan qatnashish; 5. Organizmning favkulodda ta'sirlarga javob berishida va zararlangan joyga limfotsitlar, plazmotsitlar va boshqalarini etkazib berish yo'li bilan qatnashish.

Yuksak umurtqalilarning limfatik tizimi limfatik tomirlar, limfatik tugunlar va limfatik kanallarlan iborat. Barcha to'qimalarda (tog'ay asab va terining yuzaki qatlamidagi to'qimalardan tashqari) limfatik kapillyarlar tarmog'i bor. Ular sirtmoq yoki uchi berk (ko'r) o'simtalardan boshlanadi va quyilish joylarida lakanalarning mavjudligi bilan o'ziga xosdir. Kapillyarlarning diametri 10 dan 100 mkm gacha bo'ladi. Ularning devorlari oson cho'ziladi va limfa ko'p miqdorda kelganda, diametri 2-3 martaga kengayadi, bu paytda, ularning suruvchi yuzasi ham kattalashadi.

Bir nechta kapillyarlar qo'shilganda limfatik tomir hosil bo'ladi. Shu erda birinchi klapan ham joylashgan. Tomirlarning devorida, endoteliy va bog'lovchi — to'qima pardasi o'rtasida mushak qatlami hosil bo'lib, u, tomir yiriklashgan sari kilinlashadi. Tomir buylab, uning toraygan joylarida klapanlar ham joylashgan. Klapanlar orasidagi masofa 2-3 mm, yirik tomirlarda esa 15 mm gacha bo'ladi. Klapanlar juft bo'lib, karama-karshi yotgan yarimoysimon shakldagi qatlamdir. Ular limfani orqa tomonga qarab oqib ketishini oldini oladi. Har bir a'zo yoki tana qismidan ketuvchi limfatik tomir chiqadi va ular regionar limfatik tugunlarga to'paladi. Limfatik tomirlar limfa hosil bo'lish jarayonida qatnashadi, drenaj funktsiyani va limfa oqimini qaytarish vazifasini bajaradi. Limfatik tomirlar bo'ylab limfatik tugunlar joylashgan, ular birgalikda yagona tizimni tashkil qiladilar. Sut emizuvchilarda ular yumaloq yoki oval shaklga ega va guruh-guruh bo'lib joylashgan. Ularning soni itlarda — 60 ta, cho'chqada — 190, bukada — 300, odamda — 460 atrofida bo'ladi. Limfatik tugunlarning bir tomoni botiq bo'lib (bu joy darvoza deyiladi), shu erda unga arteriya va simpatik asab tolalar kiradi hamda venalar va chiqaruvchi limfatik tomirlar chiqadi. Limfa olib keluvchi tomirlar tugunning qarama-qarshi, bo'rtib turgan tomonidan kiradi. Limfatik tugunlar limfotsitopoez a'zolar hisoblanadi. Ularning po'stloq qismida va mag'iz moddasida V — va T — limfotsitlar hosil bo'ladi va hujayralarning ko'payishini rag'batlantiruvchi leykotsitar omil ishlab chiqiladi. Voyaga etgan limfotsitlar

tugunlarning sinusiga kelib tushadi va ulardan limfa bilan birga chiquvchi tomirlar orkali chiqariladi. Tutamlar to'sikli — filtr vazifasini ham bajarali.

**Immunitet.** Odam va hayvonlar organizmiga kasalliklar paydo qiladigan mikroblar va ularning zaharli mahsulotlari kirganda, ularning ichki muhitini o'zgartiradi. Natijada, organizm ushbu o'zgarishga javoban bir qancha himoya mexanizmlarini ishga tushiradi va zarar beruvchi omillarning ta'siri yo'qatiladi yoki kamaytiriladi, oxir oqibatda orgapizmning normal holati tiklanadi. Organizmning bunday o'z-o'zini himoya qilish xususiyati immunitet deb ataladi va uning mexanizmlari ham MAT tomonidan boshqariladi. Immunitetning tabiiy va ortgirilgan turlari mavjud. Tabiiy yoki tug'ma immunitet nasldan-naslga beriladigan turga mansub belgidan iborat bo'lib, uning yordamida organizmga ba'zi bir yuqumli kasalliklar yuqmaydi. Orttirilgan immunitet, organizm yuqumli kasallik bilan og'rigandan keyin yoki emlash oqibatida vujudga keladi va u, faol va sust ko'rinishda bo'ladi. Faol immunitet yuqumli kasalliklar bilan og'rish natijasida paydo bo'lsa, sust immunitet hayvon yoki odamni emlash oqibatida paydo bo'ladi va uzoq muddat saklanadi. Shu bilai birga, organizmga turli begona oqsillar kirgan paytda, tarkibiy jixatdan kon zardobining ba'zi oksillariga yakin bo'lgan moddalar — antitanalar paydo bo'ladi. Bunday antitanalar faqatgina o'zlarini hosil qilgan moddalargagini ta'sir qiladi. Ularni hosil qiladigan moddalarni antigen deyiladi. Yallig'lanish ham organizmning turli tasirlar oqibatida vujudga kelgan kasalliklarga nisbatan murakkab javob reaksiyasini bo'lib, himoya vazifasini o'taydi. Bu jarayonda MAT ning roli kattadir.

### *Beshinchı savol bayoni*

**Qon guruhlari.** Eritrotsitlarning bir-biriga yopishib g'uj bo'lib qolishini agglyutinatsiya deyiladi. Bujarayon antigen bilan antitana o'rtasidagi reaksiya natijasidir. Eritrotsitlarning membranasiga bog'langan agglyutinogenlar antigen rolini bajaradi, qon plazmasidagi agglyutininlar antitana sifatida agglyutinatsiya reaksiyasida ishtirok etadi.

Agglyutinogenlar o'ziga xos aminokislotali polisaxarid majmuasidan iborat, agglyutininlar esa qonning alfa-globulin oqsil fraktsiyasidir. Agglyutinatsiya reaksiyasini ro'y berganda 1 molekula agglyutinin ikki eritrotsitni bir-biriga bog'laydi. Bu eritrotsitlarga boshqa eritrotsitlar yana qo'shib g'uj bo'lib qoladi. Odamning qonida o'z eritrotsitlariga qarshi agglyutinin bo'lmaydi. Har qaysi odamning qonida o'ziga xos eritrotsilar agglyutinogenlar to'plami bor. Odamning qonida 400 dan ortiq, agglyutinogenlar topilgan bo'lib, ulardan 30 ga yaqini ko'proq uchraydi. Klinika uchun AVO va QN (re Zus) agglyutinogenlar tizimi katta ahamiyatga ega.

Australiyalik olim Q Landshteyner (1901) va chek olimi Ya. Yanskiy (1903) qonning guruhlarga bo'linishini kashf etdilar va ularni o'rganib AVO tizimi mavjudligini ko'rsatib, odam eritrotsitlarini antigen xususiyatlariiga ko'ra 4 guruha bo'ldilar: O (I) guruh eritrotsitlarda A, Vantigen (agglyutinogen) yo'q. Ammo bu odamlarning qonida anti-A va anti-V antitanalar bor. Bu antitanalar alfa va beta-agglyutinindir; A (II) guruh eritrotsitlarda A-agglyutinogen, plazmasida beta agglyutinin uchraydi; V (III) gurux eritrotsitlarda V — agglyutinogen, plazmasida beta-agglyutinin uchraydi; AV (IV) guruh eritrotsitlarda A-agglyutinogen va V-agglyutinogen bor, ammo plazmasida alfa-agglyutinin uchramaydi.

Ko'pchilik odamlarning (85 %) eritrotsitlarida yana bir omil topilgan. Uni birinchi marta Q Landshteyner va I. Viner 1940 yili maxsus rezus maymunning qonidan topishgan va **rezus-omil** deb atashgan. Unga ega bo'lgan odamning qoni — rezus-musbat qonni, mazkur omili bo'lмаган rezus-manfiy qonga quyilsa, rezus-manfiy odamning qonida antirezus agglyutininlar hosil bo'ladi. Qoni rezus-manfiy odamga, rezus-musbat qoni ikkinchi marta qo'yilsa, RhQ musbat eritrotsitlar antirezus agglyutinin ta'sirida agglyutatsiyaga uchraydi, kichik qon tomirlariga tiqilib qoladi va hayot uchun xavf tug'diradi. Rezus-omil bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi kungilsiz ahvol, ona bilan homila o'rtasida rivojlanishi mumkin bo'lgan rezus-kelishmovchilik. Agar rezus-musbat erkakdan rezus-manfiy ayol homilador bo'lsa (bunday nikoxlarning ehtimolligi 50 % ga yaqin), homilaga rezus-omil otasidan o'tishi mumkin. Uning eritrotsitlaridagi rezus-omil (antigen) yo'ldosh orqali ona qoniga o'tadi. Rezus-omilga qarshi ona qonida anti-rezus-agglyutininlar paydo bo'ladi. Ular ham yuldosh orqali homila qoniga o'tadi va

homila eritrotsitlarini agglyutinatsiya va gemolizga uchratadi. Agar antirezus agglyutininlar miqdori yuqori bo'lsa, bu jarayon kuchayib ketib, homilani halokatga olib kelishi mumkin. Rezus-mos kelmaslik uncha kuchli bo'lmasa, gemoliz natijasida bola sariq bo'lib tug'iladi. Uning terisini va shilliq pardalarini gemoglobindan paydo bo'lgan ko'p miqdordagi billirubin shu rangga bo'yaydi. Agar rezus-manfiy ael rezus-musbat erkak bilan turmush ko'rsa, bu holatnint oldini olish choralarini yo'qotish kerak.

**Xujayralararo suyuqlik.** Odam gavda massasining 16% ini hujayralar oralig'idagi suyuqlik tashkil qiladi. Uning tarkibi qon plazmasi tarkibiga yaqin, ammo, natriy va kaliy kationlari, bikarbonatlar miqdorida deyarli farq yuq. To'qima suyuqligida kaltsiy, magniy va organik anionlarning miqdori plazmanikidan kamroq. Plazmada oqsillarning umumiy miqdori o'rtacha 7,5% bo'lsa, to'qima suyuqligida 1,8-2,0% ni tashkil qiladi. Shu sababdan, bu suyuqlikning onkotik bosimi (4,5 mm s.u.) plazmaning onkotik bosimidan (25 mm s.u.) bir necha marta past. To'qima suyuqligining rN darajasi, undagi kislorod, karbonat angidrid, glyukoza va boshqa moddalarning miqdori turli a'zolarning faolligiga bog'liq bo'ladi.

Qon plazmasi va to'qima suyuqligi o'rtasida uzlusiz ravishda suv, elektrolitlar va organik moddalar almashinuvni sodir bo'lib turadi. Bu suyuqlik miqdori va tarkibi barqarorligini volyumo boshqarish va osmo boshqarish mexanizmlari ta'minlab turadi. suyuqligidan limfa hosil bo'ladi.

#### **4.Mavzu: Qon va limfa aylanishi sistemalari fiziologiyasi.**

##### **Asosiy savollar.**

1. Yurak-tomirlar sistemasining evalyutsiyasi va funksiyasi.
2. Yurak tsikli. Yurak faoliyatini boshkarilishi.
3. Tomirlar tizimining tuzilishi. Kon aylanish doiralari. Tomirdagi qon bosimi holati.
4. Qon oqimining tadqiq qilish usullari.
5. Tomirlar tarangligi va ularning asab va gumoral yo'l bilan boshqarilishi.

##### **Birinchi savol bayoni.**

Qon, o'zining turli funksiyalarini doimiy harakatda bo'lganidagina bajarishi mumkin. Bunday harakatni yurak va qon tomirlari amalga oshiradi.

Uzoq mudatli filogenetik rivojlanish natijasida yurak-tomir tizimini tashkil topishining mukammallahishi sodir bo'lgan. Oddiy hayvonlarning transport tizimi hisoblangan diffuziya — protoplazmaning jadal harakatlari bilan to'ldiriladi. Bu xususiyat, ko'p hujayrali organizmlarning deyarli barcha hujayralarida saqlanib qolgan. Nematodalar, igna tanalilar, ayrim polixetlar va goloturiyalarda suyuqliklar harakati somatik mushaklar yordamida amalga oshiriladi. Bug'imoyoqlilar, mollyuskalar, tuban xordalilarda berk bo'lмаган tsirkulyatsiya tizimi paydo bo'lib, unda yurak gemolimfani haydaydi. Natijada u, trubkalar orqali tananing turli qismlariga boradi va bu erda qon tomirlar tugaydi. Gemolimfa, bu erda to'qima suyuqligi bilan aralashib, hujayralararo bushliqqa o'tadi va keyin yana yurakka qaytadi. Bu, hali berk tizim emas, albatta, lekin evolyutsiya jarayonida qon aylanish apparati mukammallahib yopiq tizim shakliga o'tgan . Oligoxetlar, ko'pchilik polixetlar, boshoyokli mollyuskalarda bitta yoki bir nechta haydovchi moslamasi bo'lib, kon aylanishning berk tizimi paydo bo'lgan. Bunda, qon to'qimalar bilan kapillyarlar orqali tutashgan.

Shunday qilib, ichki muhitning ikki turi paydo bo'lgan; kon — qon tomirlari orqali tsirkulyatsiya qiladi, tuqima suyuqligi yoki limfa — hujayralararo bo'shliqlarda joylashgan. Qon aylanish tizimining periferik qismini murakkablashishi bilan bir vaqtida, ixtisoslashgan markaziy a'zo — yurakning tarkibiy va funksional jihatdan ajralishi sodir bo'lgan. Ayrim tuban xordali hayvonlarda (lantsetnik) nasos rolini, pulsatsiyalanuvchi qorindagi qon tomiri, chuvalchanglarda esa beldagi qon tomir bajaradi. Bug'imoyoklilarda, mollyuskalarda yurakning ajralgan holda shakllanishi sodir bo'lib, kon aylanish tizimining samaradorligini ancha ko'paytirdi.

Ko'pchilik bug'imoyoklilarning yuragi qiskaruvchan trubka ko'rinishida bo'ladi. Evolyutsiyaning keyingi davrida yurak shakllanib, katta va kichik qon aylanish doirasi ajralgan. Baliqlarda bitta doira mavjud bo'lib, yuragi ikkita kameraga bo'lingan. Baliqlarda limfatik tizim mustaqil ajralib, u limfatik xaltachalar va murakkab tarmoqlangan trubkalar ko'rinishida bo'ladi. Trubkalarning periferik oxirlari berk bo'lib, venalarga ochiladi.

Reptiliyalarning yuragi, orasida tusig'i bo'lgan ikkita qorinchaga ega. Kaltakesak va ilonlarda u to'liq emas, yuksak reptiliyalarda (timsox), qushlar va sutevizuvchilarda esa bu tusiq tuliq shakllangan. Qon aylanishini katta va kichik doiraga bo'linishi tufayli, yurakning o'ng yarmida venadagi qon, chap yarmida — arteriyadagi qon tsirkulyatsiya qiladi

Yurak mushagining ko'zg'aluvchanligi. Yurak mushagini mexanik termik va kimyoviy ta'sirotlar ko'zg'ata oladi. Buning uchun, ta'sirotning kuchi bo'sag'a kuchiga teng yoki undan yuqori bo'lishi keraq agar u, bo'sag'a kuchidan past bo'lsa, yurakni ko'zg'ata olmaydi. Har kanday ko'zg'aluvchan to'qima kabi, yurak mushagi hujayralarining ko'zg'alishini ham, ko'zg'agan qismi bilan ko'zg'almagan qismi o'rtasidagi yoki hujayra protoplazmasi bilan uning tashqi muhiti o'rtasida mavjud elektr potentsiallari farqining o'zgarishdan bilish mumkin.

Ko'zg'aluvchanlik jarayonining asosida, birlamchi qo'zg'agan qismida manfiy elektr potentsialini paydo bo'lishi o'tadi. har qanday ko'zaluvchan to'kimadagi kabi yurakning ishchi xujayralari membranasi qutblangan bo'ladi. U, tashqaridan musbat qutblangan va ichki tomonidan esa — manfiy qutblangan bo'ladi. Bu holat,  $Na^Q$  va  $K^Q$  kontsentratsiyasini membrananing ikkala tomonida turlicha bo'lishi xamda ushbu ionlar uchun membrana utkazuvchanligining turlicha bo'lganligi oqibatida sodir bo'ladi. Tinchlik holatida, kardiomiaitlarning membranasi,  $Ka^Q$  va qisman  $K^Q$  ionlarini deyarli o'tkazmaydi. Diffuziya jarayoni natijasida,  $K^Q$  ionlari hujayra ichidan chiqar ekan, uning yuzasidagi musbat zaryadni orttiradi. Bu paytda membrananing ichki tomoni manfiy bo'ladi. Issiqliklar miokardida tinchlik holatidagi potentsiallarning farqi (tinchlik potentsiali) 60-80 mV ni tashkil qiladi. Turli tabiatga ega bo'lgan qo'zg'atuvchining ta'siri ostida, qo'shni *hujayra yoki* peysmekerdan qo'zg'alishning kelishi paytida Qonning hujayraga kelib tushishi sodir bo'ladi. Ushbu paytda membrana yuzasida manfiy zaryad paydo bo'ladi va potentsialning reversiyasi paydo bo'ladi. Harakat potentsialining amplitulasi 100 mV ni tashkil qiladi, hosil bo'lgan potentsial ko'shni (hujayralar membranasini qutbsizlantiradi, ularning o'zida shaxsiy potentsiallar vujudga keladi. Shunday qilib, qo'zg'alishning butun a'zo bo'ylab tarqalishi sodir bo'ladi.

Suetdiastolikdeshlyarizatsiyaning rivojlanishi tezligini AAT nazorat qilib turadi. Simpatik asablar mediatori noradrenalin sust kalsiy kanallarini faollab, o'z-o'zidan depolyarizatsiyalanishni tezlashtiradi va yurak o'rish maromini tezlashtiradi. Tayyor asablar mediatori — atsetilxolin, membrananing kaliy o'tkazuvchanligini oshirib, sustdiastloikdepolyarizatsiyani sekinlashtiradi yoki butunlay to'xtatadi. Shunda, yurak urishi sekinlashadi, hatto to'xtab kolishi mumkin. Shunday qilib, kardiomiotsitlarning harakat potentsiali o'rtacha 300 ms davom etadi. Ularning repolyarizatsiyalanishi uzoq davom etganidan, hujayra 270 ms davomida mutlaq refrakterlikda bo'ladi. Bunday xolat, yurakni tezda qayta ko'zg'alishdan va tetanik qisqarishdan saqlaydi. Undan tashqari, davomli mutlaq refrakterlik qo'zg'alishni miokardda halqa bo'ylab harakat qilishiga chek qo'yadn.

Yurakning o'tkazuvchi tizimi, Tabiiy sharoitda yurak ritmi etakchisi vazifasini sinoatrial tugun bajaradi. Tinch holatda bu tugun vujudga keltiradigan impulslar soni bir daqiqada taxminan 70 taga to'g'ri keladi, qo'zg'alish sinoatrial tug'undan yurak oldi bo'lmalarning ishchi miokardida tarqaladi. Baxman tutami qo'zg'alishning bo'l machadan chap yurak oldi bo'l machaga tez tarqalishini ta'minlaydi. Sino-atrial tugunni atrioventrikulyar tugun bilan bog'lovchi etipik tolalar mavjud. Me'dachalarga impulslar faqat Giss tutami bo'ylab tarqalishi mumkin, chunki atrioventrikulyar to'siqning boshqa qismlari kuzgaluvchan bulmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat. Ko'zgalish, o'tkazuvchan tizim bo'ylab tarqalar ekan, atrioventrikulyar tugunda bir zum to'xtab o'tadi. O'tkazuvchi tizimning boshqa qismlari — Giss tutami, chap va ung oyoqchalari va ularning shoxlari — Purkine tolalari impulslarini bir soniyada 2 m ga teng yuqori tezlikda o'tkazadi. Natijada, chap va ung mevdachalar miokardi deyarli bir vaqtida qisqaradi. Yurakning

o'tkazuzchi tizimini tashkil qiluvchi atipik hujayralarning har biri o'z-o'zidan impulslar ishlab chiqarish qobiliyatiga (avtomatiyaga) ega. Ammo, tabiiy sharoitda sinoatrial tugun pastki avtomatiya markazlarini o'ziga bo'yasindiradi. Yurakning o'tkazuvchi tizimi ritmik ravishda impulslar hosil bo'lishini, yurakoldi bo'l machalar va me'dachalarning ketma-ket qisqarishini, me'dachalar miokardi hujayralarining sinxron qisqariishni ta'minlaydi. Elektrokardiografiya. Yurakda qo'zg'alishning vujudga kelishi va tarqalishi ayrim mushaklar hujayralaridan yoki yurak yuzasidai Elektr potentsiallari farqini yozib olish yuli bilangina emas, balki yurakning ishlashi tufayli tana sirtida ro'y beruvchi elektr o'zgarishlarini (yoziib olish) bilan ham o'rganish mumkin. Sababi, yurakning qo'zg'algan va qo'zg'almagan qismlari o'rtasida elektr potentsiallarining farqi paydo bo'lganda, elektr kuch chiziqlari butun tana bo'y lab taksimlanadi. Demak tananing ma'lum nuqtalariga elektrod qo'yib, potentsiallar o'zgarishining tipik elektr chiziqlarini qayd qilish mumkin bo'lib, bu usul elektrokardiografiya deyiladi, yozib olingan egri chiziq esa, elektrokardiogramma deyiladi.

Elektrokardiogrammani yozib olish uchun, potentsiallar qo'l oyoqlardan va ko'krak hafasining ma'lum nuktalaridan olinadi. Ko'pincha elektrodlar badanga uchta standart usul bo'yicha ulanadi:

- 1-usul — o'ng qo'l va chap qo'lga,
- 2-usul — o'ng qo'l va chap oyoqqa,
- 3-usul — chap qo'l va chap oyoqqa.

Zaruriyat bo'lganda elektrokardiogramma ko'krak qafasining 6 ta ma'lum nuktasidan ham yozib olinadi. Normal elektrokardiogrammada beshta chiziqli nuqta ajratiladi va ularni R, Q, R, S, T harflar bilan belgilanadi. R, R, T nuqtalar tepaga qaratilgan, musbat Q, va S nuqtalar esa — manfiy, ular izoelektrik chiziqdan pastda. R nuqta chap va o'ng yurakoldi bo'l machalar qo'zg'alganda vujudga keladigan potentsiallarning algebraik yig'indisidir. Uning davomi 0,1 s chamasida. Q, R, S, , T nuqtalar majmuasi me'dachalar qo'zg'alganda ro'y beradigan elektrik hodisalarni aks ettiradi. Q, R, S, T majmuasi qo'zg'alishni me'dachalar bo'y lab tarqalishining aksi bo'lib, T nuqta esa ularning repolyarizatsiyasini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rsatilgan beshta nuqtadan tashqari, elektrokardiogrammada uchta interval ham ajratiladi. Birinchi interval RQ bo'l machalar qo'zg'alishini boshlanganidan me'dachalar qo'zg'alishi boshlanishigacha o'tadigan vaqtga teng. Normada R Q — interval 0,2 s. Ikkinci interval — QT me'dachalarda qo'zg'alishning tarqalish vaqt. Yurak 70 marta qisqarganda u 0,23-0,30 s bo'ladi. Uchinchi interval — T Q yurakning tinchlik holatida bo'lган vaqt, 0,4 s atrofida. Elektro kardiogramma nuqtalari voltaji qo'yidagicha: R-0,25 mV; 0-0-0,3 mV; K-0,6-1,6 mV; 5-0,25-0,40 mV; T-0,25-0,60 mV. bo'ladi. Yurak mushagining qisqaruvchanligi. Yurak mushagining qo'zg'aluvchanligi uni qisqarishiga sabab bo'ladi. Yurak mushagida ayrim tolalarning qisqarish davri harakat potenjalining davom etish vaqtiga taxminan mos keladi. Yurak tezroq urganda, harakat potentsialining va qisqarishning davom etish vaqlari qisqaroq bo'ladi. Yurak mushagining qisqarish mexanizmi, skelet mushagining qisqarish mexanizmidan deyarli farq qilmaydi. Aktin iplar miozii iplar oralig'iga sirpanib kirib, miokard tolalarini qisqartiradi. Bu sirpanish ko'ndalang ko'prikchalarning eshkaksimon harakatlari natijasi hisoblanadi. Tolalar bo'shashgan vaqtida, aktin iplar yuzasidagi ipsimon oksiltropomiozinning, troponin oqsil bilan tsisternalardan kaltsiyni tashqariga chiqib, aktin va miozin iplar sohasiga etib borishiga va troponin bilan bog'lanishiga olib keladi. Kaltsiy tropoyin birikmasining hosil bo'lishi troponin-tropomiozin majmuasining bo'shliqdagi holatini o'zgartiradi. Aktin va miozin iplar o'rtasidagi to'siq yukolib, sirpanish boshlanali. Yuqori ATF-aza faolligiga ega bo'lган aktomiozin ATF ni parchalab, energiya ajralishini ta'minlaydi. Membrananing repolyarizatsiyasi natijasida kaltsiy troponindan ajralib, sarkoplazmatik retikulum ichiga o'tadi. Kaltsiy nasosi, kaltsiy ionlarining bir qismini membrananing hujayra oralig'idagi suyuqlikka chiqaradi. Mioplazmada erkin kaltsiy kationlarining kamayib ketishi kardiomiotsitning bo'shashigi olib keladi. Qo'zg'alishni qisqarish bilan bog'lanishini, miokardda ham, kundalang va bo'ylama naychalar ta'minlaydi. Qisqarishning yuzaga chiqishida, *to'lqin* kationining harakat potentsiali vaqtida hujayraga kirish uchun juda muhim rol o'ynaydi. Kaltsiy, harakat potentsialini o'zaytirib, refrakterlikni cho'zadi.

Hujayralar oraligidan kaltsiy ionlari olib tashlansa, qo'zg'alish qisqarishdan butunlay ajraladi, ya'ni harakat potentsiali hosil bo'laveradi, ammo miotsitlar qisqarmaydi. Yurak avtomatiyasi. Yurak mushagi ham boshqa targ'il mushaklar kabi, yuqorida aytganimizdeq qo'zg'aluvchanliq o'tkazuvchanlik va qisqaruvchanlik hususiyatlariga ega. Lekin, skelet mushaklarining qisqarishlari MAT dan kelgan impulslar ta'sirida ruyobga chiqsa, yurak mushaklarining qisqarishlari esa, avtomatik ravishda, ichki «spontan» jarayonlarning natijasi sifatida paydo bo'lali. Yurak avtomatiyasi — yurakning o'zida vujudga keladigan impulslar ta'siri ostida, uning ritmik qisqarish qobiliyatidir. Har xil hayvonlarning yuragi turli avtomatizm hususiyatiga ega bo'lib, ularning ichida baqa yuragi eng uzoq muddat qisqarib turadi. Yuksak umurtqalilar va qushlarda impulsarning paydo bo'lishi yurak tugunlarida joylashgan atipik mushak hujayralari — peysmekeler funktsiyasi bilan bog'liq. Qushlar va sut emizuvchilar yuragidagi atipik to'qima, sovuqkonlilarning venalari sinusida va atrioventrikulyar sohasiga o'xshash sohalarda lokallashadi. O'tkazuvchi tizimning birinchi tutami kovak venalarni o'ng yurakoldi bo'lmachaga tutashadigan joyida joylashgan bo'lib, sinusli bo'lmachali tutam deyiladi. U, yurak avtomatikasining bosh markazi — birinchi tartibli peysmekeri hisoblanadi. Qo'zg'alish, tutamdan diffuziya yo'li bilan hamda yurak ichidagi maxsus o'tkazuvchi bog'lamlar bo'yab bo'lmachalar miokardining hujayralariga tarqaladi. Bu ikkala oqim ikkinchi tutamga etib keladi, bu tutam impulsarni generatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lib, muhim antrioventrikulir tutam hisoblanadi. U bo'lmachalar va me'dachalar chegarasida yurak to'siqining ichida joylashgan. Tutam uchta: yuqori bo'lmachalar, o'rta va pastki me'dachali qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z qo'zg'alish chastotasiga ega. Bu tutam — ikkinchi tartibli peysmekeri hisoblanadi. Qo'zg'alish normal sharoitda, bo'lmacha me'dacha tutamidan faqat bir yo'nalishda o'tishi mumkin, impulsarni retrograd o'tkazilishining imkoniy yo'q. Aynan shunday, qo'zg'aluvchanlik jarayonining harakat yo'nalishiga erishadi va buning oqibatida, bo'lmachalar va me'dachalar ishining koordinatsiyasi sodir bo'ladi. Bu tutamdan qo'zg'alish o'tishi paytida impulslar 0,02-0,04 s ushlanib qoladi, Bu hodisa antrioventrikulyar ushlanish deyilib, uning funktsional mohiyati me'dachalar sistolasi yakunlashishiga ulguradi va ularning tolalari refrakterlik fazasida bo'ladi. Yurakning ritmik faolligi ta'minlovchi uchinchi daraja — Gis tutamlari va Purkine tolalarida joylashgan. Gis tutami bo'lmacha- me'dacha tutamidan boshlanib, ikkita oyoqcha hosil qiladi va ularning biri chap, ikkinchisi ung me'dachaga boradi. Bu oyoqchalar ancha ingichka o'tkazuvchi yo'llarga shoxlanadi miokardning ichki xujayralari bilan bevosita kontakt qiladigan Purkine tolalari bilan tugaydi. Me'dachalarning o'tkazuvchi tizimida joylashgan avtomatiya markazlari — uchinchi tartibli peysmekeler deyiladi. Shunday qilib, qo'zg'alish Gis tutami oyoqchalarini buyicha yurakning tepasiga qarab yo'naltiriladi, keyin esa, u erdan oyoqchalarning shoxchalarini va Purkine tolalari bo'yicha yurakning asosiga qaytadi. Buning natijasida, yurakning qisqarishlari ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshadi, ya'ni oldin bo'lmachalar qiskaradi, keyin me'dachalarning tepasi va oxirida, ularning asoslari qisqaradi. Poyqiloterm hayvonlarda Gis tutami va Purkine tolalari bo'lmaydi va ularda, qo'zg'alish miokardning tolalari bo'yab tarqaladi. Yuqorida nomlari qayd qilingan, yurak ritmini yurgizuvchilar bir-biriga bo'ysingan holatda bo'ladi. Yurakda avtomatiya gradienti mavjud bo'lib, u o'tkazuvchi tizimlarining turli strukturalarini sinusli-bo'lmachali tutamlardan uzoqlashishiga qarab, avtomatiya qobiliyatini susayishida namoyon bo'ladi. Razryadlar soni sinusli-bo'lmachali tutamda bir daqikada, o'rtacha 60-80 imp, bo'lmachali-me'dachali tutamda — 40-50, Gis tutami hujayralarida — 30-40, Purkine tolalarida — 20 imp atrofida bo'ladi. Shunday qilib, yurakda avtomatiya markazlarining ma'lum bir ierarxiyasi mavjud bo'lib, bu hol V.Gaskellga yurak gradienti qonunini yaratish uchun asos bo'lgan. Bu qonunga binoan, yurak bo'limi sinusli-bo'lmachali tutamga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, uning avtomatiyasi shunchalik yuqori bo'ladi. Yurak avtomatiyasini baqaning ajratib olingan, ya'ni organizmdan qirqib olingan va Ringer eritmasiga solib ko'yilgan yuragida YAKKOL ko'rish mumkin. Bunda, yurak bir necha soat va kunlar ham qisqarib turishi mumkin. Issikqonli hayvonlarda yurak avtomatiyasi kuzatish uchun yurak organizmdan kesib olinadi va uning aortasiga kanyula surib quyiladi. Bu kanyula, ichiga fibrinsizlantirilgan qon yoki Ringer eritmasiga glyukoza qo'shib

solingen va yuqori ko'tarib ko'yilgan shisha idishga ulanadi. Bunda, Ringer eritmasi kislorod bilan to'yintirilib, 37-38°С gacha isitiladi (Langendorf usuli). Bu idishdan yurak aortasiga kelayotgan suyuqlik ustunining bosimi ostida, aortaning yarimoysimon klapanlari yopiladi, natijada eritma yurakni qon bilan ta'minlovchi korolar arteriyalarga kiradi va oqibatda, yurak soatlab o'z ritmida qisqarib turishi mumkin.

### *Ikkinci savol bayoni*

**Yurak tsikli va bosqichlari.** Yurakning o'ziga xos xususiyati uzlusiz ritmik faoliyat hisoblanib, u, yurak bo'lmlarining ketma-ket qisqarishi va bo'shashishida namoyon bo'ladi. Yurak bo'lmlarining qisqarishi —• sistola, bo'shashishi esa — diastola deb ataladi. Yurak uzlusiz ritmik faoliyati zanjirida alohida qaytariluvchi tsikllar ajratiladi. Yurak tsikli — yurakda bir martalik to'liq qisqarish va bo'shashish paytida sodir bo'layotgan elektrli, mexanik va biokimyoiy jarayonlarning yig'indisi hisoblanadi. Bitta tsikl bitta yurak o'rishiga yoki bitta pulsni urishiga mos keladi. Masalan, yurak har daqiqada 75 marta urganda, uning bir tsikli — 0,8 s davom etadi. Har bir yurak tsikli bo'lmachalar va me'dachalarning bittadan sistola va bittadan diastolasini o'z ichiga oladi. Ikkala bo'lmachalarning sistolasi deyarli bir vaqtning o'zida (o'ng bo'lmacha chapidan 10 s ilgari qisqaradi) sodir bo'ladi. Bu vaqtida bo'lmachalar ichidagi bosim 5-6 mm.s.u. ga ko'tariladi, ya'ni bo'shashgan me'dachalarnikidan yuqori bo'ladi. Kuchli qon oqimining hosil bo'lishi klapanlarni ochadi, qon me'dachalarga qarshiliksiz o'tadi va ularni to'ldiradi. Me'dachalarda bosim yuqori bo'lishiga qaramasdan, qonning bo'lmachalardan venaga qaytib ketishi kuzatilmaydi, chunki mushak tolalarining sfinktersimon bog'lamlari venalar yo'lini yopadi (qushlarda maxsus vena qopqoqlari bo'ladi). Tsikl 0,8 s davom etganda bo'lmachalar sistolasi 0,1 s ni tashkil qiladi. Bo'lmachalarning diastolasi bir necha soniya ko'proq davom etadi va bunda, me'dachalar sistolasining butun davrini hamda diastolasi davrining ko'proq qismini o'z ichiga oladi. Me'dachalarning sistolasi vaqt jihatidan bo'lmachalar diastolasiga to'g'ri keladi, uning o'tish muddati 0,3 s. Ikkala me'dacha ham, bo'lmachalar kabi, bir vaqtida kisqaradi. Me'dachalar sistolasi, ularning tolalarini, qo'zg'alishini miokard bo'ylab tarqalishi oqibatida paydo bo'ladigan asinxrop qisqarishi bilan boshlanadi. Bu davr qisqa bo'lib, unda, me'dachalar bo'shlig'idagi bosimning ko'tarilishi hali sodir bo'lmaydi. Bu bosim, qo'zg'alish barcha tolalarni qamrab olgandan so'ng keskin orta boshlaydi va bo'lmachalarning chapida 70-88 mm s.u. ga, o'ngida esa — 15-20 mm s.u. ga teng bo'ladi. Bosimning ortishi oqibatida, atrioventrikulyar klapanlar darhol yopiladi. Shu paytida, yarimoysimon klapanlar ham hali yopiq bo'lib, shu tufayli, me'dachalarning bo'shlig'i berk va bu erdag'i qonning hajmi doimiy bo'ladi. Qo'zg'alish natijasida mushak tolalarining kuchlanishi, ularning uzunligi o'zgarmagan holda ortadi va bu, qon bosimini yanada ortishiga olib keladi. Chap me'dachanning devori cho'ziladi va ko'krak qafasining ichki yuzasiga uriladi, ya'ni yurakning urishi paydo bo'ladi. Me'dachalardagi qon bosimi aorta va o'pka arteriyasidagi qon bosimidan yuqori bo'lganda, yarimoysimon klapanlar ochiladi, ularning yaproqlari ichki devorga yopishadi va 0,25 s davom etadigan haydash boyokichi boshlanadi. Bu bosqichning boshida, me'dachalardagi qon bosimi orta borib, chapida 130 mm s.u. va o'ngida 25 mm s.u. gacha etadi. Natijada, qon tezlik bilan aortaga va o'pka arteriyasiga quyiladi va me'dachalarning hajmi keskin kichiklashadi. Buni tez haydash boyokichi deb ataladi.

Yarimoysimon klapanlar ochilgandan keyin yurakdan qonning chikishi susayadi, me'dachalar miokardining kiskarishi ham kuchsizlanadi va sust haydash fazasi boshlanadi. Bosimning tushishi oqibatida yarimoysimon klapanlar yopiladi, oqibatda konning aorta va o'pka arteriyasiga qaytib kirish yo'lini to'sadi va me'dachalar miokardining bo'shashishi boshlanadi. Bunda, yana qisqa davr ichida, aorta klapanlari yopiq va atrioventrikulyar klapanlar esa xali ochilmagan bo'ladi. Me'dachalardagi bosim bo'lmachalardagidan sal pastrok bo'lishi bilan, atrioventrikulyar klapanlar ochiladi va me'dachalar kelgusi tsiklda haydar chiqariladigan qon bilan to'la boshlaydi, ya'ni yurakning diastolasi boshlanadi. Yurakning bu diastolasi, bo'lmachalar ping keyingi sistolasigacha davom etadi. Bu bosqich — umumiy pauza deyiladi va katta ahamiyatga ega, chunki shu davrda, sarkaplamatik retikulumning kanalchalari orqali miofibrillalardan Sa<sup>Q</sup>

ni tortib olish sodir bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, yurakning ritmik ishi, uni bo'limlarini — bo'l machalar va me'dachalarini qat'iy ketma-ketlikda qisqarishi va bo'shashishidai iborat. Yurakning ritmik faoliyati va tabaqali hamda yarimoysimon klapanlarning mavjudligi, qonni faqat bir tomonga — venadan bo'l machalar va me'dachalar orqali aorta va o'pka arteriyasiga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Yurak tonlari. Tananing ko'krak qismini chap tomonidan beshinch qovurg'a oraligida, o'mrov chizig'idan 1 sm ichkarirog'i yo'l bilan bosilganda, yurak qisqarishi vaqtidagi — yurakzarbi seziladi. Bu zARB, me'dachalar qisqargan vaqtida yurakning kundalang razmerlari o'zgarishi (ellipsoid shakllan dumaloq shaklga o'tadi), me'dachalar devorining zichligini ortishi, yurak uchining yuqoriga ko'tarilib, ko'krak devoriga uringishi oqibitida sodir bo'ladi. Yurak zARBining egri chizig'i — kardiogramma, maxsus asbob — kardiograf yordamida yozib olinadi. Yurakning sistolik va daqiqalik hajmi. Yurak qisqarishlarining kuchi va quvvatini ifodalovchi ko'rsatgichlar — yurakning sistolik va dakikalik hajmi hisoblanadi. Sistolik hajm — bitta me'dacha tomonidan bir sistola paytida haydaladigan qon hajmi. Bu o'lchov, chap me'dacha rivojlantiradigan sistolik bosim o'ng me'dachanikidan 5 marta ko'p bo'lishiga qaramasdan, ikkala me'dachalar uchun ham bir xil katgalikka ega.

Sistolik hajm yurakning katta-kichikligi, uning mushaklari qisqarishini kuchiga va qisqarishning boshida me'dachalarlagi qon miqdoriga, ya'ni qonning yakuniy diastolik hajmiga bog'liq bo'ladi. Yurak qisqargan vaqtida, normada, me'dachalardagi qonning hammasi chiqarib yuborilmaydi, tinch holatdagi sistola qonning qolgan hajmi 50 % atrofila, maksimal sistolik qisqarganda — yakuniy-diastolik hajmning 15-20% ini tashkil qiladi. Har sistolada odam yuragi aorta va o'pka arteriyasiga mos ravishda 70-75 ml qonni haydaydi, bu sistolik hajm deyiladi.

Yurak me'dachasi 1 daqqa haydaydigan qonning hajmini yurakning daqiqalik hajmi deyiladi. Bu hajmni aniqlashning turli usullari mavjud. Sistolik hajmni, yurakning 1 daqiqadagi qisqarishlari soniga ko'paytirsak yurakning dakikalik xajmini topishimiz mumkin, bu hajm odamda 4,5-5,0 1 ni tashqil qiladi. Yurakning sistolik va daqqa xajmlari o'zgaruvchan bo'lib, ular odam jismoniy mehnat qilganida, hayajonlanganida oshib ketadi. Daqqa hajmi 20-30 1 gacha ko'payishi mumkin. Yurak faolnyatinn boshqarish mexanizmlari. Sut emizuvchilar, qushlar, reptiliyalar va amfibiyalarda yurak faoliyatini boshqarish mexanizmlari printsipial jihatdan bir xil amalga oshadi va yurakning o'ziga xos xususiy mexanizmlaridan hamda yurakdan tashqari ta'sirlardan iborat. Yurak ishi, organizmnning qon aylanishga bo'lgan talabiga moslashib, o'zgarib turadi. Bu moslashuvni bir necha boshqaruv mexanizmlari ta'minlaydi. Ularning bir qismi yurakning o'zida — intrakardial yurak ichi mexanizmlari, qolganlari esa ekstrakardial yurakdan tashqari mexanizmlardir. Intrakardial boshqaruvga hujayra mexanizmlari, hujayralararo aloqalarni idora qilish mexanizmlari va asab mexanizmlari, ya'ni yurakning o'zida ro'y beradigan reflekslar kiradi. Hujayraga alokador boshqaruv mexanizmlari elektron mikroskopik tekshirishlar natijasida miokard sintisiti emasligi, u, ayrim-ayrim xujayralar — miotsitlardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Bu hujayralar, bir-biriga maxsus oraliq disklar yordamida bog'langan. Har qaysi hujayralarda, uning tarkibiy tuzilishi va funktsiyasini ta'minlaydigan oqsillar sintezini boshqaruvchi mexanizmlar bor. Miokardning ishi ko'paysa, oqsilning sintezlanishi tezlashadi, aktin va miozin miqdorlari kuchayadi, miokard gipertrofiyaga uchraydi va ish qobiliyati ortadi. Hujayraga alokador boshqaruv mexanizmlari yurakka ko'p qon qo'yilganda uning qisqarish kuchini oshiradi. Chunki, yurak miofibrillalari ko'proq cho'zilsa, aktin iplar miozin iplar oraligida ko'proq sirpanib chiqadi, faol ko'ndalang ko'prikchalar soni ortib, qisqarish quchliroq bo'ladi. Bu «yurak qonuni» deb nom olgan.

Yurak faoliyati uchun faqat kardiomiotsitlar o'rtasidagi munosabatlar emas, balki miotsitlar va biriktiruvchi to'qima hujayralari orasidagi munosabatlar ham katta ahamiyatga ega. Biriktiruvchi xujayralar miotsitlar uchun faqat tayanch tuzilmagina emas, balki ular miotsitlarga nisbatan trofik funktsiyani ham bajaradi va kreator munosabat deyiladi. Biriktiruvchi hujayralar orqali kardiomiotsitlarda energiyaga boy, yuqori molekulali organik moddalar zaxirasi doimo to'ldirib turiladi. Yurak ichida periferik reflekslar mavjud bo'lib, bu reflekslar yoyi MAT ga emas, balki miokard ichidagi intramural tugunlarda ulanadi. Dendritlari miokarddag'i va yurak tomirlaridagi cho'zilish retseptorlariga alokador afferent neyronlar, oraliq va efferent neyronlar ana shu refleks

yoyiga kiradi. Bu refleksni yurak-o'pka preparatida o'rganish mumkin. Agar o'ng bo'l machaga ballon kiritib, unga havo yuborilsa, bo'lma miokardi cho'ziladi, unda joylashgan retseptorlar ko'zg'alib, chap me'dacha miokardining qisqarish kuchini oshiradi. Bu refleksning ahamiyati shundaki, biror sababga ko'ra yurakka oqib keladigan qon miqdori oshsa, chap me'dacha kuchliroq ishlab, yurakdan chiqadigan qon miqdorini oshiradi. Intrakardial reflekslar, ko'chirib o'tkazilgan yurak ishini idora qilishda juda katta ahamiyatga ega. *Ekstrakardial boshkaruv mexanizmlari*. Yurak ishini boshqarishda MAT dan sayyor va simpatik asablar orqali keladigan impulslar etakchi rol o'ynaydi. Bu impulslar yurak urishini chastotasi (xronotrop ta'sir), kuchi (inotrop ta'sir) va o'tkazuvchanligini (dromotrop ta'sir) o'zgartirishi mumkin. Simpatik asablar atrioventrikulyar o'tkazishni tezlashtiradi, bulmachalar va me'dachalar qisqarishi o'rtasidagi intervalni kamaytiradi. Buni — musbat dromotrop samara deb ataladi. Sayyor asablar ta'siri ostida manfiy dromotrop samara vujudga keladi. Yurak qo'zg'aluvchanligi qaysi bir sababdan pasaygan bo'lsa, simpatik tolalar uni oshiradi va buni musbat batmotrop deb hisoblasa bo'ladi. Yurakka sayyor va simpatik asablarning tonik ta'siri mavjud bo'lib, ko'pchilik sut emizuvchilarda, jumladan odamlarda ham me'dachalar faoliyatini faqat simpatik asab nazorat qiladi. Bo'l machalar va sinoatrial tugunlar esa simpatik va sayyor asablar doim aptogonist ta'sir o'tkazib turadi. Bu antagonizm asablarni jarroxlik yoki farmakologik yo'l bilan qirqilganda yoki ta'sir qilinganda namoyon bo'ladi. Parasimpatik asabning ta'siri yo'qotilganda yurakning urish sonlari 40-50 % tezlashadi. Simpatik asablar ta'siri yo'qotsa, yurak urish sezilarli darajada siyraklashadi. Simpatik va parasimpatik asablarning yurakka o'tkazadigan doimiy ta'siri ularning tonusi deb ataladi. Mutlaqo denervatsiya qilingan yurakning urish chastotasi, tinch holatdaga mu'tadil yurakning chastotasidan yuqori. Bu holat, parasimpatik asab tonusini simpatik asab tonusidan ustunligini ko'rsatadi. Yurak faoliyatipi boshqarishda gipotalamusning ishtiroti muhimdir, orqa va uzunchoq miyadan tashqari (sayyor asab markazi va simpatik markazlardan tashqari), gipotalamik markazlar ham nazorat qilib turadi. Gipotalamusning ma'lum sohalarini ragbatlantirish yurak faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar yurakning urish tezligini ortishi yoki kamayishi, chap me'dachaning qisqarish kuchini oshishi yoki kamayishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Paraventrikulyar, ventromedial, preoptik yadrolar va mamillyar tana yurak faoliyatini boshqarishda bevosita ishtirot etadigan gipotalamik yadrolarga kiradi. Gipotalamus — integrativ markaz bo'lgani tufayli, barcha faoliyatlarni, jumladan yurak faoliyatini ham organizmnning xar zumdag'i extiyojlariga, hatti harakatlariga moslashishini ta'minlaydi. Bu vazifani bajarishda gipotalamusga limbiktizim va katta yarim sharlar po'stlogi uzlucksiz ta'sir ko'rsatib turadi. Bosh miya po'stloggingin yurak faoliyatiga ta'sirini o'rganishda, bosh miya po'stlog'i ruhiy faoliyatlar a'zosi ekanligi e'tiborga olinishi zarur. Ruhiy holatning o'zgarishi (quvonch, qo'rqish, hayajonlanish, g'azablanish, hujum qilish, himoyalanish) vistseral faoliyatlarning o'zgarishini talab qiladi va bu o'zgarishlarning sababchisi bo'ladi. Odam qo'rqqanida yoki quvonganida yurak dukkillab urib ketadi va miya po'stlog'i gipotalamo-gipofizar tizimni va buyrak usti bezlarining mag'iz qismini faollaydi. Bir tomondan yurakka simpatik tizim ta'siri o'tadi, ikkinchi tomondan konda adrenalin va noradrenalinning mikdorlari oshadi, natijada yurakning urish sonlari va qisqarish kuchi ortadi. Yurak faoliyatini o'zgartiruvchi shartli reflekslar hosil qilish mumkinligi ham, miya po'stlog'ini, bu faoliyatning boshkarilishida ishtirot qilishidan dalolat beradi. Bunday reflekslar, kundalik hayotimizda ham hosil bo'lib turadi, masalan, musobaqlarda ko'p ishtirot qilgan sportchilarning yuragi ular startga chiqishi bilanoq zo'riqib ura boshlaydi. Yurak faoliyatining bu xildagi shartli reflektor o'zgarishi, organizmni bo'lajak faoliyatga (yugurishga) oldindan tayyorlaydi.

Yurak faoliyatining gumoral boshqarilishida ko'pchilik biologik faol moddalar, asosan gormonlar va ba'zi kationlar ishtirot qiladi. Bunda adrenalin juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, buyrak usti bezlaridan qonga o'tar ekan, hayajonlanish, jismoniy va ruhiy zuriqish jarayonlari tezlashali. Gormon, kardiomiotsitlarning beta-adrenoretseptorlariga ta'sir qilib, xujayraning adenilattiklaza enzimini faollaydi. Natijada, faol bo'lмаган fosforilazani faol holatga o'tishi uchun zarur bo'lган tsAMF hosil bo'lishi tezlashadi. Fosforilaza esa, glikogenni glyukozaga

parchalab, miokardni energiya manbai bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, adrenalin ta'sirida membranalarning kaltsiy uchun o'tkazuvchanligini tezlashtiradi.

Me'da osti bezi garmoni bo'lgan glyukogon ham, adenilattiklazani faollashtirib, yurakning kisqarish kuchini ko'paytiradi. Yana bir talay peptid va aminlar (kortikosteroidlar, angiotenzin, serotonin) yurakka musbat inatrop ta'sir qiladi. Kalqonsimon bez gormonlari simpatik asab tizimining qo'zg'aluvchanligini oshirib, yurakning urish sonlarini ko'paytiradi. Yurak atrofidiagi muhitning ion tarkibini o'zgarishi ham uning faoliyatini sezilarli darajada o'zgartiradi. Ajratib olingen yurakni kaliy kationiga boy eritmaga solib ko'yilsa, uning qo'zg'aluvchanligi va o'tkazuvchanligi pasayadi, tolalari bo'shashib, cho'zilib ketadi, yurak diastola holatida to'xtaydi. Kaliy kationining kamayishi aritmiya paydo qiladi. Kaltsiy kationi ko'p bo'lsa, avval yurak qisqarishlari kuchayadi, keyin esa yurak sistolada to'xtab qoladi.

### ***Uchichi savol bayoni***

Umurtkali hayvonlarning qoni elastik qon tomirlar tizimi — arterial, vena va kapillyarlarning ichidan chiqmagan holda harakatlanadi. Shu tufayli umurtqalilar, bug'imoyokli mollyuskalar (sakkizoyok), igna terililarning qon aylanish tizimi — berk tizim deyiladi. Hasharotlarda, ko'pchilik mollyuskalarda qon tomirlarning uchi ochik bo'lib, qon yurakka qaytib kelishdan oldin to'qimalar orasida erkin tarqaladi. Bunday kon aylanish tizimi — ochiq tizim deyiladi.

Ichak bo'shliqlarda va tuban chuvalchanglarda qon tomirlar tizimi tushunchasi bo'lмаган. Transport funksiyasini bajaradigan suyuqlik hayvon tanasida qalin shoxlangan kanallarning maxsus tizimi bo'ladi. Bu hayvonlarda kon tsirkulyatsiya qilmasdan, balki to'qima suyuqligini aralashtrish jarayoni sodir bo'ladi. Suyuqlikning harakatlanishi uchun maxsus moslashgan primitiv qon tomirlar tizimi ilk bor chuvalchanglarda paydo bo'lgan. Bu tizimning uziga xosligi — suyuqlikni xaydaydigan qon tomirlar trubkalarini peristaltik qisqarishlarini paydo bo'lishi hisoblanadi. Lekin, bu tizimda kapillyar qiyom bo'lmaydi va arterial qon tomirlar to'g'ridan-to'g'ri to'qimalararo bo'shliqlar — lakunalarga ochiladi. Bu erda «qon» to'qima suyuqligi bilan aralashadi va to'qimalarni oziqlantirib, har bir hujayraga etib boradi. Aynan shu bo'shliklardan venalar boshlanadi. Mollyuskalarda qon tomirlar tizimi lakunar bo'lsa ham, ikki kamerali yurak paydo bo'la boshlaydi. Keyinchalik baliqlarda to'la differentsiyalangan ikki kamerali yurak va berk qon tomirlar tizimi katta va kichik doiraga oddiygina joylashgan. Qon yurakdan tugri jabra qon tomirlariga kelib, ularning kapillyarlarida gaz almashuvi sodir bo'ladi. Bu kapillyarlar yana birlashib aortani hosil qiladi va undan qon a'zo hamda to'qimalarga taksimlanadi. Ikki xil nafas oluvchi baliklarda o'pkaning paydo bo'lishi bilan yurak bo'lmasi ham to'liq ikkita kameraga bo'lingan. Yurak me'dachalari ham kisman bo'linib, sut emizuvchilarning yurak tuzilishini eslatadi. Kislorod bilan tuyingan kon o'pkadan yurakning chap bulmachasiga o'tadi, venoz qon asosiy qon aylanish doirasidan yurakning o'ng bo'lmachasiga keladi. Me'dachalarning qisman bo'linganligi qonni to'lik aralashishiga yul kuymaydi va shu tufayli, ko'prok oksigenlangan kon boshka tomon yunaladi, kislorod bilan kamrok to'yingan qon esa yurakning o'ng yarmidan bel aortasiga va qisman kopkaga boradi. Demak evolyutsiyaning bu davriga kelib, kon aylanish tizimini o'pka doirasi va boshqa a'zolar orqali aylanish doirasiga bo'linishi sodir bo'lgan.

Shunga mos ravishda, qon aylanishini katta va kichik doiralarga amalda to'liq bo'linishi paydo bo'ladi. Sut emizuvchilarda katta qon aylanish doirasi yurakning chap me'dachasidan chiqadigan aortadan boshlanadi va u ko'p sonli arteriyalarga shoxlanib, regionar qon tomirlar tarmogiga ulanadi. Shoxlangan sari arteriyalarning soni ko'payib, diametri torayadi. Bu arteriyalar aloxida a'zolarni (terini, mushaklarni, jigarni, yurakni, o'pkani, miyani, va b.) qon bilan ta'minlaydi. A'zolar tarkibidagi mayda arteriyalar (arteriolalar) mayda tomirlarni yupqa devorlar bilan qalin to'qilgan kapillyar tarmoqni shakllantiradi. Aynan shu joyda, qon va hujayralar o'rtasida moddalar almashinuvi sodir bo'ladi. Odam organizmidagi barcha kapillyarlarning umumiy yuza maydoni 1500 kv.m atrofida bo'ladi. Kapillyarlar o'zaro qo'shilishib, venulalarni hosil kiladilar. Bu qo'shilish jaraeni ikkita katta venani — kranial va kaudal venani xosil bo'lishi bilan tugaydi. Bu venalar yurakning o'ng bo'lmachasiga kelib qo'shiladi. Umumiy qoida shundan iborat bo'lib, bundan ichak va taloq mustasnodir. Chunki ularning qon tomirlari venoz konni jigarga olib kelib,

jigardagi yana bir kapillyarlar tizimiga shoxlanadi (portal qon aylanish), keyin esa kaytar venalar orkali kaudal kovak venaga kelib qo'shiladi. Sut emizuvchilarda kichik qon aylanish doirasi o'ng me'dachadan chikadigan o'pka arteriyasidan boshlanib, keyinchalik shoxlanib, o'pka qon tomirlar to'riga o'tadi va yurakning o'ng bo'l machasiga keladigan o'pka venalarga ko'shiladi. Natijada ikkala kon aylanish doirasi tutashadi. O'pka arteriyasi — yurakning ung me'dachasidan o'pkaga boradigan venoz qon okadigan yagona arteriya, o'pka venasi esa o'pkadan yurakni chap bo'l machasiga kislorod bilan to'yingan arterial kon okadigan yagona vena hisoblanadi.

Organizmda katta va kichik kon aylanish doirasidan tashkari limfatik qon tomirlar tizimi ham mavjud. Bu tizim hujayralar orasidagi suyuqlikni va to'qimalardan oqsilni resorbtsiya kilinishini, limfa hosil bo'lshi va uni venoz tizimga o'tkazishni amalga oshiradi. Qon tomirlari funktsiyasiga karab kuyidagi tiplarga bo'linadi: amortizatsiyalovchi, rezistiv, sfinkter-tomirlar, almashinuv, hajmli, shuntirlovchi. Amortizatsiyalovchi (elastik) qon tomirlarga aorta, o'pka arteriyasi va yirik qon tomirlarning o'pkaga yondosh bo'lgan qismlari kiradi. Ularning o'rtasida elastik elementlar ko'p bo'ladi. Bunday moslashuv tufayli, muntazam sodir bo'ladigan sistola vaqtida paydo bo'ladigan arterial qon bosimining ko'tarilishi silliq o'tadi.

Rezistiv (qarshilik ko'rsatuvchi) kon tomirlarga oxirgi arterial va arteriolalar kiradi. Ularning devori yo'g'on silliq mushaklardan iborat bo'lib, kiskarish paytida kundalang kesimini o'zgartirishi mumkin. Bu esa, turli a'zolarni kon bilan ta'minlash mexanizmini boshqarishning asosi hisoblanadi. Sfinkter-tomirlar prekapilyar arteriolalarning oxirgi qismi xisoblanadi. Ular, rezistiv qon tomirlar kabi, o'zining ichki diametrini o'zgartirish kobiliyatiga ega bo'lib, funktsiya qiluvchi kapillyarlar sonini va mos ravishda almashinuv yuzasini aniklashi mumkin. Almashinuv kon tomirlariga kon va to'qima suyuqligi o'rtasida turli moddalar va gazlarni almashinuvi sodir bo'ladigan kapillyarlar kiradi. Kapillyarlarning devori bir kavat epiteliy va yulduzsimon hujayralardan iborat. Bu kapillyarlarda kiskarish kobiliyatni bo'lmaydi, ularning ko'ndalang kesimi rezistiv qon tomirlardagi bosimga bog'liq bo'ladi. Yurak-tomir tizimining xajmli zvenosini postkapillyar venulalar, venalar va yirik venalar tashkil kiladi. Venalar tuzilishi buyicha arteriyalarga o'xshash, lekin ularning o'rtasiga qobig'i ancha yupqadir. Ularda, venoz qonni orqaga okishiga karshilik qiladigan klapanlar ham mavjud. Venalar katta hajmdagi konni uziga SIGDIRISHI va chiqarib yuborishi mumkin bo'lib, shu tufayli, organizm buyicha taqsimlashga yordam beradi. Eng hajmi katta venalar jigarda va qorin bo'shligida bo'ladi. Shuntirlovchi (ulovchi) qon tomirlar tananing ayrim qismlarida (qulqoq, burun, tovon va boshqa a'zolarning terisida) bo'lib, arterial qon yo'lini kapillyarlarni chetda qoldirib venoz qon yo'li bilan (arteriolalar va venulalar) o'zaro bog'lovchi anastomoz ko'rinishidadir. Ushbu qon tomirlari ochiq holatda bo'lganda, qon kapillyarlardagi qon oqimini keskin kamaytirib yoki to'liq to'xtatib venoz qon yo'liga qarab intiladi. Shuntirlovchi qon tomirlar regionar periferik qon oqimini boshqarish funktsiyasipi bajarali. Ular termoregulyatsiya qon bosimini boshqarish va uni tasimlashda qatnashadilar.

*Arterial tomirlarda qon bosimi.* Qonning, qisilish darajasi bilan belgilanadigan, arteriyalar devoriga ko'rsatadigan bosimi — arterial bosim deyiladi. Qon bosimini belgilaydigan omillarga — yurak faoliyati (qonni haydashi), tomirlar devorining cho'zilishiga taranglik bilan qarshilik ko'rsatish, qon oqimiga nisbatan periferik qarshiliklar YIG'INDISI, qonning yopishqoqligi va gidrostatik bosimi kabilar kiradi. Arteriyalardagi qon bosimi o'rtacha bir mikdordan ko'tarilib tushib turadi, ya'ni doim bir xilda turmaydi. Har bir sistola vaqtida ma'lum miqdordagi qon arteriyalarga chiqib, ularning elastik cho'zilishini oshiradi. Me'dachalar sistolasi vaqtida aorta va o'pka arteriyasiga keladigan qon mikdori, ketadigan qon mikdordan ko'p bo'ladi, shuning uchun ularda qon bosimi ko'tariladi. Diastola vaqtida me'dachalardan arterial tizimga qon chikishi to'xtaydi, yirik arteriyalardan esa qon oqishi davom etadi, arteriyalarning chuzilishi kamayadi va qon bosimi pasayadi. Sistola natijasida arteriyalarda bosimning ko'tarilishi sistolik bosimni ifodalaydi. Urta yoshdagi odamning aortasidagi sistolik bosim 110-125 mm s.u. ga teng, arteriyaning oxirgi shoxlarida va arteriolalarda bu bosim 20-30 mm s.u. gacha pasayadi, chunki u, ushbu tomirlarning yuqori gidrostatik karshiligi bilan bog'liqidir. Diastola vaqtida kon bosimining pasayishi esa, eng kam yoki diastolik bosimni ifodalaydi. Sistolik bosim bilan

diastolik bosim orasidagi farq ya'ni bosimning o'zgarish amplitudasi — puls bosim deb ataladi. Sut emizuvchilar va qushlarning erkagida arterial bosim modasini kiga nisbatan yuqori, tinch holatda yirik hayvonlarda bu bosim mayda hayvonlarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi. Arterial bosim sutka davomida o'zgarib turadi. Bu o'zgarish odamda 10 mm s.u. dan oshmaydi. Issik qonli hayvonlarda hamda sovuqqonli hayvonlardan baqada, timsoxda, toshbakada tana xaroratinig ortishi qon bosimining ko'tarilishiga olib keladi. Sovuqqonli hayvonlar organizmida, issikkonlilarga nisbatan, qon sust tsirkulyatsiya qiladi va arterial bosim ham pastroq bo'ladi. Baliklarda bosim yurak qisqarishlari chastotasi bilan uzviy bog'liqidir. Yurakka yaqin arteriyalarda puls bosimi eng yuqori bo'lib, yurakdan uzoqlashgan sari pasaya boradi, ya'ni sistolik va diastolik bosimlar orasidagi farq asta-sekin kamayadi. Arteriola va kapillyarlarda qon bosimining puls to'lqinlari yo'q ularda bosim turg'un bo'ladi, sistola va diastola vaqtida o'zgarmaydi. O'rtacha bosim maksimal bosim bilan minimal bosim orasidagi mikdor bo'lib, qonning uzlusiz harakat energiyasini ifodalandi. Periferik qarshilik — arterial bosimni belgilovchi ikkinchi omil bo'lib, asosan prekapillyar tomirlar — mayda arteriyalar va arteriolalarning diametriga bogliq. Shuning uchun ham, ularni qarshilik (rezistiv) tomirlari deb ataladi. Arteriolalar silliq mushakli qalin devorga ega bo'lib, o'z bo'shligining hajmini oson o'zgartiradi. Bo'shlik hajmini torayishi arteriyalarda qonni ushlab qolinishiga olib keladi va mos ravishda, sistolik va diastolik bosimning ortishi kuzatiladi, natijada ushbu tomirlar tomonidan oziqlantiriladigan sohada mahalliy qon aylanishining yomonlashuvi sodir bo'ladi. Arteriolalar bo'shligining kengayishi paytida esa reaksiyalarning yo'nalishi teskari tomonga o'zgaradi. Tomirlarda tsirkulyatsiya qiluvchi qonning mikdori va yopishqoqligi arteriyadagi qon bosimini belgilovchi uchinchi omil bo'lib, ko'p qon yukotish kon bosimining pasayishiga va ko'p qon qo'yish uni ortishiga olib keladi. Arterial bosim — yurakka venoz konning oqib kelishiga bog'lik, masalan mushaklarning ishlashi paytida. Bunda, Frank-Starling qonuniga binoan, qonning yurakka qelishi sistolik qisqarishni kuchaytiradi va oqibatda, uni tomirlarga oqib chiqishini kuchaytiradi. Qon bosimini aniqlash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi, birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni hayvonlarda tajriba o'tkazish paytida, ikkinchisi — bilvosita, ya'ni odamda qon bosimini o'lchash paytida. Arterial bosimning ortishini — gipertensiya, pasayishini — gipotensiya deb atashadi.

### ***To'rtinchi savol bayoni.***

Gemodinamikaning asosiy qonunlari. Gemodinamika — qonning qon tomirlardagi xarakatini o'rjanadi va gidrodinamikaning bir qismi hisoblanadi. Gidrodinamikaning qonuniyatiga binoan, naylarda suyuqlikning oqishi ikki kuchga: suyuqlik harakatini yuzaga keltiruvchi bosim, ya'ni nayning boshi va oxiridagi bosim farqiga va oqayotgan suyuqlikka ko'rsatiladigan qarshilikka bog'liq. Bu kuchlarning birinchisi — gidravlik qarshilik suyuqlik harakatiga tusqinlik qiladi. Bosimlar farqining qarshilikka nisbati, vaqt birligida, naylardan oqayotgan suyuqlik hajmini, ya'ni suyuqlik oqimining hajm tezligini belgilaydi, Bu bog'lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

P1-P2

Qq

R

Qon tomirlarda qon oqishiga ko'rsatiladigan qarshilik tomirlarning uzunligi, diametri, qonning yopishqoqligiga bog'liq. Turli tomirlardagi qarshilikni ularning uchi va oxiridagi kon bosimi farqidan bilish mumkin: qon oqimiga qarshilik qancha katta bo'lsa, tomirda qonning harakatiga shuncha ko'p kuch sarflanadi, binobarin, bu tomirdagi bosim shuncha ko'p pasayadi. Tomirlardagi qon bosimini bevosita o'lchash yirik va o'rta arteriyalarda uning atigi 10%, arteriyalarda va kapillyarlarda esa 85% pasayishini ko'rsatadi. Qon oqishining ikki tezligi o'rnatiladi. Birinchisi — chizikli tezlik — qon zarrachalarining tomirda siljish tezligini ifodalandi, o'lchash birligi — mmG's yoki smG's.da ifodalanadi. Ikkinchisi — hajm tezligi — qon tomirdan past birligida okib o'tgan qonning hajmini ko'rsatadi va mlG's da o'lchanadi.

Aorta yoki kovak venalar orqali, o'pka arteriyasi yoki o'pka venalari orqali bir daqiqada oqib o'tadigan qon hajmi bir xil bo'ladi. Yurakdan chiqayotgan qonning miqdori unga kelayotgan qon miqdoriga teng. Qatta va kichik qon aylanish doirasining butun arterial tizimi yoki barcha arteriolalar, barcha kapillyarlar, yoki butun venoz tizimi orqali bir daqiqada o'tgan qon hajmi bir xilda bo'ladi. Tomirlar tizimining har qanday umumii ko'ndalang kesimidan o'tgan qon hajmi doimiy bo'lgan holda, qon okimining chizikli tezligi bir xil bo'lmasligi kerak chiziqli tezlik tomirlarning umumiyligiga, ya'ni eniga bog'liq. Qon tomirlar tizimining eng tor joyi aorta. Arteriyalar shoxlanganda, har bir tarmoqlar yig'indisining kengayganligi kuzatiladi. Kapillyarlar turi hammadan keng, chunki barcha kapillyarlar diametrining YIG'INDISI aorta diametridan taxminan 600-800 barobar katta. Shunga binoan, aortadagi qon, kapillyarlardagiga qaraganda juda ham tez xarakatlanadi. Qon yurakdan uzlusiz ravishda okib chikmay, balki otlib-otilib chiqqani uchun, arteriyalardagi qon oqimi pulsli tabiatga ega bo'ladi. Ammo arteriola, kapillyar va venalarda qon oqimi uzlusiz, ya'ni doimiydir. Buning sababi arteriyalar devorining tuzilishidadir.

Qon tomirlar tizimidagi qonning hajmi. Qon tomirlardagi qonning umumiyligini yurakning diastola vaqtida tulishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va sistolik hajmni aniqlaydi. Katta yoshli odamda qon umumiyligini hajmining 84% katta qon aylanish, 16% kichik qon aylanish doirasiga to'g'ri keladi. Katta qon aylanish doirasini arteriyalarida umumiyligini qon xajmining 18% i saqlanadi, shundan 3% i arteriolalarga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinish turibdiki rezistiv qon tomirlarning torayib-kengayib turishi, qon tomirlar tizimining boshqa kismlaridagi qon miqdoriga sezilarli ta'sir qilmaydi. Kapillyarlarning ko'ndalang kesimi juda katta bo'lishiga qaramay, ularda qonning taxminan 6% i saklanadi xolos. Qonning ko'p qismi ya'ni 64% i venalarda bo'ladi. Demak rezistiv tomirlar qon oqimiga katta qarshilik ko'rsatadi, ammo kichik hajmga ega, hajmli tomirlar esa kam qarshilik ko'rsatib, qonning ko'p qismini o'zida saqlaydi. Diametri 0,5-2,0 mm bo'lgan kichik arteriyalar va venalar oraliq joyni egallaydi. Bu tomirlar kengayganda sig'im va qarshilik sezilarli darajada o'zgaradi.

### ***Beshinchi savol bayoni.***

Qon aylanishining boshqarilishi. Umurtqasiz hayvonlar organizmida tsirkulyatsiya qiluvchi suyutsliklar bosimini va oqimini boshqarish to'g'risida ma'lumot juda kam. Xasharotlar turining juda ko'pligiga qaramasdan, ularning tomirlar tizimini boshqarish haqida deyarli xech narsa *ma'lum* emas. Baliqlardagi vazomotor boshqarish kam o'rganilgan. Ularning ko'pchilik periferik qon tomirlari simpatik asablarga ega, lekin bu asablarning ayrimlari aslida atsetilxolin ajratadi. Atsetilxolin sut emizuvchilarda qon tomirlarni kengaytirish qobiliyatiga ega bo'lsa, baliqlarda esa, aksincha, periferik qarshilikni ko'paytirib, bosimni orttirish an'anasi topilgan.

Filogenezda gemodinamikani reflektorli boshqarilishi uchun asos amfibiyalarda namoyon bo'lgan. U, mohiyati bo'yicha, reptiliyalar, qushlar va sut emizuvchilardagidek sodir bo'ladi. Qon almashinishni boshqarish mexanizmlari shartli ravishda mahalliy (periferik yoki regional) va markaziy neyrogumoral mexanizmlarga bo'linadi. Birinchisi, a'zo va to'qimalardagi qon oqimini ularning funktsiyasiga va metabolizmning jadalligiga mos ravishda boshqarsa, ikkinchisi — organizmning umumiyligini adaptiv reaktsiyalari paytida tizimli gemodinamikani boshqaradi.

Mahalliy boshqarish mexanizmlari organizmning muayyan qismlarida qon oqimining miqdori bo'lib, bu miqdorni a'zolarning qonga bo'lgan talabiga moslashuvi asosan tomirlar diametrini o'zgartirish va qon oqimiga qarshilikni boshqarish yo'li bilan ta'minlanadi. Periferik qon tomirlarda qon oqimining o'zgarishi o'sha joyning o'zida vujudga keladigan (mahalliy) mexanizmlar yordamida, asab va gumoral yul bilan ruyobga chikadi asab va gumoral omillardan boshka, periferik qon aylanishining metabolik yo'l bilan, o'z-o'zidan boshqarilishining ahamiyati katta. Qonda kislородning miqdorini kamayishi periferik tomirlarni (arteriolalarni) kengaytiradi. Tabiiy sharoitda modda almashinuvining va kislород sarfining kuchayishi a'zolarning faolligi oshganda kuzatiladi. Faolligi oshgan to'qimalarda, miqdori ko'payadigan metabolik moddalarning ko'pchiligi, masalan karbonat angidrid, vodorod, piruvat, ADF, AMF, adenosin tomirlarni sezilarli darajada kengaytirish qobiliyatiga ega. Ularning ta'siri

mikrotsirkulyator tomirlarda yaqqol bilinadi. Mahalliy qon oqimini boshqarishda ba'zi biologik faol moddalarning, masalan, kininlar, gistamin, adrenalin va noradrenalinning ahamiyati nihoyatda katta. Hazm tizimi bezlari qo'zg'alib, shira ishlab chiqara boshlaganda qon tomirlar kengayadi. Bu, asosan bez hujayralari ishlab chiqaradigan kininlarni samarasi hisoblanadi. Masalan, bez hujayralari kallikrein deb ataladigan enzimni ishlab chiqaradi. Bu enzim plazmaning alfa-globulinni parchalab, polipetid kallidin paydo bo'lishiga olib keladi. Kallidin va bradikininga aylanadi. Kallidin va bradikinin tomirni sezilarli darajada kengaytirish qobiliyatiga ega. Gistamin asosan teri va shilliq pardalar va boshqa hujayralardan ajralib chiqib erkin holatga o'tadi. Gistamin arteriola va venulalarni kengaytiradi, kapillyarlar devorining o'tkazuvchanligini oshiradi. Adrenalin va noradrenalin, buyrak usti bezlarining mag'iz qismida oz mikdorda, uzlusiz ishlab chiqariladi. Bu gormonlar hamma tomirlarning sillik mushaklariga ta'sir qiladi. Noradrenalin, asosan tomirlarni toraytiradigan asablarning mediatori sifatida xizmat qilsa, adrenalin gormon rolili bajaradi. Buyrak usti bezidan ajraladigan katekolaminlarning 80 % adreialinga, 20 % noradrenalinga to'g'ri keladi. Vaziyatning turli o'zgarishlari, masalan ko'rqish, gazablanish va boshqalar katekolaminlarning qonga o'tishini tezlashtiradi. Adrenalin ba'zi tomirlarni toraytirib, ba'zilarini esa, aksincha kengaytiradi. Katekolaminlarning qon tomirlarni sillik mushaklariga ta'siridagi farqni, qon tomirlarda adrenoretseptorlarning ikki turi, ya'ni alfa-adrenoretseptor va beta-adrenoretseptorlar borligi bilan izohlash mumkin. Alfa-retseptorlarning qo'zg'alishi tomir mushaklarining qisqarishiga, tomirning torayishiga olib kelsa, beta-retseptorlarning qo'zg'alishi tomirlarni kengaytirishga olib keladi. Noradrenalin ko'proq alfa-adrenorezeptorlarga, adrenalin esa alfa — va beta-adreno retseptorlarga ta'sir qiladi. Ko'pchilik qon tomirlarda retseptorlarning ikkala turi ham bor. Ammo ularning nisbati bir xil emas. Agar, qon tomirda alfa-adrenoretseptor ko'proq bo'lsa, aksincha kengaytiradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, beta-retseptorlarning qo'zg'alish bo'sagasi alfa-retseptorlarnikiga karaganda past. Demak qonda adrenalin mikdori fiziologik nuqtai nazardan kam bo'lsa, u, faqat beta-retseptorlarni qo'zg'atib, tomirlarni kengaytiradi. Qonda adrenalin ko'payib ketsa, alfa-retseptorlar ham qo'zg'aladi, natijada tomirlar torayadi. Bordiyu, alfa- va beta-retseptorlar birdan ko'zgalsa, alfa-retseptorlarning qo'zg'alish samarasi ustun chikadi, ya'ni tomir torayadi.

Qon aylanishini boshqarishda mahalliy mexanizmlar bilan bir qatorda markaziy neyrogumoral boshqarishning ham roli muhimdir. A'zo va to'qimalarni, ularning funktional holatiga mos ravishda qon bilan optimal ta'minlashga yurak-tomir tizimini moslashtiruvchi koordinatsiey aktlar, asab tizimi va gumoral omillarning faoliyati hisobiga amalga oshiriladi. Bu boshqaru, o'z ichiga sezuvchi, markaziy va efferent zvenolarni olgan murakkab mexanizmlar tomonidan amalga oshiriladi. Efferent zveno asab va endokrin komponentlarga ega.

Sezuvchan zveno qon tomirlarining innervatsiyasi daraxtsimon shoxlangan erkin asab uchlari ko'rinishida bo'ladi. Qon tomirlarining retseptorlari — angioretseptorlar, funktsiyalariga ko'ra, arterial bosimning o'zgarishlariga javoban reaksiya qiluvchi baroretseptorlarga (pressoretseptorlarga) va qonning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga javoban reaksiya qiluvchi xemoretseptorlarga bo'linadi. Baroretseptor reflekslar ko'krak qafasidagi tomirlar va bo'yin arteriyalari devorida juda ko'plab joylashgan bo'lib, qon bosimi oshib, tomirlar devori cho'zilganda ular ko'zgaladi. Eng muhim baroretseptorlarga aorta ravogi, karotid sinus va o'pka arteriyasi kiradi. Aorta ravogida joylashgan retseptorlardan markazga intiluvchi chap depressor asab boshlanadi, karotid sinus retseptorlarini til-halkum asabining tarkibidagi sinokarotid asab MAT bilan bog'laydi. Baroretseptorlarda hosil bulgan afferent impulslar uzunchoq miyaning kardioinhibitorida hosil bo'lgan xarakatlantiruvchi markazlariga etib boradi. Bu impulslar simpatik markazlarni tormozlab, parasimpatik tolalar tonusini pasaytirib, yurak urushining sonlari va kuchini kamaytiradi. Baroretseptorlarni me'yoriy arterial bosim ham ta'sirlab turadi, ularga MAT ga boradigap impulslar uzlusiz ravishda depressor ta'sir ko'rsatadi. Qon bosimi ko'tarilganda baroretseptorlaridan MAT ga intiluvchi imiulslar soni oshadi, tomirlarni harakatlantiruvchi markazning tormozlanishi kuchayadi. Natijada, tomirlar yana ham kengayadi.

## 5. Mavzu: Nafas olish sistemasi fiziologiyasi

### Asosiy savollar.

1. Nafas olish organlari evalyutsiyasi. Umurtkali va umurtkasiz xayvonlarning nafas olishi.
2. Nafas olish va nafas chikarish mexanizmi.
3. O'pka va to'kimalarda gaz almashinuvining asosiy xususiyatlari.
4. O<sub>2</sub> va SO<sub>2</sub> ning qon orqali tashilish mexanizmi.
5. Nafas olishning boshqarilish mexanizmi.

### *Birinchi savol bayoni*

Barcha tirik organizmlarning hujayralari oziq moddalarning oksidlanishi parchalanishi oqibatida energiya bilan, asosan adenozintrifosfat (ATF) bilan ta'minlanadi. Hayvonlarda gazlar almashinuvining muhim mexanizmi —diffuziya hisoblanadi. Bunda gazning molekulalari partsial bosimi yuqori bo'lgan sohadan partsial bosimi past bo'lgan sohaga o'tadi. Molekulalarning o'tishi bo'yicha bajariladigan ishga ularning shaxsiy kinetik energiyasi sarflanadi. Gazlarning diffuziyali almashinushi, ya'ni kislorodning tashqaridan kirib kelishi karbonat angidridning tashqariga diffuziya bo'lishi — mikroskopik organizmlarda biologik oksidlanishni to'la o'tishini ta'minlaydi. Lekin, diffuziya sekin o'tadigan jarayon, unda moddalar nisbatan kichik masofalarga tanshiladi (0,5 mm atrofida). Moddalarni uzoq masofalarga tashilishi uchun, tez o'tadigan jarayon (konvektsiya), ya'ni kislorod va karbonat apgidridni gazli aralashma va (yoki) suyuqlik oqimi bilan tashishidan foydalilanadi. Yirik organizmlarning nafas olishini faqat respirator gazlarni konvektiv tashish ta'minlaydi.

**Umurtqasizlarning nafas olishi.** Suvda yashaydigan umurtkasizlar erigan kislorodni to'g'ridan-to'g'ri suvdan oladi va biologik oksidlanish paytida hosil bo'ladigan karbonat angidridni ham suvg'a chiqaradi. Bir hujayralilarga to'g'ridan-to'g'ri nafas olish xosdir, respiratorli gazlarni tananing butun yuzasi buylab diffuziyasi bulutlarga (gubka), yassi chuvalchanglarga hosdir. Ignatanlilarda gazlarni konvektiv tashish paydo bo'lgan, ularda kipriklarning harakati tufayli suyuqliklarning tselomik bo'shliq orqali oqishi kuzatiladi. Bularda nafas olish funksiyasi, ovqatlanish va ayiruv faoliyatidan hali ajralmagan. Quruqlikda yashaydigan umurtqasizlarning orasida biripchi bor havo bilan nafas olish turi halqasimon chuvalchanglarda kuzatiladi. Bunday nafas olish respirator a'zolar ishtirokisiz amalga oshiriladi. Gazlar apmashinushi namlangan teri qoplamasi qoplami orqali amalga oshiriladi. Mushaklarning qisqarishi tarkibida gemoglobin bo'lgan qonini chuqur joylashgan to'qimalargacha etkazib beradi. Muhit bilan gazlar almashinuvining boshqa tipi qorinoyoqli mollyuskalarda uchraydi. Ularda ixtisoslashgan nafas a'zolari — doimo namlangan barg ko'rinishidagi oddiy jabralar, yoki bo'lmasa, tashqariga ochiluvchi teshiklar — inewmostomalari bo'lshi mantiyali bo'shliq paydo bo'lgan. Berk bo'limgan qon aylanish tizimi gemoglobin ishtirokida kislorodni to'qimalarga etkazilishini ta'minlaydi. Bo'g'imoyoklilarda nafas olishning turli-tuman shakllari uchraydi. Lekin, ko'pchilik bo'g'imoyoqlilarda traxeyalar shakllangan, ular tanaga chuqur botgan. Gazlarning traxeyali almashinushi usuli hasharotlar uchun xosdir. Hasharotlarda traxeyali tizimning rivojlanishi bir tomondan xitin koplamning mavjudligi bilan, ikkinchi tomondan esa, tana massasi birligiga nisbatan hisoblanganda juda ko'p energiya sarflanishi va, bundan kelib chiqqan holda, kislorodni jadal iste'mol qilish (urchish paytida u, o'n va yuz martagacha ortadi) bilan belgilanadi. Hasharotlarning nafas olish tizimi tashqi havo bilan stigmalar orqali bog'langan, har bir stigma arterial bo'shliqka va keyinchalik asosan tana segmentlariga mos ravishda bo'linadigan keng tarmoqlangan naychalarga va traxeyalarga olib boradi. Bu tarmoklar, hujayra membranalarigacha yoki hujayra ichidagi mitoxondriyalargacha kirib boradigan, tor kalta traxeolilar bilan tugaydi. Traxeyali nafas olishning asosiy mexanizmi — gazlarning diffuziyasi bo'lib, u, hujayra va atmosfera o'rtasidagi partsial bosimning farqi tufayli ushlab turiladi. Undan tashqari, respiratorli gazlarning transporti, hattoki doimiy bo'lmasa ham, konvektiv oqimlar bilan ta'miplanadi. Traxeyalarda xavoning xarakati tananing ritmik qisqarishlari bilan chiqariladi, ular

xasharotlar asab tiziminimg bir qator gangliyalarida joylashgan markazlar tomonidan boshqariladi. Urchish paytidagi ko'krak qafasi hajmining ritmik o'zgarishlari ham traxeya faol va ular tarkibidagi suyuqlıklarni — gemolimfa plazmasini bir joydan ikkinchi joyga o'tishi bilan boshkariladi, tizimining ventilyatsiyasiga yordam beradi. Umurtkalilarning nafas olishi ixtisoslashgan a'zolar, ya'ni asosan ichak naychalarining o'simtalaridan rivojlangan a'zolar orqali amalga oshadi. Ko'pchilik baliklarga, jabralar yordamida suvli nafas olish xosdir. Ular suvni og'iz bo'shlig'iga to'ldirib, jabralari orqali o'tkazadi. Kislorodni ajratib olish uchun teskari oqim printsipi ishlatalidi, ya'ni jabra kapillyarlaridagi qon, jabra barglarini yuvadigan suvgan qarshi oqadi. Bunga balikni suv havzasida harakatlanishi yordam beradi. Jabrali nafas olishning yuqori samaradorligi, suv bilan jabra ventilyatsiyasini amalga oshiradigan mushaklarning ishlashi uchun sarflanadigan katta mikdordagi energiyani kompensatsiya qiladi. Ushbu mushaklarni uzunchoq miyadagi nafas olish markazi boshqaradi, bu markaz o'zining tashkiliyligi bo'yicha sut emizuvchilarning nafas olish markaziga yaqin bo'ladi. Karbonat angidridni suvda erish darajasining yuqoriligi, uni suvdan olish osonlashtiradi. Shu tufayli, baliqni respiratorli apparatining ishi organizmni kislorod bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Qondagi kislorod mikdori to'grisidagi signallar jabra qon tomirlarining xemoretseptorlaridan keladi va baliqning nafas olish markazi faolligini boshqaradi hamda uni suv havzasining fiziologik optimal oksigenatsiyali zonalarini tanlashga majbur qiladi. Ikki xil nafas oluvchi baliklar bitta yoki ikkita qopchasimon ixtisoslashgan a'zo — o'pka yordamida nafas oladi. Ko'pchilik amfibiyalar, havo bilan nafas olishga o'tgan bo'lsa ham, o'pkasi uncha rivojlanmagan bo'ladi. Ular iste'mol qiladigan O<sub>2</sub> va ajratilgan SO<sub>2</sub> ning ko'p qismi o'pka orkali emas, balki namlangan teri orqali diffuziyalanadi. Reptiliyalarning (sudralib yuruvchilar) tanasi dag'al teri bilan qoplanishi oqibatida suvda va teri orkali nafas olish imkoniyati yo'qoladi (suvda yashaydigan ayrim turlar va kaltakesaklardan tashqari). Shunday qilib, nafas olish evolyuiisining ushbu davriga kelib, suvli muhitdagi gaz almashinuvidan «QURUQ» ventilyatsiyaga o'tish) barqaror topgan. Sovuqonli (poyqiloterm) umurtqalilarning metabolizmi nisbatan past bo'lib, ularning nafas olish apparatini o'tkazuvchanlik qobiliyati nisbatan kichikdir. Issiqqonli (gomoyoterm) umurtqalilar — sut emizuvchilar va qushlarda almashinuv jarayonlari ancha jadal va uyg'undir. Ularda gaz almashinushi yuzasining kattalashuvi va o'pkani qon bilan ta'minlanishini ko'payishi sodir bo'ladi. Amfibiyalar va reptiliyalardan farqli o'pka ventilyatsiyasining ritmik va pauzasiz tipi shakllanadi. Bunday hayvoilarda SO<sub>2</sub> to'laligicha o'pka orqali ajratilgani, oksidlanish jaraenining kuchayishi bilan esa, bu mahsulotning ajralishini jadallahishi tufayli, nafas olishni boshqarish mexanizmi sezilarli darajada o'zgaradi. Qushlar o'pkasidagi havo va qon o'rtasidagi gazlar almashinushi, havo kapillyarlari deb nomlangan «tsilindrsimon alveolalarda», bronxlarning havo tizimida amalga oshadi. Bu tizim shunday tuzilganki, unda o'pka, bir nechta havo qopchalari yordamida nafas olish va chiqarish paytida ham toza havo bilan ventilyatsiya qilinadi. Nafas olishning bunday tipi qushlar o'rtasidagi gazlar almashinuviga yuqori samara beradi, u energiyani jadal sarflanishini, ayniqsa, uchish paytida qoplash uchun muxim ahamiyatga ega.

### *Ikinchi savol bayoni*

Odam va sut emizuvchi hayvonlarda gaz almashinushi uchun zarur bo'lgan alveolalar ventilyatsiyasi, nafas olish (inspiratsiya) va nafas chiqarish (ekspiratsiya) ning navbat bilan o'tishi oqibatida amalga oshadi. Nafas olish paytida alveolalarga kislorod bilan tuyingan atmosfera havosi kelib tushadi, nafas chiqarish paytida esa atrof muhitga, kislorodi kam bo'lgan, lekin karbonat angidridga boy bo'lgan havo chiqib ketadi. Nafas olish va chiqarish paitida havoning harakatlanishi ko'krak kafasi hajmini ketma-ket kattalashishi va kamayishi bilan belgilanadi. Ko'krak qafasining kengayishini chaqiruvchi ikkita mexanizm mavjud:

- 1) qovurg'alarining ko'tarilishi;
- 2) diafragmaning yassilanishi.

O'pkadagi gazlar almashinushi doimiy tarkibga nisbatan, gazli qorishma bilan to'lgan alveolalarning kelish kaytish ventilyatsiyasi yo'li bilan amalga oshadi. Bunda asosiy rolni diafragmaning qatiy ixtisoslashgan inspirator mushagi uynaydi, bu esa nafas olish funktsiyasini ma'lum darajadagi muxtorligini amalga oshiradi. Markaziy nafas olish mexanizmi, miya ustunining kater ixtisoslashgan neyronlar populyatsiyasi bilan namoyon bo'lgan va shu bilan birga, yuqorida joylashgan asab tuzilmalarning modullashgan ta'siriga uchraydi, bu esa uning funktsiyasiga, labillik bilan solishtirganda, sezilarli darajada to'rg'unlik beradi. Nafas olish aktini bajaruvchi mushaklar inspiratorli va ekspiratorli bo'lib, ko'krak qafasining hajmini mos ravishda kattalashuvi va kichiklashuviga yordam beradi. Inspiratorli mushak sifatida asosan diafragma mushagi xizmat qiladi. Tinch holatda nafas olish paytida, o'pka ventilyatsiyasining barcha hajmini, amalda diafragma ta'minlaydi. Nafas olish paytida, diafragma mushak tolalarining kiskarishi, uning ikkala qismini (gumbazini) yassilanishiga olib keladi. Qorin bo'shligi chekinadi va ko'krak kafasi ko'ndalang yo'nalihsda kattalashadi, uning asosi esa, kaudal qovurg'alarning ko'tarilishi hisobiga kengayadi. Diafragma boshqa inspirator mushak ya'ni tashqi qovurg'alararo mushaklar bilan sinergik ishlaydi. Normal sharoitda ekspirator mushaklar vazifasini fakat ichki mushaklar o'ynaydi. Bu mushaklarning tolalari qisqargan paytida, yuqorida joylashgan qovurga pastda joylashgan qovurg'a tomon tortiladi va kukrak qafasi pastroq tushadi. Nafas chiqarish uchun juda rivojlangan mushaklar zarur emas, chunki u, boshqa qo'shimcha kuchlar ta'sirida amalga oshiriladi. Bular bilan bir qatorda, nafas olish apparati faoliyatini kuchaytirish uchun yordamchi inspirator va yordamchi ekspirator mushaklar ham qo'shiladi. Yordamchi inspirator mushaklarga, qovurgalarni ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan, elka soxasi, kalla suyagi va umurtqa pog'onasi suyaklari ulangan barcha mushaklar kiradi. Yordamchi ekspirator mushaklarga qorin mushaklari kirib, ularning yordamida qovurg'alar pastga harakatlanib tushadi, qorin bo'shlig'idagi a'zolar esa siqiladi va diafragma bilan birgalikda yuqoriga suriladi. Inspirator mushaklarning qisqarishi tufayli chaqirilgan nafas olish paytida, ko'krak qafasi hajmining kattalashishi oqibatida, plevra tirqishlarida manfiy bosim ortadi. Nafas olishni qovurg'alarning ko'tarilishi va diafragmaning yassilanishi ta'minlaydi. Umurtqalar tanasi va yonbosh o'simtasiga qovurg'alarning boshi, to'sh suyakka esa uchi, TOG'AY va paylar yordamida birikkan bo'ladi. Qovurg'aning umurgqaga birikkan ikki nuktasidan, nafas olish vaqtida, u harakatlanadigan o'q o'tadi. Qovurg'a nafas olish paytida *shu* o'q atrofida aylanib ko'tariladi, nafas chiqarish paytida esa pastga tushadi. Nafas olish paytida qovurg'alarning ko'tarilishi ko'krak kafasining saggital va frontal yo'nalihslarida kattalashishini ta'mplaydi. Ayni vaqtda, diafragma yassilanib, pastga tushadi va ko'krak qafasi vertikal yo'nalihsda ham kattalashadi. Ko'krak qafasining harakatlari nafas mushaklari faoliyatiga bog'liq. Tinch holatda, odamning nafas olishini diaffragma va tashqi qovurg'alararo va ichki togaylararo mushaklarning qisqarishi ta'minlaydi. Ular asosiy nafas olish mushaklari hisoblaladi. Tashqi qovurg'alararo va ichki tog'aylararo mushaklardagi tolalar, bir qovurg'adan ikkinchisiga (pastdagisiga) orqadan va yuqoridan, oldinga va pastga qarab kiyshiq yo'nalihsda o'tgan. Ular qisqarganda ko'krak qafasi ikki yonga va orqadan oldinga qarab kengayadi. Diafragmaning qisqarishi esa qorin bo'shlig'idagi a'zolarni pastga va oldinga itarib siljitudi, ko'krak bo'shlig'i esa vertikal yo'nalihsda kattalashadi. Nafas olish boshlanishidan oldin qo'zg'alish diafragmada keyii qovurg'alararo mushaklarda rivojlanadi. Osoyishta nafas chiqarish paytida mushaklar faol qisqarmaydi. Ko'krak qafasi nafas olish vaqtida jamg'arilgan elastik energiya hisobiga torayadi, Nafas olish paytida nafas mushaklari bir kancha kuchlarni — ko'krak qafasining og'irligi, qovurg'a tog'aylarining elastik qarshiligi, diafragma jigar, me'da va ichaklarni pastga surganda, bu a'zolar va qorin devori qarshiliginu engadi. Nafas olish mushaklari bo'shashishi bilanoq, bu kuchlar, kengaygan ko'krak qafasini passiv holda kichraytiradi. Qovurg'alararo mushaklarni qovurg'alararo asablar, diafragmani orqa miyaning 3-5 bo'yin segmentlaridan chiqadigan diafragma asabi innervatsiyalaydi. Nafas olish paytida o'pkaning hajmi, plevra bo'shlig'idagi va alveolalardagi bosimi o'zgaradi. O'pkada mushaklarning bo'limganligi sababli (faqat bronxlarda birozgina silliq mushak tolalari bor), u mustaqil harakat qila olmaydi. Ammo, nafas olib chiqarilganda, o'pka ko'krak qafasi bilan bir vaktda kengayib-torayib to'radi. Atmosfera bosimi

o'pkaga faqat ichkaridan, nafas yo'llari orqali ta'sir kidali. Uning kuchi o'pkani kengaytiradi va kukrak qafasining ichki yuzasiga yopishtiradi. Vistseral va parietal plevralar oralig'ida maxsus suyuqlik bo'lgani uchun ular bir-birining yuzasida sirpanib, erkin harakat qiladi. Shunday qilib, nafas olish tsikli ikki fazadan: nafas olish (inspiratsiya) va nafas chiqarishdan (ekspiratsiya) iborat. Nafas olish, odatda nafas chiqarishga nisbatan qisqaroq kechadi odamda uning nisbati o'rtacha 1:1,3 bo'ladi. Nafas olish tsikli komponentlarining (fazalarning uzunligi, nafasning chuqurligi, nafas o'tish yo'llaridagi bosim va oqimning dinamikasi) nisbati pattern deb nomlangan nafas olishni xarakterlaydi. Nafas olish mushaklari o'zining ish jarayonida ma'lum bir qarshilikni engadi. Uning taxminan uchdan ikki qismi, o'pka va ko'krak qafasi devori to'qimalarining elastik qarshiligidagi to'gri keladi. O'pkaning elastik qarshiligini uchdan ikki qismi yuzaki faol moddalar — surfaktantlar hisobiga yuzaga keladi. Surfaktantlar, alveolalarning ichki tomonida yupqa qatlama sifatida joylashgan bo'lib, asosan lipoproteinlardan tashqil topgan. Nafas olishdagi noelastik qarshiliq havo o'tkazuvchi yo'llar, ayniqsa, ovoz tirkishi va bronxlar diametrining kattalashishiga bog'liq xiqildoqning kengligini boshqaruvchi mushaklar, uzunchoq miyaning ventral nafas guruhi sohasida mujassamlashgan neyronlar guruhi tomonidan, pastki hikildoq asabining vositachiligidagi boshqariladi. Nafas olish paytda hiqildoq birmuncha kengayadi, nafas chiqarishda esa, havo oqimiga qarshilikni kuchaytirib, torayadi va bu, ekspiratorli fazani uzoq muddat cho'zilishining sabablaridan biridir. Xuddi shu yo'sinda, bronxlarning diametri va o'tkazuvchanligi tsiklik ravishda o'zgaradi. Bronxlar silliq mushaklarining tonusi, ularning parasimpatik (xolinergik) innervatsiyasini faolligiga bog'liq bo'lib, mos ravishdagi efferent tolalar sayyor asab tarkibida o'tadi. Simpatik (adrenergik) innervatsiya hamda «noadrenergik tormoz» tizim, bronxit tonusga bo'shashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Odama bronxial tonusni boshqarishning buzilishi — bronxospazm boshlanishiga asos hisoblanadi. Uning oqibatida, havo o'tkazuvchi yullarning o'tkazuvchanligi keskin kamayadi (obstruktsiya) va nafasga qarshilik ortadi. Oxirgi holat, boshqa turli o'xshash sharoitlarda, uning patterniga borlikdir. O'z-o'zini boshqarishning reflektorli mexanizmi tufayli organizm, qoidaga ko'ra, nafas olishning optimal patternini tanlaydi, bunda, ventilyatsiya qilinadigan havoning har bir megriga sarflanadigan energiya ham eng kam bo'ladi. O'pka ventilyatsiyasi ko'paygan paytda nafas hajmi ortadi. Nafas hajmi — har bir nafas olish tsiklida yutiladigan havo bo'lib, sekin nafas olish paytda, o'pka umumiy xajmining nisbatan uncha katta bo'lмаган qismini tashkil qiladi. O'pka ventilyatsiyasi — vakt birligida o'pkaga kiradigan havo hajmi bo'lib, unda, o'pkadagi gazlar almashinuvida ventilyatsiya bo'layotgan havoning hammasi emas, balki uning alveolalarga borib etgan qismigina katnashadi. Shunday kilib, alveolyar bo'shlikning ventilyatsiyasi, ya'ni alveolyar ventilyatsiya o'pkada gazlar almashinuvini ta'minlaydi. Havo o'tkazuvchi yo'llarda esa gazlar konvektiv va diffuziya ro'li bilan almashadi. Traxeya, bronxlar va bronxiolalarda.

### *Uchunchi savol bayoni.*

Gazlarning almashinuvi faqatgina konvektsiya yo'li bilan o'tadi. Respiratorli bronxiolalarda va alveolyar yo'llarda, havo sekin harakatlangani tufayli, bu jarayonga diffuziyali almashinuv ko'shiladi. Bu jarayon, nafas gazlari partsial bosimining gradienti bilan belgilanadi, ya'ni  $O_2$  molekulalari alveola yo'nalishida harakatlanadi, bu erdag'i  $Ro_2$  nafas bilan kirib kelayotgan havonikiga nisbatan pastdir,  $SO_2$  molekulalari esa teskari yo'nalishda harakatlanadi. Nafas olish kanchalik sekin va chukur bo'lsa, o'pka ichidagi  $O_2$  va  $SO_2$  diffuziyasi shunchalik jadal o'tadi. Xavo o'tkazuvchi yo'llarda amalga oshadigan gazlar almashinuvi, o'pka kapillyarlari orqali sodir bo'ladi, gazlarni qon bilan uzlusiz almashinuvi o'tadigan o'pka alveolalaridagi  $O_2$  va  $SO_2$  partsial bosimini turg'unligini ushlab turishga yo'naltirilgan. Alveolalarni to'ldiruvchi gazlar aralashmasi — alveolyar gaz deb nomlangan bo'lib, sut emizuvchilar uchun o'ziga xos ichki atmosfera sifatida xizmat qiladi. Organizmda energiya sarfining ortishi naytida  $O_2$  iste'moli va  $SO_2$  ishlab chiqarish ortadi, boshqaruv mexanizmlari nafas olish chukurligi va chastotasini mos ravishda orttirish yo'li bilan alveolyar ventilyatsiyami ko'paytiradi — ya'ni giperpnoe

rivojlanib, bunda alveolyar gaz tarkibi normal holatda qoladi. Agar ventilyatsiyaning o'sishi organizmning gazlar almashinuviga bo'lgan ehtiyojidan ko'p bo'lsa (giperventilyatsiya), alveolalardan SO<sub>2</sub> ning chiqib ketishi uni to'qimalardan o'tishi bilan to'ldiriladi, natijada alveolyar RSO<sub>2</sub> pasayadi — gipokapniya rivojlanadi. Aksincha, alveolalar ventilyatsiyasining etishmasdigi paytida (gipoventilyatsiya), ularda SO<sub>2</sub> ortiqcha yig'iladi (giperkapniya), ventilyatsiya gazlar almashinuvidan keskin ravishda orqada qolgan paytda, bundan tashqari RO<sub>2</sub> ham pasayadi (gipoksiya). Bunday paytda, arterial qonda ham, mos ravishda, RSO<sub>2</sub> va RO<sub>2</sub> o'zgarishlari rivojlanadi. O'pkada gazlar diffuziyasi alveolalarda sodir bo'ladi. Alveolyar yo'llar devorining yarim sharsimon bo'rtig'ini alveola deb ataladi. Odamning har bir o'pkasidagi alveolalar soni 400 mln. atrofida bo'lib, ularning diametri 150-300 mkm ga teng. Alveola devorining tashqi yuzasi kapillyarlar bilan qoplangan, yuzaning umumiy satxi 90-100 m ni tashqil qiladi. O'pka kapillyarlaridagi qonni alveolalar ichidagi xavodan aerogematik to'siq ajratib turadi. Bu to'siq alveolalarining ichki yuzasini qoplagan surfaktant qavatidan, alveolyar epiteliydan, ular ostidagi asos membranadan, kapilllrning asos membranasidan va endotelial xujayralar qavatidan iborat. Gazlar, almashinuv jarayonida, ana shu 5 qavat to'sikdan va eritrotsit membranasidan o'tishi kerak. Kislородни alveolyar havodan konga, karbonat angidridni qondan alveolyar havoga o'tishi fakat diffuziya yo'li bilan amalga oshadi. Diffuziya sodir bo'lishi uchun, aerogematik to'siqning ikki tomonida, gazlarning partsial bosimida farq bo'lishi zarur. Gazlar arlashmasi umumiy bosimidan, shu aralashmani xosil qiluvchi gazlarning har birini hissasi to'g'ri keladigan qismi, shu gazning partsial bosimini tashkil qiladi. Aralashmaning umumii bosimini va uning foiz hisobida tarkibi aniq bo'lsa, har qaysi gazning partsial bosimini hisoblash mumkin. Aralashmadagi gazlar suyuqlikka duch kelganda, gaz, o'z partsial bosimiga borliq holda suyuqlikda eriydi. Ma'lum vaqtan keyin, gazlar arlashmasi va suyuqlik o'rtasida dinamik muvozanat vujudga keladi. Vaqt birligida suyuqlikka o'tgan gaz mikdori undan chiqqan gaz mikdoriga tenglashadi. Bu sharoitda, sukfidagi gazning partsial tarangligi, shu gazping, aralashmadagi partsial bosimiga teng bo'ladi. Alveola va kapillyar devori hisoblangan aerogematik to'siqning bir tomonida gaz aralashmasi — alveolyar havo, ikkinchi tomonida — qon turadi. Kislород ва karbonat angidrid, bu to'siqdan, erigan holda diffuziya yuli bilan o'tadi. Kislородning surfaktaptida eruvchanligi yuqori bo'lgani sababli, u, gaz diffuziyasini engillashtiradi. Diffuziyani, gazlarning alveolyar havodagi partsial bosimi va shu gazlarning qondagi partsial tarangligi o'rtasidagi farqni ta'minlaydi. Alveolyar havoda kislородning bosimi 102 mm s.u. ni karbonat angidridniki 40 mm s.u. ni tashkil qiladi. Bu gaz bilan agrogematik tusiq orgali o'zaro munosabatda bo'ladigan suyuqlik — venoz qonda, ma'lum mikdorda kislород na karbonat angidrid bor. Kislородning bu qondagi tarangligi 40 mm s.u. ni tashkil qiladi, karbonat angidridniki esa 46 mm s.u. ga teng bo'ladi. Kislородning alveolyar havodagi partsial bosimi va uning venoz qondagi partsial tarangligi o'rtasidagi farq 60 mm s.u. ni tashkil qiladi. Bu kuch, havodan qonga qaratilgani uchun, kislородни alveola bo'shligidan qonga xaydaydi. Karbonat angidridning partsial bosim va partsial tarangligi o'rtasida ham 6 mm s.u. ga teng farq bor. Ammo, bu kuch qondan alveola bo'shligiga qaratilgan bo'lib, karbonat angidridni kondan alveolyar havoga diffuzinlanishini ta'minlaydi. Karbonat angidridning, alveolyar membranada eruvchanligi yuqori bo'lganidan, bosimlar farki oz bo'lsada, qon, o'pka kapillyarlaridan o'tayotganida butunlay diffuziyalanib ulguradi. Qon o'pka kapillyarlaridan o'rta hisobda 0,7 soniyada o'tadi. Shu vaqt davomida, gazlarning alveolyar havodagi partsial bosimi va qondagi partsial tarangligi tenglashadi hamda kislород uchun 100 mm s.u. ni, karbonat angidrid uchun esa 40 mm s.u. ni tashqil qiladi. To'qimalarda, kapillyarlaridagi qon va hujayralararo suyuqlik o'rtasidagi gazlar almashinuvi diffuziya yo'li bilan yuzaga chiqadi. Diffuziyani qon va to'qima suyuqligidagi gazlarning partsial tarangligi o'rtasidagi farq ta'minlaydi. To'qima suyuqligidagi kislород ва karbonat angidridlarning miqdori hamda unga alokador partsial tarangligi juda o'zgaruvchan. Bu ko'rsatkichlar, to'qimaning qon bilan ta'minlanishiga, uning faollik darajasi va boshqa omillariga bog'lik. Kislородning to'qimalardagi tarangligi o'rta hisobda 20-40 mm s.u. ga teng bo'lsa, karbonat angidridniki esa 60 mm s.u. ga etishi mumkin. Arterial qonda bu gazlarning partsial tarangligi 100 va 40 mm s.u. ga teng. Kislородning partsial tarangligidan 60-

80 mm s.u. ga teng farq to'qimaga karatilgan bo'lib, u kislorodni qondan tuqimaga diffuziyasini ta'minlaydi. Karbonat angidridning partsial tarangligidagi 20 mm s.u. ni chamasidagi farq tukimadan konga qaratilgan bo'lib, shu yo'nalihsda gaz diffuziyasini ta'minlaydi.

### *To'rtinchı savol bayoni.*

Kislorod va karbonat angidridni qon bilan tashilishi. Organizmdagi barcha suyuqliklar qatori, qon tarkibida ham ma'lum mikdorda fizikaviy erigan gazlar bo'ladi. Suyuqlikda erigan gazlarning mikdori uning partsial bosimiga borliq. Qon orqali tashiladigan kislorod 2% atrofida, plazmada erigan xolda bo'ladi. Uning asosiy kismi esa, gemoglobin bilan mustaxkam bog'lanmagan birikma shaklida tashiladi. Kislorodning ko'p qismi, gemoglobin bilan kimyoviy bog'langan birikma ko'rinishida qon orqali tashiladi. **Kislorodni** gemoglobinga qo'shilishi gemoglobinni oksigenatsiyasi, temir valentligining o'zgarmasligi bilan, ya'ni hakikiy oksidlanishni xarakterlaydigan elektronlar o'zatilishisiz sodir bo'ladi. Lekin, shunga qaramasdan, kislorod bilan bog'langan gemoglobinni — oksidlangan (oksigemoglobin), kisloroddan ajralganini esa — tiklangan (dezoksigemoglobin) deb ataladi. Odamning 100 ml koni, o'z tarkibida 21 ml atrofida kislorodni tashishi mumkin. Bu, qonning kislorod hajmi deb yuritiladi. Oksigemoglobinning parchalanishi tana harorati va muhitda vodorod ionlari kontsentratsiyasi oshganda tezlashadi. Vodorod ionlari kontsentratsiyasining ortishi esa, o'z navbatida,  $SO_2$  ning partsial bosimiga bog'liq. Shuning uchun, to'qimalarda oksigemoglobindan kislorodni deyarli to'laligicha ajralishiga sharoit yaratiladi, ayniqsa, metabolizm jadalligi yukori bo'lган, masalan ishlayotgan mushaklarda kuzatiladi. Lekin, venoz qonda ham gemoglobin 40-70 % gacha oksigenlashgan shaklda qoladi. Odamning har 100 ml qoni to'qimalarga 5-6 ml kislorod beradi va tabiiyki, shuncha miqdordagi kislorod bilan uning o'zi o'pkada to'yinadi. Gemoglobinni kislorod bilan qo'shilishi kislorodning partsial bosimi kattaligi bilan o'lchanadi, bunda gemoglobin 50% ga to'yinadi ( $R_{50}$ ). Odamda,  $R_{50}$  normada arterial qon uchun 26,5 mm.s.u. ni tashqil qiladi. Hujayralardagi oksidlanish — almashinuv jarayonlarining yakuniy mahsuloti bo'lган  $SO_2$  kon bilan o'pkaga tashiladi va o'pka orqali tashqi muhitga chiqarib yuboriladi.  $SO_2$  fizikaviy erigan shaklda hamda kimyoviy birikma tarkibida tashiladi.  $SO_2$  bog'lanishining kimyoviy reaktsiyasi  $O_2$ ning qo'shilish reaktsiyasiga nisbatan murakkabdir, chunki  $SO_2$  transporti uchun mas'ul mexanizmlar, bir vaqtning o'zida, qondagi kislotali-ishkorli muvozanatning doimiyligini ta'minlashi ham zarurdir.  $SO_3$  to'kima kapillyarlariga kelib tushib, suv bilan qo'shib, mustahkam bo'lмаган karbonat kislota aylanadi: Ushbu qaytar reaktsyaning yo'nalihsini muhitdagи  $R_{SO_2}$  ga bog'liq bo'lib, eritrotsitlarda uni 1,5 ming marta tezlashtiradigan karbogidraza mavjud. Bu enzim, karbonat angidridning muhitdagи tarangligiga bog'liq holda, reaktsiyani ikki yunalishda tezlashtiradi. Agar tukimaning kapillyarlarida karbonat angidridning tarangligi yuqori bo'lsa, gidratatsiya reaktsiyasi tezlashadi. O'pka kapillyarlarida karbonat angidridning tarangligi ancha pasayadi, demak bu erda degidratatsiya reaktsiyasi tezlashadi. Karbonat angidrid asosan gidrokarbonat ( $NSO^-$ ) ko'rinishida tashiladi.  $SO_2$  bog'lanishiga, dezoksigenatsiya (gemoglobindan kislorod ajralishi) paytida, gemoglobinning kislotali xususiyatini irotonli bog'lanishining kamayishi yordam beradi. Bunda gemoglobin, o'zi bilan bog'langan kaliy ionini ozod qiladi va u bilan, o'z navbatida, karbonat kislota reaktsiya qiladi:



$NSO_3^-$  ionlarining bir qismi plazmaga diffuziya bo'ladi va u erda, natriy ionlarini bog'laydi, eritrotsitga esa ionlar tengligini saklash maksadida xlor ionlari kelib qo'shiladi. Undan tashqari, protopli bog'lanishni kamayishi hisobiga ham dezoksigenlashgan gemoglobin karbominli birikmalarni oson hosil qiladi va bunda, qon bilan tashiladigan  $SO_2$ ning 15% ga yaqin mikdorini bog'laydi. O'pka kapillyarlarida  $SO_2$  ning bir qismini ajralishi sodir bo'ladi va u, alveolyar gaz bilan diffuziya bo'ladi. Bunga, plazmadagiga nisbatan alveolyar  $Ro_2$  pastligi, hamda gemoglobinning oksigenatsiya paytidagi kislotali xususiyatini kuchayishi yordam beradi. Eritrotsitlarda karbonat kislotaning degidrotatsiyasi davrida (bu reaktsiya ham karboangidraza

ishtirokida keskin tezlashadi), oksigemoglobin gidrokarbonat tarkibidagi kaliy ionlarini siqib chiqaradi. NSO, ionlari plazmadan eritrotsitlarga o'tadi, S1-ionlari esa — teskari yunalishda o'tadi. Shunday qilib, har 100 ml kon, o'pkada 4-5 ml SO<sub>2</sub> ni o'zidan chiqaradi (to'qimalardan qon tarkibiga o'tgan shuncha mikdordagi SO<sub>3</sub>). Gidrokarbonat va gemoglobin konning muhim bufer tizimi xisoblanadi. Qonga metabolizm jaraenining kislotali mahsulotlari kelib tushganda, gidrokarbonat, kuchsiz (karbonat) kislotaning tuzi sifatida, o'z anionini beradi, ortiqcha SO<sub>2</sub> esa upka orqali chiqarib yuboriladi, bu esa qonning rN holatini normallashtiradi. Kislorod qondan to'qimalarga va SO<sub>2</sub> to'qima hujayralaridan konga diffuziya yuli bilan o'tadi. Bu xol, ularning partsial bosimini gematoparepximatoz tusiqning ikki tomonidagi farqi bilan belgilanadi. Arterial kondagi o'rgacha Ro<sub>2</sub> 100mm s.u. atrofida bo'ladi, hujayralarda esa, O, o'zlashtirilib, uning partsial bosimi nolga karab pasayadi. Arteriyadagi Rso, kursatkichi urtacha 40 mm s.u. ga teng bo'ladi, hujayralarda esa 60 mm s.u. gacha etishi mumkin. To'kimalarda Ro, o'rtacha 20-40 mm s.u. ga teng, lekin bu kursatkich. tirik to'kimaning turli qismlarida bir xil bo'lmaydi. Epg yukrri Ro, qon kapillyarlariping arteriyaga kushiladigan oxiri yakinida bo'lsa, eng past Ro<sub>2</sub> esa — kapillyardan eng uzoklashgan nuktada (u «samarasiz burchak») bo'ladi. Organizmning gaztransport tizimining fuktsiyasi oxir-oqibatda hujayra membranasidagi kislorodning partsial bosimini xavfli (kritik) chegaradan past bo'lмаган holatda, ya'ni mitohondriyalar nafas OLISH zanjirining enzimlari faoliyati uchun zarur bo'lган, minimal darajada ushlab turishga qaratilgan. Kislorodni jadal o'zlashtiradigan hujayra uchun xavfli Ro<sub>2</sub> 1 mm s.u. atrofida bo'ladi. Bundan kelib chikadiki, tukimalarga kislorodni etkazib berish, «samarasiz burchak» da Ro<sub>2</sub> ni xavfli darajadan pastbulmagan mikdorda ushlab turishni ta'minlashi zarur.

### ***Beshinchı savol bayoni.***

**Nafas olishni boshqarish mexanizmlari.** Nafas olishni ta'minlovchi mushaklarning qisqarishini markaziy nafas olish mexanizmi bajaradi. Nafas olishni boshqaruvchi apparatning ajralmas zvenosi sifatida xemoretseptorli va mexanoreieptorli tizimlar ham ishtirok etadi. Uzunchoq miyada bir necha guruhi nafas olish neyronlari joylashgan bo'lib, ularning impulslarni yuzaga chiqarish faolligi nafas bosqichdariga bog'liq holda o'zgaradi. Nafas olinganda impulsni yuzaga chiqarish faolligi ortadigan inspirator neyronlar va bu faollik pafas chikarilganda oshadigan ekspirator neyronlar tafovut qilinadi. Bundan tashkari, nafas bosqichlari almashganda (nafas olish tuxtab, nafas chiqarish boshlanganda yoki nafas chiqarish tuxtab, nafas olish boshlanganda) kuzgaladigan neyronlar ham bor. Nafas neyronlarining deyarli hammasi ikkita yadrolar guruxida joylashgan bo'lib, ular uzunchoq miyaning dorsal va ventral yadrolaridir. Yadrolarning dorsal guruxlni tashkil qiluvchi neyronlarning ko'p qismi inspirator neyronlardir. Ularning aksonlari diafragma asabni xosil kiluvchi motoneyeronlarda tugaydi. Yadrolarning ventral guruxidagi nafas neyronlari, inspirator va ekspirator neyronlar, asosan orqa miyaning kukrak va bel segmeptlaridagi kovurgalararo va korni mushaklari faoliyatini boshqaruvchi motoneyroplarga bog'liq Varoliy ko'prigida ham nafasni boshkarishda ishtirok qiladigan neyronlar bor. Bu neyronlar YIRINDISI pnevmotaksik markaz deb ataladi. Bu markazning vazifikasi, nafas bosqichlari almashinishini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning shikastlanishi nafas olishni juda chuzib yuboradi va nafas juda ham chukurlashadi. Markaziy nafas olish mexanizmining faolligiga, nafas tizimining mexanoretseptorlaridan keladigan afferent impulslar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu impulslar, nafas olish davomida, inspirator neyronlar faolligini bir me'yorda ortishini va nafas olish oxirida bu faollikning tusatdan tugashini ta'minlaydi. Xemoretseptorlardan keladigan impulslar kanchalik kuchli bo'lsa, inspirator neyronlarning ko'zgalishi va nafas olish shunchalik tez rivojlanadi, nafas olish bosqichi nafas chiqarish boskichiga shunchalik tez o'tadi. Natijada, nafas olish chukurlashib, tezligi ortadi. Nafas neyronlari faoliyatida uz-uzidan ko'zgalish, ya'ni avtomatiya mavjud. Ammo, nafas markazining avtomatiyasi yurak avtoma-tiyasidan farq qiladi. Nafas markazlarining neyronlari uz-uzidan kuzgalib turiish uchun, ular urtasidagi achokadorlik bulishi lozim, ikkinchidan, nafas neyronlarning retseptorlarga alokadorligi bulgan holda, ularga afferent impulslar kelib turishi

darkor. Shundan kelib chiqkan holda, nafas markazi asosai uzunchoq miyada joylashgan va bir me'yorda nafas olishni, shuningdek bu jarayonni uzgaruvchan sharoitga moslashishini ta'minlovchi neyronlar YIRINDISI hisoblanadi. Nafas markazi uz vazifasini orqa miyadagi nafas mushaklari faoliyatini boshqaruvchi motoneyronlar orkali yuzaga chiqaradi. Markaz faoliyati uchun periferik retssptorlardan kelib turadigan afferent impulsarning ahamiyati katta. MAT ning yuqori qismlari nafas markazi faoliyatiga uzlusiz ta'sir kilib turadi. Karotid koptokchalaridagi retseptorlar konda Ro, mu'tadil bulgapda ham (100 mm. s. u. gatepgbulganda) markazga afferent impulslar yuborib turadi. Bu impulsarning soni kondagi  $Ro_2$  80 mm s. u. gacha pasaysa keskin oshadi, natidada, nafas markazining ko'zgaluvchanligi oshadi, o'pka ventilyatsiyasi tezlashadi, konning oksigematsiyasi kuchayib, unda  $Ro_2$  ortadi. Karotid xemoretseptorlarga  $Ro_3$  ning pasayishi (gipoksemiya) bilan bir paytda  $Rso_2$  ning kuchayishi (giperkapniya) hamda atsidoz ragbatlovchi ta'sir kiladi va o'pka ventilitsiyasini tezlashtiradi. Gipoksemiya, giperkapiiya va atsidozlar bir paytda rivojlansa nafas markazining ko'zgalishi hammadan xam kuchli bo'ladi. Tabiiy sharoitda oksidlanish jarayonlarining tezlashuvi natijasida to'qimalar qondagi kislородни uzlashtirib, shunga yarasha konga ko'prok karbonat angidrid va kislotali tabiatga ega moddalarni ajratib chiqaradi. Karotid xemoretseptorlarning uyku arteriyasida joylashganligi bejiz emas, ular miyaga okadigan konda kislород va karbonat angididlarning mikdorini nazorat qilib turadi.

Nafasni boshqarishda ishtirot qiladigan mexanoretseptorlar o'pkaning uzida, nafas yullarida va mushaklarda joylashgan. Ulardan hosil bo'ladigan reflekslar nafas olishni chukurligi va davomiyligini boshkarib turadi. Bulardan tashkari, bu reflekslar yutalish va aksirish kabi himoya reflkslarini yuzaga chiqarishda ham ishtirot qiladi. O'pkaning chuzilishiga sezgir retseptorlar, upkaning chuzilish darajasi tugrisidagi axborotpi nafas markaziga etkazib berib turadi. Chuzilishretseptorlarning umumiysi 2 mingga yakin bo'lib, ular asosan bronxlarning silliq mushaklar qavatida joylashgan. Chuzilish reieptorlaridan boshlangan afferenttolalar adashgan asab tarkibida uzunchoq miyadagi nafas neyronlarining dorsal guruhibacha kutariladi. Nafas olish davomida chuzilish reieptorlarning kuzgalishi orta boradi. Ulardan markazga keladigan impulslar inspirator markazni tormozlaydi va nafas olish tuxtab, nafas chiqarish boshlanadi. Bu refleks inspiratsiyani tormozlovchi Gering va Breysr refleksi deb ataladi. Inspirator markaz neyronlari ikki guruxga bulinadi. Ularning 60% (Ka-neyronlar) chuzilish retseptorlaridan kelgan impulslar ta'sirida tormozlanadi, ozrok kismi esa (Kb-neyronlar) kuzgaladi. K-neyronlar Ka-neyronlar bilan tormozlovchi sinapslar orqali bog'langan bo'lib, nafas olingan paytda, bu sinapslarda tormozlanishning kushilishi (summatsiyasi) yuzaga chiqadi va Ka-neyronlarning kuzralishi so'nadi. Shu vaqtning o'zida ekspirator neyronlar ko'zgalib, nafas chiqarishni ta'minlaydi.

## **6.Mavzu: Ovqat xazm qilish sistemasi fiziologiyasi**

### **Asosiy savollar.**

1. Ovkat xazm kilishning xususiyatlari va axamiyati.
2. Me'da shirasining ajralish mexanizmi, gumoral va reflektor funksiyalari.
3. Ozika moddalarning xazm bo'lishi va so'riliши.
4. Ovkat xazm kilish bo'shligida eg karbon suv , oksil , tuz va suvning so'riliши mexanizmlari.
5. Me'daning xarakat faoliyati va uning boshkarilishi: ko'zgatuvchi va tormozlovchi asab va gumoral ta'surotlar.

### **Birinchi savol bayoni**

Organizmda uzlusiz sodir bo'ladigan modda va energiya almashinushi ozuqa moddalarni doimo sarflanishini talab qiladi. Organizmning ichki resursi chegaralangan bo'lgani sababli, hayot faoliyatini kuvvatlash uchun ovkat tarkibida oziqa modlalar kelib turishi zarur. Ovqatning asosiy komponentlari — oksil, yoglar, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va suv bo'lib, nativ (o'zgarmas) xolatda organizm tomonidan suv, eriydigan mineral tuzlar va vitaminlar so'riliши mumkin. Yuqori molekulyar birikmalar bo'lgan (polisaxaridlar) oksillar, yoglar va uglevodlar membranalar orqali o'tishi uchun, avval, nisbatan oddiy molekulalargacha parchalanishi kerak. Erimaydigan mineral tuzlar va vitaminlar, ovqat xazm qilish jarayonida eriydigan shaklga aylanadi. Ovqat xazm qilish — bu mexanik fizik-kimeviy va biologik jarayonlarning birligi bo'lib, ovqat bilan kelib tushgai murakkab oziqa moddalarni orsanizm assimilyatsiya qilish mumkin bo'lgan, nisbatan oddiy birikmalargacha parchalanishi ta'minlaydi. Ovkat hazm kilishning moxiyati va tiplari. Me'da ichaktraktidagi mexanik jarayonlar ovqatning tarkibiy tuzilishini va fizikaviy xossalarni, ya'ni zichligini, konsisteniiyasini, zarrachalarining kattaligini va boshqalarni o'zgarishiga olib keladi. Bu hol, chaynash, me'da-ichak trakti mushaklarining qisqarishi, hazm shiralarini suyuq qismlarining ta'siri oqibatida yuzaga keladi, Fizik-kimyoiy jarayonlar (masalan, me'dada xlorid kislotaning yoki ichakda o'tning yuzaki faol moddalarining ta'siri) ovqat zarrachalarining bo'rtishiga, ular yuzasining tarangligini ortishiga, enzimlarning faollashuviga, tuzlarning eruvchanligini oshishiga yordam beradi. Biologik jarayonlar — ovqatni me'da-ichak trakti bo'limlari orqali sekin-asta o'tishi paytida, uning oziqa polimerlarini enzimli gidroliz okibatida, avval oraliq mahsulotlarga gacha, so'ngra monomerlarga gacha parchalanish jarayonlaridir. Ovqat xazm qilish traktidagi enzimli tizimga quyidagalar kiradi: 1. Ovkat xazm kilish sekretlarining enzimlari, ular devor ichidagi yoki devor ortidagi bezlar tomonidan ajratiladi; 2. Ovkat xazm kilish traktidagi mikroorganizmlar tomonidan hosil qilinadigan eizimlar; 3. o'simlik ozukalari tarkibidagi enzimlar. Oksillarni parchalashda proteazalar (endo — va ekzopeptidazalar), uglevodlarni parchalashda — karbogidrazalar (amilaza, glyukozidaza, insertaza, galaktozidaza), nuklein kislotalarni parchalashda — nukleazalar (ribomukkleaza, dezoksiribonukleaza), yoglarni parchalashda — karboksil esterazalar (lipaza, fosfolipaza, xolinesteraza) katnashadi. Ozika moddalar gidrolizining yakuniy maxrulotlari monomerlar, ya'ni oqsillar gidrolizida — aminokislotalar, yoglar gidrolizida — yog kislotalari va glitserin, uglevodlar gidrolizida — oddiy geksozlar, asosan glyukoza hisoblanadi. Nuklein kislotalar purinlar, pirimidonlar, ribozalar, dezoksiribozalar va fosfatlarga gacha parchalanadi. Kavsh qaytaruvchi xayvonlarda yakuniy metabolitlar o'zgacha bo'lishi mumkin. Ovqat xazm kilish enzimlarining spektri va faolligi hayvonlarni ovqatlanish xarakteriga borliq bo'lib, o'txo'r va yirtqich xayvonlarda proteazalar, o'txo'rlarda — karbogidrazalar ustunlik qiladi. Enzimlar spektri hayvonlarning yoshiga qarab ham o'zgaradi. Oplatim mikroblar tomonidan kayta ishslash (bu ham enzimli) me'da-ichak traktining turli bo'limlarda yashaydigan bakteriyalar va oddiy jonzotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jaraenlar kavsh qaytaruvchi xayvonlarning me'daoldi bo'limida, ayniksa, jadal sodir bo'ladi. Mikroorganizmlarning faol ishtirokida sodir bo'ladigan ovqat xazm qilishnishi simbiont deb nomlanadi (grekchadan sym-

hamkorlikda, biontos-yashovchi). Bunda, mikroorganizmlarning enzimlari erdamida, "xo'jayin yutgan ovkatning komponentlari parchalanali va utilizatsiya kilinadi, xujayinning o'zi esa, mikroorganizmlar xaet faoliyatining mahsulotlaridan hamda simbiontlar tarkibiy tuzilmalaridan iborat ikkilamchi ozukadan foydalanadi. Oxirgisi, asosan kavsh qaytaruvchi xayvonlarga taalluqli. Ovkat hazm qilish tizimining yuksak xayvonlar va odam uchun xos bo'lган, tarkibiy-funksional tuzilishi uzoq muddatli evolyutsion rivojlanish natijasida shakllangan. Xozirgi zamon hayvonat dunesida ovqat xazm kilishning uchta tiplari, ya'ni xujayra ichida, hujayra tashkarisidagi distant va membranada (devor oldi, kontakt) hazm qilish tiplari mavjud.

Hujayra ichida xazm qilish tipida ozika moddalarning enzimli gidrolizi hujayradan tashqarida sodir bo'ladi. Bu tip xazm qilish oddiy jonzotlarda va ancha primitiv ko'p xujayrali organizmlarda (gubkalar, yassi chuvalchanglar) uchraydi. Nemertinlar, ignatanlilar, yumaloq chuvalchanglar va mollyuskalarda, hujayra ichida hazm qilish, gidrolizning ko'shimcha mexanizmi hisoblansa, yuksak xayvonlar va odamlarda esa u chegaralangan moxiyatga ega va ximoya funktsiyasini (fagotsitzni) bajaradi. Hujayradan tashqarida — distant hazm qilish tipida sekreter hujayralar tomonidan sintezlanadigan enzimlar hujayradan tashkari muhitga ajratiladi va u erda, ularning ozika moddalarga gidrolitik ta'siri sodir bo'ladi. Bu tipdagи hazm qilish yumaloq chuvalchanglarda, kisqichbaqasimonlarda, hasharotlarda, boshoyoklilarda, xordalilarda va odamlarda rivojlangan bo'ladi. Hujayra tashqarisida xazm bo'lishni distantli deyilishiga sabab, nomlari qayd qiliigan hayvonlarorganizmlaridagi sekreter hujayralar, enzimlari ajratiladigan bo'shliliklardan tashqarida, ya'ni uzoqda joylashgan. Distant xazm qilish maxsus bo'shlilikdagina emas, balki organizmdan tashqarida ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim hasharotlar xazm enzimlarini harakatsizlantirilgan o'ljasiga kiritadi, bakteriyalar esa usish ko'payish (kultural) muhitiga enzimlarini ajratadi. Membranada (devor oldi, kontakt) ovqat hazm qilish, ichak hujayralari membranasining tarkibiy tuzilmalarida lokal joylashgan enzimlar tomonidan amalga oshiriladi. Agar, bo'shliqda joylashishiga qaralsa, bu tip hazm qilish, hujayra ichida va hujayra tashqarisida xazm qilishlar o'rtasida oraliq holatni egallaydi. Ovqat xazm qilish tiplari amalga oshish joyiga karabgina emas, balki enzimlarning manbai buyicha xazm tavsiflanadi. Masalan, 1) xususiy ovqat hazm qilish, bunda enzimlarning manbai organizmlarning o'zi hisoblanadi; 2) simbiont ovqat xazm qilish, bu me'da-ichak trakti mikroorganzmlari hisobiga sodir bo'ladi; 3) autolitik ovqat hazm qilish. Odam va ko'pchilik tur xayvonlarda, asosan xususiy ovqat xazm qiliish tipi sodir bo'ladi. Simbiont ovkat hazm qilish esa, ularda ikkinchi darajali hisoblanadi. Lekin, vitaminlar va ayrim almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar ishlab chiqish, me'da-ichak traktining mikroorganizmlari tomonidan amalga oshiriladi. Simbiont ovqat xazm qilish, kavsh qaytaruvchi hayvonlarda asosiy tip hisoblanadi. Ularning ko'p kamerali me'dasini oldingi bo'limlari mikrofloraga boy bo'lib, ular, tsellyulozani va O'SIMLIK ozuqasining boshka komponentlarini xazm qilishda ishtirot etadilar. Simbiont ovkat hazm qilish xaltalilar va tuban organizmlarga, xususan bugimoeklilarga xosdir. Autolitik ovqat xazm qilish deganda, ovqatni, o'zining tarkibida mavjud bo'lган enzimlari hisobiga xazm bo'lishi tushuniladi. Masalan, o'txo'r xayvonlar ko'k ozuka iste'mol qilganda, ular komponentlarining parchalanishi, qisman ushbu o'simlik hujayralarida mavjud enzimlar xisobiga sodir bo'ladi.

### ***Ikkinchи savol bayoni.***

Me'da-ichak traktining sekretor funktsiyasi. Me'da ichak traktining sekretor funktsiyasi — xazm bezlari tomonidan amalga oshiriladi. Naychasimon (me'da va ichak bezlari) va atsinar bezlar farqlanadi. Oxirgisi shira ajraladigan bo'shlak atrofida birlashgan hujayralar guruhidan tarkib topgan (so'lak bezlari, jigar, me'da osti bezi). Ovqat hazm qilish bezlarining hujayralari ajratadigan shirasining tavsifiga ko'ra oksil, mukoid va mineral shira ajratuvchi xujayralarga bo'linadi. Bezlarining shirasi tarkibida, me'da-ichak traktida, ozuqa moddalarni gidrolizlaydigan enzimlar, gidroliz uchun optimal rN darajasini xosil qiluvchi xlorid kislota va bikarbonat, yoglarni xazm kilinishi va so'rilihida muxim ahamiyatga ega o't tuzlari hamda me'da shilliq

moddasining asosini tashkil qiluvchi mukoid moddalar kelib tushadi. Tomirlardagi qon oqimi orqali hujayralarga suvni, noorganik va past molekulalari organik birikmalarni kelib tushishini, ulardan shira mahsulotlarini sintez qilishni va ularni xujayradan chiqarishni ta'minlaydigan, ma'lum bir ketma-ketlikda davriy qaytarilib turadigan jarayonlar — sekreter tsiklni tashkil qiladi.

*So'lak bezlari.* Ovqatni ogiz bo'shligida chaynash jarayoni boshlanishi bilan so'lak bezlaridan so'lak ajralishi boshlanadi. Sulak uch juft yirik va ko'p sonli mayda so'lak bezlarining maxsuloti hisoblanadi. Yirik bezlarga qulqoldi (seroz), jagosti (serozli-shilliq) na til osti (shilliq) bezlar, maydalariga esa til, jag va tanglayni qoplagan shilliq pardadagi bezlar kiradi. Bu bezlar ajratadigan so'lak tarkibida mutsin (shilliq modda) va seroz mikdorining farkiga ko'ra turlicha bo'ladi. Tarkibida mutsin mikdori ko'p bo'lgan sulakni til ildizida va tanglayda joylashgan bezlar ajratadi, oksil mikdori ko'p bo'lgan sulakni esa kuloq oldi va tilning yon yuzasidagi mayda bezlar ajratib, ularda mutsin deyarli bo'lmaydi. Seroz bezlar ajratadigan sulak suyuq bo'ladi, mutsinli so'lak esa kuyuq bo'ladi. Jag osti va til bezlari shilimshiq va seroz hujayralarga ega, tilning uchi, lunj va lablardagi mayda bezlar ham aralash bezlar hisoblanadi, shu sababli xam mutsinli va serozli so'lak ajratadi. Odamda bir sutkada 0,5-2,0 l so'lak ajraladi. Uning tarkibida gidrolitik enzim alfa-amilaza, mukopolisaxaridlar, glikoproteinlar, oksillar, NaQ, K<sup>Q</sup>, Sa<sup>2Q</sup>, S1<sup>Q</sup>, NSO, va boshqa ionlar, kam mikdorda lizotsim, katepsinlar, kallikrein mavjuddir. So'lak biroz kuykalangan va chuziluvchan suyuqlik bo'lib, uning rN darajasi 5,8-7,4 atrofida bo'ladi. So'lak kam ajralganda reaktsiyasi kuchsiz kislotali, ko'p ajralganda esa kuchsiz ishkorli bo'ladi. So'lak ajralishi tezlashishi bilan ionlar kontsentratsiyasi ortadi, lekin uning osmotik bosimi kon plazmasinikidan doim kamdir. Bu xol, so'lak bezlarining so'lak yo'llarida faol ajralishi va reabsorbsiya jarayonlari bilan belgilanadi. So'lakning 99,4-99,5% i suvdan iborat bo'lib, qolgan 0,5-0,6% i kuruq modda.

*Me'da bezlari.* Me'daga tushgan ovqatning ichki qismlariga, me'da ishrasining xlorid kislotosi juda sekinlik bilan kiradi. Muhit kislotalikka aylanmaguncha, so'lak amilazasi polisaxaridlarning parchalanishini me'dada davom ettiraveradi. Me'da shirasi tarkibidagi enzimlar, oksillarning kimeviy jixatdan qayta ishlanishini boshlab yuboradi. Me'dada bir necha soat turgan ovqatning moddalari eriydi, yumshaydi, shiraga aralashadi va asta-sekin O'Nikki barmokli ichakka o'tadi. Bu jarayonlar, me'daning sekretor va motor faoliyatlariga bog'liq. Bulardan tashqari, me'da inkretor so'rish, ekskretor va ovqat hazm qilishga bog'liq bo'lмаган faoliyatlariga ham ega.

Me'laning shilliq pardasida joylashgan bezlar shira ishlab chiqaradi. Bu bezlar, maxsus bez hujayralaridan — glandulotsitlardan tashkil topgan. Me'da shirasining asosiy tarkibiy qismi proteolitik enzimlarni — asosiy glandulotsitlar, xlorid kislotani — parietal glandulotsitlar sintezlaydi. Mukotsitlar, shira tarkibiga shilliq ajratadi. Me'daning pilorik (chiqish) qismidagi muhitning rN darajasi, bu erdag'i bezlarning tarkibida parietal glandulotsitlarning yukligi sababli ishkoriyidir. Me'da shirasi, me'da bezlari tarkibiga kiruvchi, morfologik jixatdan bir xil bo'lмаган hujayralar va yuzaki epiteliy xujayralar tomonidan ishlab chiqariladi. Me'da tubida va tanasida joylashgan bezlar uch xil tipdag'i hujayralarni o'z ichiga oladi: 1) xlorid kislota ishlab chiqaradigan hujayra; 2) asosiy hujayralar, ular proteolitik enzimlar majmuasini ishlab chiqaradi; 3) ko'shimcha (mukoid) hujayralar, ular shillik (mutsin), mukopolisaxaridlar, gastromukoprotein va bikarbonat ajratadi. Me'daning antral bo'limidagi bezlar asosan mukoid hujayralardan iborat. Me'da tubidagi va tanasidagi sekretor hujayralar: kislotali va ishqorli shira ajratadi, antral bo'lim xujayralari esa — faqat ishqorli shira ajratadi. Bir kecha-kunduzda odamning me'dasi 2,0-3,0 l shira ajratadi va uning reaktsiyasi, ertalab, ovqat emasdan oldin neytral yoki ishqorli bo'ladi, ovqat egandan so'ng — kuchli kislotali bo'ladi (rN 0,8-1,5).

*Xlorid kislota* ajratadigan hujayralarning o'ziga xosligi ularda sekretor naychalarning mavjudligidadir. Xlorid kislotaning maksimal ajralishi ushbu xujayralarning son miqdori bilan turridan-to'gri bog'likdir. Bu hujayralarning yuzasida bo'lgan chukur bo'rtmalar mavjud. Tinch xolatdag'i xujayralarda sekretor naychalar yaqqol namoyon bo'lmaydi, ularning o'rnida pufaksimon xosilalar, ya'ni tubulovezikulalar ko'rindi. Faol sekret ajrataetgan hujayralarda esa, tubulovezikulalar ko'rinxay qoladi, sekreter naychalar esa kattalashadi. Rangsiz va tiniq shirada

0,3-0,5 % mikdorda xlorid kislota borligi sababli rN 1,5-1,8 atrofida bo'ladi. Xlorid kislota (me'da va umuman xazm tizimi faoliyati uchun muxim bo'lgan): 1) pepsinogenlarni faol pepsinga aylantiradi; 2) pepsinlarning faollashuvi uchun zarur bo'lgan kislotali MUHITNI hosil kiladi; 3) ovkat oqsillarini denaturatsiyaga uchratadi, yumshatadi, natijada ularning parchalanishi engillashadi; 4) pilorusning ochilib yopilishi va ximusning ichakka o'tishini boshqarilishida ishtirok etadi; 5) me'da va ingichka ichakning shilliq pardalaridan konga gormonlarning ajralishini o'zgartirib, xazm tizimi faoliyatini boshqarishda ishtirok qiladi; 6) me'dadagi mikroblarning ko'payishiga yul kuymaydi, ya'ni bakteritsid tasirga ega. Me'da bezlarining bosh xujayralarida proteolitik enzimlar, ya'ni faol bo'lman pepsinogenlar sintezlanadi, ular, me'da shirasining asosiy gidrolitik enzimi hisoblanadi. Ribosomada sintezlanadigan proenzim zimogen granulalari ko'rinishida to'planadi va ekzotinoz yo'li orqali meda bezining bo'shliga o'tadi. Me'da bo'shlikida pepsinogendan ingibirlanuvchi oqsilli majmua parchalanadi va pepsinga aylanadi. Pepsinogenning faollashuvi NS1 yordamida boshlanadi, keyinchalik esa autolitik holda davom etadi, ya'ni pepsin, o'zining proenzimini faollashtiradi. Xozirgi paytda pepsin deb, bir nechta proteolitik enzimlar qorichasi belgilangan. Odamda 6-8 ta bir-biridan immunogisto kimsiyi jihatdan farqlanadigan turli enzimlar topilgan. Ulardan tashqari boshqa proteolitik enzim — gastriksin ham mavjuddir. Umurtqasiz hayvonlarning me'dasida pepsin deyarli bo'lmaydi, kavsh qaytaruvchi hayvonlarning me'dasida, ona suti bilan oziklanadigan davrida sutni xazm qiladigan ximozin (renin) enzimi topilgan. Me'da sekretsiyasini boshqarishda atsetilxolin, gastrin va gistamin asosiy o'rin egallab, ular sekreter hujayralarni ko'zgatadi. Sayyor asabning xolinergik tolalaridan ajraladigan aitetilxolin, me'danining sekretor hujayralariga to'rridan-to'rri ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, atsetilxolin me'danining antral bo'limidagi xujayralardan gastrin ajralishini chaqiradi. Gastrin qon oqimiga kelib tushadi va sekretor hujayralarga eidokrin yo'l bilan ta'sir ko'rsatadi. Me'danining shillik katlamida hosil bo'ladigan gistamin enteroxromaffin (kalamushlar, sichkonlar) va semiz (boshqa hayvonlar va odamlar) xujayralarda yigiladi. Gistamin, me'danining sekretor xujayralariga parakrin yo'l bilan, N<sub>2</sub>-gistaminli retseptorlar vositachiligi orqali ta'sir ko'rsatadi. Me'da sekretsiyasini boshkarishda ko'zgatuvchining ta'sir joyiga karab miya, me'da va ichak bosqichlari farqlanadi. Miya boyokichida, ovqatni qabul qilish bilan boglik barcha faktorlar ragbat hisoblanadi. Bunda, ovqatning ko'rinishi va xidiga, ovkatni qabul kilishdan oldingi sharoit tufayli paydo bo'ladigan shartli reflekslar, ovqatni chaynash va yutish paytida paydo bo'ladigan shartsiz reflekslar bilan umumlashadi. Me'da sekretsiyasining miya bosqichini tajribada boshqalaridan ajratib o'rganish mumkin. Buning uchun itning qizilo'ngachi kesilib, ikki uchi bo'yndan tashkariga chiqarilib, me'dasiga fistula o'rnatiladi. Bunda sayyor asabning tolalari tomonidan me'danining innervatsiyasi eakdangan bo'ladi. Me'dasi izolyatsiya qilingan itning oldigaovkat kuyilganda, u ovqatni chaynab yutadi, ammo luqma me'daga borib etmasdan, qirqilgan kizilo'ngachdan tashkariga chiqib ketadi. Shunga karamasdan, oradan 5-10 daqiqa o'tgach me'dada shira ajrala boshlaydi. Shira ajralishini ovkat eyiladigan tanish sharoitga, ovqatning ko'rinishiga va xidiga nisbatan paydo bo'lgap shartli reflekslar, shunnngdek ovqatni chaynab yutilganda ko'zgalgan ta'm sezish, xid bilish va mexanoretseptorlardan vujudga kelgan shartsiz reflekslar ta'minlaydi. Bu reflekslarning efferent yo'li sayyor asab tarkibida o'tadi. Agar sayyor asab kesilsa, soxta ovqatlantirish shira ajralishini hosil qilmaydi. Me'da sekretsiyasining, itlarda topilgan miya boskichiga oid konuniyatları odamlarga ham xosdir.

*Me'daosti bezi.* Kecha-kunduz davomida odamning me'daosti bezi 1,5 -21 shira ajratadi, uning rN darajasi o'rtacha 7,5-8,8 ga teng. Bazal va ragbatli sekretsiyalar bo'ladi. Birinchisi me'da osti bezining hujayralariga xos avtomatizm bilan belgilansa, ikkinchisi, ovkat qabul qilish bilan ta'sirga ko'shiladigan, neyrogumoral tabiatga ega boshkaruv omillarining hujayralarga ta'siri natijasi xisoblanadi. O'txo'r hayvonlarda (it, mushuk) va chuchkada elektrolitlarning bazal sekretsiyasi kam yoki umuman bo'lmaydi. Bunday xayvonlarning me'da osti bezi, elektrolitlar sekretsiyasining ragbati sekretining ta'siriga juda sezuvchan. O'txo'r xayvonlarda (sigir, ko'y, kuyon) va kalamushda, me'da osti bezida elektrolitlarning bazal sekretsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi, uning sekretinga reaksiyasi esa sustdir. Elektrolitlarning bazal sekretsiyasini tavsifiga binoan, odam birinchi guruhga mansubdir.

Me'da osti bezining atsinar hujayralari ovkat moddalarining barcha komponentlarini parchalovchi gidrolitik enzimlar ajratadi. Alfa-amilaza, lipaza va nukleaza faol holatda ajraladi, tripsinogen, ximotripsinogen, profosfolipaza A, proelastaza va prokarboksipeptidaza A va V — proenzimlar ko'inishida ajraladi. Tripsinogen o'n ikki barmokli ichakning enterokinaza enzimi tomonidan faollashtiriladi va tripsinga aylanadi. Tripsin hosil bo'lgandan keyin, uning o'tmishdoshini keyinchalik faollahushi auto-katalistik tarzda o'tadi. Tripsin profosfolipaza A, proelastaza va prokarboksipeptidaza A va V kabilarni ham faollashtiradi, natijada, ular mos ravishda, fosfolipaza A, elastaza va karboksipeptidaza A va V kabilarga aylanadi. Me'da osti bezi shirasining enzimlar tarkibi, qabul qilingan ovqatning turiga bog'liq. Uglevodlar ko'p bo'lsa, amilazaning sekretsiyasi ko'payadi, oqsillar ko'p bo'lsa — tripsin va ximotripsin, yoki ko'p bo'lsa — lipolitik enzimlarga boy shira ajralishi ko'payadi. Me'da osti bezi shira yullari naylarining hujayralari bikarbonat manbai hisoblanadi. Xloridlar ham elektrolitlar sekretsiyasining muxim komponentlari xisoblanib, enzimlar bilan birgalikda atsinar hujayralar tomoiidan ajratiladi. Me'da osti bezi shirasining tarkibida bikarbonat va xloridlardan tashqari  $\text{Na}^Q$ ,  $\text{K}^Q$ ,  $\text{Sa}^{2Q}$ ,  $\text{Ma}^Q$ ,  $\text{Zn}^Q$  ionlari ham mavjuddir.

*Safro (ut) ajralishi (xolerez)* — jigarda safroning xosil bo'lish jarayoni bo'lib, uzlusiz ravishda, qondan o't kapillyarlariga kator moddalarini (suv, glyukoza, elektrolitlar va b.) filtratsiya qilish hamda jigar hujayralarining (gepotatsitlarning) o't kislotalari tuzlarini va natriy ionlarini faol sekretsiya qilish yuli bilan amalga oshadi. Safro tarkibining yakuniy shakllanishi o't kapillyarlarida, naylarida va o't pufagida suv hamda mineral tuzlarni reabsorbsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Odamda bir kechayu-kunduzda 0,5-1,5 l safro ajraladi. Uning asosiy komponentlari o't kislotalari, pigmentlar va xolesterin bo'lib, undan tashkari yog kislotalari, mutsin, turli ionlar ( $\text{Na}^Q$ ,  $\text{K}^Q$ ,  $\text{Sa}^2$ ,  $\text{S}1\sim$ ,  $\text{NSO}_3\sim$ ) va boshqa moddalar ham bor. Safro tarkibida jigarning sekretor mahsulotlaridan tashkari, uning ekskretor maxsulotlari xam mavjud bo'lib, ular organizmdan ayrim moddalarini chiqarib yuborishga yunaltirilgan. Jigar safrosining rN darajasi 7,3-8,0 bo'lsa, o't pufagi safrosiniki esa 6,0-7,0. Gepatotsitlarda xolesterindan xosil bo'ladigan birlamchi o't kislotalari (xol' va xenodezoksixol kislota) ichakka kelib tushgach, bakterial flora ta'sirida ikqilamchi o't kislotalarga — dezoksixol va litoxol kislotalarga aylanadi. O't kislotalarining 90 % gacha ichakdan konga reabsorbsiya qiladi va portal qon tomirlar orkali jigarga kaytib keladi. Aynan shu yo'l bilan o't kislotalarining jigar-ichak tsirkulyatsiyasini sodir bo'ladi. Safro tarkibidagi pigmentlar — billirubin va biliverdin, gemoglobin parchalanishidan hosil bo'lgan jigarning ekskretor maxsulotlari hisoblanib, aynan shu moddalar, safroga o'ziga xos rang beradi. Odam va o'txo'r hayvonlar safrosida bilirubin ko'p bulib, uning rangi sargish-tillarang, o'txur hayvonlarda esa — biliverdin ko'p bo'lib, u safroni yashil rangga bo'yaydi. Asab va gumoral mexanizmlar safro sekretsiyasini nazorat kilib turadn. Bu jarayonni sayyor asablar tezlashtirsa, simpatik asablar, aksincha, uni tormozlab turadi. Agar, simpatik asablar kesib ko'yilsa safro ajralishi kuchayadi. Ovkat qabul qilish natijasida ham safro ajralish jarayoni kuchayadi. Xolerezning eng kuchli ragbatlaniruvchisi — sekretin bo'lib, uning ta'siri ostida sekretsiya xajmi va safro tarkibida bikarbonat chiqarilishi kuchayadi. Qonga ingichka ichakdan suriluvchi o't kislotalari ham, safro xosil bo'lish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ular safro hajmini va uning tarkibida organik komponentlarni ko'paytiradi. Jigar-ichak tsirkulyatsiyasini bir necha soatga tuxtilishi, safro xajmini 1,3, uning tarkibidagi o't kislotalar mikdorini esa 10 marta kamayishiga olib keladi. Demak gepatotsitlarning o't kislotalarni yangidan sintezlash imkoniyati chegaralangan bo'ladi.

*Safro (ut) chiqarilishi (xalekinez)* — safroni o'n ikki barmoqli ichakka chiqarilishi bo'lib, davriy jarayon hisoblanadi, ya'ni, asosan ovqat kabul qilish bilan bog'liq. Safroning harakatlanishi, safroni chiqish tizimidagi va o'n ikki barmokli ichak bo'shligidagi bosim gradienti bilan belgilanadi. Safro oqib chikadigan yillardagi bosim safro ajralishi jarayoniga, naychalarining sillik mushaklari va o't pufagini kiskarishiga borliq. Gepatotsitlardan boshlanadigan o't kapillyarları ko'shilib, birlamchi o't yo'llarini hosil qiladi. Birlamchi yo'llar ko'shilib, bo'lakchaichi va bulakchalararo yo'llarga aylanadi. Bulakchalararo yo'llar, o'z navbatida bo'laklararo yo'llarga va nixoyat jigar yo'llariga o'tadi. Ikkita jigar yo'llari birlashib, umumiy

jigar yuliga aylanganidan sung, unga pufak yo'li kelib ko'shiladi va nixoyat umumiy o't yo'li paydo bo'ladi. O'n ikki barmokli ichakka 6-8 sm uzunlikdagi umumiy o't yo'li ochiladi. Odamning o't pufagi noksimon shaklda bo'lib, SIGIMI 30-70 ml ni tashqil qiladi. O't yo'llarining mushak kavati, spiralsimon silliq mushak tolalaridan iborat. Ma'lum bir nuqtalarda bu tolalar guruhlarga yigilib, sfinkterlar hosil qiladi. Umumiy jigar yo'li hosil bo'lgan joydagি Miritsi sfinkteri, pufak qisqargan paytda o'tni jigar tomonga okib ketishidan sakdaydi. Pufak buynidagi Lyutkens sfinkteri xazm jarayoni to'xtab turgan vaqtida o'tning pufakka yigilishini, ovkat eyilgandan so'ng — pufakdan chikishini ta'minlaydi. Murakkab tuzilgan Oddi sfinkteri umumiy o't yo'lining o'n ikki barmok ichakka ochiladigan joyida bo'lib, safro ajralishida muhim ahamiyatga ega. Jigar tomonidan xosil qilinadigan sekreter bosim safroning o't yo'llari buylab harakatini ta'minlaydi. Ovkat qabul qilingandan so'ng 7-10 minut o'tgach, o't pufaginint asosiy evakuator faoliyati boshlanadi, u, qiskarish va bushashish hollarini pavbat bilan sodir bo'lishi bilan o'ziga xos bo'lib, 3-6 soat davom etadi. Undan so'ng o't pufagining kisqarish faolligi tormozlanadi va unda yangidan jigar safrosining to'planishi boshlanadi.

*Ichak bezlari sekretsiyasi.* Bir kechayu-kunduzda odam ichagini o'n ikki barmok ichak qismi shilliq pardasida joylashgan brunner bezlari va ingichka ichak qismidagi liberkyunov bezlari ajratadigan ichak shirasi 2,3 1 bo'lib, uning rN darajasi 7,2-7,5 ga teng, lekin sekretsiya kuchaygan paytda rN — 8,6 gacha ko'tariladi.

Ingichka ichak shirasining ajralishi boshka a'zolardagi shiralar ajralishidan farq qiladi. So'lak me'da, me'da osti va boshqa bezlarning sekreter hujayralari shira ajratish jarayonida emirilmaydi, faqat apikal kismi, avvaldan bu erga to'plangan sekreter granulular bilan birga shiraga uзilib utadi. Shikastlanmagan yoki massasining juda kam mikdorini yukotgan hujayralar tiklanib, sekretor jarayonda ko'p martalab ishtirok etadi. Shu sababli, buni — morfostatik va morfokinetic sekretor jarayonlar deb aytildi. Ingichka ichakda morfonekrotik sekretor jarayon kechadi. Ichak vorsinkalarini koplagan epitelial hujayralar juda tez almashinib turadi. Bu hujayralar vorsinkalarning asosi — kripta soxasida bo'linish yuli bilan ko'payadi va vorsinkaning uchi tomon siljib, sidirilib ichak bo'shligiga tushadi. Shu tarzda, ingichka ichak bo'shligiga bir kecha-kunduzda 250 g epitelial hujayralar kelib tushadi. Bu enterotsitlar filtrlanish yuli bilan ajralgan suyuqlikka ko'shib, ichak shirasini xosil qiladi.

Ingichka ichak shirasi ajralishi mexanizmidagi farq, uning tarkibiy xususiyatlarini belgilaydi. Bu shira suyuq va kuyuq qismlardan tashkil topgan. Uning kuyuq qismini emirilgan yoki butun enterotsitlar va kadoksimon hujayralar ajratib chiqargan shilimshiklar tashkil qiladi. Ingichka ichak enzimlarining asosiy qismi shiraning kuyuq qismida bo'ladi. Uning tarkibida fosfolipidlar, oksillar va nuklein kislotalar juda ko'plab uchraydi. Shira tarkibida anorganik moddalardan natriy, kaliy, kaltsiyning bikarbonat, fosfat va xloridlari uchraydi. Ovqat iste'mol qilingandan keyin ingichka ichak sekretsiyasi, ayrim gormonlar ta'sirida tezlashadi. Ichak shilliq pardasini mexanik ta'sirlash ham suyuqlik ajralishini kuchaytiradi. Ichak sekretsiyasining kimyoiy ko'zgatuvchilari oksil va yoglarning parchalanish mahsulotlari me'da osti bezi shirasi, xlorid va boshqa kislotalar hisoblanadi. Ingichka ichak shirasida 20 ga yaqin gidrolitik enzimlar mavjud bo'lib, ular oqsillar va polisaxaridlarning parchalanishi natijasida xosil bo'lgan oligomerlarni, yoglar parchalanishining mahsuloti bo'lgan monoglitseridlarni va ovqat tarkibidagi disaxaridlar hamda airim moddalarning parchalanish jaraenini oxirigacha amalga oshiradi. Proteolitik enzimlar orasida enterokinaza aloxida o'r'in egallaydi. Bu enzim tripsinogen molekulasiда lizin va izoleytsin aminokislotalari o'rtasidagi aloqadorlikni uzib, un-dan geksopeptid ajratib chiqaradi. Natijada, enzimning faol markazi ochilib, u tripsinga aylanadi. Enterokinaza o'n ikki barmoqli ichak va ingichka ichakning yukori qismida sintezlanadi. Bundan tashqari ingichka ichakning hamma qismida bir gurux peptidazalar borligi aniklangan bo'lib, ular dipeptid, tripeptid va oligopeptidlarning aminokislotalarga parchalanishini ta'minlaydi. Shiraning gamma-amilazasini ovqat tarkibidagi polisaxaridlarni parchalashdagi ahamiyati katta. Bu enzimning pankretatik alfa-amilazadan farqi shuki, uning ta'sirida polisaxarid molekulasing uchidagi glyukoza yaxshi ajraladi. Shu sababli ham gamma-amilaza ta'sirida polisaxaridlardan oligosaxarid va disaxarillar

bilan bir vaqtda, sezilarli mikdorda glyukoza ham xosil bo'ladi. Disaxaridlarni parchalovchi bir nechta enzimlar ham mavjud. Masalan, maltaza va izomaltaza kraxmaldan amilazalar ta'sirida hosil bulgan dekstrinlar va oligosaxaridlarning alfa-1,6-glyukozid, alfa- 1,4-glyukozid bog'lamlarni uzadi, maltozani ikki glyukoza molekulasiiga parchalaydi. Saxaraza enzimi iste'mol qilingan lavlagi yoki shakarkamish qandini (saxarozani) glyukoza va fruktozaga parchalaydi, shu bilan birga, maltozani ham parchalash kobilaytiga ega. Laktaza enzimi sut tarkibidagi laktozani glyukoza va galaktozaga ajratadi, ammo boshqa disaxaridazalar laktozani parchalay olmaydi. Shu sababli xam laktazani sut bilan ovqatlanish davridagi ahamiyati katta. Ichak shirasining yana bir disaxaridazasi (tregalaza) kuziqorin va suvda o'sadigan o'simliklarda uchraydigan tregalozani parchalaydi. Yuqori faollikka ega bo'lgan ingichka ichak enzimlariga iteoriy fosfataza ham kiradi. Bu enzim fosfor kislotasi efirlarini ishkoriy muhitda (rN 9-10) yaxshi parchalaydi. Foefoseriq xolinfosfat va etanolaminfosfatlar tabiiy sharoitda ishkoriy fosfataza tomonidan parchalanadi. Bu moddalar fosfoprotein va fosfolipidlarning parchalanishlari jarayonlarida oraliq mahsulotlar sifatida paydo bo'ladi. Ingichka ichak bezlari tomonidan sintezlanadigan lipaza monoglitseridlar nisbatan juda ham faol. Bu lipaza, uchglitseridlardan iankreatik lipaza ta'sirida xosil bo'lgan mopolglitseriddarni erkin glitserin va yor kislotaga parchalaydi. Shunday kilib, ingichka ichak znzimlari uglevod, oqsil va yoglar parchalanishini oxirgi boyokichiga etkazadi.

### *Uchunchi savol bayoni.*

Oziqa moddalarning hazm bo'lishi va so'riliishi. Me'da-ichak traktida ovqat mayda zarrachalar darajasigacha parchalanadi va ushbu zarrachalar organizmning ichki muhitiga o'tadi. Bu hol, mexanik jarayonlar (maydalash, aralashtirish va lukmani harakatlantirish) va ovqat xazm qiluvchi shiralar sekretsiyasi ta'sirida kimyoviy qayta ishlash hisobiga amalga oshiriladi. Ichakning apitelial hujayralarining yuzasida va ovqat hazm qilish trakti bo'shligida oksillar, uglevodlar va yoglar monomerlar darajasigacha parchalanadi, ya'ni surilish kobilaytiga ega bo'lgan moddalar hosil bo'ladi. Bunday parchalanish — xazm jarayoni deyiladi. Bu jarayon gidrolitik yul bilan amalga oshadi va ko'pchilik enzimlar ishtirokida o'tadi. Keyinchalik esa, hazm jarayonining oxirgi mahsulotlari — suv, tuzlar va vitaminlarni ichakning shilliq pardasi orkali qon va limfaga o'tkazilishi, ya'ni so'riliish sodir bo'ladi. Demaq ovkat komponentlari, o'zining plastik va energetik qimmatini saklagan holda, turga xos xususiyatini yukotadi, qonga o'tadi va almashinuv jarayonlariga ko'shiladi. Ozika moddalarning gidrolizi ma'lum bir ketma-ketlikda amadga oshadi va me'da-ichak traktining turli bo'limlarida o'ziga xos ravishda o'tadi. Ogiz bo'shligida polisaxaridlarning (kraxmal, glikogen) boshlangich gidrolizi amalga oshadi. Sulakning alfa-amilazasi glikogenning glikozidli bog'lamlarini hamda kraxmal tarkibiga kiruvchi amiloza va amilopektin molekulalarini parchalaydi va dekstrinlar hosil qiladi. OGIZ bo'shligida amilazaning ta'siri kisqa muddatlidir lekin uning ta'siri ostida uglevodoarning gidrolizi me'daga kelib tushgan so'lak hisobiga davom etadi. Me'dadagi ovqat xlorid kislotasi ta'siri ostida kislotali reaktsiyaga ega bo'lgach, amilazaning faolligi pasayib, uning ta'siri yo'koladi.

Me'dada — me'da shirasining proteolitik enzimlari (pepsin, gastriksin, ximozin) ta'siri ostida oksillarning boshlangich gidrolizi polipeptidlar hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi. Bu erda peptidli bog'lamlarning 10% i gidrolizlanadi. Proteolitik enzimlar NS1 hosil qiladigan kislotali muhitdagina faoliy ko'rsatadi. Pepsin uchun optimal rN darajasi 1,2-2,0, gastriksin uchun esa — 3,2-3,5. Xlorid kislotasi oksillarning ko'pchib-shishishiga va denaturatsiya bo'lishiga olib keladi, bu esa ularni proteolitik enzimlar ta'sirida keyinchalik parchalanishini engllashtiradi. Proteolitik enzimlarning ta'siri asosan ovqat massasining me'da devoriga yondosh yuza qismlarida sodir bo'ladi. Ushbu qismlarda xazm bo'lishiga karab, ovkat massasi pilorik bo'limga so'rildi va u erda, qisman neytrallashgandan so'ng o'n ikki barmokli ichakka evakuatsiya kilinadi.

Ingichka ichakda me'da shirasi ta'siriga uchragan ovqat massasi, ya'ni ximus, oldin o'n ikki barmokli ichakda, keyinchalik esa ingichka ichakda me'da osti bezlari va ichak enzimlarining

ta'siriga uchraydi. Ularning faolligi uchun optimal bo'lgan muhit, me'daning kislotali ximusiga me'da osti bezi shirasining, safroning, ichak shirasining ishkorli sekretlarining ta'siri natijasida hosil kilinadi. Odamning o'n ikki barmokli ichagidagi rN 4,0-8,5 atrofida keskin o'zgarib turadi, ilgichka ichagida esa 6,5-7,5 diapazonda saklanadi. Bu diapazon, odam va barcha umurtkali hayvonlarning ingichka ichagi uchun xos xosdir.

*Me'da osti bezining al'fa-amilazasi* dekstrinlarni maltoza va izomaltozagacha gidrolizlaydi, natijada uncha ko'p bo'lмаган miqdorda glyukoza hosil bo'lali. Alfa-amilaza ta'sirida ajraladigan saxaridlar keyinchalik xususan ichak karbogidrazalari (maltaza, gamma-amilaza, izomaltaza, saxaraza, laktaza, tregalaza) tomonidan monosaxaridlargacha (glyukoza, galaktoza, fruktoza) gidrolizlanadi. Uglevodlarning yakuniy gidroliz bosqichini amalga oshiruvchi bunday enzimlar to'gridan-to'gri ichak hujayralarida sintezlanadi, enterotsitlarning shyotkali jiyagi membranasi soxasida lokallashgan va u bilan mustahkam bog'langan. Yuqorida keltirilgan ichak enzimlaridan laktaza, fakat sut emizuvchilarda mavjud. Bolalari, tarkibida lakoza bo'lмаган sut bilan ovkatlanadigan umurtqalilarda (tyulenlar, dengiz sherlari, morjlar) laktaza bo'lmaydi. Me'da osti bezi shirasining *proteolitik* enzimlari (tripsin, ximotripsin, elastaza, karboksipeptidaza A va V), oqsillarni ichakdagi keyinchalik hazm bo'lishini amalga oshiradi. Tripsin, ximotripsin va elastaza pepsin kabi enzimlar — endoenzym (ichki enzim) hisoblanadi. Ular asosan ichki oqsilli bog'lamlarni parchalaydi, buning natijasida ancha yoki birmuncha yirikfragmentlar (poliva oligopeptidlar) hosil bo'ladi. Ekzoenzimlar (karboksipeptidaza A va V, aminopeptidaza, dipeptidaza) peptidli zanjirlarning oxirgi amipokislotalarini parchalaydi, buning natijasida, so'riliq qobiliyatiga ega bo'lgan erkin aminokislotalar va kichik peptidlar hosil bo'ladi. Aminopeptidaza va dipsptidazalar ichak enzimlari hisoblanib, enterotsitlarning shetkali jiyagi soxasida lokallashadi va ular shu joyda membranali gidrolizda ishtirok etadilar.

*Yoglar gidroyaizing* boshlangich etapi, o'n ikki barmokli ichakda me'da osti bezi shirasining lipazasi ta'siri ostida o'tadi. Me'da lipazasi ham mavjud bo'lib, u, faqat emulgirlashgan yoglarga (masalan, sutning egiga) ta'sir qiladi. Yoglarning gidrolitik parchalanishi jarayonida emulgirlanish katta axamiyatga ega. Emulgirlanish paytida yogning yuzasi kattalashadi va unda lipazaning epzimli faolligi amalga oshadi. Ichakda yoglarning emulgirlanishi jarayonida safroning ahamiyati kattadir. Safrodag'i tuzlar va triglitseriddar gomonidan xosil qilingan aralash mitsellalar, me'da osti bezi lipazasining ta'siri uchun ancha kulaydir. Lipaza asosan 2-monoglitseridlar va yor kislotalar hosil qilish bilan triglitseridlarni gidrolizlaydi. Enzimlar ta'siri natijasida monoglitseridlar va yor kislotalar shaklida emulgirlashgan eglar sekin-asta mitselyar xolatga o'tadilar. Triglitseridlarning parchalanishi bilan bir vaqtida xolesterinlarni, rN darajasi 6,6-8,0 bo'lgan xolesteraza ta'siri ostida, xolesterin va erkin yog kislotaligacha gidrolizlanish sodir bo'ladi. Fosfolipidlar parchalanishida fosfolipaza A ishtirok etadi. U, uglerodning ikkinchi atomi yonidagi glitserin va yog kislutaning efirli bog'lamenti gidrolizlaydi, bunda, masalan fosfatidilxolinni lizofosfatidilxolin va EG kislotaga aylantiradi. Umurtkasizlarda yoglarning gidrolizada asosan esterazalar ishtirok etadi. Bu enzimlar (lipazadan tashkari) qisqichbaqasimonlar, hasharotlar, qorinoyokli mollyuskalarin o'rta ichagida bo'ladi. Nomlari ko'rsatilgan enzimlardan tashqari yana bir qator enzimlar ham ozika moddalarni hazm qilishda qatnashadi. Bular ishkorli fosfataza — ortofosforli kislutaning monoefirlarini gidrolizlaydi, nukleazalar (RNK aza va DNK aza), nukleotidazalar va boshka enzimlar — polinukleotidlar va nuklein kislotalarni parchalaydi. Juda ham ko'pchilik tirik mavjudotlar uchun ovqatning boshlangich hazm bo'lishi kislotali muhitda, keyinchalik gidrolizlanish va surilishi esa, neytral va ishkorli muhitda sodir bo'lishi umumiyy konuniyat hisoblanadi. Primitiv organizmlarda bu xolat, reaktsiyaning o'zgarishi okibatida, masalan xazm vakuolalarida erishiladi. Yuksak hayvon va odamlarda ovqat xazm qilish zanjirining aloxida zvenolari me'da-ichak traktining turli bo'limlarida amalga oshadi.

*Yug'on ichakdagi* enzimli faollikning past darajada bo'lishi, evolyutsiya jarayonida shakllangan va me'da-ichak traktining bu bo'limiga etib kelgan ximusda xazm bo'lmay kolgan ozik moddalarning juda kam bo'lishi bilan bog'liqidir. Odamning yugon ichagida ovqat hazm bulish jarayoni amalda sodir bo'lmaydi. Yo'gon ichak ichakning boshqa bo'limlariga nisbatan,

mikroorganizmlarga boydir. Mikrobl li floraning axamiyati shundan iboratki, ular hazm bo'lмаган ovkat moddalarini va hazm sekretlari komponentlarini chirishini ta'minlaydi. Buning natijasida organik kislotalar, gazlar ( $S_0_2$ ,  $SN_4$   $N_2S$ ) va toksik moddalar (fenol, skatol, indol, krezoł) xosil bo'ladi. Bu moddalarning bir qismi orranizmga kirsa jigar tomonidan zararsizlantiriladi (jigarning bar'er funktsiyasi). Bakterinlarning enzimlari, hazm enzimlari ta'sir kilmaydigan tsellyuloza, gemitsellyuloza va pektinni parchalashi muxim axamiyatga ega. Gidroliz mahsulotlari yugon ichakda so'riladi va organizm undan foydalanali. Iugon ichakda, ichak bo'shligi mikroblari ajratadigan ayrim vitaminlar va aminokislotalar, ham so'riladi.

*Membranada ovqat hazm bo'lishi.* Bu tipdag'i ovqat xazm kiilish barcha sut emizuvchilarda kushlarda, baliklarda, amfibiyalarda, yumalokogizlilarda hamda umurtqasizlarda (jumladan, xasharotlarda, qiyokichbaqasimonlarda, mollyuskalarda) topilgan. Membranada ovkat xazm bo'lishi ingichka ichak bo'shligidan adsorbsiyalyanuvchi (asosan me'da osti bezi ajratuvchi) enzimlar xamda ichak xujayralarida (enteroitiplarda) sintezlanuvchi va membranada o'rashgan, xususan ichak enzimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ichak hujayradaridagi shyotkali jiyaklar mikrovorsinkalardan, ya'ni membrana bilan chegeralangan tsitoplazmaning o'simtalaridan iborat. Entsrotsitlarning shyotkapi jiyagi universal tuzilma bo'lib, turli hayvonlar va odamga xosdir. Xar bir enterotsitlarning apikal yuzasida 3-4 mingmikrovorsinkalar bor, ichak epiteliisining 1 kv mm yuzasiga 50-100 mln mikrovorsinkalar tugri keladi. Odam va sutemizuvchilarda mikrovorsinkalarning uzunligi o'rtacha 1 mkm, diametri 0,1 mkm atrofida bo'ladi. Tuban umurtkalilarning mikro-vorsinkalari uzunroq bo'lishi mumkin. Enterotsitlar plazmatik membranasining tashqi yuzasi glikokaliks bilan koplangan bo'lib, u ichak ehujayrasining apikal yuzasida kalinligi 0,1 mkm gacha bo'lgan katlam hosil qiladi. Glikokaliks ko'plab mukopolisaxaridli iplardan iborat bo'lib, bu iplar kaltsiyli ko'priklar bilan boglangan. Glikokaliksda bir kagor xazm enzimlari adsorbsiyalyangan. Ichak hujayralarining aynan tashqi (apikal) yuzasida, ya'ni glikokaliks bilan shyotkali jiyak xosil qiluvchi yuzasida membranada ovqat xazm bo'lishi amalga oshadi. Shu bilan birga, membranating yuzasida pankrsatik shira bilan ingichka ichak bushligiga kelib tushadigan enzimlar adsorbsiyalyanishi mumkin, hususan ichak enzimlari esa qisman glikokaliksga kushilishi mumkin. Enzimlarning faol markazi ma'lum darajada membranaga va ingichka ichak bo'shligiga nisbatan orientirlangan, Buning oqibatida, enzimlar katalitik markazlarning gidrolizlanuvchi molekulalarga nisbatan erkin orientirlanishi mumkin emas, bu hol membranada ovqat hazm bulishingning uziga xos belgisi hisoblanadi. Membranada ovqat hazm bulishi darajasiga ko'pincha uncha katta bo'lмаган molekulalar o'tadi, bakteriyalar bu doiraga o'ta olmaydi. Ovkat hazm bo'lishinng boshlang'ich boskichi faqatgina me'da-ichak traktining bo'shligida amalga oshadi. Bushlikdag'i gidroliz natijasida hosil bo'ladigan mayda molekulalar (oligomerlar) shetkali jiyak doirasiga kelib tushadi va bu erda ularning keyinchalik parchachanishi sodir bo'ladi. Membranadagi gidroliz natijasida, asosan monomerlar hosil bo'ladi va aynan ular, tsirkulyatsiyalonchi uzanga transport qilinadi. Zamonaviy tushunchaga binoan, ovqat moddalarini hazm kilish uch bosqichda amalga oshiriladi; bushlikdag'i hazm bulish — membranada hazm bulish — surilish.

*Surilish* — moddalarni ichak bo'shligidan qon va limfaga o'tkazilishini ta'minlovchi jarayonlar birligi bo'lib, asosan ingichka ichakda amalga oshadi. Ichakning epithelial yuzasi orqali moddalarning ikki yo'nalishda, ya'ni ichak bo'shligidan tsirkulyatsiyalovchi uzanga va bir vaqtning uzida qon tashuvchi kapillyarlardan ichak bo'shlig'iga doimiy o'tishi sodir bo'ladi. Agar, ichak bo'shligidan tashilish kuproq bo'lsa, ikkita karama-karshi yo'nalishdagi okimlarning natijali samarasini so'rilib, agarda teskari okim kuchliroq bo'lsa — sekretsiya (ekskretsya) hisoblanadi. Odam ichagidagi suruvchi yuzanining umumiy kattaligi ichak shillik pardasining aylanma qatlamlari va vorsinkalari hisobiga taxminan 200 kv.m. atrofida bo'ladi. So'rilib har xil turdag'i tashuvchilar ishtirokida amalga oshadi. Suyuqliklar va ularda erigan moddalarning passiv tashilishi energiya sarflanmasdan sodir bo'ladi. Bu turdag'i tashilishga diffuziya, osmos va filtrlanish kiradi. Diffuziya va osmos yo'li bilan ichakning shillik pardasidan xususan suv, hamda askorbin kislota, piridoksin va riboflavin kabi moddalar o'tadi. Moddalarni me'da-ichak traktidan so'rilib o'tishi uchun, ichak yuzasi maydonining kattaligi va shillik

pardadagi doimiy kon okimining ichak bo'shliri va qon o'rtasidagi kontsentratsiya gralientiga ta'siri muxim ahamiyat kasb etadi. Xujayra membranalari tarkibida ko'p mikdorda lipidlar bo'lganligi tufayli, ushbu membranadan o'tuvchi moddalar, ma'lum miqdorda yog'lari eruvchan bo'lishi zarur. Filtratsiya jirayoni, eritmani gidrostatik bosim ostida yupqa membrana orkali o'tishidan iborat. Moddalarning faol tashilishi bir tomonlama yo'nalgan hisoblanadi va energiya saflari bilan bog'lik. Ushbu energiyaning manbai bo'lib, makroergik fosfatlar xizmat qiladi. Energiyaga bog'liq faol tashilish paytida, moddalar kontsentratsiya gradientiga karshi o'tishi mumkin, natijada, hujayra membranasining ikkala tomoni bo'ylab moddalarning nosimmetrik tarqalishi sodir bo'ladi. Bu turdag'i tashilish tezligi ancha katta, lekin u, ma'lum miqdordagi «to'inish darajasi» dan yuqori bo'lishi mumkin emas. Ayrim moddalar, faol tashilishni konkurent ingibirlanish tipi bo'yicha pasaytiradi.

### *To'rtinchı savol bayoni.*

*Oqsillar so'riliishi* uchun, ichak bo'shligida yoki shytokali jiyak soxasida oqsillar gidrolitik parchalangandan so'ng, ushbu parchalanish mahsulotlari (aminokislotalar va oligopeptidlar) entsrotsitlar tomonidan tortib olinishi kerak. Voyaga etgan odam ingichka ichagida, ovkatning oqsillari o'zgarmagan kurinishda amalda so'rilmaydi. Aminokislotalar surilishining asosiy mexanizmi enterotsit membranasida joylashgan  $\text{Na}^+$  ga bog'liq faol tashilish hisoblanadi. Aminokislotalar elektrokimyoiy faliyat bo'yicha diffuziya qilinishi ham mumkin, sababi D-aminokislotalar faol tashilish hisobiga, hujayraga diffuziya yo'li bilan passiv kelib tushadigan L-izomerlarga nisbatan tezroq so'rildi. Aminokislotalar tashilishining 4 tizimi: a) neytral aminokislotalarni (valin, fenilalanin, alamin) tashilish; b) asosiy aminokislotalarni (arginin, tsistein, lizin, ornitin) tashilish; v) iminokislotalarni (irolin, hidroksiprolin) va glitsinni tashilish; g) dikarbon aminokislotalarni (glutamin vaaspargin) tashilish tizimlari ma'lum. Oligopeptidlar so'riliishi ham faol tashilish yuli bilan sodir bo'ladi. Ko'p hollarda, oligopeptidlarning tashilishi aminokislotalarning tashilishiga nisbatan tezroq o'tadi. Ayrim dipeptidlarning tashilish tezligi, ulardan tashkil topgan aminokislotalarni tashilish tezligidan katta bo'ladi. Shytokali peptidazalar kalta peptidlarning ko'p qismini atigi 40-60 % ga (di — va tripeptidlarning darajasigacha) parchalaydi. Aminokislotalar, enterotsitdan uning bazal va lateral yuzasidan erkin holda ajralib chiqadi. Bu jarayonda, ko'pchilik mexanizmlar — diffuziya, engillashgan diffuziya va  $\text{Na}^+$  ga — bog'liq bo'limgan faol tashilish ishtirok etadi. Keyinchalik aminokislotapar konga o'tadi va portal tizim orqali jigarga tashib keltiriladi.

*Uglevodlarning so'riliishi.* Uglevodlar, organizmda polisaxaridlar va disaxaridlar ko'rinishida amalda so'rilmaydi. Sutemizuvchi xayvonlar ichagida turli monosaxaridlar so'riliishi mumkin, lekin tabbiy sharoitda ularning asosiysi glyukoza, ikkinchisi esa fruktoza hisoblanadi. Ona suti bilan oziqlanish davrida galaktoza muhim axamiyatga ega. Iigichka ichak bo'shligidan monosaxaridlarni konga o'tishi turli yullar bilai amalga oshadi, lekin glyukozaning  $\text{Na}^+$  so'riliishi  $\text{Na}^+$  ioniga bog'liq bo'lgan faol tashilish asosiy rolni uynaydi. Glyukoza va ionlarining birgalikdagi tashilishida, bitta tashuvchi tomonidan amalga oshishi to'g'risidagi tushuncha eng ko'p tarqalgan. Natriyli gradient gipotezasiga mos ravishda, glyukoza molekulalarini o'tishini ta'minlovchi xarakatlantiruvchi kuch  $\text{Na}^+$  ning kontsentratsion gradienti xisoblanadi. Buni ta'minlash uchun  $\text{Na}^+$  ionlari xujayra ichidan chiqarilishi kerak. Ushbu jarayon ATF energiyasidan foydalangan xolda ro'y beradi. Glyukozaning  $\text{Na}^+$  bog'lik tashilishining boshqa modeli ham bo'lib, unda, enterotsit membranasida ikkita parallel uzaro ta'sir qiluvchi  $\text{Na}^+$  kanallarning va glyukoza uchun mavjudligi va membrana yuzasida darvoza oqsili joylashganligi nazarda tutiladi. Ushbu OQSIL glyukozani tashilish tizimiga kirishda bog'laydi va bu hol, natriyli kanalning faollahuviga olib keladi. Bu kanal buylab  $\text{Na}^+$  xarakatinining ma'lum bir davrida glyukozali kanal faollahadi va u buylab. darvozadagi oqsil yordamida, birlamchi qayd qilingan glyukoza molekulasi tashiladi. Faol tashilish mexanizmi bo'yicha barcha monosaxaridlar ham so'rilmaydi. D-glyukoza va D-galaktozadan farqli L-

glyukoza va L-galaktoza sust tashiladi, bu xol ularning so'riliish tezligini pastligida namoyon bo'ladi.

*Yog'larning so'riliishi* uchun, triglitseridlar gidrolizida xosil bo'lgan maxsulotlar ma'lum bir fizik-kimyoviy o'zgarishlarga uchrashi zarur. Kalta va o'rta zanjirli yog kislotalar ichak bo'shligidan to'g'ridan-to'g'ri enterotsitlarga, keyin esa konga diffuziya bo'ladi. Uzun zanjirli yog' kislotalar va xolesterin, enterotsit membranasiga, fakatgina, o't kislotalari bilan xosil qilgan mitsellalar tarkibida sust diffuziya yo'li bilan o'tishi mumkin. O't kislotalarining aksariyati, yog'lar so'riliishi sodir bo'ladigan ingichka ichakning boshlangich bulimlaridan yonbosh ichakka tashiladi, bu erda ular, faol tashilish mexanizmi buyicha enterotsitlarga kelib tushadi. Yog'lar parchalanishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar enterotsitlarda qaytadan triglitseridlar, xolesterin va fosfolipidlarga (resintez) aylanadi. Resintezlangan yog'lar, enterotsitlardan limfaga xilomikronlar ko'rinishida tashiladi. Xilomikronlar oksil (2%), fosfolipidlari (6-8%) va xolesterin efirlaridan (2-4%) tashqil topgan triglitseridlar (85-90%) ko'rinishda bo'ladi. Enterotsitlarda xilomikronlardan tashqari juda past zichlikka ega linoproteinlar ham sintezlanib, ularning tarkibi kam mikdordagi triglitseridlar va ko'p mikdordagi oksillar borligi bilan tavsiflanadi. Xilomikronlar va juda past zichlikka ega lipoproteinlar enterotsitlarda limfatik tomirlarga o'tadi va ko'krak limfatik okimi orqali qonga kelib tushadi. Konga 95% triglitseridlar va 20-50% xolesterin so'rildi.

*Vitaminlarning so'riliishi* (yog'da eruvchan vitaminlar A, D, E, K) yoglarning surilishi bilan uzviy bog'liqdir. Yoglarping so'riliishi buzilganda ushbu vitaminlarning o'zlashtirilishi ham qiyinlashadi. Vitamin A yog' kislotalar bilan efirlar xosil qiladi va limfaga xilomikronlar tarkibida kelib tushadi. Suvda eriydigan vitaminlar (masalan, vitamin S, riboflavin) diffuziya yordamida so'riliishi mumkin. Foliy kislota kon'yugirlangan ko'rinishda so'rildi. Vitamin V<sub>12</sub> (tsiankobalamin) odamlarda yonbosh ichakda so'rildi. Uning o'zlashtirilishi uchun, odam va hayvonlar me'dasining tubida va tanasida paydo bo'ladigan ichki omil zarurdir. It va chuchqalarda ichki omil asosan me'danining pilorik qismida hosil bo'ladi.

*Suv va tuzlarning so'riliishi* ingichka va yo'g'on ichakda sodir bo'ladi. Odam ichagida 1 sutka davomida 8-10 l suv va natriy xlordan esa -1 mol suriladi. Suvning tashilishi Na<sup>+</sup> ionlarining tashilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, Na bilan belgilanadi. Suv va tuzlar, asosan ingichka ichakning yuqori bo'limlarida so'rildi, yo'g'on ichakka kecha kunduz davomida 200-500 ml suv etib keladi. Me'da-ichak traktida Na<sup>+</sup> ionlarining kontsentratsiyasi, undagi qon plazmasi kontsentratsiyasi darajasiga yaqin miqdorda ushlab turiladi. Shunga karamasdan, Na<sup>+</sup> ionlarini ichak bushligidan konga doimiy so'riliishi sodir bo'lib turadi. Ularning tashilishi faol va sust bo'ladi. Ichak bo'shligidan Na<sup>+</sup> ionlarini konga o'tishi hujayralararo kanallar bo'ylab amalga oshishi mumkin. Enterotsitlarga Na<sup>+</sup> ionlari sust yo'l bilan o'tadi, lekin bunda, o'ziga xos tashuvchi tizimlar ishtirot etadi. Ichak hujayralarida qanllar va aminokislotalar tashilishi bilan endosh bo'lgan, Na<sup>+</sup> elektrogen tashilishining ko'shimcha tizimi ham mavjud. Enterotsitning bazal va lateral membranalari orqali Na<sup>+</sup> ning tashilishi faol o'tkaziladi va bu erda joylashgan Na<sup>+</sup>, K<sup>+</sup>-nasosi hisobiga amalga oshadi.

### ***Beshinchı savol bayoni.***

Me'da-ichak traktining motorikasi. Me'da-ichak traktining harakat faoliyati, ya'ni motorikasi silliq mushaklar faoliyati bilan borliq bo'lib, ovqat hazm qilish jarayonlarining barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi. Ovqat hazm qilish kanalida silliq mushaklarning ichki (tsirkulyar), tashqi (kundalang) va shilliqosti katlamlari farqlanadi. Motor funksiya, ovqatni me'da-ichak traktida mexanik qayta ishlanishini, uni enzimlar bilan aralashishini, ximusning devor oldi qatlamini o'r'in almashinishini, tashilishini va ekskrementlarni organizmdan chiqarib tashlanishini ta'minlaydi. Me'da-ichak trakti xarakat faolligining asosiy funktsional muxim turlari peristaltik kiskarish va ritmik segmentatsiya hisoblanadi. Shu bilan birga, mayatniksimon xarakatlar ham mavjud. Peristaltika paytida tsirkulyar mushak qatlamining qisqarishi ovqat xazm qilish kanali bo'ylab to'lqinsimon tarqaladi. Peristaltik harakatlar kuchi va tarkalish

tezligi bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Etarli darajadagi kuchli peristaltik qisqarishlar luqmani (yoki ximusni) me'da-ichak traktining distalroq joylashgan bo'limlariga o'tkazadi. Bunday harakatlar propulsiv hisoblanadi. Ritmik segmentatsiya, bir vaqtning o'zida, ichakning qo'shni bo'limlaridagi tsirkulyar mushak katlaming qisqarishi bilan namoen bo'ladi va natijada, ichak segmentlarga bo'linadi. Keyingi qisqarish paytida yangi segmentlar hosil bo'ladi, ularning xar biri oldingi ikkita segment ichidagi ximusning bir kismini o'z ichiga oladi. Ritmik segmentatsiya ximusni ichak bo'ylab sezilarli darajada harakatlantirmasdan aralashishini ta'minlaydi. Mayatniksimon harakatlar ichakning ritmik qisqarishlari natijasida paydo bo'ladi hamda ximusni xazm kanali buylab va orqaga, uncha katta bo'lмаган masofaga o'tkazadi. Me'da-ichak traktining ma'lum bir kismlarida, silliq mushak tolalarining halqasimon to'plami ko'rinishidagi sfinkterlar (qizilungach osti, piloriq ileotsekal va ichki kanal) joylashgan. Sfinkterlarning vazifasi ovqat xazm qilish tizimining turli bo'limlarini funksional chegaralash hamda ovkat massalarini orqaga harakat qilishiga yo'l ko'ymaslikdan iborat. Sfinkterlar uchun tonik qiskarishlar xosdir. Silliq mushaklarning tonik holati (plastik tonus) me'daning fundal bo'limi uchun ham xosdir. Me'da-ichak trakti silliq mushaklarining qisqaruvchanlik faolligini boshqarishda atsetilxolin, adrenalin va noradrenalin muxim rol uynaydi. Xolinergik asab tolalari uchlarida ajraladigan atsetilxolin yoki uni organizmga tashqaridan kiritilishi, me'da-ichak traktining sillik mushaklariga ko'zgatuvchi ta'sir ko'rsatadi. Katexolaminlar (adrenalin, noradrenalin) esa, qoidaga binoan, silliq mushaklar hujayralarining membranasida joylashgan tormozlovchi adrenoreieptorlarga (alfa va beta) ta'sir qilish natijasida me'da va ichakning qisqaruvchanligi faolligini tormozlanishini chaqiradi. Shu bilan birga, noradrenalin me'da-ichak trakti sfinkterlarini qisqarishini chaqirish kobiliyatiga ega. Ichakning cho'zilishi silliq mushaklar qisqaruvchanlik faolligining paydo bo'lishi yoki kuchayishini chakiradi. Bu reaksiya meristal'tik refleks yuzaga chikishini aks etadi. Ichak mexanik qo'zg'atilgan paytida uning mushaklarini qisqarishi bilan birga ta'sir qilingan joydan pastroqda, qisqaruvchanlik faolligining tormozlanishi paydo bo'lishi mumkin. Bu hol, yo'g'on ichakda erkin namoyon bo'lsa, ingichka ichakda esa, ancha past darajada bo'ladi. Bir qator biologik faol moddalar ham me'da-ichak trakti silliq mushaklarining qisqaruvchanlik faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning samarasini ta'sir joyi va silliq mushaklarning funksional holatiga bog'liq. Motilin me'da va ingichka ichakning qiskaruvchanlik faolligiga ko'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Xoletsistokinin va gastrin fiziologik dozalarda me'daning fundal qisqarishini pasaytiradi va aptral qismi faolligini tezlashtiradi. Yo'g'on va ingichka ichakka gastrin va xoletsistokinin faollashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Enkefalinlar me'da va ingichka ichak motorikasini pasaytiradi, yo'g'on ichak silliq mushaklariga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi hamda pilorik sfinkterning qisqarishini chaqiradi. Somatostatin, vazofaol intestinal peptid va gastroingibirlovchi peptid me'da va ingichka ichak silliq mushaklariga sekinlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Serotoninning ingichka ichak peristaltik refleksini kuchaytirishdagi (potentsialini oshirishda) fiziologik roli aniq bo'lib, bu hol, xolinergik neyronlarning faollashuvi va ichak sensor elementlarini cho'zilishga bulgap sezuvchanligini ortishi hisobiga yuzaga keladi. Odam va hayvonlar ovqat hazm qilish tizimini boshqarish mexanizmi asosida ochlik tuyg'usi yotadi. Ochiqish MAT ning turli sohalarida joylashgan, ovqatlanish markazi deb nomlanadigan neyronlar yig'indisining ko'zgalishiga bog'liq. Bu markaz, biriichidan, hazm a'zolarining uyg'un ishlashini ta'minlasa, ikkinchidan, ovqat izlab topish va uni iste'mol qilishga bog'lik bo'lган hatti-harakatlarda ishtirot qiladi. Gipotalamusning lateral va ventromedial yadrolaridagi neyronlar, ovqatlanish markazlari neyronlari orasida etakchi rol o'yaydi. Lateral yadroni shikastlanishi ovqatdan voz kechishga (afagiyaga) olib kelsa, uni ta'sirlash, ovqatni ko'p iste'mol qilishga (giperfagiya) olib keladi. Shu sababli ham, gipotalamusning lateral yadrolarini ochiqish markazi deb aytildi. Ventromedial gipotalamik yadrolarning shikastlanishi giperfagiya olib kelsa, ularning qo'zg'alishi esa afagiyaga olib keladi. Demak ventromedial yadrolarni to'yinish markazi deb aytildi. Ochiqish va to'yinish xissi shakllanishida MAT ning boshqa *qismlarini* ham ishtirot etishini esdan chiqarmaslik lozim. Ovqatlanish markazining gipotalamik neyronlari qonda ozik moldalar mikdori o'zgarganda va turli periferik retseptorlardan keladigan afferent impulslari ta'sirida

ko'zgaladi. Och hayvonga to'q hayvonning koni ko'yilsa, och hayvon to'k to'ygandek bo'lib, ovqat talab qilmaydi. Ammo, to'q xayvon koni tarkibidagi qaysi modda bu natijaga olib kelishi noma'lum. Ochikish konda glyukoza yoki aminokislotalar yoki yog' va yog'- kislotalarining miqdorini kamayishiga bog'lik degan glyukostatik aminoatsidostatik va gipostatik nazariyalar mavjud. Ammo, ularning birortasi ham, odamning nima sababdan ochikishini to'da tushuntirib bera olmaydi. So'nggi yillarda oldinga so'rileyotgan metabolik nazariya haqiqatga ancha yakin. Bu nazaringa ko'ra Krebs tsiklida hamma oziq moddalarning parchachanishi natijasida xosil bo'ladigan oraliq moddalarning kondagi mikdori ovqatlanish markazining ko'zgaluvchanligini belgilaydi. Bu moddalardan tashqari ovqatlanish markaziga hazm tizimining ba'zi gormonlari (masalan, xoletsistokininpan-kreozimin) va bu tizim a'zolaridagi retseptorlardan markazga intiluvchi impulsarning ta'siri katta. Odam ovqat iste'mol qilgandan keyin tuyganini sezadi. To'yish, ovqatlanish jarayonida iste'mol qilingan oziq moddalar qonga surilmasidanoq rivojlanadi. Buni birlamchi yoki sensor to'yinish deb aytildi. Uning yuzaga chiqishi shartli va shartsiz reflektor yo'l orqali ochlik markazining tormozlanishi bilan bog'liq. Ovqat xazm bo'lib, hazm mahsulotlari qonga so'rila boshlagandan so'ng sensor to'yinish boshlanadi. Buni, ikkilamchi yoki chin to'yish deb aytildi. Xayvonlarda ovqatda etishmaydigan moddani izlab, topib eyish qobiliyati bor. Organizm uchun zarur moddaga intilish o'ziga xos ishtaha deb aytildi. Odamda ham o'ziga xos ishtaha borligi ba'zi sharoitlarda yaxshi seziladi. Masalan, homilador ayolda vitaminlarga va kaltsiyga talab kuchayadi. Ovkat iste'mol qilish bilan bog'liq hissiy tuyg'u ishtaxa deb belgilanadi. Bu tuyg'u ochlik tuyg'usining bir qismi bo'lishi va fiziologik ehtiyojga bog'liq bo'lмаган holda o'z-o'zidan ro'yobga chiqishi mumkin. Me'da-ichak trakti a'zolarining normal ishlashi uchun ham etarli mikdorda suvning bo'lishi lozim. Ter, siydk va nafas chiqarish paytida suv buglarining chikishi hisobiga, organizmda suv mikdorining kamayishi tana massasining 0,5-1,5 % darajasida bo'lsa, chanqoklik tuyg'usi namoyon bo'ladi. Organizmda suv mikdorining kamayishi hujayralar va hujayralararo bo'shliqlarda ham, uning miqdorini kamayishiga olib keladi. Buning oqibatida, hujayra, ichidagi va hujayra tashkarisidagi osmotik bosimning ortishi sodir bo'ladi, so'lak ajralish kamayadi va bu, og'iz bo'shligi va tomokning kurib qolishini belgilaydi. Hujayra hajmining va hujayra tashkarisidagi suyuqlikning kamayishi chanqoqlik tuygusini chaqirish uchun adekvat rag'bat hisoblanadi. Gipotalamusning frontal qismida osmotik bosimning ortishiga sezuvchan bo'lgan hujayralar —osmoretseptorlar topilgan bo'lib, ular hujayra ichidagi bosim kamayishi paytida chanqashning paydo bo'lishida qatnashadilar. Ogiz va tomokning shillik pardasida joylashgan retseptorli hosilalar chanqoqlik tuyg'usini periferiy komponentlarini shakllanishida ma'lum rol uynaydi. Demak chankoklikning shakllanishida periferiyada va MAT da joylashgan turli receptorlar qatnashadi. Ularla paydo bo'ladigan impulsarning integratsiyasida, asosiy rolni oraliq miya (birinchi galda gipotalamus) uynaydi.

## **7.Mavzu: Modda va energiya almashinuvi fiziologiyasi.**

### **Asosiy savollar:**

1. Moddalar almashinuvining mohiyati.
2. Moddalar almashinuvining xillari: oqsillar, yog'lar, uglevodlar vitaminlar almashinuvi.
3. Uglevodlar , yog'lar va oqsillar almashinuvining o'zaro bog'liqligi.
4. Ovqatlanish jarayoni.

### ***Birinchi savol bayoni.***

Moddalar almashinuvining mohiyati. Yashash uchun organizm faoliyat ko'rsatishi kerak. Bir xujayrali mikroblardan tortib, to yuksak hayvonlar va odam organizmi ham, uzluksiz turli ishlarni bajarishi shart. Bunday ishlar: 1) mexanik ish — harakat, ya'ni hayvonlar mushagining kiskarishi yoki bakteriya XIVCHINING aylanma harakati paytida; 2) kimyoviy ish — hujayralarda murakkab birikmalarni sintezlanishi paytida; 3) elektr ish — protoplazma va tashqi muhit o'rtaida potentsiallarning farqini hosil qilish paytida; 4) osmotik ish — tashqi muhittidan o'zida kam bo'lган moddalarni hujayra ichiga, bu erda usha moddalar ko'p bo'lsa tashqariga o'tkazish paytida sodir bo'ladi. Nomlari ko'rsatilgan asosiy 4 tip ishdan tashkari, issikkonli hayvonlarda, atrof-muhit haroratini pasayishiga nisbatan, issiqlik ishlab chiqarish hamda yorug'liklar qaytadigan organizmlarda yorug'lik ishlab chiqarish bajariladigan ishlar ham mavjud.

Buning hammasi energiya sarflanishini talab qiladi va bu energiya, u yoki bu tashqi energetik manbaidan olinadi. Biosfera uchun birlamchi energiya quyosh nuri hisoblanadi. Quyosh nurlari fotosintez jaraeni o'tadigan tirik organizmlar, ya'ni yashil o'simliklar va ayrim bakteriyalar tomonidan o'zlashtiriladi. Bu organizmlar tomonidan hosil qilinadigan biopolimerlar (uglevodlar, oksillar, eglar), keyinchalik «yonilgi» sifatida barcha geterotrof organizmlar, yani hayvonlar, zamburug'lar va ko'pchilik tur bakteriyalar tomonidan foydalaniladi. Energetik almashinuv — organizmda kimeviy energiyadan foydalanish jarayoni bo'lib, aynan shu ko'rsatgich organizmning umumiy holati va fiziologik faolligini belgilaydi. Almashinuv yoki metabolik jaraenlar paytida, qabul kilingan ovqat mahsulotlaridan, organizmning o'ziga xos elementlarni sintezlashi — anabolizm deb atalsa, metabolik jarayonlar paytida organizmning tarkibiy tuzilmalari elementlarini yoki qabul qilingan oziga mahsulotlarni parchalanishi — katabolizm deb ataladi. Organizm energiyani atrof-muhittdan yog', oqsil va uglevod molekulalarining kimyoviy bog'lamlari tarkibidagi potentsial energiya ko'rinishida qabul qiladi. Murakkab organik molekulalar ma'lum bir muddatda oksidlanadi, bunda kimyoviy bog'lamlarning uzilishi paytida ajralib chiqadigan energiya ajratiladi. Molekulalarni uch uglerodli birikmalargacha parchalanishi sodir bo'ladi va ular Krebs tsikliga ko'shilib SO<sub>2</sub> va N<sub>2</sub>O darajasigacha yana oksidlanadi. Energiyani generatsiya qiluvchi va molekulyar kislород ishtirokini talab qiluvchi barcha jarayonlar aerob almashinuv tizimini tashkil qiladi. Glikozani sut kislotasigacha parchalanishi sodir bo'ladigan glikoliz paytidagi kabi, kislородning ishtirokisiz energiyani generatsiya bulishi anaerob almashinuv deb ataladi. Energiyaning yigilishi asosan ATP ning yuqori energetik fosfatli bog'lamlarida sodir bo'ladi. Shu bilan birga, ATP energiyasi tashish vositasi sifatida ham xizmat qiladi, chunki u energiya talab qilinadigan joylarga diffuziya bo'ladi. o'z navbatida, ATP xosil bo'lishi va parchalanishi ham energiya sarfini talab qiladigan jarayonlar bilan birga o'tadi. Energiyaga extiyoj paydo bo'lganda gidroliz yo'li bilan oxirgi fosfat guruuhining bog'i uziladi va undagi kimyoviy energiya ajralib chiqadi. Shu shakldagi energiya hujayralar tomonidan foydalanishi mumkin. Biologiya sohasida energianing o'lchov birligi sifatida kaloriya (kal) qabul qilingan bo'lib, uni 1gr uning haroratini 1°S ga ko'tarish uchun zarur bo'lган energiya sifatida belgilanadi. Odam va hayvonlar organizmidagi energetik jarayonlarni o'rganishda qilokaloriya (kkal) ishlataladi, 1 kkal 1000 kaloriyaga tengdir. Xalqaro o'lchov birliklari tizimi (UVT) buyicha energiyani djoul (I dj k 4,187 kal) va quvvatni esa vatt (1 vt k 1 lJG's) o'lchash qabul qilingan. Biron-bir tashqi ishni bajarish paytida hujayra ajratadigan energianing bir qismi issiqlik ko'rinishida ajraladi (termodinamikaning ikkinchi qonuni).

Bundan kelib chiqkan holda faol xujayraning ta'sir koeffitsienti (FTK) ajralayotgan ener-giyaning tashqi ishga sarflanadigan qismi bo'lishi mumkin va u kattalik 100 dan kam bo'ladi: Masalan, mushak qisqarishi paytida 80 foizi atrofidagi energiya issiklik ko'rinishida yo'qotiladi va 20 foizigina mexanik ishga aylanadi. Butun organizmning mushaklari ishlashi paytida FTK kam hollarda 25% dan oshadi va bu holat, organizmni sovuqda moslashishi paytida sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Nafas koeffitsienti (NK), yoki o'pkada gazlar almashinuvining nisbati, moddalar almashinuvida ozuqa mahsulotlardan foydalanish tipini xarakterlaydi. Bu ko'rsatkich kuyidagicha aniqlanadi, bunda,  $U_{st}$  — karbonat angidrid gazini ajratish,  $V_{O_2}$  — kislород iste'moli. Glyukozaning oksidlanishi xolatida  $O_2$  iste'moli va  $SO_2$  ajralishi mikdor jihatdan tengdir, demak OK q 1 ga teng. Shunday kilib, OK qiymati I raqamiga teng bo'lsa, bu uglevodlarning oksidlanish ko'rsatgichi hisoblanadi. Yog kislotalaridagi 1 atom uglerodga, uglevodlarnikiga nisbatan kamroq  $O_2$  atomi to'g'ri keladi. Shuning uchun, ularning oksidlanishi ancha past qiymatdagi (OK-0,70) OK bilan tavsiflanadi. Toza oqsildan iborat ovqat egan paytda, odamning OK qiymati 0,81 ga teng, aralash ovqat egan paytda esa, odatda 0,83-0,9 qiymatda bo'ladi. Ma'lum bir qiymatdagi OK ga ma'lum bir kislородning energetik (kaloriyalı) ekvivalenti mos keladi va bu ekvivalent, organizm tomonidan 1 1 kislород iste'mol qilingandan so'ng ajralib chiqadigan issiqlikning miqdorini ko'rsatadi. Ajratilgan  $SO_2$  va iste'mol qilingan  $O_2$  miqdori o'rtasidagi nisbat oziqa moddalarning tipiga va bir xil oziqa moddalarni boshka xiliga o'zgarishiga bog'liq. Ratsionning aksariyat qismini uglevodlar tashkil qilgan holatlarda ular yog'larga aylanishi mumkin. Yog'lar tarkibida uglevodlarga nisbatan  $O_2$  mikdori kam bo'lganligi tufayli, bunday jarayon mos ravishdagi miqdorda  $O_2$  ajralishi bilan birga o'tadi. Uglevodlarga to'yingan paytda to'qimalarda kislородning iste'mol qilipish mikdori pasayadi, OK esa ortadi. OK kattaligiga ta'sir qiluvchi muxim omil giperventilyatsiya hisoblanadi. Gipsrventilyatsiya paytida qo'shimcha ajralib chiqadigan  $SO_2$  mikdori to'qimalar va qon tarkibida bo'lган va almashinuv jarayonlarida uni hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lмаган  $SO_2$  ning kapa zahirasidan kelib tushadi. Amalda, yaqinlashtirilgan hisoblarga ko'ra, energetik ekvivalentning o'rtacha qiymati 20,2 kdjG'l  $O_2$  ga teng deb qabul qilingan bo'lib, u metabolik OK 0,82 kattaligiga mos keladi. Energetik ekvivalentning OK qiymatiga bokliq holdagi diapazoni, qoidaga binoan, uncha katta bo'lmaydi. Shu tufayli, energetik ekvivalentni o'rtacha qiymatidan foydalanish bilan bog'liq xatolik 4% dan oshmaydi.

### ***Ikkinchı savol bayoni.***

Oqsillar almashinuvi. Odam va hayvonlarning ovqatlanish balansida oqsillar alohida ahamiyatga ega, chunki ularning hujayralari kuruq moddasining yarmidan ko'pi oqsillarga to'g'ri keladi. Tirik organizmda doimiy ravishda ro'y beradigan moddalar almashinuvi — turli biokimyoiy reaktsiyalar natijasi bo'lib, bu reaktsiyalarning hammasi maxsus oqsillar — enzimlarga bog'lik. Skelet, sillik va yurak mushaklarining qisqarishi xam aktin va miozin oqsillarining o'zaro alokadorligi natijasidir. Oqsillar yoki proteinlar odam va hayvonlar organizmi uchun plastik va energetik ahamiyatiga ega. Oqsillarning plastik ahamiyati shundaki, ular xujayra va organellalarning zarur tarkibiy qismi bo'lib, turli tuzilmalarni hosil qilishga sarflanadi. Oqsillar organizmda uzuksiz ravishda parchalanib va qaytadan sintezlanib turadi, turli a'zolarda ularning yangilanish tezligi har xil bo'ladi. Masalan, jigarda, ichak shilliq pardasi va qon plazmasida juda tez yangilanadi, mushaq teri, pay, tog'ay va suyaklarda esa bu jarayon ancha sekin kechadi. Oqsillarning energetik ahamiyati shundan iboratki, ular parchalanganda ajraladigan energiyadan organizm o'z hayot faoliyatida foydalanadi. Ma'lumki oqsillar aminokislotalardan tuzilgan bo'lib, ular strukturaviy oqsillar, enzimlar, oqsilli va peptidli tabiatga ega gormonlar va boshqalar sintezi uchun ham manba, shu bilan birga energiya manbasi ham hisoblanadi. Bir kecha-kunduzda odam organizmida 400 g oqsillar parchalanadi va sintezlanadi. Oksilning parchalanishi natijasida hosil bo'ladi erkin aminokislotalarning taxminan ikkidan uch qismi yangi oksilning sintezi uchun ishlataladi, lekin uchdan bir qismi energetik zanjirlarda kaytmas holda oksidlanadi va ular ovqatning ekzogen aminokislotalari bilan to'ldirilishi zarur. Hayvonlarning har bir turi, aynan o'zining turiga xos bo'lган oqsillarga

ega. Lekin, oqsilli strukturalarning bunday ko'p shaklga ega bo'lidan qatiy nazar, ularning strukturasi bor-yo'g'i 20 ta aminokislotalar kombinatsiyasidan iborat. Bu aminokislotalarning 10 tasi organizm tomonidan boshqa aminokislotalardan siptezlanadi, ya'ni bular almashtirsa bo'ladigan aminokislotalar hisoblanadi. Odam va yuksak hayvonlar organizmida sintezlanmaydigan yana 10 ta aminokislotalar mavjud bo'lib, ular albatta ovqat bilan organizmga kirishi zarur, ya'ni ular almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar hisoblanadi.

Almashtirsa bo'ladigan va almashtirib bo'lmaydigan deb nomlanishi, ushbu aminokislotalarni ozuqa ratsioniga ko'shish zaruratini ko'rsatadi xolos, organizm uchun ularning ahamiyati to'grisidagi ma'noni bermaydi. O'sayotgan kalamushlar, buzoqlar va chuchka bolalari uchun almashtirsa bo'ladigan aminokislotalar — alanin, asparagin kislota, glutamin kislota, glitsin, prolin, gidroksiprolin, serin, tirozin, tsistein va tsistin hisoblansa, almashtirib bo'lmaydiganlari — arginin, gistidin, izoleytin, leytsin, lizin, metionin, fenilalanin, treonin triptofan va valin hisoblanadi. Almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan birortasi ovqatda etarli bo'lmasa yoki butunlay yo'q bo'lsa, organizmda oksil sintezi jiddiy buziladi, manfiy azot muvozanati ro'y beradi. Oksillarning aminokislotalar tarkibi har xil bo'lganidan organizmning sintetik ehnyoji uchun oqsillardan foydalanish imkoniyatlari ham turlicha bo'ladi. Shu sababli, ovqat oqsillarining biologik qiymati degan tushuncha qabul qilingan. Tarkibida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning to'liq majmuasi bo'lgan oksillar — biologik to'la qiymatli oksillar deb ataladi. Bunday aminokislotalar tarkibiga ega bo'lgan oqsillardan, organizmning o'ziga xos bo'lgan oqsillarni sitezlash oson va samarali bo'ladi. To'la qiymatli oksillarga go'sht, tuxum, baliq va sut oqsillari kiradi. Oksil tarkibida, almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan bittasi yoki bir nechta etishmasa, u, *chala* qiymatli oksil hisoblanadi. Bunday oqsillar organizmning oqsilga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlay olmaydi. Chala qiymatli oksillarga jelatin, makkajo'xori oqsili (zein), bugdoy oqsili (gliadin) va arpa oksili (gordein) kiradi. Oqsilga bulgan ehtiyoj odam va yuksak hayvonlarning yoshi, jinsi, bajaradigan ishi, yashash joyining iqlim harorati va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Katta yoshli odam har kuni 80-100 g oksil iste'mol qilganda organizmda azot muvozanati saqlanadi, bunda 30 g OQSILNI hayvon gushtining oqsillari tashkil qilishi lozim. Umuman, 1 kg tana massasiga odam 1 g oksil iste'mol qilishi kerak — bu oksilli optimum deyiladi. Odam stress (iztirob chekish) holatiga tushganda, og'ir jismoniy ish bajarganda, sport bilan shug'ullanganda, oksilga bo'lgan talab ortib ketadi va odamning oqsilga bo'lgan ehtiyoji ortadi. Oksillar almashinuviga MAT ning boshqaruv ta'siri bevosita emas, balki ichki sekretsiya a'zolari — gipotalamus-gipofizperiferik endokrin bezlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Metabolik samaraga ega gormonlar — samototropin, insulin, tiroksin, glyukokortikoidlar, androgenlar va estrogenlar hisoblanadi. Bu samara anabolik yoki katabolik bo'lishi va ko'pchilik a'zolarni yoki faqatgina ixtisoslashgan to'qimalarni kamrab olishi mumkin. Katta yoshli odamlarda somatotrop gormoni oksil sintezini ta'minlaydi. Bu gormon ta'sirida, hujayralar membranasining o'tkazuvchanligi aminokislotalar uchun oshadi, to'qimalardagi proteolitik enzimlar — katepsinlarning faolligi kamayadi. Glikokortikoidlar (buyrak usti bezi gormonlari) tukimalarda oksil parchalanishini tezlashtiradi. Bu gormonlar jigarda oksil sintezini kuchaytiradi. Yog'lar almashinushi. Ingichka ichakda me'da osti bezi va ichak shirasi enzimlari ta'siri ostida yoglarning bir qismi yog kislotalarini, mono- va digitseridlarni hosil qilish yo'li bilan gidrolizlanadi. YOG' kislotalar va glitserinlarning xolein majmualar yoki yuqori dispersli mitsellyar qorishmalar ko'rinishidagi murakkab adsorbsiya jarayoni oqibatida, ichak devorida glitserin, yog' kislotalar, mono-, di- va trigliierinlar, fosfolipidlar, xolesterin efirlari to'planadi. YOG' kislotalar va glitseridlarning asosiy kismi, epitelotsitlarda, juda past zichlikka ega bo'lgan xilomikronlarga va lipoproteidlarga shakllanadi. Oxirigilar limfatik tizimga kelib tushadi va ko'krak limfatik oqimi orkali umumiyl kon aylanishiga kelib ko'shiladi. Eterifitsirlanmagan yog' kislotalarning qolgan qismi (asosan o'rtacha uzunlikdagi zanjirli) albuminlar bilan bir majmuada portal qonga tashiladi. Kushlarda, lipidlar butunligicha portal tizim orqali jigarga tashiladi, keyin esa umumiyl tsirkulyatsiyaga kelib ko'shiladi. Qonda xilomikronlar va lipoproteidlarning lipaza ta'sirida ancha mayda majmualarga qisman parchalanadi va ular, eterifitsirlanmagan yog' kislotalar va boshqa lipidli

komponentlar bilan birga qon orqali o'pkaga, jigarga va periferik to'qimalarga kelib tushadi. Uglevodlar almashinuvi. Uglevodlar organizmda plastik va energetik roli bajaradi. Odam va yuksak hayvonlar uchun uglevodlarning biologik roli, avvalam bor ularning energetik qiymati, energiyaning sarflanishi ortib borganda tez mobilizatsiya bo'lish qobiliyati bilan belgilanadi. Ularda energiya almashinuvining 60% uglevodlarning parchalanishiga boliq, miyadagi energiya almashinuvi esa faqatgina glyukoza tomonidan ta'minlanadi. Shu bilan birga, uglevodlarning plastik rolini ham esdan chiqarmaslik kerak chunki ular murakkab hujayra strukturalari tarkibiga kiradi (glikopeptidlar, glikoproteinlar, lipopolisaxaridlar, glikolipoproteinlar va b.). Agar, organizmning energiyaga bo'lgan extiyoji to'la ravishda uglevodlar va yog'lar hisobiga qoplansa, unda so'rilgan oqsil to'la ravishda struktura makedlari uchun ishlatilishi mumkin. Monogastriyu hayvonlar organizmida parchalangan uglevodlarning asosiy qismi (70%) tukimalarda  $O_2$  va  $SO_2$  gacha oksidlanadi, bir qismi (27%) yogga aylanadi va kichik qismi (3-5%) glikogen sintezi uchun ishlatiladi. To'qimalarda glyukoza metabolizmi turli yullar bilan amalga oshadi, lekin bundagi majburiy reaktsiya — uning fosforillashi bilan birga glkjozo-6-fosfat xosil bo'lishi xisoblanadi, oxirgisining bir qismi  $O_2$  va  $SO_2$  gacha oksidlanadi. Bunda ajraladigan energiya ATF ning makroergik dozalarida fiksatsiya qilinadi. Shunday qilib, glyukozo-6-fosfatning parchalanishi energetik maqsadlar uchun xizmat qiladi. Uglevodlar organizmida glikogen ko'rinishida asosan jigarda va qisman mushaklarda to'planadi. Zaxiradagi glikogenning mikdori odamda 400 g atrofida bo'ladi, lekin bu zaxira kichik bo'lishiga qaramasdan, yog'larga nisbatan, energiya almashinuvining extiyojlari uchun tezlik bilan mobilizatsiya bo'ladi. Bir kecha-kunduzda odam uchun uglevodlarning minnmal ehtiyoji 100-150 g, optimal dozasi esa -500 g atrofida bo'ladi. Bu kattalik organizmning energetik extiyojiga qarab ancha o'zgarishi mumkin. Organizmga 1 g uglevod 4 kkal energiya beradi. Aerob va anaerob yo'l bilan faqat glyukoza bevosita oksidlanishi mumkin. Ovqatlar tarkibida uglevodlar asosan polisaxaridlar kraxmal va glikogen, disaxaridlar saxaroza va laktoza va ozroq mikdorda monosaxaridlar glyukoza, fruktoza va galaktoza shakllarida iste'mol qilinadi. Polisaxarid va disaxaridlar parchalanmasdan so'rilmaydi. Ular o'zlashtirilishidan oldin, hazm enzimlari ta'sirida monosaxaridlarga parchalanib so'rildi. So'rilgan monosaxaridlarning, masalan glyukozaning 5% biologik suyuqliklarda bo'ladi, ko'pchilik qismini, ya'ni 55% ni jigar qondan ajratib oladi, 15% skelet mushaklariga va yog' to'qimasiga o'tadi, 25% asab tuqimalariga, qonning shaklli elementlariga va buyraklarga o'tadi. Jigar va mushaklarda glyukoza glikogenga aylanadi va uglevodlar zaxirasini tashkil etadi. Uglevodlarning ba'zi birlari biologik faollikka ega, ular organizmda maxsus vazifalarni bajaradilar. Askorbin kislota, geparin va qon guruhlarini belgilovchi geteropoli saxaridlar ana shunday uglevodlarga kiradi. Odam konida glyukozaning mikdori 4,4-6,6 mmolG'l yoki 80-120 mg% ni tashkil qilsa, uning mu'tadil faoliyat ko'rsatishi uchun etarli bo'ladi. Glyukozaning qonda birozgina kamayishi ham zaiflik va madorsizlikka olib keladi. Bunda, eng avvalo, MAT ning faoliyati o'zgaradi. Glyukozaning qondagi mikdori 2,2-2,28 mmolG'l. ga (40-50 mg%) tushib qolsa, odam talvasaga tushadi, haydaydi va xushidan ketadi. Demak gipoglikemiya holati uzoq vaqt och qolganda, davolash uchun yuboriladigan insulinning miqdori oshib ketganda kuzatiladi. Uni bartaraf qilish uchun qonga glyukoza eritmasi yuborish yoki bemorga shirin choy ichirish kerak. Qonda glyukoza miqdorini ko'payib ketishini giperglykemiya deb aytildi. Odam birdan tez so'rila'digan uglevodlarni juda ko'p iste'mol qilsa qondagi glyukozaning miqdori 8,9-10,0 mmolG'l (160-180 mg%) ga ko'tarilib ketishi kuzatiladi. Buni alimentar giperglykemiya deb aytildi. Patologik giperglykemiya organizmda insulin etishmasligida kuzatiladi va qandli diabetning uziga xos belgisi hisoblanadi. Glyukoza mikdori qonda 10 mmolG'l. ga (180 mg%) etsa, glyukoza siydk bilan ajrala boshlaydi. Qonda glyukoza miqdori doimo bir xil darajada saqlanib turishi organizmda uglevodlar almashinuvining tugri boshqarilishi uchun juda muxim rol uynaydi. Glyukoza miqdorini qonda mu'tadil bo'lishi ayrim gormonlarga bog'liq. Masalan, insulin qonda glyukoza miqdorini kamaytiradi, bu gormon hujayra membranasiga ta'sir qilib, glyukoza va ba'zi bir ionlarning membranadan o'tuvchanligini oshiradi. Insulin anabolik jarayonlarni ta'minlaydigan enzimlar tizimi faolligini kuchaytirib, glikogenezni, ya'ni glikogen xosil

bo'lishini, lipogenezni, ya'ni yog' sintezlanishini va oqsillar sintezini tezlashtiradi. Bu esa qonda glyukoza miqdorini kamayishga olib keladi. Glyukagon, glyukokortikoid gormonlar, adrenalin va somatotrop gormonlar aksincha, insulinga zid ravishda glyukoza miqdorini oshiradi.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlar katta qornidagi mikrofloraning faoliyati tufayli ozuqa uglevodlarining ko'p qismi anaerob glikolizga uchraydi va uchuvchan yog' kislotalariga enzimli parchalanishi (piruvat va laktat orkali) bo'ladi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda uglevodlar almashinuvining asosiy metabolitlari glyukoza emas, balki aynan uchuvchan yog' kislotalar hisoblanadi. Ovqat hazm qilish traktidan qonga qandlar shaklidagi uglevodlar kam o'tadi, shuning uchun, kavsh qaytaruvchi hayvonlarning glyukozaga bo'lgan extiyoji endogen sintez hisobiga ta'minlanadi. Vitaminlar. Vitaminlar turli tipdag'i birikmalar bo'lib, moddalar almashinuvida kataliz rolini bajaradi va ko'proq hollarda enzim tizimlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak vitaminlar *boshqaru* moddalarini hisoblanadi. Organizmning vitaminlarga bo'lgan talabi juda oz, ya'ni bir kecha-kunduzlik extiej 200 mg (folat kislota) va 50-100 mg (askorbin kislota) dan 2 mkg (iianokobalamin) gacha bo'ladi. Ko'pchilik vitaminlarga bo'lgan extiyoj 2 mgG'sut dan to 25 mgG'sut gacha bo'ladi. Vitaminlar energiya manbai va plastik material rolini bajarmaydi. Vitaminlarni asosan ovqat bilan birga iste'mol qilinadi, ammo ba'zilarini yo'g'on ichak mikroflorasi sintezlaydi. Agar, organizm biror vitaminni etarli miqdorda qabul kilmasa, o'ziga xos xastalik — gipovitaminoz kuzatiladi. Vitaminning ovqatda mutlok bo'lmasligi avitaminoz xastaligiga olib keladi. Gipovitaminoz va avitaminoz xastaligi vitaminlarni ichakda etarli miqdorda so'rilmaganida ham paydo bo'ladi. Organizmning tez o'sishi davrida va xomiladorlikda vitaminlarga bo'lgan extiyoj keskin kuchayadi. Ovqatlanish fiziologiyasi nuqtai nazaridan yog'da va suvda eriydigan vitaminlar farqlanadi. Yog'ga boy hayvon mahsulotlari (jigar, baliq moy), o'simlik yog'lari va ba'zi bir sabzovatlarning barglari yog'da eruvchi vitaminlar (A, D, E, K) manbai hisoblanadi. Boshqoli va dukkakli o'simliklarning maxsuloti, meva va sabzovotlarda suvda eriydigan vitaminlar (V, S, R) ko'p bo'ladi. Ammo, ba'zi suvda eriydigan vitaminlarning, masalan nikotin kislota va vitamin V<sub>2</sub> larning asosiy manbai hayvon mahsulotlari hisoblanadi. Suvda eriydigan vitaminlardan birinchi kashf etilgani vitamin V<sub>1</sub> (tiamin). Tarkibida amin guruhi borligi va hayotiy ahamiyatiga egaligi sababli «vitamin» deb atalgan. Odam har ko'ni 1,4-2,4 mg vitamin V, iste'mol qilishi lozim. Boshqoli va dukkakli o'simliklarda, jigar, buyrak va yurak to'qimalarida vitamin V, ko'p bo'ladi. Bu vitamin uglevodlar, oqsillar va yog'lar almashinuvida ishtirok qiladi. U, o'sish jarayonida, me'da tizimining motor va sekretor faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bu vitaminning etishmasligi «beri-beri» degan kasallikka yo'liktiradi, ya'ni periferik asablarning yangilanishi (polinevrit), yurak va xazm tizimi faoliyatlarining buzilishiga olib keladi.

### ***Uchunchi savol bayoni.***

Uglevodlar, yog'lar va oksillar almashinuvining o'zaro bog'liqligi. Organizmdagi uglevodlar, yog'lar va oksillarning biokimeviy almashinuv jarayonlari o'zaro yaqindan bog'liqdir va, shu bilan birga, ma'lum bir chegarada ularning birini ikkinchisiga almashishi ham mumkindir. Alovida metabolik yo'llar hamda parchalanish va sintez jarayonlari o'rtasidagi bog'lovchi rolini — umumiyyetli metabolik qozonga kiruvchi muhim birikmalarning ozgina miqdori amalga oshiradi. Uglevodlar, yog'lar va oqsillar almashinuvining o'zaro bog'liqligini muhim mahsulotining asosiysi atsetilkoenzim -A (atsetil KoA) xisoblanadi. Bu nukleotid yordamida oqsillar, yog'lar va uglevodlar almashinuvini umumiyy yo'lga biriktiriladi, ya'ni uch korbon kislotalar tsikliga (Krebs tsikli), bu erda oksidlanish natijasida almashinuv energiyasining uchdan ikki qismi ajraladi. Modda almashinuvining yakuniy mahsulotlari uncha ko'p bo'limgan oddiy birikmalardan iborat bo'lib, azot — tarkibida azot bo'lgan birikmalar (asosan mochevina va ammiak) ko'rinishida, uglerod — SO<sub>2</sub> ko'rinishida va vodorod — N<sub>2</sub>O ko'rinishida ajraladi.

Uglevodlar, yog'lar va oqsillar almashinuvidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligi tufayli, ayrim oziq modlalarning defitsiti boshqalari hisobiga to'ldirilishi ham mumkin. Masalan, uglevodlarga, yog'larga aylanishi (glyukoza-4 piruvat- aietil-KoA- butiril-KoA- YOG' kislotalar; glyukoza-glyukozo-6-fosfat— 3-fosfoglitserinli aldegid— glitserin) va qisman uning teskarisi (yog'

kislotalar— atsetil-KoA- atsetat— glyukoza; yog’ kislotalar atsetil-KoA» piruvat— glitserin) bo’lishi mumkin. Oqsillar parchalanishi paytida hosil bo’ladigan aminokislotalarning bir qismi, glyukoneogenet jarayonida glyukozaga aylanishi mumkin. Uz navbatida, uglevodlar parchalanishi paytida hosil bo’lgan piruvat, tiklovchi aminlashtirish yoki qayta aminlashtirish roli bilan alanin, asparagin va glutamin kislotalarning hosil bo’lish jarayonini boshlanishiga asos soladi.

### *To’rtinchi savol bayoni.*

Ovqatlanish. Ovkatlanish jarayoni — organizm tomonidan tana to’qimalarini yangilash va tuzish uchun hamda energiya sarfini qoplash uchun zarur bo’lgan moddalarni o’zlashtirishidir. Organizmning energetik yoki plastik ehiyojlari uchun ishlataladigan, kelib chiqishiga ko’ra, asosan o’simlik yoki hayvonlarning murakkab birikmalaridan tarkib topgan ovqatdan foydalanish uchun, ular avvalo gidrolizlanishi va turning o’ziga xos xususiyatlarini yo’qotgan, nisbatan oddiy birikmalarga aylanishi zarur. Moddalar almashinuvi assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlarining birligidir. Tirik materianing yaratilishi jarayonlari, organizmga tashqi muhitdan tushgan moddalarning hujayralar tomonidan o’zlashtirilishi, oddiyroq kimyoniy moddalardan murakkabroq birikmalarning hosil bo’lishi, organizmda tirik protoplazma sintezining majmuasi — assimilyatsiya (assimulo — o’xshataman) deyiladi. Hujayralar tuzilmasi, jumladan oqsil birikmalari tarkibiga kiradigan moddalarning parchalanishi, bo’linishi va tirik materianing emirilishiga — dissimilyatsiya (dissimulo— o’xshamaydigan qilaman) deyiladi. Bunda parchalanish mahsulotlari organizmdan chiqib ketadi. Assimilyatsiya va dissimilyatsiya bir-biriga qarama-qarshi va o’zaro chambarchas bog’langan jarayonlardir. Modda almashinuvi natijasida bir xil moddalar ikkinchi xil moddalarga aylanadi. Bunda, energiya bir xolatdan ikkinchi holatga o’tadi, kimyoviy birikmalardagi potentsial energiya, ular parchalanganda, asosan issiklik mexanik va qisman elektr energiyasi kabi kinetik energiya turlariga aylanadi. Hayvonlarning oziqa moddalarga bo’lgan talabi umuman olganda bir xildir, ya’ni ular: energiya almashinuvi uchun tarkibiy tuzilishi buyicha o’xhash oziqa moddalarga; murakkab oqsilli molekulalarni va hujayraning tarkibiy tuzilmalarini ko’rish uchun aminokislotalar, purinlar va ayrim lipidlar tipidagi moddalarga; moddalar almashinuvining maxsus katalizatorlariga va hujayra membranalarining stabilizatorlariga; organizmdagi fizik-kimyoviy jarayonlar uchun noorganik ionlar va birikmalarga va hujayrada moddalar almashinuvi muhitini yaratish uchun universal biologik erituvchi bo’lmish suvgaga extiyojlidir. Yuksak organizmlarning ovqati tarkibiga organik moddalar kiradi, ularning aksariyat kismi oksillar, lipidlar va uglevodlarga taalluqlidir. Ular gidrolizining mahsulotlari — aminokislotalar, yog’ kislotalar, glitserin va monosaxaridlar organizmni energiya bilan ta’minlanishi uchun sarflanadi.

## **8.Mavzu: Issiqlik almashinuvi fiziologiyasi.**

### **Asasiy savollar:**

1. Issiklik almashinuvi va tana haroratining boshqarilishi.
2. Gomotermiya va poykilotermiya haqida tushuncha.
3. Harorat boshqariluvining markaziy mexanizmlari.
4. Haroratga adabtatsiya.

### ***Birinchi savol bayoni.***

Issiqlik almashinuvi va tana haroratini boshqarish. Organizmdagi barcha hayotiy jarayonlarning sodir bo'lishiga, haroratning sezilarli ta'siri bor. Harorat moddalarni o'zgartiruchi kimyoviy reaktsiyalarning o'tish tezligini o'zgartiradi, ya'ni organizm qiziganda kimyoviy reaksiyalar tezlashadi, sovuq kotganda esa susayadi. Shuning uchun odam, sut emizuvchi hayvonlar va qushlarning organizmida uzlusiz ravishda issiqlik ishlab chiqariladi va bu issiqlik uning hujayralari faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Organizmning hayoti unda biokimyoviy reaktsiyalarning o'tishiga bog'liq bo'lib, ular tufayli barcha turdag'i energiyani issiqlik energiyasiga entropik ravishda aylanishi sodir bo'ladi. Organizm to'qimalarining harorati, ularning hujayra tuzilmalarini metabolik issiqlik ishlab chiqishining tezligi va xosil bo'lgan issiqliknki atrof-muhitga tarqatish tezligining nisbati aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda organizm va tashqi muhit o'rtasidagi issiqlik almashinuvi hayvonot organizmlari yashashining ajralmas shartlari hisoblanadi. Ushbu jarayonlar tezliklari nisbatining buzilishi tana haroratining o'zgarishiga olib keladi. Termodinamikaning ikkinchi qonunidan kelib chiqqan xolda, energiyaning yakuniy o'zgarishi faqatgina yukori xaroratlari soxadan past haroratlari soxa tomoniga o'tish qobiliyatiga ega ekanligini nazarda tutsak hayvon tanasining harorati, atrof-muhit xaroratidan yuqori ekan, uning organizmdan atrof-muhitga issiqlik ajralib chiqishi davom etaveradi. Zamonaviy hayvonot dunyosi, arning 70 S sovuqdan 85°S issiqqacha bo'lgan haroratida yashashga moslashgan. Haroratning bunday diapazoni to'qimalar darajasidagi jarayonlar uchun tabiiyki to'g'ri kelmaydi, chunki ular -2 dan to Q45°S gacha bo'lgan intervalda, ya'ni hujayra muzi hosil bo'ladigan harorat chegarasidan, to hujayra membranalarining fizikkimyoviy xususiyatlarini o'zgartiruvchi va shu bilan bog'liq enzimli jarayonlarning bo'zilishiga olib keluvchi harorat chegarasi doirasida amalga oshishi mumkin. Xayvonlar organizmini muhitning haroratiga moslashishi filogenezinining barcha darajalarida bo'lganligi *ma'lum*. Muhitning haroratiga to'liq buysinishni harorat konformatsiyasi deb, muhit haroratiga to'la bog'liq bo'lgan organizmlarni — konfermerlar deb ataladi. Lekin, ko'pchilik organizmlar atrof-muhitning haroratiga to'lik bog'liq bo'lishiga gomeostazni ushlab turuvchi turli mexanizmlarni ishga solib qarshilik ko'rsatadi, bularni boshkaruvchi organizmlar deb ataladi. Gomeostazni ushlab turish mexanizmlari bo'yicha boshqaruvchi organizmlar poykiloterm va gomoyoterm organizmlarga bo'linadi. Poykiloterm (yunoncha poikilos — o'zgaruvchan) organizmlar tana haroratini nisbatan bir xil darajada ushlab turishga qodir emas. Gomoyoterm (yunoncha homeo — o'xshash, bir xil) organizmlar tana haroratini nisbatan bir xil darajada ushlab turish qobiliyatiga ega, bunda sutkalik mavsumiy fark 2 S dan oshmaydi.

### ***Ikkinchi savol bayoni.***

*Poykiloterm hayvonlar* boshqaruvchi organizmlar hisoblanib, ularda, atrof-muhit haroratinig o'zgarishlariga ma'lum darajada qarshi turish imkoniyatini beruvchi har xil mexanizmlar mavjud. Birinchi mexanizm — to'qimalarining harorati o'zgargan paytda almashinuv jarayonlarini barqarorlashtirish qobiliyatidir. Ushbu mexanizm harorat kompensatsiyasi deb nomlanib, uni son jixatdan ifodalanishi — tuqimalarning  $Q_{10}$  koeffitsientini kamayishi hisoblanadi. Ko'pchilik poykiloterm organizmlarning  $Q_{10}$  koeffitsenti 2,0 dan pastdir. Muhit harorati o'rtacha, harorat o'zgarishlari farqi esa katta bo'lgan suv sathi ko'tariladigan joylarda yashaydigan kisqichbaqasimonlar va chig'anoqlarda  $Q_{10}$  koeffitsenti 1,0 ga yaqin bo'ladi (ya'ni metabolizm tezligi o'zgarmas). Evolyutsiya jarayonida, turli to'qimalarda xarorat kompensatsiyasining shakllanishi bir xil o'tmaganligi tufayli, asab tizimida haroratni

sezishga moslashgan maxsus tuzilmalarning ajralib chiqishi sodir bo'lgan. Shu tufayli, hayvonot dunyosining rivojlanishini dastlabki davridanoq termoregulyatorlar paydo bo'lgan. Ikkinchи mexanizm — xulq-atvor xarorat boshqariluvi (termoregulyatsion) xulq-atvor bo'lib, u, umurtqasizlar xarorat boshqariluvining bosh mexanizmi hisoblanadi, lekin o'zining mohiyatini xayvonot dunyosi (odamni ham) rivojlanishining barcha davrlarida saqlab kolgan. Termoregulyatsion xulq-atvor harakat aktlarining majmuasi bo'lib, organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi issilik almashinuvini o'zgartirishga karatilgan. Oddiy holatda, bu, ekstremal past va yuqori haroratdan termoindefferent haroratga (termopreferendum) utish yo'li bilan qochishdir. Termoregulntsion xulq-atvorning ancha murakkab shakllari ham mavjud, bular in qazish, qizigan paytda junini yalash, termoregulyatsion holat (poza), insonning termoregulyatsion xulq-atvor maqsadida kiyim, uy-joy va boshqalarni yaratish hamda ulardan foydalanishga qaratilgan ongli faoliyati. Uchinchi mexanizm — poykiloterm hayvonlarning, asosan umurtqalilarning, haroratning bir xil diapazonida,sovushga nisbatan tezrok isish kobiliyatidan iborat harorat gisterezisi. Masalan, chul toshbaqasi kunduzi issiqlikni o'ziga olishni, kechqurun issiqlikni chiqarishga nisbatan 10 marta tezroq amalga oshiradi. Bu holat, tana yuzasining issiqlik o'tkazuvchanligini o'zgartiruvchi teri qon tomirlarida, qon aylanishini o'zgartirish xisobiga erishiladi (ya'ni, isigan paytda tomirlarning kengayishi va sovuq qotganda-torayishi hisobiga). Shunday qilib, poykiloterm organizmlar termoregulyatsiya ega va harorat kompensatsiyasi, termoregulyatsion xulq-atvor hamda harorat gisterezis mexanizmlaridan foydalanib, atrof-muhit haroratining o'zgarishlariga ma'lum darajalarda qarshi tura olish qobiliyatiga ham egadir.

*Gomoyoterm hayvonlar* — platsentar sut emizuvchilar va qushlar (chin gomoyotermalar) tana xaroratini, atrof-muhit haroratining nisbatan katta o'zgarishlarida ham bir xil darajada ushlab turish qobiliyatiga ega. Gomoyotermiya — taximetabolizm asosida, ya'ni yuqori darajadagi energiya almashinuvi asosida shakllangan. Evolyutsiya davrida taximetabolizm tireoidli gormonlar va noradrenalinning ortib boruvchi ta'siri ostida paydo bo'lgan. Gomoyoterm hayvonlarda, rivojlangan mushaklaridagi energiya almashinuvi ortishi bilan, bunday gumoral tip boshqaruv o'zining muxim darajasiga ko'tarilgan. Tireoid gormonlarning ortib boruvchi ta'siri ostida hujayradagi natriyli nasosning ishi kuchaygan va unga sarf bo'ladigan energiya hisobiga, tinch holatdagi issiqlik energiyasining 40 foizgacha ishlab chiqariladi. Mushak faolligi va ionli nasoslarga sarflanadigan energiyaning ortishi, oksidlanish jarayonlarini va issiqlik o'tkazishni samarali ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lgan nafas olish va qon aylanishning fiziologik tizimlarini rivojlanishiga olib keldi. Gomoyoterm hayvonlarda poykiloterm hayvonlarga nisbatan, energiya sarflanishining 10-30 marta ko'payishi va bu bilan bog'liq issiqlik hosil qilish, rivojlangan termoregulyatsiya mexanizmlari yordamida, organizmdagi issiqlik energiyasi miqdorini boshqarishga, ya'ni shundan kelib chiqqan holda tana haroratini, issiqlikni ushlab turuvchi integral ko'rsakich sifatida boshqarishga imkoniyat yaratadi. Gomoyoterm hayvonlar tana haroratini doimiyligini ushlab turishlari uchun tana haroratini fizik va kimeviy boshqarish xususiyatiga egadir. Fizikaviy harorat boshqariluvi tananing qoplama tuqimalarida issiqlik o'tkazishning o'zgarishi bilan amalga oshiriladi, natijada tana va atrof-muhit haroratlarining bir xildagi farqlanishi paytida, issiqlik ajratish kattaligi o'zgaradi. Bunga asosan terida qon oqimini boshqarish, junning va patlarning vaziyati hamda tana yuzasidan yoki og'iz bo'shilg'idan namlikning bug'lanishi bilan erishiladi. Kimeviy xarorat boshqariluvi — organizmni muhitning past harorati ta'siriga javoban issiqlik ishlab chiqarishni reaktiv ravishda ko'paytirishi bo'lib, uning yordamida gomoyoterm hayvonlar issiqlik hosil qilishni 3-5 martagacha keskin oshirish imkoniyatiga ega. Issiqlik hosil qilishni ko'paytirish mushaklarning termoregulyatsion faolligi (qisqaruvchanlik termogenezi) va issiqlikning maxsus manbalarini faollashtirish (noqiskaruvchanlik termogenezi) hisobiga erishiladi.

### *Uchunchi savol bayoni.*

*Harorat boshqariluvining markaziy mexanizmlari* gipotalamus tuzilmalarida joylashgan. Harorat boshqariluvi, asosiy qismi gipotalamik termoregulyatsion mexanizmdan iborat bo'lgan

taksimlovchi tizim tomonidan amalga oshiriladi. Periferik termoretseptorlardan keladigan axborot orqa miya orqa shoxlari tuzilmalaridan o'tib, o'zining signal darajasidagi segmentar somatik va avtonom mexanizmlari tomon harakat qiladi hamda orqa miyaning ko'tariluvchi yo'llari bo'ylab bosh miyaga keladi. Bosh miyaga harorat sezgirligini o'tkazuvchilarning asosiysi spinotalamik spinoretikulyar trakt hisoblanadi. Spinotalamik trakt turli filogenetik yoshlarning komponentlaridan — neospinotalamik va poleospinotalamik traktlardan iborat.

Termoneytral komfort sharoitda tana haroratini normal darajada ushlab turishni ta'minlovchi issiqlik balansi bo'lib, maxsus harorat boshqariluv mexanizmlari tomonidan korreksiya qilinishga muxtoj emas. Xar xil turlar uchun muhitning komfort harorati turlichadir. Muhit harorati komfort sharoitdan past bo'lsa, sovuqlik periferik termoretseptorlar faolligining ortishini chaqiradi. Sovuq to'g'risidagi axborot, orqa gipotalamusning efferent tuzilmalari tonusini oshiradi, natijada simpatik asab tizimining faollashuvi orqali teri va teriosti kon tomirlarining tonusi ortadi. Issiqlik konservatsiyasi reaktsiyaning paydo bo'lishi bilan parallel ravishda, orqa gipotalamusning efferent tuzilmalari, tana holatini ushlab turuvchi mushak tonusini (termoregulyatsion tonus va qaltirashning paydo bo'lishi) boshqarish tizimini faollashtiradi, bu esa, o'z navbatida organizmda issiqlik ishlab chiqarishni (kisqaruvchanlik termogenezi) ortishiga olib keladi. Noradrenalin va adrenalinni simpatik asab tizimi tomonidan va buyrak usti bezlari to'mina beta-adrenoretseptorlar orqali ajralishi, barcha to'qimalarda energiya almashinuvini rag'batlantiradi, shu jumladan ko'ng'ir yog' to'qimalarda ham, agar bor bo'lsa, (nokiskaruvchanlik termogenezi). Issiqlik hosil bo'lishini adrenergik rag'batlanishining samaradorligi tireoidli gormonlar (triiod tironin va tiroksin) ta'siri ostida potentsirlashadi, bu gormonlarning ajralishi ham sovqotgan paytda kuchayadi. Xayvon issiq joyda kizitilganda, sovuqlik periferik retseptorlarining faolligi pasayadi va bu hol, gipotalamusning efferent tuzilmalari tonusini pasaiishini chakiradi. Harorat boshqaruv markazini efferent ta'sirining kamayishi, teri va teriosti qon tomirlariga simpatik ta'sirning kamayishiga olib keladi, bu hol, qon tomirlarining passiv kengayishi oqibatida, teridagi qon oqimining ortishi bilan birga sodir bo'ladi, energiya almashinuvining adrenerik va tireoidli faollashuvi pasayadi. Harorat boshqaruv markazining efferent ta'sirini pasayishi, mushak tonusining va u bilan bog'liq termogenezning ham pasayishi kiradi. Organizm haddan tashqari qizitib yuborilgan sharoitda, harorat boshqaruv reaktsiyalarini paydo bo'lishida etakchi rol, medial preoptik sohaning issiqlik neyron termosensorlarining ortib boruvchi faolligiga mansubdir. Ushbu issiqlik neyronlarining faolligi ikkita reaktsiyani o'z ichiga oladi. Birinchidan, simpatik asab tizimining maxsus tuzilmalari faollashadi, bu tuzilmalar, xolin ergik asab tolalari orqali ter ajralishini boshqaradi, natijada buglanish orqali issiqlik ajratish keskin ortadi. Terlamaydigan hayvonlarda bunday reaktsiyani diafragmaning yuqori chastotali faolligi almashtiradi va bu hol, issiqlik hansirashiga olib keladi. Ikkinchidan, barcha mushaklarning (diafragmadan tashqari) faolligi keskin tormozlanadi. Issiklik hansirashi paytida diafragmaning summar faolligi ortmaydi. Kuchli qizish sharoitida sut emizuvchining xarakat faolligi to'liq to'xtaydi (xolsizlanib, yotib qolish holati), bu sharoitda odam, irodali kuchlanish bilan chaqiriladigan, erkin harakat aktlarini amalga oshirish qobiliyatiga ega emas. Xarakat faolligining bunday to'xtatilishi, qizib ketish xavfi paytida mushak termogenezini minimallashtirishga qaratilgan. Xayvonlar kuchli qizitib yuborilgan paytda, ularning funktsional faolligini keskin bostirilishi, organizm uchun letal xaroratning, bunday xolatda normal holatga nisbatan o'rtacha  $6^0S$  ko'prok bo'lishi bilan borliq.

### *To'rtinchi savol bayoni.*

*Haroratga adaptatsiya bo'lish xodisasi gomoyoterm hayvonlar uzoq muddat (bir oygacha) qizitilgan yoki sovutilgan sharoitda ushlab turilganda sodir bo'ladi, bunday holatda, qizib ketish va mos ravishda sovqotishdan himoya qilish mexanizmlari samaradorligini ortishiga olib keladi. Issiqlikka adaptatsiya asosan ter ajralishi mexanizmining samarasini oshirilishiga qaratilgan bo'lib, bu holat, suv kam miqdorda yo'qotilgan paytda chanqoqlik hissini ortishi va kazishga nisbatan ter ajralish bo'sagasini pasaytirish hisobiga erishiladi. Sovuqqa adaptatsiya junning issiqliknii saqlab turuvchi xususiyatini ko'paytirishda hamda to'qimalar beta-*

adrenoretseptorlarining sonini ko'payishi hisobiga to'qimadagi energiya almashinuvini (termogenezini) fonini (umumiyligi) ortishida belgilanadi. Sovuq sharoitda tana metabolizmini yuqori darajada ushlab turish juda qimmatli mexanizmdir, ayniqsa, mayda hayvonlar uchun. Mayda hayvonlarda evolyutsiya jarayonida sovuqdan saqlanishning o'ziga xos mexanizmi, ya'ni qishki uyqu — giberpatsiya holati shakllangan. Qishki uyqu holatida hayvonlar tana haroratini taxminan Q5 S gacha pasaytirish yo'li bilan, energiya almashinuvining past darajasiga o'tadi. Bular kemiruvchilardan xomyaklar, yumronqoziklar, sug'urlar, o'rmon olmaxonni, xasharot xo'rlardan — tipratikanlar, kulkanotlilardan — kurshapalaklar va boshqalar bo'lib, ular gibernatsiya xolatiga o'tishidan oldin teri ostida yog' to'playdilar. Bu yog'lar kimyoviy bog'lamlarining energiyasi, qishki uyqu paytida organizmni minimal isitishga sarflanadi.

## **9.Mavzu : Ayiruv a'zolari tizmi fiziologiyasi.**

### **Asosiy savollar:**

1. Ayiruv organlar sistemasi ularning tuzilishi va funktsiyalari.
2. Siyidkning osmotik bosimini oshirish va pasaytirish.
3. Bo'yuraklar faoliyatining boshqarilishi.
4. Terining ekskretor funktsiyasi.

### ***Birinchi savol bayoni.***

Ayiruv a'zolari ko'p hujayrali hayvonlarning aksariyatida shakllangan bo'lib, ular ortiqcha suyuqlikni, ayrim ionlarni va moddalar almashinuvining qoldiq mahsulotlarini organizmdan chiqarishda xizmat qiladi. Odamning buyraklari, ter bezlari, o'pkasi va ichagi — chiqaruv a'zolari hisoblanadi. O'pka karbonat kislotasi, suv va ba'zi uchuvchan moddalarni (masalan narkoz paytida efir, xloroform va boshqa moddalarning bo'rlarini, al'kogolli ichimliklar ichilganda alkogol bug'larini) organizmdan chiqarib yuboradi. Ba'zi bir og'ir metallarning tuzlarini va o't pigmentlarining o'zgarish mahsulotlarini organizmdan ichak chiqarib yuboradi.

Ayiruv a'zolar modda almashinuvining yakuniy mahsulotdarini organizmdan chiqarish bilan bir qatorda, organizm ichki muxitining tarkibini va xossalarni doimiy darajada saqlash uchun ham ahmiyatga ega. Masalan, osmoregulyatsiyada, ya'ni ichki bosimning osmotik bosimi turg'unligini saqlashda (izoosmiya) va ionlar tarkibining turg'unligini saklashda (izoioniya) qatnashadi. Shu bilan birga, buyraklar, o'pka, ter bezlari organizmda vodorod ionlari kontsentriiyasini doimiy darajada ushlab turishda ham muxim ahmiyatga egadir. O'pka alveolalari va teri yuzasidan suvning bo'g'lanishi tana haroratini pasaytiradi, demak ter bezlari alohida o'r'in tutadi. Ular ajratadigan moddalar — teri yog' va sut — moddalar almashinuvining yakuniy mahsulotlari bo'lmasdan, ma'lum fiziologik ahmiyatga ega, ya'ni sut — chakaloq uchun OVKAT bo'lsa, teri yog'i esa — terini moylab turadi. Qushlar va baliqlarda ayiruv jarayonlarida burun va rektal tuz bezlari, jabralari ham qatnashishi mumkin. Umurtqalilarning asosiy ayiruv a'zosi buyrak hisoblanib, uning tuzilishi yagona printsip asosida tarkib topgan, ya'ni ultrafiltratsiya jarayoni uchun moslashgan tuzilmalar, filtrlangan suyuqliklarning ko'pchilik komponentlarini reabsorbtisiyasini va qator moddalarni siyidikka sekretsiya qilinishini ta'minlovchi kanalchalar tizimi bilan bog'langan bo'ladi. Barcha umurtqalilar sinfi vakillarining buyraklaridagi nefron Malpigi tanachasidan boshlanadi. Tugunchaning ichki bo'shlig'idan buyin segmenti boshlanadi, ayrim xollarda bu segment bo'lmaydi va bu paytda, Boumen kapsulaning tashqi qismini hosil qiluvchi parietal yaproq nefronning praksimal segmentiga o'tadi. Uning hujayralarini o'ziga xos xususiyati, ko'p sonli vorsinkalarning mavjudligida bo'lib, ular shyotkasimon jiyak hosil kiladi. Undan keyin, sut emizuvchilar buyragida Genle sirtmogining yupqa kremniy hosil qiluvchi orzliq yoki bog'lovchi bo'lim keladi. Ko'pchilik hayvonlarning buyragida nefronning distal segmenti bo'lib, unga Genle sirtmog'inining yo'g'on ko'tariluvchi bo'limi, distal burama kanalcha va bog'lovchi kanalcha kabilar kiradi. Bu nefronning oxirgi qismi bo'lib, yig'uvchi naychalar tizimi bilan birlashadi.

Umurtkalilar turli sinflari vakillarida siyidik hosil bo'lishi asosida yotuvchi, ya'ni tugunchali filtratsiya, reabsorbsiya va sekretsya jarayonlarining jadalligi bir xil bo'lmaydi. Yumaloq okizlilarda, baliqlarda, amfibiyalarda va reptiliyalarda tugunchali filtratsiya darajasi 100 g tana massasiga nisbatan 1 soatda 1-4 ml. ga teng, qushlarda bu ko'rsatkich anchagina yuqori, sut emizuvchilarda esa 10-15 marta yuqori bo'ladi. Kalamushlarda filtratsiya qilinuvchi suyuqdiski hajmi 1 soatda 50 ml.ga (100 g tana massasiga nisbatan) teng bo'ladi. Filtratsiya darajasining bunday ko'p miqdorda o'zgarishi, evolyutsiya jarayonida, reabsorbsiyaning ekvivalent o'zgarishi bilan birga sodir bo'lgan deb hisoblash mumkin. Xaqiqatdan ham sut emizuvchilarda filtratsiyaning keskin ko'tarilishi kanalchalardagi reabsorbsiyaning ko'payishi bilan sodir bo'ladi. Filtratsiya va kanalchadagi reabsorbsiya darajasining ko'paygan qon plazmasini suyuq kismi barcha asosiy komponentlari tarkibini ancha aniq ushlab turishda muhim rol uynaidi. Qarshi oqim tizimining ishi va siyidikning osmotik kontsentratsiyalanishi uchun qon oqimining va filtratsiyaning ko'payishi muhim ahamiyat kasb etadi. Odamda qon OQIMI 1 daqikada 100 g to'qima hisobiga qayta hisoblanganda, buyrak uchun 430 ml, yurakning koronar tizimi uchun — 66 ml, bosh miya uchun esa 53 ml. ni tashqil qiladi. Boshqa suz bilan aytganda, kattaligi odam tana massasining 0,5% ini tashqil qiladigan buyrak tinch holatda, yurakning chap me'dachasidan chiqib keladigan qonning 25% ini qabul qiladi va organizm is'temol qiladigan kislороднинг 10 % gacha miqdorini sarflaydi. Shunday qilib, buyrakni faqat ayiruv a'zosi deb hisoblash, uni organizmda bajaradigan barcha funktsiyalariga mos kelmaydi, buyraklar ichki muhit suyuqdisklari hajmini, ulardagi ayrim ionlar kontsentratsiyasini, osmotik faol moddalarning summar kontsentratsiyasini, qonning rN ko'ratkichini boshqarishda ishtirok etadi. Buyraklar, azotli almashinuvlarning oxirgi mahsulotlarini, organik va noorganik moddalarning ortiqchasini ekskretsiya qilinishini ta'minlaydi. Buyraklarda fiziologik faol moddalarni (renin, D, vitamining faol shaklini, eritropoetin) ishlab chikish na ularning uglevodlar, oksil va lipidlar almashinuvini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan metabolistik funktsiyalarini organizm uchun muhim ahamiyatga ega. Demak buyraklar qonning asosiy fizik-kimyoiy konstantalarining doimiyligini ushlab turishda, uning hajmini, arterial bosimni, organik komponentlarini tarkibini boshqarishda muhim rol uynaydi. Buyrakning ushbu turli-tuman funktsiyalarini bajarishini, bo'yralar faoliyatining asosida etgan turtta jarayon: 1) buyraklar tugunchalaridagi suyuqliklarning ultrafiltratsiyasi; 2) organizm uchun qimmatli bo'lgan moddalarning kanalchalarda reabsorbsiya (qayta surilishi) bo'lishi; 3) organizmdan chiqarib yuborilishi zarur bo'lgan qaytar moddalarning sekretsiyasi (qonning kanalchalar oldi kapillyarlaridan kanalchalarning ichki bo'shlikiga kelib tushishi); 4) qonga kelib tushadigan yoki buyrak orqali chiqarib yuboriladigan yangi moddalarning sintezi ta'minlaydi. Sut emizuvchilarning buyragi tarkibiy tuzilishi jihatidan ikkita qatlamdan iborat: tashqi, kobiq katlam va uning tagida yotgan, ichki va tashqi qismidan iborat mag'iz qatlami. Buyraklarning funktsional birligi nefron hisoblanib, odam buyragida uning soni 1 mln. atrofida bo'ladi. *har* bir nefron Shumlyanyokiy-Boumen ikki devorli kapsulasidan boshlanib, uning ichida kapillyarlar tugunchalari joylashgan. Tashqi, parietalli Shumlyanyokiy-Boumen kapsulasining yaprogi, nefronning burama va turli qismlaridan tashqil topgan proksimal segmentiga o'tadi. Ushbu segment hujayralarining o'ziga xos hususiyati, shetkali jiyak hosil qiluvchi ko'p sonli mikrovorsinkalarning borligi hisoblanadi. Ayrim nefronlarda juda kalta, boshqalarida esa — ingichka uzun bo'limi bo'lgan Genle sirtmog'i bor bo'lib, u distal segment bilan borlanadi. Uning tarkibiga Genle sirtmog'iping yo'g'on kutariluvchi shoxi, distal burama kanalcha va yig'uvchi nay bilan tutashgan bog'lovchi kanalcha kiradi. Nefronning nomlari qayd qilingan bu timlarini har birining funktsiyasi turlichadir. Odam va sut emizuvchilarning buyraklarida tugunchalarining joylashishiga qarab farqlanadigan nefronlarning bir necha turi mavjud: yuza, intrakortikal (pustloq qatlami ichida yotadigan) va yuksak meduzalar (ularning tugunchalari pustloq chegarasi va mag'iz moddasida joylashgan). Turli tipdagisi nefronlar Genle sirtmog'ining uzunligi va tarkibi hamda siyidikni osmotik konentratsiyalanishi jarayonida qatnashishi buyicha farqlanadi. Siyidikni hosil qilishda qatnashish bilan bir vaqtida, buyraklar inkretor a'zolar sifatida ham muhim rol uynaydi.

### *Ikkinchı savol bayoni.*

Siydikning osmotik bosimini oshirish va pasaytirnsh. Organizmda suv yoki tuzlar kontsentratsiyasi ko'payganda, ularning ortiqchasi buyraklarning faoliyati tufayli chiqarib yuboriladi va shu sababli, buyraklar QONNING normal osmotik bosimini tiklashda qatnashadi. Suv muvozanati holatiga qarab, sut emizuvchi va qushlarning buyraklari ba'zan quyuq, ba'zan esa suyuq siydik ishlab chiqaradi. Siydikning osmotik bosimini oshirishda pefronning hamma kismlari ishtirok qiladi. Bu jarayonga buyraklarning mag'iz kismidagi qon-tomirlari va hujayralararo to'qima ham tortiladi. Nefronning siydikni kuyultirishdagi faoliyati juda ham unumli bo'ladi, chunki buyraklarda, burib teskari oqizadigan tizim mayjud. Burib teskari oqizuvchi tizimga Genle qovuzlog'ining tushuvchi va ko'tariluvchi qismlari va to'plovchi naychalari kiradi. Tizimning uchala qismi bir-birlarining yonida jips taqalib turadi. Atrofdagi to'qimalar suyuqligi, ro'y beradigan jaraenlarda juda ham sust qatnashadi. Proksimal kanalchada reabsorbtisiyanan qolib, Genle qovuzlog'ining tushuvchi qismiga etib kelgan suyuqlikning osmotik bosimi qon plazmasining osmotik bosimiga teng. Bu suyuqliq Gekle qovuzlog'ining ingichka tushuvchi qismiga etib kelib, buyraklardagi hujayralararo osmotik bosim yuqori bo'lgan qismidan oqa boshlaydi. Osmotik bosimning qovuzloq uchi tashqarida yuqori bulishini, Genle QOVUZLOG'INING yo'g'on ko'tariluvchi qismini qoplovchi hujayralar faoliyati ta'minlaydi. Bu hujayralar suvni o'tkazmaydi, natriy kationi va xlor anionlarini to'qimalararo suyuqlikka o'tkazadi. Qovuzloq tushuvchi qismining devori esa suvni osonlik bilan o'tkazadi. Shuning uchun ingichka qism bushligidagi suv osmotik bosimlar farqiga qarab tashqariga chiqadi. Suyuqlik qovuzloqning uchiga etganda (buyrak surg'ichlarining uchi) osmotik bosim orta boshlaydi va Genle kovuzlog'ining boshida 300 mos mG'l bo'lsa, oxirida 1450 mos. mG'l ga ko'tariladi. Demak suyuqlik bir necha marta quyulib, miqdori kamayadi. Suyuqlikning Genle qovuzlog'ining ko'tariluvchi qismidagi harakati davomida suv so'rilmaydi, ammo xlor va natriy ionlari qayta so'rlishda davom etadi. Natijada, suyuqlik distal kanapchaning bosh qismiga gipotonik holda etib keladi va bu erda, suyuqdikning osmotik bosimi 200 mosmG'l atrofida bo'ladi. Suv tanqisligi paytida shpofizdan qonga antidiuretik gormon ajralishi kuchayadi, natijada distal kanalchalarining va tuplovchi naychalarning suvni o'tkazishi tezlashadi. Suv, osmotik gradient bo'yicha gipotonik suyuqdikdan so'rildi, kanalcha bo'shligidagi suyuqlikning osmotik bosimi 300 mos mG'l gacha ko'tarilib, plazmaga izoosmotik bo'lib qoladi. To'plovchi naychalarda siydik osmotik bosimining ko'tarilishi davom etib, bu naychalar, buyrakning pustloq qismidan mag'iz qismiga o'tgan bo'ladi. Shunday qilib, naychalardan oqib o'tuvchi suyuqliq to'qima suyuqligida, osmotik bosimi past bo'lgan po'stloq kismidan osmotik bosimi yukori bo'lgan mag'iz qismiga tomon harakat kiladi. Suv naychalardan tashqariga, to'qima oralig'iga o'tib, siydikning hajmi kamayadi va osmotik kontsentratsiyasi oshadi. Siydikchil siydikning quyuqlashishida aloxida ahamiyatga ega. Buyrak mag'zining tashqi qismida, ya'ni pustloqga yakin qismida osmotik bosimning ko'tarilishi, asosan, natriy va xlor ionlarining qovuzloq bo'shlig'idan to'qima suyuqligiga chiqishiga bogiq bo'ladi. Ichki, buyrak so'rgichlariga yaqin qismida esa, siydikchil to'planishi, asosan osmotik bosim oshishini ta'minlaydi. Yuqorida aytilganidek proksimal kanalchada siydikchilning 50% i qayta so'rildi. Tushuvchi naychalarda suvning qayta so'rishi sababli, bu moddaning kontsentratsiyasi keskin oshadi. Siydikchil diffuziyalanib, naychadan MAG'IZ qism to'qimasiga o'tadi va nefronning to'g'ri kon tomiriga (bu tomir Genle kovuzlog'ining) tushuvchi va ko'tariluvchi qismlariga hamda to'plovchi naychalarga parallel joylashgan va jipslashgan) va qovuzloqning ko'tariluvchi qismiga o'tadi. Siydikchil, qon va qovuzloqdagi suyuqlik tarkibida, buyrak pustlog'iga ko'tariladi va qovuzloqning tushuvchi qismiga burilib, orqaga Kaytgan to'gri tomirdagi qonga diffuziyalanadi. SIYDIKCHILNING, qovuzloq qismida va to'g'ri tomirda burilib, teskariga oqib aylanib yurishi, buyrakning mag'iz kismida bu moddaning juda ko'plab to'planishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, siydikning gipertonik darajagacha quyuqlashishiga sababchi bo'ladi. Issiq sharoitda odam va hayvonlarning buyraklari, moddalar koptsentratsiyasi gorobi bo'lgan ozgina mikdordagi gipertonik siydikni ajratib, boshqa jarayonlarga, masalan terlash va tana harorati barkororligini saqlash uchun zarur bo'lgan suvni tejab qoladi. Suv juda tankis

bo'lgan sharoitda odam buyraklari ajratgan siydkning miqdori bir daqikdda 0,5-0,6 ml. dan oshmaydi. Organizmga ortikcha suv kirganda buyraklar ko'p mikdorda gipotonik siydk ajrata boshlaydi. Biroq, nefronlarning ko'philidagi suyuqlik filtratsiyasi o'zgarmaydi. Proksimal kanalchada suvning reabsorbsiyasi ham odatdagicha bo'ladi va nefronning distal qismiga etib keladigan suyuqlikning miqdori ham o'zgarmaydi. Ko'p suv ichilganda, buyrakning mariz qismidagi to'qimada, osmotik bosim pasayib ketadi va nefronning bu erdan o'tgan qismi bo'shligidagi suyuqlikning osmotik bosimi ham plazmanikidan kam bo'ladi. Buning sababi shuki, ko'p suv ichilganda, qonda antidiuretik gormonning miqdori kamayib ketadi, distal kanalchalarning devori suvni o'tkazmay ko'yadi, natriy reabsorbsiyasi esa davom etaveradi. Natijada, osmotik bosimi juda past 50 mos mG'l bo'lgan siydk ko'p ajraladi. Bu vaqtda, distal kanalcha devoridan siydkning o'tishi ham sekinlashadi, u, mag'iz moddaga o'ta olmaydi, bu erda osmotik bosim kamayadi. Qayta so'rilmagan siydkchil, gipotonik siydk tarkibida tashqariga chiqariladi. Ko'p suv ichlgandan keyin, odamda siydk ajralishi bir daqiqa 18 ml. dan oshib ketishi mumkin.

### ***Uchunchi savol bayoni.***

Buyraklar o'z faoliyati uchun hamda boshqa a'zo, to'qima va jarayonlarga tasir etuvchi fiziologik faol moddalarini — renin, eritropoatin va vitamin D ning faol shakkllari kabilarni sintezlab, qonga chiqarib turadi. Bu moddalar, maxalliy, ya'ni buyraklarning o'zi va boshqa a'zolarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega. Prostaglandin va bradikininlar esa, asosan buyrak faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalardir. Inkretor faoliyat asosan yukstglomerulyar apparatga xos bo'lib, bu apparat, koptokchaga kiraverishda qon keltiruvchi va olib ketuvchi tomirlar oraligida joylashgan va unga distal kanalcha devorining bir qismi ham tegib turadi. Yukstglomerulyar apparat tarkibida afferent arteriolalarin donali yukstavaskulyar hujayralari, distal naychadagi zich DOG- hujayralari va bu ikki turdag'i hujayralar bilan jipslashgan maxsus yukstglomerulyar xujayralar uchraydi. Buyraklarning inkretor faoliyati. Buyraklar o'z faoliyati uchun hamda boshqa a'zo, to'qima va jarayonlarga ta'sir etuvchi fiziologik faol moddalarini — renin, eritrogyuetin va vitamin D ning faol shakkllari kabilarni sintezlab, qonga chiqarib turadi. Bu moddalar, mahalliy, ya'ni buyraklarning uzi va boshqa a'zolarga ta'sir ko'rsatish qibiliyatiga ega. Prostaglandin va bradikininlar esa. asosan buyrak faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalardir.

### ***To'rtinchı savol bayoni.***

Teri bszlarining asosiy funktsiyasi ter chiqarish bo'lib, ular: 1) moddalar almashinuv natijasida hosil bo'lgan parchalanish maxsulotlarini chiqarib tashlaydi; 2) termoregulyatsiyada ishtirok etadi, chunki badandan terni bug'lanishi issiqlik chiqarish omili hisoblanadi; 3) osmoregulyatsiyada, ya'ni suv va tuzlarni chikarib tashlash yuli bilan osmotik bosimni doimiy darajada saqlashda ishtirok etadi. Ter bezlari teri ostidagi qo'shuvchi to'qima hujayrasida joylashgan bo'lib, tana bo'y lab bir xilda tarqalmagan, ya'ni qo'l-oyoq kaftida va qo'litiqda ko'p, bu arning 1 kv. sm da 400-500 ter bezlari bor. Ter bezlarining sekretor asablari simpatik asablar bo'lib, bu bezlar orqa miyaning muayyan segmentidan innervatsiyalanadi. Bosh, buyin va kukrak kafasining yuqori kismidagi ter bszlarining sekretor asablari yadrolari orqa miyaning oxirgi bo'yin segmenti bilan 6-ko'krak segmenti orasida, kullardagi ter bezlari asablarining yadrolari 5- va 7-kukrak segmeplari orasida, oyoqlardagi ter bezlarining yadrolari oxirgi ko'krak segmeplari bilan yuqori bel segmentlarida joylashgan. Agar simpatik asablar shikastlansa, terining simpatik innervatsiyasidan mahrum bo'lgan joylarida terlash hodisasi kuzatilmaydi. Ter bezlarining asablari anatomiq jihatdan simpatik asab tizimiga mansub bo'lsa ham, ularning uchlari parasimnatik asab uchlari kabi xolinergik bo'ladi, ya'ni ko'zgalganda atsetil xolil ajratadi. Ter bezlarini innsrvatsiyalovchi simpatik tugunlar olib tashlansa ham, odam hissiy holatlarda terlashi mumkin. Ter ajralishining spinal markazlaridan tashqari, uzunchoq miyada asosiy markazi mavjud bo'lib, u gipotalamusdagi moddalar almashinuvining oliy vegetativ markazlari bilan bog'langan. Ter ajralishida bosh miya pustlogining ham ahamiyati

bor. Ter ajralishi reflektor yul bilan sodir bo'ladi. Yuqori harorat ta'sirida, teridagi issiqni sezuvchi asab uchlarining kuzgalishi tufayli ter ajralishi refleksi paydo bo'ladi. Masalan, badanning bir joyi qizitilganda, faqat shu joyida emas, balki badandagi barcha ter bezlaridap ter chiqadi. Sababi, ter ajralish refleksida, qo'zg'alish badanning biron qismini innervatsiyalovchi segment darajasidagina emas, balki boshqa segmentlar darajasida ham tarqaladi.

Teri badanni tashqaridan qoplab, organizmni himoya qiladi va turli fiziologik faolintlarni bajaradi. Uning sathi odamning buyi, yoshi, jinsiga qarab  $1,5-2,0 \text{ m}^2$  atrofida bo'lib, o'rta hisobda  $1,73 \text{ m}^2$  ga teng, epidermis, derma va teri osti yog' qatlamlaridan iborat. Teri kon, limfa tomirlariga va asab uchlariga juda boy bo'lib, organizmnинг barcha a'zo va tizimlari bilan aloqador. Teri himoya, nafas, so'rish, tana haroratini boshqarish, almashinuv va qonning qayta taqsimplanishi jarayonlarida ishtirok etadi. Teri mustaxkam bo'lganligi uchun organizmni shikastlovchi mexanik ta'sirotlardan saqlaydi. Teri infraqizil, ultrabinafsha va ma'lum miqdorda radioaktiv nurlarni hamda kimyoviy moddalarni utkazmaydigan ishonchli to'siq. Shikastlanmagan teri orqali mikroblar o'ta olmaydi. Teri yuzasida lizotsim, olein kislota va boshha baktereial moddalar borligi sababli, unga tushgan mikroblar 15-30 daqiqada o'ladi. Teri, organizmni tashqi muhit bilan bog'lovchi juda katta retsentiv soha, organizmni ogriqqa va issiqsovukka javob reaksiyalari teridagi turli retseptorlar ishtirokida yuzaga chiqadi. Teri retseptorlarini ko'zg'atib, maxsus teri reflekslarini paydo qilish mumkin. Bir necha xil teri sezgilari farqlanadi. Ogriqni sezish retseptorlari mexanik termik elektrik va kimyoviy ta'sirlanish natijasida yuzaga chiqadi haroratni sezish — issiq va sovuqni sezuvchi retseptorlarning qo'zg'alishiga bog'liq bo'ladi. Teri retseptorlarda vujudga kelgan shartsiz va shartli reflekslar organizm faoliyatida muxim rol o'ynaydi. Bu retseptorlardan MAT ga boradigan afferent impulslar skelet mushaklari tonusini ta'minlaydi. Teri mushak reflekslari harakatlarni avtomatik ravishda aniq boshqarishi uchun ham muximdir. Juda ko'plab teri-nafas, teri-tomir va teri-ichki a'zolar reflekslari mavjud. Odam terisi orqali bir kecha-kunduzda 7-8 g karbonat angidrid ajratib, 3-4 g kislorod o'zlashtiriladi. Bu mikdor organizmdagi gaz almashinuvining atigi 2% ga teng. Teri orqali olinadigan nafas — issiq haroratda ovqat istemol qilingandan keyin, jismoniy ish bajarilganida va boshqa shu kabi sharoitlarda kuchayadi. Teri modda almashinuvida keng miqdorda ishtirok etadi, gazlar almashinuvidan tashqari oqsillar, ulevodlar, yog'lar va vitamiplar almashinuvida ham muhim rol uynaydi. Teri, boshqa a'zolarga qaraganda tez va ko'p mikdorda suv yig'adi va qonga ajratadi. Teri orqali yukotiladigan suv nafas bilan chikariladigan suv miqdoridan ikki marta ko'p. Tuzlar muvonananatida ham terining ahamiyati katta. Teri melanin ishlab chiqarib, pigmenglар almashinuvida ham ishtirok etadi.

Terining ajratuv faoliyatini juda katta fiziologik ahamiyati bo'lib, u, undagi yog' va ter bezlarining mahsulot ajratishidan iborat.

## 11– Mavzu. Endokrin sistemasining fiziologiyasi

### Asosiy savollar.

1. Ichki sekresiya bezlarining umumiy tavsifi.
2. Gipofiz va gipotalamo-gipofizar tizim.
3. Gipotalamo-neyrogipofizar va adenogipofizar tizim.
4. Epifiz.
5. Qalqonsimon bez ichki sekresiyasi.
6. Qalqonoldi bezi gormonlari.
7. Ayrisimon bez.
8. Me'da osti bezi.
9. Buyrak usti bezlarining sekrasiyasi.

*Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:* analizitor, mexanoreseptorlar, taktil reseptorlar, termoreseptorlar, xemoreseptorlar, fotoreseptorlar, og'riq reseptorlar, elektroreseptorlar, reseptorlar adaptasiyasi, tashqi qulog, ichki qulog, ko'z soqqasi, ko'z akkomodasiyasi, qorachiq, to'r parda.

### Birinchi savolning bayoni.

#### Ichki sekretsiya bezlarining umumiy tavsifi

Organizmdagi hamma bezlar ikki guruhgaga bo'linadi. Birinchi guruhdagi bezlar o'zlarida hosil bo'lgan moddalarni yo tana a'zolari bo'shlig'iga, yoki tashqi muhitga suyuqlik chiqarish yo'liari orqali ajratib chiqaradi. Bunday bezlar **tashqi sekreliya (ekzokrin) bezlari** deb ataladi (so'lak, me'da-ichak, ter bezlari). Lekin organizmda boshqa turdag'i bezlar, ya'ni **ikkinchchi** guruhgaga mansub bo'lgan bezlar ham mavjud. Ularning suyuqlik chiqarish yo'llari bo'lmaydi va bunday bezlar o'zlarida hosil bo'lgan biologik faol inoddalarni-gormonlarni bevosita qonga ajratib chiqaradi, qon esa ularni organizmnning kerakli turli qismlariga yetkazib beradi. Bunday bezlar **ichki sekretsiya (endokrin) bezlari** deb ataladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ichki sekretsiya (endokrin) bezlarning mahsulotlari **gormon** deyiladi. Gormon so'zi (lot. «hormao» harakatlantirish, qo'zg'tish, uyg'ontirish so'zlaridan) a'zolar, to'qimalar va hujayralarning o'zaro gumonal (gormonal) bog'lanishida muhim rol o'ynaydi. Bu termin 1905 yilda ingliz fiziologlari Beylis va Starlinglar tomonidan birinchi marta tabiatshunoslik fanlariga kiritilgan edi. Ular o'n ikki barmoqli ichakning shilliq qavatidan ajratib olingen sekretin moddasiga gormon deb nom berishdi.

Gormonlar ikki tipdagi endokrin bezlarda ishlab chiqariladi. Birinchi tipdagi bezlarning to'qimasi ikki qismdan iborat bo'lib, bir qismida ishlab chiqariladigan suyuqlik xuddi tashqi sekretsiya bezlari dagiga o'xshab tashqi muhitga chiqariladi. Ikkinchchi qismida ishlab chiqariladigan suyuqlik esa xuddi ichki sekretsiya bezlari dagi singari organizmnning ichki muhitiga, ya'ni qon va limfaga quyiladi. Bu bezlar **aralash bezlari** deb ataladi, ularga me'da osti bezi va jinsiy bezlar kiradi.

**Ikkinchchi lipdag'i** bezlarga **haqiqiy ichki sekretsiya** bezlari kiradi. Bular odam turli qismlarida joylashgan bo'lib, ularda ishlab chiqariladigan suyuqliklar organizmnning faqat ichki muhitiga - qonga quyiladi. Bu bezlarga; gipofiz, epifiz, qalqonsimon, qalqon oldi, ayrisimon, buyrak usti bezlari **kiradi**. Gormonlar - bu katta molekulali biologik faol moddalar bo'lib, organizmdagi turli oddiy va murakkab jarayonlarida qatnashadi. Gormonlar ferment emas yoki fermentlarni faollantiruvchi modda ham emas, ular hujayrasiz muhitdagi kimyoviy o'zgarishlarga ta'sir etmaydi. Gormonlar faqat hujayralarda yoki ularning tuzilmalarga ro'y beruvchi jarayonlarga ta'sir etadi. Gormonlarni kimyoviy tabiatini bo'yicha uch guruhgaga bo'linishi odad bo'lib qolgan; 1) polipeptidlar va oqsillar; 2) aminokislotalar va ularga yaqin birikmalar; 3) steroidlar.

Gormonlar qonda erkin va oqsillar bilan biriktirib harakat qiladi. Ammo gormon bilan oqsil birikmasi hosil bo'lganda, gormon nofaol shakliga o'tadi.

A'zo va **funktional** tizimlarga gormonlarning ta'siri ikki mexanizm orqali amalga

oshiriladi: 1) **gormonlar** o'z ta'sirini bevosita asab tizimi orqali o'tkazadi; 2) qon **orqali** (gumoral yo'li bilan) a'zolar, to'qima va hujayralarning funksional holatini o'zgartiradi.

### *Ikkinchi savol bayoni.*

#### **Gipofiz**

Endokrin bezlar tizimida gipofiz maxsus o'rinni tutadi. Gipofiz "markaziy bez" degan nom olgan, chunki organizmdagi hamma «periferik» bezlar faoliyati u yoki bu yo'l bilan gipofiz faoliyatiga aloqador ekanligi hech kim uchun sir emas.

Gipofiz miyaning asosiy qismida joylashgan bo'lib, kalla suyagining turk egarining chuqurchasida joylashgan. U no'xatsimon, vazni 0,5-0,6 g ga teng bo'lib, gipofiz oldingi va oraliq bo'laklardan tarkib topgan **adenogipofizdan** va orqa bo'lakdan **tuzilgan neyrogipofizdan** iborat. Adenogipofizning kelib chiqishi epitelial, neyrogipofizning kelib chiqishi esa-neyrogen tabiatlidir.

Gipofizning oldingi bo'lagi yoki adenogipofiz uch xil: **asosiy**, yoki xromofob (barcha hujayralarning 55-60%), **atsidofil**, yoki **xromofil** (30-35%) va **bazofil** (5-10%) hujayralardan iborat.

Xromofob hujayralar gormon hosil qilmay, xromofil hujayralarni hosil qilsa kerak degan g'oyalar hamon muammoligicha qolayapti.

Bazofil hujayralar adrenokortikotropin (AKTG), tireoiropin va gonadotropin ishlab chiqaradi.

Atsidofil- (xromofil) hujayralardan o'sish gormoni somatotropin va prolaktin ishlanib chiqadi.

Oldingi bo'lakning hamma gormonlari oqsil moddalar hisoblanadi, Gipofizning oldingi bo'lagi portal (darvoza) qon aylanishi bilan bog'langan bo'lib, gipotalamus bilan biriktirib **gipotalamo-gipofizar tizimni** tashkil etadi. Darvoza tizimidagi *qon* gipotalamusdan gipofizga quyiladi.

Gipofizning oldingi bo'lagi (adenogipofiz) simpatik va parasimpatik asab tolalari orqali innervatsiya qilinadi. Uning orqa **bo'lagi** (neyrogipofiz) esa gipotalamusning supraoptik va paraventricular yadrolarida joylashgan neyronlardan asab tolalarini qabul qilib oladi[1].

#### **Gipotalamo-gipofizar tizimi.**

Ichki sekretsiya bezlari va ular tomonidan ishlab chiqaradigan gormomlar asab tizimi bilan birlashib umumiyligi intergatsion boshqarilish mexanizmini hosil qiladi. Markaziy asab tizimining ichki sekretsiya faoliyatiga ta'sir etishi oraliq miyada joylashgan murakkab bir tuzilma -gipotalamus orqali amalga oshadi. Gipotalamus markaziy asab tizimining boshqa bo'limlari bilan afferent va efferent yo'llar orqali bog'langan. Jumladan, ko'pchilik afferent va efferent tolalar orqali gipotalamus orqa miya, uzunchoq miya va o'rta miya, talamus, bazal tugunlar, gippokamp, bosh miya po'stlog'ining ba'zi maydonlari va boshqa tuzilmalar bilan morfologik va fiziologik aloqada ekanligi o'rganib chiqilgan. Bu aloqalar tufayli gipotalamusga organizmning turli qismlaridan axborot kelib turadi: ekstro va interoretseptor (tashqi va ichki retseptor) lardan axborot markaziy asab tizimi va gipotalamus orqali ichki sekretsiya bezlariga yetkazib beradi.

Shunday qilib, gipotalamusning neyrosekretor hujayralari afferent asab impulslarini gumoral omillarga aylantirib beradi. Gipotalamusning **rilizin-gormonlari** (gipofizotrop gormonlar) gipofiz hujayralari funksiyasiga ta'sir etib, bir qator gormonlarning hosil bo'lishida sabab bo'ladi, qaysiki o'z navbatida periferik endokrin bezlar gormonlarining sintezlanishida va ishlanib chiqarishiga ishtirot etadi. Bu gormonlar organizmning turli to'qima va a'zolariga, ya'ni endokrin «nishona» larga bevosita ta'sir etib ularning faoliyatini o'zgartiradi. Bu murakkab tizimning o'zaro ta'sir yetkazishiga "qaytar bog'lamalar" muhim rol o'ynaydi.

Ichki sekretsiya bezlari funksiyalarining boshqarilishida simpatik va parasimpatik asab tolalarining mediatorlari katta rol o'ynaydi, ya'ni ichki hezlar faoliyati ikki mexanizm asab va gumoral mexanizmlari orqali nazorat qilinadi. Biroq, ba'zi endokrin bezlar faoliyali gipofiz

gormonlarning ta'sirida bo'lmasisligi mumkin. Qator bezlar, masalan, qalqon oldi bezi, me'da osti bezi va hokazolar boshqacha yo'l bilan, ya'ni **gormonlar-antagonistlar** miqdori hisobidan boshqariladi.

Bundan tashqari, gipotalamusda ishlab chiqadigan gormonlarning bir qismi (antidiuretik gormon-ADG, oksitosin) bevosita a'zo va to'qimalarga ta'sir etadi, gipofiz gormonlarning boshqa qismi esa endokrin bezlariga ta'sir yetkazmasdan bular ham bevosita o'z ta'sirini to'qima, a'zo va nishonlarga yetkazadi (o'sish gormoni, prolaktin). Shunday qilib, odam organizmi funksiyalarini gormonal bosbqarilishi murakkab jarayon ekanligi ko'rinish turibdi.

Evolutsiyaning dastlabki davrlarida neyrosekretor hujayralar paydo bo'lib, neyrogormonlar deb atalmish gormonlarni ishlanib chiqarishga moslashgan. Bu neyrosekretor hujayralarda haqiqiy neyronlarning hamma alomatlari mujassamlangan: ularda ham akson, dendrit, Nissl tanachalari va neyrofibrillalar bor; neyrosekretor hujayralar ham neyronlar kabi asab impulslarini o'kazish qobiliyatiga ega bo'lib, afferent ta'sirlovchilar va asosiy ichki sekretsiya bezlari o'rtasidagi tuzilma omil sifatida xizmat qiladi. Bu hujayralarning evolutsion rivojlanishi natijasida sut emizuvchi hiayvonlarda va odamda gipotalamo-gipofizar tizimi paydo bo'lgan.

Gipotalamo-gipofizar tizimni ikki asosiy qismlarga bo'lish mumkin: 1) **gipotalamo-neyrogipofizar tizimi** - unda **visserotrop** neyrogormonlar (vazopressin va oksitosin) sintez bo'ladi; 2) **gipotalamo-adenogipofizar tizimi** - unda **gipofizotrop omillar** (liberinlar va statinlar) hosil bo'ladi.

Yaqinda yana bir guruh biologik faol moddalar-neyroregulator peptidlar topilgan bo'lib, ularga enkefalinlar, endorfinlar, neyrotenzin, R moddasi va boshqalar topilgan, qaysiki gipotalamus-gipofiz kompleks uchun qo'shimcha gormonal tizimini tashkil etadi.

### *Uchinchi savol bayoni.*

#### **Gipotalamo-neyrogipofiz tizimi**

Gipoialamo-neyrogipofizar tizimi gipotalamusning ikki guruh yadrolari-**supraoptik** va **paraventrikular** yadrolari bilan bog'lanib, katta neyrosekretor hujayralarni tashkil qiladi. Neyrosekret o'tkazuvchi va gipotalamo-gipofizar yo'lini tashkil etuvchi asab tolalari neyrogipofiz (gipofizning orqa bo'lagi) ga kiradi. Bu yadrolarning asab hujayralarida (neyronlarida) visserotrop gormonlarning sintezi **o'tadi-vazopressin** yo **antidiuretik gormon (ADG)** va **oksitosin** hosil bo'ladi. Bu gormonlar 9 aminokislotalardan tashkil topib, **nanopeptidlар** deyiladi.

#### **Gipotalamo-adenogipofiz tizimi.**

#### **Adenoglafizning gipotalamus tomonidan nazorat qilishi**

40-50 chi yillarda G.Xarris portal (darvoza) qon aylanishi orqali gipotalanus bilan gipofiz o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatib berdi. Keyinchalik, bu g'oya rivojlanib, gipotalamus va gipofiz orasida funksional bog'lanishning borligi aniqlandi. Gipotalamusning **gipofizotrop mintaqasida** joylashgan kichik neyrosekretor hujayralarida peptidli gornionlar hosil bo'ladi, qaysiki adenogipofizning bez hujayralarini boshqaradi. Gipofizda gormonlarni sintez qiluvchi va ishlab chiqaruvchi gormonlar **rilizing-gormonlar** yoki **liberinlar** deyiladi. Bu jarayonni tormozlanuvchilar -**ingibitor-gormonlar** yoki **statinlar** deyiladi.

Gipofizotrop mintaqasidan gormonlar adenogipofizga gipofizning darvoza venasi orqali kiradi. Gipotalamusning gipofizotrop gormonlariga quyidagilar kiradi (1-jadval).

1-jadval

Nomi	Qisqartirilgan nomi	Qaysi garmon ishlab chiqarilishiga ta'sir qiladi
<b>I. Rilizning – gormonlar (liberinlar)</b>		
1. Tireotropin-rilizin gormon (tiroliberin)	TRG	Tireotrop gormon (TTG)
2. Luteinlovchi gormonning rilizing-gormoni (luliberin)	LG-RG	Gonadotrop gormonlar (GTT)
3. Kortikotropin-rilizin gormon	KRG	Adrenokortikotrop gormon

(kortikoliberin)			(AKTG)
4. O'sish gormonining rilizing gormoni (somatoliberin)	GR-RG		O'sish gormoni
5. Prolaktinning rilizing gormoni (prolaktoliberin)	PRL-RG		Prolaktin
6. Melanoshitlarni rag'batlantiruvchi gormonning-rilizing gormoni (melanoliberin)	MSG-RG		Melanotsitlarni rag'batlantiruvchi gormon
<b>II. Ingibitor gormonlar (statinlar)</b>			
1. O'sish gormonining ingibitor omili (somatostatin)	GR-IG		O'sish gormoni
2. Prolaktinning ingibitor omili (prolaktostatin)	PRL-IG		Prolaktin
3. Melanostitlarni rag'batlantiruvchi gormonning ingibitor omili	MSG-IG		Melanostitlarni rag'batlantiruvchi gormon

2-jadval

**Adenogipofiz ajratadigan gormonlar**

Gormon va uni ajratadigan gipofiz bo'lagi	Kimyoviy tuzilishi	Ta'siri o'tadigan qurilma	Samarasi
Oldingi bo'lak 1. Adrenokortikotrop gormon (AKTG)	Polipeptid	Buyrak usti bezining po'stloq qavati	Kortikisteroid gormonlar sintezini kuchaytirish
2. Prolaktin (PRL)	Oddiy oqsil	Sut bezlari va sariq tana	Sut ajralishini kuchaytirich, sariq tana rivojlanishini ta'minlash
3. O'sish gormoni (somatotrop gormon)	Oddiy oqsil	Suyaklar mushaklar, yog' to'qimasi	Tana o'sishini ta'minlash
4. Tireotrop gormon (TTG)	Glikoprotein	Qalqonsimon bez follikulalarini qoplovchi epiteliy	Tireoid gormonlar sintazini kuchaytirish
5. Follikulalarni stimullovchi gormon (FSG)	Glikoprotein	Tuhumdon follikulalari, urug' kanalchalari	Jinsiy hujayralar rivojlanishini va yetilishini ta'minlash, jinsiy gormonlar sekresiyasini boshqarish
6. Luteinlovchi gormon (LG)	Glikoprotein	Sariq tana, jinsiy bezlar	Sariq tana rivojlanishini va faoliyatini bosharish
Oraliq bo'lak 1. Melanositlarni stimullovchi gormon (MSG)	Polipeptid	Melanotsitlar	Terini qoraytirish

**Gipofiz** hujayralarining funksiyasi gipotalamusning 6 rilizing-gormonlari va 3 ingibitor-gormonlari orqali boshqariladi (1-jadval).

Bu gormonlarning nomi qonga o'tishni boshqarib turadigan gipofizar gormonga bog'liq. Masalan, gipofizdan tireotrop gormonning qonga o'tishini tezlashtiradigan gormon tireotropin-rilizing gormon yoki tireoliberin deyiladi. Bu gormonlarning hammasi kichik peptidlar bo'lib, ularning tuzilishi aniqlangan va ba'zilari sintez qilingan (TRC3, LG-RG va somatostatin).

So'nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan gipofizotrop gormonlar nafaqat gipotalamusda, **balki** miyaning boshqa bo'limlarida, hatto organizmning boshqa a'zolarida ham topilgan.

Masalan, baqa terisida va qon plazmasida tiroliberin topilgan. Sut emizuvchi hayvonlarda tiroliberin talamusda, miyachada, gipokampda va miyaning boshqa qismlarida topilgan, Somatostatin gipotalamusdan tashqari markaziy asab tizimining boshqa tuzilmalarida, ichaklarda, me'da osli bezida tormozlovchi omillar sifatida kashf etilgan.

Gipotalamusdan tashqari mintaqalarda siniez bo'lib, ajralib chiqadigan neyroregulyalar peptidlarning funksional ahamiyati haligacha yaxshi o'rganib chiqilmagan. Ba'zi vaqtarda bu peptidlar **neurotransmitter** funksiyasini bajaradi, degan ma'lumotlar ham bor. Yaqinda gipotalamus gormonlari orasida bir guruh peptidlar organizmga morfinga o'xshash ta'sir qilishi aniqlandi. Bu neyropeptidlar **enkefalinlar** va **endorfinlar** deb ataladi. Fikrimizcha, bu neyropeptidlar xulq-atvor, vegetativ jarayonlar, ovqat hazm qilish, yurak va nafas faoliyatini mexanizmlarida ishtirok etuvchi asosiy omillar bo'lishi mumkin. Bu peptidlarning odam organizmidagi vazifalari hozirgacha yaxshi o'rganilmagan. Gipotalamusda boshqa peptidlar - R moddasi, neyrotenzin, VIP (VIP-ichak intestinal vazoaktiv peptidi) ham topilgan. Ularning bir qismi ichakda topilgani sababli, ichak faoliyatini boshqaruvchi katta gormonlar deb atalgan. Markaziy asab tizimida ularning ahamiyati yaxshi aniqlanmagan. Gipotalamusda miyadagi boshqa bo'limlar singari **monoaminlar** doimo sintez bo'lib, asab hujayralari funksiyalari jarayonida zaruriy modda sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra gipotalamusda nisbatan monoaminlar miqdori anchagina ko'p. Shuning uchun o'y lash mumkinki, visserotrop gormonlar hayvonlar filogenezidagi qadimiy funksiyalarni amalga oshirishda maxsus rol o'ynaydi. Mumkinki, gipofizotrop gormonlar evolutsiya davomida endokrin neyro-gormonal boshqarish tizimi sifatida gipofiz bilan bir vaqtda paydo bo'lган[4].

### *To'rtinchı savol bayoni.*

#### **Epifiz (g'uddasimon bez)**

Epifiz bosh miya markazida, uchinchi qorincha tubida joylashgan. Uning diametri 3-4 mm, vazni 0,2 g. Unda ikkita **gormon melatonin** va **glomerulotropin** ishlab chiqariladi.

Melatonin gipofizning oraliq bo'lagidan ajraladigan **intermidin** gormoni singari, odam organizmida pigment almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, epifizdan ajraladigan gormon gipofizning gonadotrop funksiyasini tormozlab, bolada vaqtidan ilgari balog'atga yetish jarayonini susaytiradi. Glomerulotropin gormon buyrak usti bezi po'stloq qavatida sintezlanadigan aldosteron gormon sekretsiyasini rag'batlantiradi. Ammo, bunday g'oya hamma tadqiqotchilar tomonidan tan olinmagan. Epifizning funksiyasi bola 7 yoshga kirguncha kuchayib boradi, undan keyin uning faoliyati asta-sekin pasayib, balog'atga yetish davri oldidan butunlay to'xtaydi. Agar bu bezning funksiyasi oldinroq pasaysa, gipofizning gonadotrop funksiyasi kuchayib ketib, bolada vaqtidan ilgari balog'atga yetish belgilari paydo bo'ladi. Epifiz ichki sekretsryasi organizmning qorong'ida va yorug'da qancha vaqt bo'lishiga qarab o'zgaradi. Epifizda melatoninini hosil bo'lishi yorug'da susayadi. Bir qancha hayvonlarda, jumladan qushlarda jinsiy faollikning mavsumiy xarakterda ekanligini shunga bog'lashadi, chunki bahorda va yozda kun uzayganidan melatonin kam ajraladi, shu vaqtida jinsiy faollik ortadi. Epifizda bir talay serotonin ham bor, serotoninidan esa melatonin hosil bo'ladi. Yorug'lik ko'p tushgan paytda serotonin hosil bo'lish kuchayadi. Epifiz ichki sekresiyasini simpatik asab tizimi boshqaradi. Bezdagi biokimyoiy jarayonlar sikli kun va tun almashinuvini aks ettirgani sababli, bu siklik faollikni organizmning o'ziga xos "biologik soat" deb hisoblashadi.

### *Beshinchı savol bayoni.*

#### **Qalqonsimon bez ichki sekretsiyasi**

Qalqonsimon bez yuksak gormonal faollikka ega bo'lган yarim suyuq kolloid bilan to'la bez follikulalaridan iborat. Bez qon va limfa tomirlariga juda boy. Odamdag'i qalqonsimon bez vazni o'rta hisobda 15-30 g yoki tana vaznining 0,05% ni tashkil etadi. Shunga qaramay, bu

bezdan soatiga 5-6 I qon o'tadi, bu organizmdagi qonning hammasi demakdir.

Qalqonsimon bezning ikkita gormoni ma'lum: tiroksin (tetrayodotronin) va triyodotronin. Bu gormonlar (tireoid gormonlar) organizmda yod va tirozin aminokislotasidan sintezlanadi. Qon plazmasidagi yodning 90-95% tiroksin tarkibida bo'ladi. Tireoid gormonlarning faqat 0,1% plazmada erkin holda bo'lib, qolgan qismi oqsillarga bog'liq. Faqat erkin tiroksin fiziologik faollikka ega, ammo triyodotroninning faolligi tiroksinga nisbatan 4-10 karat yuqori. Zamonaviy axborotlarga ko'ra odam va hayvonlar organizmida maxsus gormon-tirokalsitonin mavjud. Bu gormon katsiy almashinuvida ishtirok etadi. Tirokalsitonin qalqonsimon bez follikulalari tashqarisida parafollikullar hujayralarda hosil bo'ladi. Uning ta'siri oslida qonda kalsiy miqdori kamayadi. Tirokalsitonin ta'sirida suyak to'qimasidan kaisiyuning ajralishi to'xtaydi, ammo unda kalsiy zaxira bo'lishi oshadi. Tirokalsitonin suyak to'qimasini buziladigan osteoklastlar funksiyasiga salbiy ta'sir yetkazadi, ammo yangi suyak to'qimasining hosil bo'lishida ishlirk etadigan osteoklastlar funksiyasini kuchaytiradi.

### **Qalqonsimon bez gormonlarining tashilishi**

Qalqonsimon bezning asosiy qonda aylanib yuradigan gormoni tiroksin hisoblanadi. Tiroksindan tashqari qonda oz miqdorda yana bitta -gormon-triyodotronin ham bor. Ikki gormon ham qonda erkin holatda bo'lmay, oqsillar bilan biriktirib, globulin fraksiyalar shaklida harakat qiladi. Tiroksin umumiyl qon aylanish tizimiga kirib jigar hujayralari tomonidan ushlanib oladi va gormonal faollikka ega bo'lмаган glukuron kislotasi bilan juft birikmalar hosil qiladi, so'ngra o't bilan me'da-ichak yo'liga chiqariladi. Tiroksin bilan glukuron kislotasining juft birikmalar hosil qilishi natijasida gormon inaktivatsiya (nofaol) bo'ladi. Bu mexanizm orqali tiroksinning qondagi miqdori me'yordan oshmaydi. Tajribalarda radioaktiv yod ishlatib katta yoshdag'i odam organizmida bir kecha-kunduzda 300 mkg tiroksin va triyodotronin parchalanishi aniqlangan.

### **Qalqoosimon bez funksiyasini boshqarilishi**

Tireotrop gormonlar va qalqonsimon bez sekretsiyasi orasida murakkab to'g'ri va qayta bog'langan aloqalar mavjud: gipofizning tireotropin gormoni qalqonsimon bez gormonlar ishlab chiqishini rag'batlantiradi, ammo qonda tireoid gormonlar miqdorining oshib ketishi gipofiz oldingi bo'lagidan ishlab chiqaradigan tireotrop gormonlar sekreliyasiga tormoz beradi. Bundan tashqari, qondagi yod miqdori va gormon hosil bo'lish jarayoni o'rtasida ham katta bog'lanish borligi aniqlangan. Yodning oz miqdori gormon ishlab chiqarish jarayonini kuchaytiradi, ko'p miqdori esa unga tormozlovchi omil sifalida ta'sir etadi.

Qalqonsimon bez afferent va efferent asab tolalariga boy. Simpatik asab tolalari orqali bezga keluvchi impulslar uning faolligini oshiradi. Bez hujayralariga doimo asab impulsleri kelib turishi natijasida bez hujayralarining sekretsiyasi kuchayadi va qonga tiroksin gormoni ko'p chiqqani uchun gipertireoz vujudga ketadi, asosiy almashinuv ortadi, vazn kamayadi, yurak urishi tezlashadi. Bosh miya retikular formatsiyasinih turli qismlariga quyilgan elektrodlar orqali elektr toki bilan ta'sir etilganda ham qalqonsimon bezning qondagi anorganik yodni yutish tezligi o'zgaradi va qonga qalqonsimon bez gormonlari ko'p chiqadi, bu itlar ustidagi tajribalarda ko'rsatib berilgan. Qalqonsimon bez ftinksiyasi refleks yo'li bilan boshqarilgani uchun havo sovuq vaqtida bu bez kuchliroq ishlaydi, natijada moddalar almashinuvi ortib, akklimatizatsiyaga yordam beradi. Markaziy asab tizimi olyi bo'limlarining qalqonsimon bezga ta'siri shu bilan isbot etiladi: qalqonsimon bez giperfunksiyasi bo'lgan odamlarda ruhiy kechinmalar, ayniqsa xursandchilik va qafagarchilik, tur mush ktyinchijiklari busiz ham iada! ishlayotgan qalqonsimon bcz faoliyatini refleks yo'li bilan kuchaytirib, kasaliikni keskin darajada zo'riqtiradi. Adenogipofizdan chiqadigan tireotropin qalqonsimon bez faoliyatini boshqaradi. Bu gormon tireoglobulinning parchalanishini kuchaytiradi, bezga gormonlar orqali shu dalillardan yod kelishini va gormonlar simezlanishini oshiradi, bez hujayralarini kattalashtiradi va ko'paytiradi. Gipofizdan tireotrop gormon chiqishini gipotalamus yadrolari boshqaradi. Bu jarayon qondagi tiroksin va tetrayodotronin miqdoriga bog'liq. Qonga tiroksin yuborilsa tireotrop gormon chiqishi susayadi. Gipotalamus yemirilganda bu reaksiya yuz bermaydi. Shunday qilib, qalqonsimon bez faoliyatining boshqarilishini ham asab tizimi nazorat qiladi. anglashiladiki, asab tizimi qalqonsimon bez faoliyatini ikki xil yo'l bilan boshqara oidi:

bezni innervatsiya qiluvchi simpalik asablar orqali bevosita impulslar yuborib .va bundan tashqari, gipofizdan tireotrop gormon chiqishini ko'paytirib, bez funksiyasini boshqaradi. Gipofizning oldingi bo'lagidan tireotrop gormon ortiqcha chiqishi sababli qalqonsimon hez giperfunksiyasi vujudga keladi, deb faraz qilish mumkin.

### *Oltinchi savol bayoni.*

#### **Qalqonoldi yoki paratireoid bez**

Odamda to'rtta qalqonoldi yoki paratireoid bez bor, bulardan ikkitasi qalqonsimon bezning orqasida, qolgan ikkitasi esa qalqonsimon bezning pastki qutbida, ba'zan esa bez to'qimasida bo'ladi. Ular yapaloq oval tuzilmalar bo'lib, bo'yи 6-7 mm, eni 3-4 mm va qalinligi 1,5-2 mm. Bez to'qimasi qon va limfa tomirlariga boy.

Qalqonoldi bezlarning umumiy massasi 100 mg ga teng.

#### **Paratireoid bez gormonlari**

Paratireoid bez paratgormon va kalsitonin ishlab chiqadi. Paratgormon ba'zi adabiyotlarda paratirin deb ham ataladi. U bezning asosiy va oksifil hujayralarida sintez bo'ladi. Bezdan paratgormon to'g'ridan to'g'ri qonga o'tadi, organizmda kalsiy almashinuvini boshqaradi va qonda uning doimiyligini ta'minlaydi. Meyorda odam qonida 2.25-2.75 mmol/1 (9-11 mg%) kalsiy bo'ladi.

Paratireoid bezining gipofunksiyasi (gipoparatireoz) da qonda kalsiyning miqdori kamayadi, bez faoliyati kuchaygan (giperparatireoz) da esa uning miqdori oshadi.

Ma'lumki, organizmda kalsiy zaxira bo'ladijan a'zo-suyak to'qimasidir. Shuning uchun qonda va suyak to'qimasidagi kalsiy miqdorining orasida katta bog'lanish mavjud. Paratgormon suyaklarning ohaklanishi va dekalsifikasiya (ohakning suyakiarda zaxira bo'lishi va ulardan kalsiyning ajralib chiqishi) jarayonlarini boshqaradi. Kalsiy almashinuviga ta'sir etib, ayni holda paratgormon organizmda fosforning almashinuviga ham ta'sir yetkazib oladi. Paratgormon buyraklarda qayta so'rilib jarayonini susaytirib, siyidik bilan fosfatlarni chiqarish jarayonini kuchaytiradi. Qalqonoldi bezlarning ishlamay qolish (gipoparatireoz) oqiballari itlarning shu bezlarini olib tashlash tajribalarida o'rganilgan. Bezlar olib tashlangandan bir necha kun keyin skeletning barcha mushaklari dapqir-dapqir tirishib qisqaradi, ya'ni titraydi (**paratireopriv tetaniya**) bu holat asia-sekin kuchayib va tez-tez takrorlanib turadi.

Paratireoid bezlar yo'qligi bora-bora o'llimga olib keladi, buning bevosita sababi shuki, nafas mushaklarining tirishishi natijasida nafas buziladi. Paratireoid bezlar olib tashlangach titrashga mushaklarning o'zgarishi emas, balki markaziy asab tizimi holatining o'zgarishi sabab bo'ladi. Hatakatlantiruvchi asablar kesilganda titramasligi shundan darak beradi. Paratireopriv tetaniya qonda kalsiyning kamayishi oqibalida yuz beradi. Paratireoid bezlari olib tashlangan hayvonlar organizmiga kalsiy tuzlari yuborilganda tetaniya paydo bo'lmasligi buning dalilidir. Tetaniyada jigarning sintetik funktsiyalari ham buziladi: Qonda zaharli moddalardan ammoniy karbaminat paydo bo'ladi. Odamda paratireoid bezlar endokrin funktsiyasining **susayishi gipoparatireoz** hayot davrida vujudga kelishi yoki tug'ma bo'lishi mumkin. Gipoparatireozda qondagi kalsiy miqdori kamayganidan markaziy asab tizimining qo'zg'aluvchanligi juda oshadi, natijada tetanik tirishishlar paydo bo'ladi. Paratireoid bezlar hiqildoqning yuqori asabidan innervasiya oladi. Qon plazmasidagi kalsiy konsentratsiyasi ichki muhitning eng aniq boshqariluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Qonda kalsiy kamayishi tufayli paratireoid bezlarning ichki sekretsiyasi kuchayadi va aksincha, kalsiy konsentratsiyasining ortishi oqibatida paratgormon sekretsiyasi susayadi.

### *Yettinchi savol bayoni.*

#### **Ayrisimon bez**

Ayrisimon bez bo'sh suyagining orqa yuzasida joylashgan. Uning vazni chaqaloqlarda 12 g bo'lib, to balog'atga yetish davrigacha 14-15 yoshgacha kattalashib, 30-40 g ga yetadi. So'ngra bezning hajmi asta-sekin kichiklasha boshlaydi va u yog' moddasiga aylanadi, 25 yoshda bezning vazni 25 g gacha kamayadi, 60 yoshda-15g, 70-yoshda-6 g bo'ladi.

Ayrisimon bez-juft, pallali a'zo bo'lib, ikki andozasi bir xil bo'lмаган pallalarda iborat. Bu pallalar biriktiruvchi to'qima orqali o'zaro bog'langan. Ayrisimon bezning har bir pallasini yana pallachalarga bo'linib, ularda po'stloq va mag'iz qavatlari mavjud. Po'stloq qavati parenximalardan tashkil topgan, unda ko'p miqdorda limfotsitlar bo'ladi. Mag'iz qavatda esa epitelial va lipid hujayralari bor. Bezning innervasiyasi parasimpatik (adashgan) va simpatik asablar orqali amalga oshadi. Bu tolalar pastki bo'yin va yuqori ko'krak simpatik tugunlaridan boshlanadi.

### **Ayrisimon bezning fiziologik ahamiyati**

Oxirgi yillarda ayrisimon hez gormonlari va ularning fiziologik ahamiyati to'liq o'rganib chiqilgan. Bezda **timozin**, **timopoetin**, **timus gormoni omili** degan polipeptid tabiatli moddalar ishlanib chiqariladi.

Ayrisimon bezning immunitetiga katta ahamiyati o'rganilgan. U organizm immuniteti jarayonning boshqarilishida, antitelalarning hosil bo'lismida, limfotsitlarning rivojlanishi va taqsimlanishida hamda organizmning immun reaksiyalariga bevosita ishtirot etadi. Olimlarning fikricha suyak ko'migida hosil bo'luchchi birlamchi suyak hujayralari umumiy qon aylanish doirasi orqali ayrisimon bezga yetib boradi, bezda ular ko'payib, T-limfolsitlarga aylanadi. Bu limfositlar hujayra immunitetining rivojlanishi uchun javobgar ekanligi olimlar tomonidan taxmin qilmoqda.

### **Ayrisimon bezning boshqarilishi**

Ayrisimon bez gormonlarining hosil bolishi va ajralishi gipotalamo-gipofizar tizimi tomonidan boshqariladi. Gipofiz oldidagi bolagining somatotropin gormoni ayrisimon bez gormonlarining qonga o'tishida ishtirot etadi.

Yuqorida ayтиб о'tgанимиздек, ayrisimon bez bolalik davrida yaxshi rivojlangan bo'ladi. Balog'atga yetganda bezning rivojlanishi to'xtatiladi va atrofiya bo'laveradi. Shu sababli bolsa kerak, bez organizm o'sishini rag'batlantirib, jinsiy tizim rivojlanishini to'xtatadi, degan ilmiy g'oyatar kam emas. Boshqa bir guruhi olimlar tomonidan ayrisimon bez faoliyatiga boshqacha baho berilgan. Masalan, bez kalsiy va nuklein kislotalar almashinuvida faol ishtirot etadi degan g'oyalar juda ko'p.

Bezning yana bir asosiy fiziologik ahamiyati shundaki, bu yerda juda ko'p miqdorda vitamin C sintezlanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha timus buyrak usti bezidan keyin organizmda ikkinchi o'rinni egallaydi.

### *Sakkizinchи savol bayoni.*

#### **Me'da osti bezi**

Bu bez me'daning pastki va orqa sohasida birinchi bel umurtqasi ro'parasida joyiashgan bo'lib, uzunligi 16-20 sm, vazni 70-80 g. Me'da osti bezi aralash bez bo'lib, to'qimasining 98-99% tashqi sekretslya funksiyasini bajarib, ovqat hazm qilishda ishliron etuvchi fermentlarni ishlab chiqaradi. Bez to'qimasining 1-2%, ya'ni Langergans orolchasi deb ataluvchi qismi ichki sekretslya funksiyasini bajaradi.

Bez orolchalari uch tipdagи hujayralardan lashkil topgan: alfa, beta va gamma hujayralar. Ularning asosiy qismini beta-hujayralardan tuzilgan Langergans orolchalari tashkil qiladi. Hujayralarning 1/5 umumiy qismini alfa-hujayralardan tashkil topib bezning periferiyasida joylashgan. Odam bezining 1 massasida 2700 -25500 pankreatik orolchalari to'g'ri ketadi.

#### **Me'da osti bezining gormonlari**

Hozirgi kunda ma'lum bo'lganki, bezning Langergans orolchalari beta-hujayralarida insulin, alfa-hujayralarida esa glukagon gormonlar hosil bo'ladi. Bezning mayda chiqaruv yo'llarida joylashgan epiteliysi lipokain moddasini ishlab cdigaradi. Bu moddani ba'zilar pankreatik gormon, boshqalar esa ferment tabiatli modda deb hisoblashadi.

Insulin gormoni birinchi marta 1922 yilda kanadalik olimlar Barting va Best tomonidan sigir va cho'chqaning me'da osti bezidan ajralgan. Keyinchalik, 1926 yilda olim Dj.Ahel tomonidan uning tuzilishi aniqlab berilgan.

Insulin disulfid bog'lar bilan birlashgan 17 xil aminokislotaning ikki zanjiridan tuzilgan polipeptiddir (birinchi zanjir 21 aminokislotadan, ikkinchi zanjir 30 aminokislotadan luzilgan). Hozirgi kunda insulin kimyoviy sintez yo'li bilan olingan.

Insulin karbonsuvlar almashinuvida ishtirok etadi. Gormon ta'siri ostida mushak tolalari va jigar hujayralarining membranalaridan glukozaning ko'proq o'tishi glikogonning sintezlanishiga, uning jigar va mushak hujayralarida to'planishiga yordam beradi. Insulin glukozaning o'zlashtirishini oshirib, organizmda yog' hosil bo'lishini kuchaytiradi. Insulinning katta dozalari organizmga yuborilganda qon plazmasidan skelet mushaklari, yurak mushagi, silliq mushaklar, ko'krak bezi, jigar va boshqa a'zolar hujayralarning ichiga ancha glukoza o'tishi natijasida qondagi glukoza kamayadi (gipoglikemiya). Agar me'yorda qondagi qand miqdori 4,45-6,65 mmol/l (80-120 mg%) bo'lsa, insulin ta'sir qilgandan keyin qandning miqdori 4,45 mmol/l dan oshmaydi, Glukoza kamayishi natijasida markaziy asab tizimi hujayralariga glukoza kam o'tadi. Shu sababli bosh miya bilan orqa miyada glukoza birdaniga yetishmay qoladi, chunki glukoza barcha hujayralar singari, asab hujayralarining faoliyati uchun ham asosiy energiya manbayi hisoblanadi. Shu munosabat bilan qonda glukozaning keskin darajada kamayishi miya faoliyatini keskin ravishda buzadi-insulin shoki, yoki glpoglikemik shokka sabab bo'ladi. Qondagi glukoza miqdori 45-50 mg% ga tushganda shok belgilari paydu bo'ladi. Shuning uchim vaqtı-vaqtı bilan bemor qattiq tirishib qoladi, so'ngra mushaklar tonusi, tana harorati pasayadi va bemor hushidan ketadi. Bemor och bo'lsa, oz miqdorda yuborilgan insulin ham gipoglikemik shokka sabab bo'ladi, chunki och vaqtida hazm yo'lidan qonga glukoza o'tmaydi. Venaga glukoza yuborilsa gipoglikemik shok darhol barham topadi.

Me'da osti bezining insulin tshlab chiqarish funksiyasi alohida ahamiyatga ega, chunki bezning bu funksiyasining buzilishi aholi orasida ko'p tarqalgan qandli diabet kasalligi kelib chiqishiga sabab boladi. Bu surunkali kasallik bo'lib, uzoq yillar, aksariyat hollarda umr bo'yni davom etadi. Bu kasallikda me'da osli bezining insulin ishlab chiqarish funksiyasi buzilishi tufayli, organizmga kerakli bo'lgan insulin gormoni bezdan qonga o'tmay qoladi. Buning oqibatida organizmda karbonsuvlar almashinuvi buziladi, ya'ni ovqat bilan iste'mol qilingan karbonsuvlarning parchalanishida hosil bo'lgan qand (glukoza) insulin ta'sirida glikogenga aylanmay uning qondagi miqdori ortib ketadi. Qandli diabet kasalligida uning miqdori 150-250 mg% ko'tarilib, undan ham ortib ketishi mumkin.

Qondagi qandning miqdori normal bo'lganda, (80-120 mg%) u buyrak orqali siydk bilan tashqariga chiqarilmaydi, ya'ni soglom odamning siydigida qand mullaqo bo'lmaydi. Qonda qandning miqdori 140-150 mg% dan oshaversa u siydk bilan tashqariga chiqarila boshlaydi, Bunday bemorlar tez chanqaydi va ko'p suv iste'mol qiladi. Iste'mol qilingan ovqat tarkibidagi karbonsuvlar tashqariga chiqib ketishi tufayli bemor tez och qoladi va tez-tez ovqat iste'mol qilishga majbur boladi. Aks hoida teri ostidagi zaxira yog' moddalari parchalanib, glukozaga aytanadi, hatto hujayra va to'qimalar tarkibidagi oqsil, yog' moddalari ham glukozaga aylanib qonga o'tadi va undan siydk bilan tashqariga chiqariladi. Buning oqibatida bemor ozadi, kuchsizlanadi, ish qobiliyati pasayadi.

### *To'qqizinchi savol bayoni.*

#### **Buyrak usti bezlarining ichki sekretsiyası**

Buyrak usti bezlari-juft bezlar bo'lib, o'ng va chap buyraklarning ustki qismida joylashgan. Ulaming birgalikdagi vazni 10-20 g. Buyrak usti bezlari ikki qavatdan: **ustki-po'stloq** va **ichki-mag'iz** qavatdan iborat. Ular tuzilishi va funksiyasi jihatidan turlicha bo'lgan ichki sekreksiya bezlaridir, bulardan chiqadigan gormonlar o'z ta'siri jihatidan katta farq qiladi.

#### **Buyrak usti bezlarining mag'iz qavati (miya moddasi)**

Buyrak usti bezlarning mag'iz qavati **xromaffin hujayralardan** tuzilgan, ular tuzilishi va funksiyasi jihatidan po'stioq qavatidan katta farq qiladi.

Mag'iz qavat embriogenez jihatdan simpatik asab tizimining hujayralariga yaqin turadi. Ular kaliy bixromat bilan bo'yalganda sargish jigarrang tusga kiradi, ularning xromaffin hujayralar deb atalishiga ham sabab shu.

Mag'iz qavatda **adrenalin va noradrenalin** gormonlar ishlab chiqariladi. Bu ikkala gormonning ta'siri bir xil bo'lganligi uchun ular birgalikda **kutexolamin** deb ham yuritiladi.

Adrenalin buyrak usti bezidan qonga muniazam chiqib turadi. Ba'zi bir favqulotda holatlarda (arterial qon bosimining tushishi, qon yo'qotish, sovuq qotish, gipoglikemiya, jismoniy mehnat, emotsiya, oqriq, qo'rqish, g'azablanish) qon tomrlarga adrenalinning sekretsiyasi kuchayadi.

Simpatik asab tizimining qo'zg'alish nalijasida ham mag'iz qavati gormonlari-adrenalin va noradrenalinning ishlanib chiqaritishi kuchayadi. Kutexolaminlar simpatik asab **tizimi** ta'sirini kuchaytiradi va uzaytiradi.

A'zolar funksiyasiga hamda fiziologik tuzilmalari faoliyatiga adrenalin **simpatik** asab tizimi kabi ta'sir etadi. Adrenalin karbonsuvarlар almashinuviga ta'sirlab, jigarda va mushaklarda glikogen parchalanishida shuningdek, qonda glukoza miqdorini ortiradi. Organizmga adrenalin kiritilganda, yoki buyrak usti hezining gipofunksiyasida giperglykemiya va glukozuriya yuzaga chiqadi.

Adrenalin bronx mushaklarini susaytirib, ularning diametrini kengaytiradi. U yurak mushagining qo'zg'aluvchanligini va qisqarishini oshiradi, qon tomirlar tonusini ko'taradi, buning natijasida arterial qon, bosim oshadi. Biroq yurak **shox** tomirlariga, o'pka tomirlariga, miya tomirlariga va ishlayotgan mushaklarga adrenalin tomir kengaytiruvchi ta'sir etadi.

Adrenalin skelet mushaklar qisqarishini kuchaytiradi. Bu funksiyasi bilan u organizmga adaptasion-trofik ta'sir bag'ishlaydi. Adrenalin me'da-ichak yo'lining motor (harakat) funksiyasini susaytiradi.

Adrenalinning ta'sir etish muddati qisqadir. Bu effekt uning qonda tez parchalanib ketishiga bog'liq. Monoaminoaksidaza fermenti ta'sirida adrenalin gormonlarga xos bo'limgan mahsulotlar parchatanadi.

**Noradrenalin** adrenalinga nisbalan **qarama-qarshi-mediator** funksiyasini bajaradi, ya'ni qo'zg'aluvchan asab uchidan sekretsiya bo'lib, effektorlarga ta'sir etadi. Markaziy asab tizimida joylashgan neyronlarda qo'zg'alishni o'kazishi ham noradrenalin orqali amalga oshadi.

#### **Mag'iz qavati gormonlar hosil bo'lischening boshqarilishi**

Mag'iz qavati gormonlarning hosil bo'lisch mexanizmlari birinchi marta 1910 yilda M.N.Cheboksarev tomonidan o'rganilgan edi. Unga ko'ra, xromoffinositlarda adrenalin ishlab chiqishi simpatik asab tizimi faoliyaliga bog'liq; bu asab, ta'sirida adrenalin sekretsiyasi oshadi va agar simpatik tolalar qirqilsa, buyrak usti bezidan adrenalinning chiqishi keskin kamayadi.

Bezning faoliyati bosh miya gipotalamusi faoliyati bilan ham bog'liq, chunki uning orqa guruh yadrolarida simpatik asab tizimining oliy markazlari joylashgan. Gipotalamus ncyronlari ta'sir]anganda buyrak usii hczidan ko'p miqdorda adrenalin ishlab chiqiladi va uning mtqdori oshib kcladi.

Sharli reflektor faoliyali usuli bilan adrenalin sekresiyasining bosh miya po'stlog'i bilan aloqasi borligi aniqlangan. Jismoniy mehnat bajarish emotsiyal qo'zg'alish, organizmningsovushi va boshqa shunga o'xshash holatlarda adrenalin refleks yo'li bilan ko'proq ajralib chiqadi.

Emotsional qo'zg'alishda buyrak usti bezlaridan adrenalin ko'p chiqishini U.Kennon aniqlagan. Vovillayotgan itni korgan mushukning buyrak usti bezlari venalaridagi qonda adrenalin ko'payganini U.Kennon kuzatgan.

Adrenalin sekretsiyasining ortishi odamning emotsiyal holatlarida ro'y beradigan bir qancha fiziologik o'zgarishlar mexanizmini tushuntirib beradi. Masalan, talabalar imtihon topshirayotgan vaqtida, sportchilar start oldidan musobaqa boshlanish signalini kutib turganda qondagi glukozaning ko'payishi va siydir bilan ko'plab chiqishi buyrak usti bezlaridan adrenalinning ko'p chiqish nalijasidir. Bu dalil adrenalin sekretsiyasi bosh miya markazlarining ta'sir etishidan guvohlik beradi.Qonda glukozaning kamayib ketishi buyrak usti bezlaridan adrenalin chiqishini kuchaytiradi. Masalan, hayvon organizmiga insulin yuborib gipoglikemiya vujudga keltirilsa, adrenalin sekretsiyasi kuchayadi, natijada jiggardagi glikogen safarbar etilib, qondagi glukoza ko'payadi.

## 12-Mavzu: Nerv mushak apparatining fiziologiyasi

### Asosiy savollar:

1. Mushaklarning tuzilishi haqida umumiy ma'lumot.
2. Miografiya.
3. Mushakning yakka va tetanik qisqarishi.
4. Mushakning qisqarish mexanizmi.
5. Mushaklarning charchashi.
6. Silliq mushaklar xossalari.
7. Silliq mushakning qisqarishi.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:** ko'ndalang-targ'il va silliq mushaklar, yakka va tetanik qisqarish, izotonik va izometrik qisqarish.

### Birinchi savol bayoni.

Mushaklar odam organizmida asosiy ish bajaruvchi (ishchi) a'zoiar-effektorlar hisobtanadi. Odamda ikki tip mushaklar: ko'ndaJang targ'il va silliq mushaklarning bo'lishi e'tirof etiladi.

Ko'ndalang-targ'il mushaklar skeletning harakatlanishini, ko'zni harakatga keltirishini va boshqa muhim harakatlarni amalga oshirishni ta'minlovchi funksional tizimlami shakllantiradi. Ko'ndalang-targ'il mushaklar jumlasiga yurak mushaklari ham kiradi.

Otiam va umurtqali hayvonlarning ko'ndalang-targ'il mushaklari markaziy asab tizimi tomonidan nazorat qilinadi. Ular avtomatiyadan mahrumidirlar, ya'ni markaziy asab tizimi buyrug'iga qarab ishlash qobiliyatiga ega emas. Ular odamning o'z xohishi irodasiga bo'ysunganligi tufayli ixtiyoriy mushaklar deyiladi. Odamning silliq mushaklari ichki a'zoiarga xizmat qiladi. Ular markaziy asab tizimi tomonidan kuchsiz nazorat qilinadi, hamda ularga avtomatizm va xususiy **intramural** yoki metasimpatik asab turlanishi xos, bu narsa ularni ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarishlarini ta'minlaydi. Silliq mushaklarni (shuningdek yurak mushaklarini ham) ba'zan noixtiyoriy mushaklar deb yuritiiadi, bunda uning inson xohishi-irodasi bo'yicha nazorat qilinmaganligi e'tiborga olinadi. Odamda ham ko'ndalang-targ'il va ham silliq mushakiar mavjud, lekin ularning xossalari va markaziy asab tizimiga munosabati biroz boshqacha.

### Odam ko'ndalang-targ'il mushaklarini tuzilmasi va ularning innervatsiyasi.

Odam skeletining ko'ndalang-targ'il niushaklari juda ko'p miqdordagi alohida olmgan mushak tolalaridan - miofibrillalardan tashkil topgan, ular umumiy biriktiruvchi-to'qimali qinda joylashgan va skelet bilan birikkan paylarga mahkamlangan.

Ba'zi mushaklarda mushak tolasini hammasi mushak o'qi uzunligi bo'ylab parallel-totasimon tipli tarzda joylashgan bo'ladi. Boshqa xillarda tolalar bir tomonidan markaziy pay tuguniga, boshqa tomonidan esa tashqi pay qiniga birikadi (mahkamlanadi). Ko'ndalang kesimda bunday tuzilish qush patini eslatadi - patsimon tip. Skelet mushakining har bir tolsi bu ingichka (diametri 10 dan 100 mkm gacha) ancha uzun (2-3 sm gacha), ko'p yadroli yig'ilma-simplast hujayralarning birikishidan hosil bo'ladi. Mushak tolasining asosiy xusustyati - uning protoplazmasida (sarkoplazmasida) ko'p miqdordagi inigichka (diametri I mkm) iplar-mioribrillalarning bolishi, ular tolaning uzun o'qi bo'ylab joylashgan bo'ladi. Miofibrillalar navbalma-navbat keladigan yaltiroq va to'q qismlardan tashkil topadi. Bu narsa mushak tolasiga doimiy ravishda ko'zga tashtanadigan ko'ndalang-tasvirlilik (ko'ndalang-targ'illik) ni ifodalaydi. Bitta to'q va unga klib qo'shiladigan Z chiziqlari bilan ajralib turadigan ikkita yaltiroq kompleksini sarkomer deyiladi.

Ko'ndalang targ'il mushak tolalarining miofibrillalari uzimasiga to'g'ri navbatlanuvchi qism (disk)larga bo'lingan, bular optik xossalari biian farq qiladi. Bu disklardan ba'zilari nurni ikki marta sindiradi, ya'ni anizotrop bo'ladi, ular oddiy yorug'likda qaramtir ko'rindi. Diskning

boshqa bo'laklari odatdagi yorug'da och ko'rindi, ya'ni nurni ikki marla sindirmaydi, izotrop bo'ladi.

Ko'ndalang-targ'il mushaklarini innervatsiyasi orqa miya yoki miya ostuni motoneyronlari evaziga yuz beradi. Bitta neyron o'z aksonining tarmoqlari orqali bir necha mushak tolalarini innervatsiyalaydi. Bir motoneyron va u innervatsiyalaydigan mushak tolalari kompleksini harakat yoki motoneyron birligi deyiladi.

Mushaklarda innervatsiya jarayoni "nozik" harakatlar uchun moslashgan, harakatlarni amalga oshuvchi mushaklar (barmoq, til, ko'zning tashqi mushaklari) asab tolalaridan muntazam ravishda axborot olib turadi. Mushak tolalarining yakka va ko'p sonli innervatsiya tiplari farqatanadi. Ko'pincha uncha-muncha yakka tarzdagi innervatsiyalanish tipi uchraydi. Odatda ular yirik metoneyronlarning aksoni orqali shakllanadi. Motor innervatsiyali mushak tolalari asab impulslariga javoban tola bo'ylab tarqaluvchi ta'sir potensialini yuzaga keltiradi. Ularni ko'pincha tez ta'sirli tolalar deb yuritiladi, chunki ular qisqarishni tez keltirib chiqaradi.

### ***Ikkinci savol bayoni.***

Mushak qisqarishini qayd qilish uchun **miografiya**, ya'ni mushakning bir uchiga birlashtirilgan richag yordamida yozib olish usuli qo'llaniladi. Richagning bo'sh turgan uchi kimograf lentasida qisqarish egri chizig'ini - **miogrammani** chizib turadi. Mushak qisqarishini hu usulida qayd qilish murakkab asbob-uskuna talab qilmaydi, ammo kamchiligi bam bor, u ham bo'lsa shuki, richag inersiyali bo'lgani uchun kimograf leniasiga ishqalanganda yozuvni bir muncha buzib qo'yadi. Bu kamchilikning oldini olish uchun hozirgi vaqtida mexanik o'zgarishlarni elektr tokning kuch tebranishlariga aylantiruvchi maxsus datchik qo'llanilmoqda. Elektr tokini kuch tebranishlari shleyf yoki katod ossillografi yordamida qayd qilinadi.

Qo'zg'alishni vujudga keltirish uchun, binobarin, mushakni qisqartirish uchun asabni ta'sirlash **vositali ta'sirlash** deb, to'g'ridan-to'g'ri mushakni ta'sirlash esa **bevosita ta'sirlash** deb ataladi.

Mushak qisqarishining ikki turi: **izotonik** va **izometrik** qisqarish tafovut qilinadi.

**Izotonik** qisqarish mushakning shunday qisqarishiki, unda tolalari kalta tortadi-yu, tarangligi doimiy bo'lib qolaveradi. Mushakning bemalol yuk ko'tarishi izotonik qisqarishga misol bo'ladi, yuk bunda mushakning doimiy tarangligiga sabab boladi.

**Izometrik** qisqarishda mushak kaltatana olmaydi masalan, mushakning ikki uchi qimirlamay yopishib turganda shunday bo'ladi. Bu holda mushak tolalarining uzunligi o'zgarmaydi-yu, tarangligi oshadi. Izometrik qisqarishni qayd qilish uchun mushakga deyarli kalatalanish imkonini bermaydigan qattiq prujina biriktirilib, mushakni ishlashga majbur etiladi. Bu holda har xil kuchaytirgichlardan foydalanib, mushakning juda oz (bir necha mikron chamasi) kaltalanishini yozib oladi. Bu kaltalanish aslida mushakning taranglashini aks ettiradi. Odam statikani saqlab zo'r berganda mushaklar shu xilda faoliyat ko'rsatadi.

### ***Uchinchi savol bayoni.***

Asab-mushak preparatining asabiga bir marta qisqa vaqt ta'sir etilsa, mushak yakka qisqaradi. Mushak asabdan bir impuls olib, unga bir marta javob beradi. Yakka qisqarish uch fazaga bo'linadi: qisqarishning **latent (yashirin) davri, qisqarish fazasi, bo'shashish fazasi**.

Yaxlit bir bulun organizmda normal shamtida mushaklar yakka qisqarmaydi, chunki mushaklarga markaziy asab tizimidan hamisha bir talay impulsiar kelib turadi. Mushakga ko'pincha ketma-ket keluvchi bir qancha impulslar kirganda mushak bunga javoban uzoq qisqaradi. Impulslarning tez-tez kelib turishi tufayli mushakning shu tariqa uzoq qisqarishi **tetanik** yoki **tetanus** deb ataladi.

Teianik qisqarishni yuzaga chiqarmoq uchun impulslar o'rtasidagi interval yakka qisqarish davriga qaraganda kaltaroq bo'lishi kerak, aks holda mushak ketma-ket yakka qisqaradi. Binobarin, tetanus kelib chiqishi uchun zarur shart shundan iboraiki, avvalgi ta'sirot tufayli paydo bo'lgan qisqarish hali tamom bo'lmasdan turib, navbatdagi ta'sirotni berish kerak.

Shu shartga rioya qilganda ham **ikki** xil tetanik qisqarish ro'y beradi: tishli tetanus va silliq tetanus. Tetanik qisqarish balandligi (amplitudasi) yakka qisqarishning balandligidan ancha yuqori bo'ladi, chunki ritmik ta'sirotda qo'zg'alishning har bir yangi to'lqini mushaklarning qo'shimcha qisqarishini paydo qiladi. Bu qisqarish avvalgi qisqarishga qo'shilib ketadi (**summatsiya hodisasi**). G.Gelmgols (1847) navbatdagi har bir impulsda mushak shu payt bo'shashib turganday kaltanaveradi deb faraz qilib, bu jarayonga **superpozitsiya**, ya'ni qisqarishlarning taxlanishi deb nom berdi. E.B.Babskiyning fikricha, tetanik qisqarishda ATF kislotaning ajralib chiqishi asos bo'ladi. Qo'zg'alishning navbatdagi to'lqini boshlaguncha ATF to'la parchalanib ulgurmaydi, shuning uchun ATF mushakning qo'zg'aluvchanligiga va qisqaruvchanligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada mushakka kelayotgan navbatdagi har bir impuls avvalgilarga nisbatan kattaroq samara beradi. Organizmning tabiiy faoliyat sharoitida **tetanik** qisqarishga asos bo'ladigan hodisalarning umumiy tasviri bilan mukammalroq tanishmoq uchun skelet mustiaklarining harakat asabi bilan innervatsiyalanishidagi ba'zi xususiyatlarga to'xtab o'taylik. Orqa miyaning oldingi shoxlaridagi harakatlantiruvchi hujayra o'sig'i bo'lmish har bir motor asab tolosi mushakning bir tolosi cmas, balki mushak tolalarining bir guruhi innervatsiya qiladi. Bu guruh **motor birlilik** deb ataladi. Odamning turli mushaklarida **motor** birlilik tarkibiga kiruvchi mushak tolalarining soni 10 dan 3000 gacha boradi. Aniqroq harakatlarni bajanivchi ildam mushaklaming motor birliklarida tolalar hammadan kam. Masalan, ko'z mushaklarida va qo'1 bannoqlarining mushaklarida motor birliklar tarkibidagi mushak tolalari 10-25 ta, ulardan har biri bir necha asab tolasidan innervaisiya oladi. Bunga qaramaqarshi o'laroq, gavda holatini to'g'rilashda qatnashadigan va aniq nazoratga ehtiyoj sezmaydigan sust mushaklarning motor birligida 2000 dan 3000 gacha tola bor. Boldir mushaklarining motor birliklarida 1500 ga yaqin tola bor[4].

### *To'rtinchchi savol bayoni.*

Bir qancha kimyoviy o'zgarishlar mushaklarning ishlashiga asos bo'ladi. Shu reaksiyalarda bo'shab chiqadigan energiyadan mushak qisqarish uchun foydatanadi. Binobarin, mushak energiyasining manbai kimyoviy o'zgarishlardir. Bu kimyoviy o'zgarishlarning xususiyati shuki, murakkab moddaning oddiyroq, tarkibiy qismga bo'linish jarayonni parchalangan moddaning tiklanishiga chambarchas ulanib ketadi. Navbatdagi har bir reaksiya shuning uchun zarur energiyani beradi. Mushakda ro'y beradigan kimyoviy reaksiyalar ikki fazaga bo'linadi: kislород kerak bo'lmaydigan birinchi faza, ya'ni **kislородсиз faza** va ikkinchi faza, ya'ni **kislородли faza**.

**Kislородсиз (anaerob) faza.** Mushakning qisqarishi uchun zarur energiya anaerob fazada bo'shab chiqadi. Bu fazada rnushakdagagi fosforli birikmalar parchalanadi.

Bunday birikmalarga adenozintrifosfat kislota (ATF) kiradi. Reaksiyalar ATFning adenil va fosfat kislotalarga parchalanishidan boshlanadi. Bu reaksiyada ancha energiya ajralib chiqadi, mushaklar ish bajarish uchun ana shu energiyadan foydatanadi. ATF parchalangandan keyin kreatin-fosfat kislota kreatin bilan fosfat kislotaga parchalanadi. Kreatinfosfat kislota parchalanganda bo'shab chiqadigan energiya adenil va fosfat kislotalardan yana ATF sintez qilinishiga sarf bo'ladi. Kreatinfosfat kislota parchalangandan keyin glikogen bilan fosfat kislota birikmasi-geksofosfat parchalanib, sut kislotasi bilan fosfat kislota hosil bo'ladi. Bunda ajralib chiquvchi energiya kreatinfosfat kislotaning qaytarilishiga sarf bo'ladi. Shunday qilib, ketma-ket keluvchi shu rcaksiyalar natijasida ATF va kreatinfosfat kislota qaytariladi, faqat glukozaning o'zi sut kislotasigacha parchatanadi. Shu kimyoviy o'zgarishlar zanjiri aniqlanib, asosiy energiya mambalari - ATF va kreatinfosfat kislota tamomila qaytarilishi ma'lum bo'lgandan keyingina kislородсиз muhitda baqa mushakning 1500 marta qisqara olish sababi ochib berildi. Anaerob sharoitda baqa mushakining bunday ko'p qisqarish sababi shuki, adenozinrifosfat va kreatinfosfat kislotalar qaytarilishi uchun kislород bo'lishi shart emas. Ammo keyinchalik mushakning ish qobiliyati baribir kamayadi, pirovardida mushak ishlamay qo'yadi. Keyingi reaksiyalar uchun kislород zarurligi, navbatdagi reaksiyalar esa kislородли (yoki aerob) fazada-

kislород исхирокидагина ўзага чиқиши малим бўлди.

**Kislородли (aerob) фаза.** Kislород исхирокида сут кислотаси парчаланиб, сув ва карбонат ангидрид хосил бўлади. Ammo сут кислотасимнг hammasi ham suv bilan карбонат ангидрига парчаланмай, фақат 1/3 qismi parchatanadi. Bu reaksiyada ham energiya ajralib чиқади.

Sut kislotasining 1/3 qismi oksidlanganda bo'shab чиқадиган energiyadan foydalanib, qolgan 2/3 qismi yana glikogenga аylanadi.

Shunday qilib, bir qancha juda murakkab kimyoviy ozgarishlar ro'y berishiga qaramay, mushaklarning qisqarishiga organizmning qiladigan sarfi taqat bir qism glikogenni yo'qotishidan iborat bo'ladi. Odam va hayvonlarning mushaklari qisqarish va ish bajarish uchun zarur cnergyani kimyoviy reaksiyalar natijasida oladi va bu energiyani mexanik energiya bilan issiqlik energiyasiga aylantiradi. Kimyoviy reaksiyalar natijasida bo'shab чиқадиган energiyaning ko'p deganda 30 % ini mushaklar ishlata oladi. Shunday qilib, mushak qisqarishidagi asosiy hodisa inushak toiasining qisqarishidan iboral. Ayni vaqtida tolanning tabiiy uzunligi kamayib, mushak mexanik ish bajaradi. Yuqorida aytganimizdek, mushak qisqarish uchun ATFning парчаланишдан energiya oladi. Mushakning qisqarishi esa mushak oqsil-miozin molekulasingning qisqarishi hisobiga ro'y beradi. Mushakka kelgan qo'zg'alish to'lqini mushak tolalarida fizikaviy va kimyoviy o'zgarishlarni vujudga keltiradi, jumladati tola ichidagi kaliy ionlari miqdori kamayadi, kalsiy ionlari miqdori esa oshadi. Bu o'zgarishlacning sababi miozin molekulasingning qisqarishidadir. Miozinning yana bir xossasi bor: 4 adenozintrifosfat kislotaning хосил bo'lishiga imkon beradi.

### ***Beshinchи savol bayoni.***

Mushakka maksimal darajada qisqartira oladigan ta'sirot berib va mushakga turli yuklarni osib, uning ko'tara olmaydigan yuk miqdori aniqtanadi. Ana shu yuk miqdori mushakning kuchini ko'rsatib beradi. Ammo taqqoslash uchun mushakning mutlaq kuchi degan miqdordan foydalanadi. Mushakning mutlaq kuchi uning funksional holatiga (charchashiga) va yukning og'irligiga bog'liq. Butun organizm, a'zo yoki to'qima ishlaganidan keyin ish qobiliyatni ya'ni mutlaq kuchi vaqtincha pasayadi, charchash ro'y beradi. Odamning eharchashi ergograf degan asbob yordami bilan tekshiriladi. Ergograf tekshiriladigan kishining bilagi, panjası, II va IV barmoqlarini mahkam tutib turadigan asbobdir.

Ish ritmini, yukning og'irligini yoki ikkalasini o'zgartirib, odamning turli sharoitda qay tariqa charchashini tekshirish mumkin. Shunda хосил bo'ladi гана egri chiziq ergogramma deb ataladi. Ishdagи harakatlarni tekshirish uchun ba'zi olimlar maxsus ergograf yasab mushak charchashini tushunlirish uchun bir necha nazariya bayon qilgan. Ularning fikricha, charchashning asosiy sababi shundan iboratki, ish natijasida energiya zaxiralari tugashi, парчаланиш mahsuloiлари mushakni to'ldirib yuborishi, charchashga sabab bo'ladi. Ammo bayon qilingan nazariylardan birontasi ham charchash hodisasini mukammai tushuntirib berolmadi. Mushak zo'r berib ishlaganda unda haqiqatan ham парчаланиш mahsulotlari, jumladan sut kislotasi хосил bo'ladi (sut kislotasi ishlayotgaii mushakning chardiaшiga ancha ta'sir etadi), energiya zaxiralari sarf bo'ladi va hakazo, lekin shu jarayonlardan birontasi ham ayrim holda charchashni fushuntirishga asos bo'laolmaydi. Bu nazariyalarning hammasi ham charchashda asab tizimining rolini e'tiborga olmaydi. Xolbuki, ish qobiliyatining узоq saqlanishida va charchashning boshlanishida markaziy asab tizimi hal qiluvchi rol o'ynashini LMSchenov, I.P.Pavlov, N.Ye.Vvedenskiy va A.A.Uxtomskiylar o'z tekshirishlarida, shuningdek, talabalarda sinovdan oldin va undan 6 soat keyin mushakning ergogrammasini yozib ko'rsatib berishgan. Mushakning refleks yo'li bilan ta'sirlanib charchashi N.Ye.Vvedenskiy maxsus tajribada ko'rsatgan. U markazga intiluvchi ikki turli asabni ta'sirlab, mushakni qisqartirish ustida tajriba o'tkazgan. Markazga intiluvchi asablardan bir xilini ta'sirlash natijasida mushak charchagan. Mushakning charchaganligi ma'lum bo'lgach, markazga intiluvchi asablarning ikkinchisiga ta'sir etilgan. Mushak shu ta'siroтga javoban awalgidek kuch bilan qisqargan. Shunga asoslanib, avvalo mushak emas, markaziy asab tizimi charchaydi deb xulosa чиқарilgan. Odam qo'lining mushaklari charchaganda dam олиш vaqtida

ikkinchi qo'1 bilan ish bajairilsa, yuk ko'tarishda charchagan qo'l mushaklarining ish qobiliyati tez tiklanishini birinchi marta I.M.Sechenov (1903) ko'rsatib berdi. Charchagan qo'1 mushaklarining ish qobiliyati harakat faolligining boshqa turlarida, masalan, oyoqning turli mushaklari ishlaganda ham tez tiklanishi mumkin. I.M.Sechenov bunday dam olishni anchayin tinch turishdan farq qilib, faol dam olish deb atagan edi. Sechenov bu dalillarga avvalo asab markazlarining charchashini ko'rsatuvchi dalil deb qaragan edi. Ishontirish ustidagi tajribalar butun organizmdagi charchash jarayonining kelib chiqishida asab markazlati holatining o'zgarishi katta rol o'ynashini ko'rsatuvchi ishonchli dalil bo'la oladi. Masatan, tekshirilayotgan kishiga yengilgina savat ko'tarib turibsan deb ishontirilsa, u og'ir qadoq toshli savatni uzoq ko'tarib tura oladi. Yengil savatni ko'tarib turgan kishiga og'ir qadoq tosh tulqazildi deb ishontirilsa, aksincha, u tez charchaydi. Ayni vaqtda puls, nafas olish va gazlar almashinuvi odamning haqiqatda qilayotgan ishiga emas, balki ishontirib aytilgan gapiga bog'liq bo'ladi[5].

### *Oltinchi savol bayoni.*

Turli a'zolardagi silliq mushaklar funksiyasi. Odam organizmdagi silliq mushaklar, ichki a'zolar, tomirlar va terida bo'ladi. Silliq mushaklar bir qadar sekin harakat qiladi va uzoq tonik qisqarishlarga qudir bo'ladi. Kavak a'zolar: me'da, ichak, hazm bezlarining yo'llari, qovuq (siyidik pufagi), o't pufagi va boshqalar devoridagi silliq mushaklarning ko'pincha ritm bilan bir qadar sekin qisqarishi, o'sha kovak a'zolar ichidagi suyuqlikning siljib borishini va tashqariga chiqarilishini ta'minlaydi. Ichak mushaklarining mayatniksimon va peristaltik harakatlari bunga misol bo'la oladi. Silliq mushaklarning uzoq tonik qisqarishlari kavak a'zolarning sfinkterlarida ayniqsa yaqqol ko'rindi: ularning tonik qisqarishi a'zo ichidagi suyuqlikning chiqib ketishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa o't pufagiga o'tning va qovuqda siyqlikning to'planishi, to'g'ri ichakda axlatning shakilanishi va shunga o'xshashlar uchun zarur shartdir. Qon tomirlari, ayniqsa arteriyalar va arteriolalarning devorlaridagi silliq mushaklarda ham tonus bor. Arteriyalar devoridagi mushak qavatining tonusi arteriyalar diametrining kattaligini idora etadi, shu bilan qon bosimining darajasini va a'zolarning qon ta'minotini tartibga soladi.

Silliq mushaklar tonusi va harakat funksiyasini vegetativ asab tizimi orqali keluvchi impulslar va gumoral ta'sirotlar boshqaradi.

**Silliq mushaklarning plastikligi.** Silliq mushakning juda plastikligi, ya'ni o'z tarangligini o'zgartirmay cho'zilishdan keyingi uzunligini zo'r bermasdan saqlay olish qobiliyati uning muhim xossasidir. Plastikligi kam skelet mushagi bilan ro'yrost plastik silliq mushak orasidagi tafovutni aniqlash uchun ularni avvaliga sekin-asta cho'zib, keyin shu cho'zuvchi yukni olib qo'yish kifoya. Yuk olingandan keyin skelet mushagi darhol kaltatanadi. Bunga qarama-qarshi o'laroq, silliq mushak biron ta'sirot tufayli faol ravishda qisqarmaguncha yuk olingandan keyin ham cho'zilganicha qolaveradi.

Plastiklik xossasi kavak a'zolar, masalan, qovuq devoridagi silliq mushaklarning mo'tadil faoliyati uchun juda katta ahamiyaiga egadir, qovuq devorlaridagi silliq mushaklar plastik bo'lgani uchun qovuq ozmi-ko'pmi to'lganida ichidagi bosim nisbatan kam o'zgaradi.

Silliq mushaklar skelet mushaklariga qaraganda kamroq qo'zg'aluvchan: ularning ta'sirlanish bo'sag'alari ortiqroq, xronaksiyasi esa uzunroq. Aksari silliq mushak tolalarining harakat potensiallari kichik amplitudali (skeletning ko'ndalang targ'il mushak tolalarida 120 mv o'rniga 60 mv chamasi) bo'lib, uzunligi ham ortiq, ya'ni 1-3 soniya davom etadi.

Odam tanasida silliq mushaklarning ko'pgina turli-tuman tiplari mavjud. Tanamizdag'i kavak a'zolarning ko'pchiligidagi sinsitiy tipida tuzilgan silliq mushaklar qoplangan. Bunday mushaklarning ayrim tolalari bir-biriga jips taqalib turadi, shu sababli ular morfologik jihatdan yaxlit bir butun degan tessurot tug'iladi. Ammo mushak sinsitiysining ayrim tolalari o'rtasida membrana va protoplazmatik uzlusiz emasligi: ular ingichka ( $200-500\text{A}^{11}$ ) yoriq bilan ajralganligi elektron mikroskopda tekshirib aniqlangan. "Sinsitiydan tuzilish" tushunchasini hozir morfologik tushuncha deyishdan ko'ra, fiziologik tushuncha deyish to'g'riq bo'ladi. **Sinsitiy** -harakat potensiallarining va qutbsizlanish sust to'lqinlarining bir toladan ikkinchi

tolaga bemalol tarqalishini ta'minlaydigan funksional tuzilmadir. Asab oxirlari sinsitiy tolalarining ozgina bir qismida bor. Lekin qo'zg'alish (asab impulsi) mushak tolalarining ozgina bir qismiga o'tsa, qirzg'alishning bir toladan ikkinchi tolaga beto'xtov tarqalishi tufayli butun mushak reaksiyasiga tortilishi mumkin. Ba'zi silliq musihakiarda, masiilan, ko'zning kipriksimon mushagida yoki rangdor pardanig radial mushagida tolalar alohida-alohida joylashgan (**diskret tipda tuzilgan**) bo'lib, har birining skelet mushagi tolalariga o'xshash mustaqil innervatsiyasi bor.

### ***Yettinchı savol bayoni.***

Yakka ta'sirot kuchi katla bo'lganda silliq mushak qisqarishi mumkin. Bu mushakning yakka qisqarish yashirin davr skelet mushagiga qaraganda kattaroq, masalan, quyonning ichak mushaklarida 0,25-1 soniyagacha yctadi, quyon me'dasida 5 soniyagacha, baqa me'dasida esa 1 daqiqaga yetadi va undan ham oshadi. Silliq mushak qisqargandan keyln ayniqla sekin bo'shashadi. Silliq mushaklarda qisqarish to'lqini ham juda sekin tarqalib, soniyaga atigi 3 sm ga yaqin yo'l bosadi. Biroq, silliq mushaklar sekin qisqargani bilan kuchi katta. Masalan, qushlar me'dasining mushaklari ko'ndalang kesimining I sm<sup>2</sup> ga 1 kg hisobida yuk ko'tara oladi.

**Silliq mushakning tonusi.** Silliq mushak sekin qisqargandan, hatto ritmik ta'sirotlarda ham uzoq va turg'un qisqarish holatiga osongina o'tadi, bu holat skelet mushaklarining tetanusiga o'xshaydi. Biroq, silliq mushak ana shunday turg'un qisqarish holatida turgani bilan energiyani juda kam sarf qiladi va shu bilan ko'ndalang targ'il mushak tetanusidan farq qiladi.

Silliq mushaklarning skelet mushaklariga nisbatan ko'p marta sekinroq qisqarishi va bo'shashining sabablari ham batafsil aniqlangani yo'q. Ma'lumki, skelet mushaklarining miofibrillalari kabi, silliq mushak miofibrillalari ham miozin bilan aktindan iborat. Biroq, silliq mushaklar ko'ndalang targ'il emas, ularda Z membrana yo'q va sarkoplazma ancha ko'p bo'ladi. Silliq mushak tolalarining shu tizim xususiyatlari ularni sekin qisqarishiga sabab bo'lsa kerak. Silliq mushaklarda moddalar almashinuvining bir qadar past darajada ekanligi ham shundan kelib chiqadi.

**Silliq mushaklar avtomatlyysi.** Silliq mushaklarning skelet mushaklaridan farq qiladigan xarakterli xususiyati shuki, spontan, avtomaiik faoliyalga qodir bo'ladi. Me'da, ichak, o't pufagi, siydik yo'llari va boshqa bir qancha a'zolarning silliq mushakiarini tekshirganda ularning avtomatik qisqarishini kuzatsa bo'ladi.

Silliq mushaklar avtomatiyasi miogen yo'l bilan kelib chiqqan. Bu avtomatiya mushak tolalarining o'ziga xos bo'lib, uni silliq mushakli a'zolar devoridagi asab elementlari idora etadi. Ichak devorining asab chigillaridan sinchiklab xolos qilingan mushak bo'laklari ustidagi tajribalar avtomatiyaning miogen yo'l bilan kelib chiqqanini isbot etadi. Kislorod bilan boyitiladigan Ringer-Lokk eritmasiga shunday mushak bo'laklari solinganda ular avtomatik ravishda qisqara oladi, o'sha mushak bo'laklarida asab hujayralarinini yn'qligi keyingi gistologik tekshirishlarda ham aniqtanadi.

Silliq mushaklarning tez va kuchli cho'zilishi ularning muhim fiziologik adekvat ta'sirlovchilaridan biri hisoblanadi. Cho'zilish natijasida mushak tolasining membranasi qutbsizlanib, tarqaluvchi harakat potensiali vujudga ketadi. Pirovard natijasida mushak qisqaradi.

Silliq mushaklaming yana bir xususiyati shuki, ular ba'zi kimyoviy ta'sirlovchilatga, jumladan parasimpatik asab tolalarining oxirlaridan ajralib chiqadigan atsetilxolingga, buyrak usti bezlarining mag'iz moddasidan va simpatik asab tolalarining oxirlaridan ishlanib chiqadigan noradrenalinga, shuningdek boshqa bir qancha moddalar (gistamin, serotonin, dofamin, neyropeptidlar)ga yuksak darajada sezuvchan bo'ladi. Bu modda (agent)larning turli silliq mushakiarga ta'sir ko'rsatish natijasi bir xil emas. Masalan, me'da-ichak yo'lidagi silliq mushaklar uchun atsetilxolin qo'zg'atuvchi modda, adrenalin esa tormozlovchi modda hisoblanadi. Qon tomirlar devoridagi mushaklar esa adrenalin ta'siri bilan qisqaradi, atsetilxolin esa ularni bo'shashtiradi. Bu tafovuttarni boisi shundaki, yuqorida aytilgan agentlar turli silliq mushak hujayralarida membrananing ion o'tkazuvchanligini va shunga yarasha membrana potensialini turlicha o'zgartiradi.

## 13 – Mavzu. Markaziy nerv tizimi fiziologiyasi.

### Asosiy savollar.

1. Orqa miyaning tuzilishi va funksiyalari.
2. Keyingi miya.
3. O'rta miya.
4. Miyacha.
5. Oraliq miya
6. Katta yarim sharlat po'stlog'i.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** orqa miya, sezuvchi va harakatlaniruvchi ildizlar, keyingi miya, oraliq miya, o'rta miya, miyacha, talamus, gipotalamus, bosh miya.

### Birinchi savolning bayoni.

Katta odamlarda orqa miya oldindan orqaga qarab bir oz yassilangan 45 sm chamasiga uzunlikdagi chilvirdir. U yuqori tomonda uzunchoq miya bilan tutashadi, pastda belning birinchi umurtqasi sathida konus shaklida tugaydi.

Orqa miya ikkita asosiy funksiyani: reflektor funksiya va o'tkazuvchi yo'1 funksiyasini bajaradi. Orqa miyaga teri yuzasidagi eksteroretseptorlardan, tana bilan qo'1-oyoqning proprioretsensorlardan va ichki a'zolarning visseroretseptorlardan impulslar kelib turadi. Orqa miya barcha skelet mushaklarini innervatsiyalaydi. Orqa miya tanadagi barcha rnurakkab harakat reaksiyalarini yuzaga chiqarishda qatnashadi. Ulardan ko'plari orqa miyaning refleklor funksiyani bajarish natijasi bo'lishi mumkin, boshqa reaksiyalar esa, markaziy asab tizimining yuqonroqdagagi bo'limlari yuzaga chiqaradigan reflekslar natijasida kelib chiqadi. Bu holda orqa miya faqat impulslarni o'tkazuvchi yo'1 hisoblanadi.

Retseptorlardan orqa miyaga keluvchi axborot orqa miyaning orqa va yon qismlaridagi ko'pgina o'tkazuvchi yo'llar orqali miya ustunining markazlariga o'tadi va miyacha hamda katta yarim sharlar po'stlog'iga yetib boradi. Markaziy asab tizimining yuqoriroqdagi bo'limlaridan orqa miyaga esa impulslar oldingi va yon ustunlarning o'tkazuvchi yo'llari orqali keladi; bu asab impulslar orqa miyaning oraliq va motor neyronlarini qo'zg'atadi yoki tormozlaydi, natijada skelet mushaklari va ichki a'zolarning faoliyati o'zgaradi. Orqa miyaning o'tkazuvchi yo'1 funksiyasi muhim funksiya bo'lib, periferik retseptorlardan bosh miyaga va undan effektor a'zolarga (mushaklarga, bezlarga, qon tomirlariga) impuls o'kazishda katta rol o'ynaydi.

Orqadagi va oldingi ildizlardan turli asablar o'tishini fiziologlardan Ch.Bell va B.Majandi tajribada aniqlaganlar. Ular orqa miyaning bir tomondagi oldingi ildizlarini qirqib qo'yganlarida o'sha tomondagi qo'1-oyoq tamomila falaj bo'lgani holda, sezuvchanlik bekami ko'st saqlangan. Orqadagi ildizlar kesib qo'yilganda sezuvchanlik yo'qolgan va shu bilan birga harakat andak bo'lsa-da buzilgan emas. Bu kuzatishlar orqadagi ildizlar sezuvchi ildizlardir, ulardan markazga intiluvchi (afferent) tolalar o'tadi, oldingi ildizlar esa harakatlanuvchi ildizlar bo'lib, ulardan markazdan qochuvchi (efferent) tolalar o'tadi degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi.

Orqa miyaning ko'ndalang kesimiga qarasak, bir-biridan katta farq qiladigan turli rangdagi ikki qavatni: **kul rang** va **oq moddani** ko'ramiz. Kul rang modda o'rtada bo'lib, shaklan kapalakka o'xshaydi; kul rang moddaning atrofida oq modda joylashgan bo'ladi. Kul rang moddaning **oldingi** «qanotlari» oldingi shoxlar, orqadagi qanotlari esa **orqadagi shoxlar** deb ataladi. Oldingi shoxlardan-orqa miyaning oldingi ildizlari, orqadagi shoxlardan esa orqadagi ildizlari boshlanadi.

Kul rang modda-asosan asab hujayralarining tanasi (soma) dan iborat bo'lsa, oq modda asosan o'siqlardan, ya'ni asab tolalaridan tuzilgandir. Bu tolalarning ayrim tutamlari turli funksiyalarni o'taydi, shunga ko'ra, ularni uch guruhga bo'lishi mumkin: 1) yuqoriga ko'tariluvchi yoki markazga intiluvchi yo'llar (afferent tolalar). Bu tolatar orqali qo'zg'alish tanamizning turli qismlaridan bosh miyaga yetib boradi; 2) Pastga tushuvchi yoki markazdan qochuvchi yo'llar (efferent tolalar), Bu yo'llar orqali quzg'alish bosh miyadan periferiyaga o'tadi; 3) bir to'da kalta tolalar; ular orqa miyaning ikki-uch segmentidan o'tib, ularni bir-biri

bilan bog'laydi.

Bundan tashqari, ba'zi asab tolalar orqa miyaning birinchi yarmidan ikkinchi yaniiga o'tadi va uning ikkala yarmini bir-biri bilan birlashtiradi. Shunday qilib, orqa miyaning asosiy tunksiyalaridan biri -**qo'zg'alishni o'kazishdir**. Orqa miya qirqib qo'yilsa, bu muhim funksiya buzilib, bir qancha jiddiy o'zgarishlar kelib chiqadi.

Orqa miyaning ikkinchi asosiy funksiyasi uning **reflektor faoliyatidir**. Spinal baqaning reflekslari bilan tanishganimizda buni ko'rgan edik. Muhim funksiyalarning reflektor markazlari orqa miyada joylashgan. Masalan, orqa miyaning bo'yin bo'limida - qo'1, ko'krak, orqa va qorin mushaklarning markazlari; bel bo'limida - oyoq mushaklarning markazlari, dumg'aza bo'limida - siyidik chiqarish, defekatsiya va jinsiy faoliyat markazlari bor.

Ter chiqarish markazlari, shuningdek tomirlarni torayliruvchi va kengaytiruvchi markazlar ham orqa miyadadir. Biroq, markazning qayerda joylashganligini aniq bilish klinika uchun juda katta ahamiyatga egadir, chunki muayyan mushaklar guruhi faoliyatining buzulganligini tekshirib, orqa miyaning qaysi bo'limi zararlanganligini yoki qaysi bo'liniinmg funksiyasi buzilganligini bilsa bo'ladi. Ayrim reflekstarning reflektor yoyslari orqa miyaning qatiyan muayyan qismlaridan o'tadi. Shunday qilib, retseptorda kelib chiqqan qo'zg'alish markazga inliluvchi asab orqali orqa miyaning muayyan qismiga boradi.

### **Ikkinci savol bayoni.**

Odam va umurtqali hayvonlarda orqa miyaning davomi **uzunchoq** miya hisoblanadi. Uzunchoq miya va miyaning ko'prigi (Varoliy ko'prigi) hamda o'rta va oraliq miya birgalashib miya ustunini hosil qiladi. Miya ustuni tarkibiga talaygina **yadrolar, ko'tariluvchi va tushuvchi yo'llar** kiradi. Lekin, miyaning to'rsimon tuzilmasi (**retikular formatsiyasi**) o'z finksiyalari bo'yicha bularning ichida alohida o'rinn egallaydi.

Uzunchoq miyadagi tuzilmalar bilan Varoliy ko'prigi keyingi **miyani** tashkil qiladi. Uzunchoq miyadagi ba'zi asab hujayralarining o'siqlari orqa miyaning turli bo'limlariga boradi va uzunchoq miya bilan oraliq miyani bir-biriga bog'laydi. Boshqa asab hujayralarining o'siqlari esa, uzunchoq miyadan chiqib, bosh miya asablarini hosil qiladi.

Keyingi miyada neyronlarning to'plamidan vujudga keladigan markazlar muhim retleklor reaksiyalarni yuzaga chiqaradi. Masalan, uzunchoq miyada hayot uchun muhim bir qancha markazlar bor. Jumladan, nafas markazi, yurak faoliyati markazi, tomir harakatlantiruvchi markaz, hazm markazi va modda almashinuvini idora etadigan markaz uzunchoq miyadadir.

V-XII miya asablarning yadrolari bog'langan reflekslari yoylar keyingi miyada tutashadi. Shu bosh miya asablari orqali keluvchi afferent impulslar keyingi miyada kiritma va harakatlantiruvchi neyronlarga o'tadi (122-rasm). Uzunchoq miyada oddiy va murakkab reflekslarining markazlari bor, bu reflekslarning yuazaga chiqishida har xil mushak guruhlari, tomirlar va ko'pgina ichki a'zolar qatnashadi. Bu reflekslar orqa miyadan, shuningdek til-halqum, eshituv, vestibular asab, uchlik asab va adashgan asabning retseptor tizimlaridan keluvchi impulslarga javoban kelib chiqadi. Yoylari keyingi miya orqali o'tadigan reflekslar orqa miya reflekslariga nisbatan mukammalroq va murakkabroq uyg'unlashtirilgan reflekslardir. Bunga, masalan, tana vaziyatining tonik reflekslari kiradi. Keyingi miyaning ko'pgina murakkab reflektor faoliyatini bajarishda turli neyronlar muayyan tartibda qo'zg'alib qatnashadi. Yutish va aksa urish reflekslari bunday reflekslarga misol bo'la oladi. Uzunchuq miya neyronlarining markazlari-nafas, yurak, tomir harakatlantiruvchi markazlarning xususiyati shuki, ular periferiyadan keluvchi asab impulsleri ham markazlarga bevosita ta'sir etuvchi kimyoviy ta'sirlovchilar ham refleks yo'li bilan qo'zg'aladi. Bu yerda biz asosan skelet mushaklarining faoliyati bilan bog'langan uzunchuq miya markazlari va reflekslarini ko'zdan kechiramiz. Vegetativ asab tizimidan innervatsiya oladigan ichki a'zolar va tomirlarning boshqarilishida uzunchoq miyaning qanday rol o'ynashini ko'rib o'tamiz. Nafas markazi uzunchuq miyaning turli qismlaridagi neyronlarning bir necha guruhdan vujudga kelib, yagona funksional tizim hisoblanadi. Nafas markazi Varoliy ko'prigining yuqori chegarasi bilan uzunchoq miyaning pastki qismi o'rtasida to'rsimon formatsiyaga tegishli sohada joylashgan. Nafas markazini ayrim

yadroga o'xshash mustaqil anatomik tuzilma deb hisoblash kerakmi yoki nafas harakatlarini idora etishga ixtisoslashgan to'rsimon formatsiya bo'lagi deb qarash kerakmi, bu to'g'rida hanuz: aniq fikr yo'q. Umuman olganda, nafas markazining eng muhim qismlari **pnevmotaksis, ekspirator va inspirator** markazlardir. Impulslar nafas markazidan orqa miyaning diafragmani va qovurg'a aro mushaklarni innervatsiyalovchi motoneyronlariga keladi. Xuddi shuning uchun ham orqa miyani 4-bo'yin segmentining yuqorisidan qirqib qo'yish natijasida nafas olish to'xtaydi. Nafas markazining ritmik faoliyatni uzunchoq miya bilan orqa miyadagi boshqa markazlar holatiga ta'sir etadi. Yurak faoliyatini idora etuvchi markaz bilan nafas markazi o'rtasidagi bog'lanish ayniqsa yaqqol ko'rindi. **Nafas-olish yurak refleksi**, yoki **nafas aritmiyasi** shu bog'lanish natijasidir. Uzunchoq miya yadrolari ovqat chaynash, emish (so'rish), yutish, quşish, aksa urish, yo'talish, ko'zni uchirish va boshqa reflekslarni bajarishda qatnashadi. Bu reflekslar **bosh** miyasining katta qismi bo'lmay turib tug'ilgan bolalar (**anensefallar**) da ham kuzatiladi.

### *Uchinchi savol bayoni.*

O'rta miyada to'rt tepalik yadrolari (ular Silviy suv yo'lining ustida qopqoq- tectum sohasida joylashadi), qizil yadro, ko'zni harakatlantiruvchi va g'altak asablarning yadrolari va qoramtil modda bor. Talamusga, katta yarim sharlarga va miyachaga imputs olib boradigan barcha ko'tariluvchi yo'llar va uzunchoq miya bilan orqa miyaga impuls yetkazib beradigan tushuvchi yo'llar o'rta miya orqali o'tadi. Uzunchoq miyadagi kabi, o'rta miyada ham to'rsimon formalsiya neyronlari bor. O'rta miya yadrolari bir qancha muhim reflektor funksiyalarni bajaradi. To'rt tepalikning oldingi do'mboqlari birlamchi ko'ruv markazlari bo'lib, yorug'lik ta'siriga javoban ba'zi reflekslarning yuzaga chiqishida qatnashadi. Bu reflekslarga ko'rish - **chamalash** (oriyentirovka) **reflekslari** kiradi. Bu reflekslar shundan iboratki, hatto yarim sharlardan mahrum bo'lgan, ammo o'rta miyasi butun qolgan hayvon yorug'lik ta'siriga javoban ko'z va tana harakatlari bilan reaksiya ko'rsatadi. To'rt tepalikning oldingi do'mboqlari **qorachiq** refleksining yuzaga chiqishida qatnashadi. O'rta miyaning birlamchi ko'ruv markazlari bilan aloqador reflekslarga **ko'z akkomadatsiyasi** (turli masofada to'r pardanining moslashuvi) va ko'ruv o'qlarining bir nuqtaga qo'shilishi -**konvergensiya** kiradi.

**To'rt tepalikning orqa do'mboqlari birlamchi eshituv markazlari** bo'lib, tovush kelayotgan tomonni chamalab bilish reflekslarining yuzaga chiqishida, hayvonlarning qulog'ini ding qilishida, boshi va tanasini tovush kelayoigan tomonga burishida qatnashadi.

O'rta miyaning **qizil yadrosi** tushuvchi rubrospinal yo'1 boshtanadigan joy hisoblanadi. Ba yo'1 orqali orqa miya segmentlariga kelib turadigan impulslar skelet mushaklarining tovushini boshqaradi. Qizil yadrodagи yirik neyronlarni elektr toki bilan ta'sirlash orqa miyadagi bukvuchchi alfa va gamma motoneynmlarni qo'zg'atib, yozuvchi motoneyronlarni tormozlaydi.

Rubro-spinal yo'ldan orqa miyaga mshuvchi impulslar samarasini keyingi miyadagi Deylers yadrosidan boshlanadigan vestibulospinal yo'1 bo'ylab keluvchi impulslarnikiga qarama-qarshi: ular yozuvchi mushaklarning alfa va gamma-motoneyronlarini qo'zg'atib, bukvuchilarini tormozlaydi. O'zaro bog'langan qizil va Deylers yadrolari bir-birini tormozlab turadi. Natijada yozuvchi mushaklar tonusi pasayadi. Bu ikkala yadroni boglangan yo'llar kesilsa (miya to'rt tepalikning orqa do'mboqlari pastidan kesilsa) oyoq-qo'1, orqa, dumni yozuvchi mushaklar tonusi keskin oshib ketadi-hayvonda **deserebratsion rigidligi** rivojlanadi.

O'rta miyasi butun qolgan odam va hayvondagi chamalash reflekslarida harakat reaksiyalarini bilan bir qatorda ba'zi vegetativ o'zgarishlar ham kuzatiladi; yurak faoliyati ritmining o'zgarishi, arterial bosimning o'zgarishi va hokazolar shu jumladandir.

### *To'rtinchı savol bayoni.*

Miyacha o'ng va chap yarim sharlardan iborat bo'lib, ular thuvalchangsimon qism bilan birikkan. Miyacha bosh miya yarim sharlari bilan parallel rivojlanadi, u odamda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Uning vazni 150-160 g ga teng. 3 juft: yuqorigi, o'rta va pastki oyoqchalarini bo'ladi. Yuqorigi oyoqchasi miyachani to'rt tepalik va miya yarim sharlari bilan, o'rta oyoqchasi

ko'rik bilan, pastki oyoqchasi esa uzunchoq miya va orqa miya bilan bog'laydi. Agar miyacha kesilsa, uning ustki qismi yupqa kulrang moddadan tuzilganligi va 2 qavat (donali va yulduzsimon hujayralari ko'rindi). Kulrang modda tagida oq modda joylashgan, uning asab tolalari daraxi bargining tomirlari kabi tarqalgan. U "**hayot daraxti**" deh ataladi. Oq modda orasida to'rt jufl tana-tarqoq holdagi kul rang modda uchraydi: 1) eng chetda yirik tishli yadro bo'lib, u muvozanatni saqlash funksiyasiini bajaradi; 2) probkasimon yadro; 3) sharsimon yadro; 4) miyachaning cho'qqi yadrolari bor. Miyacha o'tkazuvchi yo'llar orqali markaziy asabning deyarli hamma bo'g'lnlari bilan bog'langandir. Miyacha funksiyalarini lekshirish uchun hayvonlaming miyachasi tamomila yoki qisman olib tashlangan. Miyachani olib tashlash yoki unga zarar yetkazish hayvonning harakatlariiga va tana vaziyatiga ta'sir etadi. Miyachaning faqat yarmi olib tashlanganda hayvonning o'sha tomondagi oyoqlari cho'ziladi, hayvon tura olmaydi va miyachasi zararlangan tomonga qarab yiqilib tushadi. Oradan bir necha kun o'tgach bu hodisalar ancha kamayib, hayvon o'rnidan turishi, yugurishi va anchagina murakkab harakatlarni bajarishi mumkin. Hayvonning miyachasi butunlay olib tashlansa, chuqur va jiddiy o'zgarishtar ro'y beradi. Bunda hayvon o'rnidan tura olmaydi va qanday bo'lmasin harakat qila olmaydi. Bir necha kundan keyin hayvon qisman harakat qila boshlaydi. Ammo hayvon o'ridan turish uchun oyoqlarini keng yozadi, yurganda ko'pgina ortiqcha va omonat harakatlarni bajaradi.

Miyachani olib tasihlash natijasida hayvonning harakatlarda kelib chiqadigan o'zgarishlar quyidagi to'rt guruhga bo'linadi:

**1. Mushaklar tonusining o'zgarishi (atoniya).** Bunda mushaklar tonusi keskin kamayib kejadi, natijada mushaklar ilvillab qoladi. Ammo bir necha kundan keyin yozuvchi mushaklar tonusi oshadi, qo'l-oyoq yoziladi, bosh orqaga qayriladi. Miyacha olib tashlaganda mushaklar toriusi yo'qolishdan ko'ra, tonus taqsimotini idora etishning **ko'proq** buzilishi bir qancha tekshirishlarda isbot elilgan. Miyacha shikastlangandan keyin ikki hafta o'tgach, tonus sckin-asta avvalgi asliga keladi va hayvon birqauncha beo'xshov havakat qilsa ham, har qalay anchagina harakatlarni bajaradigan bo'lib qoladi.

**2. Tez charchab qolish (asteniya).** Hayvon juda tez charchaydi. Sog'lom va nozik harakallarni bemalol bajarsa ham, miyachasi olib tashlangan it shunday harakat qilish natijasida tez charchab qoladi, yotib dam oladi.

**3. Qo'l - oyoq va boshning titrashi (astaziya).** Miyachasi olib lashlangan hayvon titramasdan turaolmaydi va boshini tutaolmaydi. Oyog'ini darrov ko'tara olmaydi. 1) oyog'ini ko'tarishdan oldin bir qancha tebranma harakatlar qiladi. Agar bunday it turg'azib qo'yilsa, tanasi va boshi hamisha tebranib turadi, ovqatni yeya olmaydi, chunki boshini tebranishdan to'xtata olmaydi. Miyachasi olib tashlangan it birdaniga to'xtata olmaydigan va ko'p marta takrorlaydigan bunday uzlusiz harakatlar ketma-ket keluvchi bir qancha reflekslardan iborat. Bunday reflekslarda har bir harakat tamom bo'lishi bilan navbatdagi harakat boshlanadi.

**4. Harakatlar uyg'unligining buzilishi (atakсиya).** Miyachasi olib tashlangan it aniq, chaqqon, uyg'un harakatlar qila olmaydi. U oyoqlarini kerib, qoqilib-surilib va yiqilib yuradi. Yurganda oyoqlarini yiqliki ko'tarib tashlaydi, shu sababli bunday yurish "**xo'roz**" yurish deb ataladi. Odamning miyachasi zararlangunda ham shunday o'zgarishlar kelib chiqadi.

Miyachaning asosiy funksiyasi bu harakatlarni uyg'unlashtirish va mushaklar tonusini mu'tadil ravishda taqsimlashdan iborat ekanligi ko'pgina tekshirishlar bilan aniqlangan. Miyacha harakatlar uyg'unlashishini amalga oshirish bilangina qolmay, organizmdagi vegetativ jarayonlarga ham ta'sir etadi. Masalan, simpalik asab tizimi orqali miyaning barcha bo'limlariga adaptasion-trofik ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, miyacha asab tizimida modda almashinuviga ta'sir etadi va uning o'zgarib turadigan sharoitga qarab moslashuviga imkon beradi. Shunday qilib, miyacha harakatlarni boshqaradigan tizimning juda muhim qismi bo'lib, quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) mushak tonusi va vaziyatni boshqarish; 2) maqsadga erishishga qaratilgan vaziyat va harakatlarni uyg'unlashtirish; 3) miya po'stlog'i yuzaga chiqaradigan harakatlarni uyg'uniashitirish. Miyachani olib tashlash yoki shikastlash eng avvalo mushaklar ronusining o'zgarishiga va harakailarning buzilishiga olib keladi. **L.Luchiani** miyaucha butunlay olib tashlangandan keyin ro'y beradigan hodisalarni uch davrga bo'ldi: 1) jarohatlanish davri; 2)

funksiyalarni yo'qotish davri: 3) funksiyalarning tiklannish davri. Birinchi davrda hayvon butunlay ojiz bo'ladi, oyoqiarida tura olmaydi. Ikkinci davr funksiyalarni yo'qotish davrida to'rtta simptom: atoniya, asteniya, asteziya, ataksiya namoyon bo'ladi. Uchinchi davrda - buzilgan funksiyalarining tiklanishi kuzatiladi.

Shikastlanishdan so'ng paydo bo'lgan miyacha faoliyatidagi o'zgarishlar vaqt o'tib asli holiga keladi. Zamonaviy aqidalarga ko'ra, bu tiklanishni katta yarim sharlarning motor (harakat) sohalari shikastlangan miyacha funksiyalarini o'z zimmasiga oladi[7].

### ***Beshinchı savol bayoni.***

Oraliq miya morfo-fiziologik nuqtai nazardan miya ustunining eng murakkab topgan bir bo'limi hisobtanadi. U embriogenez jarayonida miyaning oldingi pufagidan katta yarim sharlar bilan birga shakllanadi.

Oraliq miyaning asosiy tuzilmalari ko'rav do'mboqlari (thalamus) va do'mboq ostidagi soha - hypothalamus - dan iborat.

**Talamus** katfa yarim shararga boruvchi barcha (hidlov yo'llaridan tashqari) afferent yo'llar darvozasi hisobaianadi. Talamus katta yarim sharlar po'stlog'iga boruvchi yo'lda bamisolli bir darvoza bo'lib, tashqi muhitdan va organizmning ichki muhitidan ta'sirot qabul qiluvchi tuzilma hisoblanadi. Retseptorlaridan ketadigan butun axborot o'sha darvoza orqali o'tadi. Talamusdagi yadrolar shikastlanganda katta yarim sharlar po'stlog'i biron axborotdan mahrum bo'lishi mumkin.

**Gipotalamus** - oraliq miyaning eng qadimiy filogenetik bo'limi hisoblanib, ichki muhit doimiyligini saqlab turadi, vegetativ va somalik tizimlar funksiyasini integratsiya qilib turadi. Hajmi uncha katta bo'limgan, ammo muhim fiziologik ahamiyatga ega bo'lgan gipotalamus miyaning uchinchi qorinchasi tubida talamusdan pastroq joylashgan. Gipotalamusning tarkibiga organizm uchun eng kerakli tuzilmalar: voronka, kulrang tepa, so'rg'ichsimon va mamillyar tanalar kiradi. Gipotalamusning yuqori chegarasi oxirgi plastinka va ko'rav asabining kesishmasini tashkil giladi. Yon sohasidan gipotalamus ko'rav yo'li va ichki kapsula bilan chegaralangan, orqa sohasidan esa o'rta miya bilan chegaradoshdir.

Gipotalamusda topografiyalari turli bo'lgan besh guruhi yadrolar mavjud;

1. Preoptik guruhi - oxirgi miya yaqinida joylashgan paraventrikular, medial va lateral preoptik yadrolardan tashkil topgan.

2. Oldingi sohasidagi guruhgaga supraxiazmatik, supraoptik va paraventrikular yadroiar kiradi. Bu yadrolarning neyronlari gipofizning ohigi bo'lagi-neyrogipofizga boradi.

3. O'rta guruhdagagi yadrolariga ventromedial va dorsomedial yadrolar kiradi.

4. Tashqi guruhi yadrolariga gipoialamusning laieral yadrosi va kulrang tepaning yadrosi kiradi.

5. Orqa sohasidagi guruhgaga orqa gipotalamik yadro, perifornikal yadro va mamillyar yadrolar kiradi.

Gipotalamus ko'pchilik yadrolarining chegaralari aniq emas, shu sababli uni mintaqalar va tumanlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Masalan, gipotalamus preoptik va oldingi sohasidagi yadrolarning ba'zilarini birlashtirib **gipotizotrop** bo'limi desak bo'ladi, chunki ular rilizing-gormonlar (liberinlar) va ingibitor omil (statinlar) ishlab chiqarib gipofizning oldingi bo'limi adenogipofiz faoliyatini boshqaradi.

O'rta sohasida joylashgan gipoialamusning yadrolari **medial gipotalamusni** tashkil etadi. Bu bo'lim neyronlarida maxsus retseptorlar mavjud, ular organizm ichki muhitining o'zgarishlariga, qon harorati, plazmaning suv-elektrolit tarkibi, qonda gormonlarining miqdodoriga javob qaytaradi. Shanday qilib, medial gipotalamus asab va gumoral mexanizmlari orqali gipofiz faoliyatini boshqaradi.

**Lateral gipotalamus** esa o'tkazuvchan elementlar joylashgan yadrosiz mintaqani tashkil etadi. Oldingi miyaning tutamini tashkil qilib, miya ustunining yuqori va pastki bo'limlariga yo'llar ochib beradi. Lateral gipotalamusda asab hujaralari aralash joylashgan.

Umumiylar qilib aytganda, gipotalamus juda ham murakkab integrativ tuzilma bo'lib, miyaning turli qismlari bilan boy afferent va efferenti tolalar orqali morfo-fiziologik aloqadadir.

Gipotalamus modda almashinuvi (oqsillar, yog'lar, karbonsuvlar, tuzlar va suv almashinuvi) da ishtirok etadi, issiqlik hosil bo'lishi va issiqlik chiqarish hamda uyqu va bedorlik jarayonlarini boshqaradi. Gipotalamus neyronlarida ba'zi bir gormonlar hosil bo'ladi, qaysiki neyrogipofizda zaxira bo'ladi. Gipotalamusning oldingi guruh yadrolari parasimpatik asab tizimining oliy markazlari va gipotalamusning orqa guruh yadrolari esa simpatik asab tizimining oliy markazlari hisoblandi. Shunday qilib laieral gipotalamus organizmda ko'p vegetativ jarayonlarni boshqaradi.

Gipotaiamusning ko'p yadrolari umurtqali hayvonlarda oliy asab faoliyati jarayonlarida, uyqu va bedorlik siklida hamda qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiraning shakllanishida juda katta rol o'yndi. Uni olib tashlaganda yuqorida zikr etilgan jarayonlar keskin buzilib ketadi. Qishki uyquga ketuvchi hayvonlarning gipotalamus orqa guruh yadrolarining yemirilishi natijasida qishki uyquga ketuvchi hayvonlar (tipratikon, yurmonqoziq) da qishki uyqu buziladi va ular uyqidan bedor bo'lmaydi. Ayni holda, agar bu hayvonlarda gipotalamusning oldingi guruh yadrolari oldindan shikastlangan bo'lsa, ular qishki yquga ketmaydi.

Shunday qilib, gipotalamus funksiyalari vegetativ asab tlzimi, somatik asab tizimi, endokrin bezlar, qon aylanish va nafas olish hamda termoregulyasiya va oliy asab faoliyati bilan bog'liq bo'lishida hech shubha qolmaydi.

Gipotalamus miyaning boshqa qismlari bilan uyg'unlikda jinsiy axloq va ko'payishga aloqador boshqa hatti-harakatlarning shakllanishida ishtirok etadi. Hayvonlar hamjihatligida ko'p kuzatiladigan agressiya va tajovuzkorlik ham gipotalamasning oldingi sohalariga bog'liq.

Orqa va lateral gipotalamusda neyronlar qo'zg'alganida ochlik holati uchun xos xattiharakatlarni ruyobga chiqaradigan soha topilgan. U ta'sirlanganda hayvon ovqat qidira boshlaydi, so'lagi oqib, hazm tizimi a'zolari harakati kuchayadi. Lateral gipotatamusdagi hu soha "ochlik markazi" deyiladi.

### *Oltinchi savol bayoni.*

Bosh miya yarira sharlari po'stlog'i markaziy asab tizimining filogenetik eng yosh qismi hisoblanadi. Bosh miya katta yarim sharlarining kul rang moddasi bosh miyaning yuza qismida joylashgan bo'lib, u miya po'stlog'i deb nomlanadi. Miya po'stlog'i asab hujayralari tanasining to'plamidan tuzilgan. Miya po'stlog'inining yuzasi  $2200 \text{ sm}^2$ , qalinligi 1,3-4,5 mm, umumiylajmi  $600 \text{ sm}^3$ . Undagi neyronlar soni taxminan  $10^9$ - $10^{10}$  (Shade. Ford, 1989). Po'stloqdagi glial hujayralar soni neyronlar sonidan 5-6 marla ko'p.

Po'stloqda qadimiy (**pateokorteks**), eski (**arxikorteks**) va yangi (**neokorteks**) qismlar (po'stloqlar) mavjud. Palenkorleksga hidlov miya, arxikorteksga gunbaz (limbik) li^imi va tining eng rivojtanayotgan :uzilmasi-gippok<tmp kiradi, qolgan sohalar yangi po'stloq (ncokorteks)ni lashkil qiladi.

Bosh miya kalta yarim sharlar po'silog'i bosh miyaning boshqa bo'limlariga qaraganda evolutsion nuquyi nazardan kechroq rivojlangan bo'lsa ham, tuzilishi va funksiyalari jihalidan juda murakkab bo'limidir.

Filogenezda bosh miya po'stlog'i ilk bor sudralib yuruvchi hayvonlar, reptiliyarda paydo bo'lib, keyinchalik sut emizuvchilarda yaxshi rivojlangan. Bosh miya po'silog'i paydo bo'lishi bilan **funksiyalar kortikalizatsiyasi** voqe bo'ladi, ya'ni orgamzm funksiyalarini boshqarish asab tizimining quyi bo'limlaridan bosh miya po'silog'iga o'tadi. Bosh miya po'stlog'i organizmdagi hamma jarayonlarni, shuningdek odamning butun faoliyatini nazorat qila boshlaydi.

Buning sababi odamning katta yarim sharlar po'stlog'i shikastlanganda ayniqsa katta o'zgarishlar ro'y beradi. Odamning tanasini tikka tutishi va mehnat faoliyati bilan bog'langan murakkab harakatlarni yuzaga chiqarishi uchun asab jarayonlarining neokorteksa bog'liq bo'lgan g'oyat mukammal o'ydinlanishi talah qilinadi. Taraqqiyot jarayonida neokorteks harakat apparatini-ko'ndalang targ'il mushaklarni, shuningdek vegetativ jarayonlarni nazorat qiladigan

bo'lib qoladi.

### **Katta yarim sharlar po'stlog'ining hujayra tuzilishi (sitoarxitektonikasi)**

Po'stloqning molekular tuzilish xususiyati shuki, asab hujayralari ustma-ust bir necha qavat bo'lib yotadi.

Miya po'stlog'idagi hujayralar joylashishi va shakliga qarab 6 qavat, ba'zi qismlarda undan ham ko'p (ensada 9 qavat) bo'ladi.

Miya po'stlogi mikruskopda tekshirilganda, undagi asab hujayralavi quyidagi tartibda joylashganligi aniqlangan.

Molekular qavat degan 1 qavvatda asab hujayralari kam bo'lib, u asosan asab tolalarning chigalidan tashkil topgan.

II qavat - mikroskopik preparatlarda yumaloq, uchburchag va ko'p burchak donalar shaklidagi mayda (diametri 4-8 mk) hujayralar qalin joylashganidan tashqi donador qavat deb ataladi.

**III qavat** - dasllabki ikki qavatga nisbatan qalinroq bo'lib, unda katta-kichik piramidasimon neyronlar mavjud.

IV qavat - ichki ilonador qavat deb ataladi. Ikkinci qavat kabi, hu qavvat ham mayda hujayralardan tuzilgan. Voyaga yeigan organizm katta yarim sharlar po'stlog'ining ba'zi qismlarida bu qavat bo'imasligi mumkin, masalan, yarim sharlar po'stlog'ining motor (harakat) zonasida bu qavat yo'q.

V qavat - bosning katta piramidal hujayralaridan iborat. Bu hujayralarning yuqori qismidan yo'g'on o'siq-dendrit chiqib, po'stloqning yuza qavatlarida ko'p marta shoxlaydi. Ikkinci uzun o'siq-akson kalta piramidal hujayralardan oq modda ichiga kirib, po'stloq ostidagi yadrolarga yoki orqa miyaga yo'l oladi.

VI qavat - multiform qavat bo'lib, uchburchak va dugsimon hujayralardan iborat.

**Katta yarim sharlar po'stlog'ining neyronlari va mintaqalari.** Miya po'stlog'ining turli qiamlarida joylashgan neyronlaniing funksiyasiga ko'ra, po'stloq sathi uchta mintaqaga bo'linadi: sensor (sezish), motor (harakat) va assotsiativ mintaqalar.

Afferent yo'llarning uchinchi neyronlaridan chiqadigan aksonlar qaysi neyroniarda tugasa, o'sha neyronlar birlinchi guruhga kiradi. Bu neyronlar ko'ruv do'mboqlarining yadrolaridan katta yarim shariar po'stlog'iga keluvchi afferent impulslarni qabul qilgani uichun sensor neyronlar deb ataladi. Sezish (sensor) miniaqlarda joylashgan neyronlar to'plami odam tanasining barcha sezish a'zolarining oliy markazi hisoblanadi. Bu markazlar teri, ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish kabi sezgi a'zolarining retseptorlaridan impulslar qabul qiladi. Asosan yulduzsimon neyronlar shunday funksiyani o'taydi, bunday neyronlar po'stloq sensor sohalarining III va IV qavatlartda ayniqsa ko'p.

Afferent neyronlaming uchinchi neyntnlari talamus yadrolari va unga taqalib turgan tuzilmalar orqali po'stloqga o'tib ketadi. Yarim sharlar po'stlog'ining asosan afferent impulslar ketadigan qismlarini I.P.Pavlov analizatorlarning markaziy bo'limlari deb atagan. Ko'pgina analizatorlarning, masalan, teri, bo'g'im-mushak (kinestetik), visscral analitzatorlarning markaziy bo'lirlari, ya'ni miya po'stlog'idagi vakilligi bir-birini qoplaydi. Analizatorlarning markaziy bo'limlari joylashgan po'stloq sohalarini katta yarim sharlar po'stloqning sensor mintaqalari deb atash rasm bo'lган. Bu mintaqalar periferik retseptor maydonlarning yarim sharlar po'stlog'idagi funksiyasidan iborat. Shu sababli ularni proyeksiyon mintaqalar ham deyitadi.

Bosh miya katta yarim sharları po'stlog'ini juda ko'p olimlar tekshirib, miya po'stlog'ida ta'sirni qabul qilib olish, harakat va asosiativ funksiyalar bajarilishini aniqlanganlar. Hayvonlarda bosh miya po'stlog'i ayrim qismlarini olib tashlash va shartli refleks usuli bilan olingan ilmiy ma'lumotlar natijasida miya po'stlog'ida tashqi dunyodagi ta'sirotlami qahul qiluvchi va organizmdagi turli funksiyalarning asab markazlari joylashganligi isbotlangan.

Miya po'stlog'ida asab markazlari juda ko'p bo'lib, ular morfologik, fiziologik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Masalan, uning ensa qismida (17, 18, 19, 20, 21, 22 maydonlar) ko'rish ta'sirlarini qabul qiladigan **ko'rish markazi** joylashgan. Chakka mintaqasida (41, 42 tnaydonlar) Kortiyev a'zodan kelayotgan ta'sirni qabul qiluvchi **eshitish markazi**, oldingi markaziy

pushtada **harakat asab markazlari** (4, 6 maydonlar), keyingi markaziy pushtada **sezishning oliv markazi** joylashgan. Bulardan tashtqari, miya yarim sharlarining 44, 45, 6, 39, 41, 42 maydonlari bilan bog'langan nutq-eshitish, nutq-harakat, nutq-ko'rish va boshqa analizatorlarning og'zaki va yozma nutq bilan bog'liq bo'lган asab markazlari joylashgan.

## 14 – Mavzu. Oliy nerv faoliyat fiziologiyasi.

### Asosiy savollar.

1. Asab tizimi funksiyalari va neyronlarning tasnifi.
2. Asab tolalarining xossalari.
3. Neyronlarning reflektor faoliyati va refleks turlari.
4. Asab markazlari.
5. Markaziy asab tizimining uyg'unlashtiruvchi faoliyati.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** retseptor, effektor, kontakt neyronlar, shartsiz va shartli reflekslar, reflector yoy, divergensiya, konvergensiya.

### Birinchi savolning bayoni.

Asab tizimiga organizmda murakkab funksiyalarni bajaruvchi **bosh miya va orqa miya** kiradi.

1. Asab tizimi odam organizmida barcha hujayra, to'qima, a'zolari va funksional tizimlarimng ishini boshqaradi, tartibga soladi va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi. I.P.Pavlov asab tizimining bu funksiyasini **quyi funksiyasl** deb atagan. Bu vazifani orqa miya va bosh miyaning quyi qismlarida (uzunchoq, o'rta, oraliq miya va miyachada) joylashgan asab markazlari bajaradi.

2. Asab tizimi organizmni tashqi muhit bilan bog'laydi, muhit sharoitiga moslashuvini ta'minlaydi. Tashqi muhit ta'sirida, atrofdagi boshqa odamlar bilan munosabati natijasida **odamda** paydo bo'lган fikrash, fikrni bayon etish, bilim olish, hunar o'rganish va ularni esda saqlash kabi yuksak insoniy xususiyallar ham asab tizimining ana shu ikkinchi funksiyasiga kiradi. I.P.Pavlov asab **tizintining bu** funksiyasini **oliv asab faoliyati** deb atagan. Asab tizimining bu funksiyasmi uning yuqori qismida (bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida) joylashgan asab markazlari bajaradi.

3. **Bosh miya** yarim **shartar po'stlog'i** ruhiy faoliyatning asosiy a'zosi hisoblanadi. **Asab** impulslarni bosh miya **yarim** sharlar po'stlog'i neyronlariga yelib **borishi** natijasida hissiyot tuyg'usi hosil bo'ladi, qaysiki odamda ong va tafakkur jarayonlarning asosи hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining neyronlari **retseptor, effektor** va **kontakt neyronlarga** bo'linadi.

**Qo'zg'alishni** qabul qilib, periferik refseptorlardan markaziy asab **tizimiga** o'tkazadigan bipolar asab hujayralari **retseptor neyronlar** deb ataladi. Bu neyronlarning tolalari **markaziy** asab tizimidan tashqatida orqa miya tugunlarida yoki bosh miya tugunlarida joylashgan bo'ladi. Reseptor neyronning uzun o'sig'i periferiyaga borib, qabul qiluvchi asab oxirgi-retseptorni hosil qiladi. Bu o'siq periferiyadati qo'zg'alish impulslarini olib ketadi. Reseplor neyronning ikkinchi o'sig'i orqa miyaga yoki uzunchoq miyaga kiradi.

Markaziy asab tizimining bevosita retseptorlardan omas, balki pastroqda joylashgan neyronlar orqali impuls oladigan ba'/i neyronlari ham retseptor neyronlariga kiradi. Masalan, k□ruv do'mboqlaridagi (thalamiis) neyronlar, reLseplor neyronlar har xil sezgilarni yuzaga chiqaruvchi impulsami yetkazib bergani uchun ko'pincha **sensor**, yoki **sezuvchi neyronlar** deb ataladi.

Markaziy asab tizimining **effektor neyronlari** periferik a'zo va to'qimalarga impulslar yuboradi. Effektor neyronlaming uzun akslonlari qo'zg'alishni periferiyaga o'tkazadi. Effektor neyronlarning ba'zilari skelet mushaklariga beradigan harakatlantiruvchi asab tolalarini hosil qiladi; bunday neyionlar **motoneyronlar**, yoki **harakatlanliruvchi** neyronlar deb ataladi.

**Kontakt**, yoki **oraliq, kiritma neyronlar** markaziy asab **tizimida** joylashgan bo'lib retseptor va effektor asab hujayralarini bir-biriga bog'laydi. Ular yuzaga chiqaradigan samaraning xarakteriga qarab, **qo'zg'atuvchi va tormozlovchi neyroolarga** bo'linadi.

### *Ikkinchı savol bayoni.*

Asab tolasi, har bir lirik to'qima singari, qo'zg'alish va ta'sirotni o'kazish xususiyatiga ega. Agar mushak bilan birlashgan asabning biror joyi elektr toki bilan ta'sirlanadigan bo'lsa, asab qo'zg'alib, qo'zg'alishni mushakga o'tkazadi va natijada mushak qisqaradi.

Asab tolasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

**1. Asab tolasi qo'zg'alishni o'tkazish uchun butun bo'lishi kerak.** Asabni kesish yoki uni **qattiq** bog'lash natijasida asabdan qo'zg'alish o'tmay qoladi. Asabning butunligi buzilgandagina emas, uning funksiyasi buzilgan vaqtida ham u qo'zg'alishni o'tkazmay qo'yishi mumkin. Masalan, asab **sovutilganda** yoki **isitilganda, zaharlanganda** va qon bilan yaxshi ta'min etilmaganda ham qo'zg'alish o'tmay qoladi.

**Demak**, asabdan qo'zg'alish o'tishi uchun u buzilmagan, shikastlanmagan, ya'ni butun bo'lishi kerak. **Bu asabning fiziologik butunligi qonuni deyiladi.**

**2. Ikki tomonlama o'tkazish qonuni.** Asab totasi qo'zg'alishni ikki tomonlama-markazdan periferiyaga (atrofga) va periferiyadan markazga o'tkaza oladi. Asab tolasi markazga intiluvchi yol markazdan qochuvchi tola bo'lishidan qat'i nazar unga ta'sir etilsa qo'zg'alish ikki tomonga tarqalib ketadi. Asab tolasining bu xossasini atoqli rus olimi R.I.Babuxin (1877) birinchi bo'lib kashf etgan.

**3. Ajratib o'kazish qonunu.** Periferik asab tizimi ko'pgina ayrim asab tolalaridan iborat; bu tolalar hammasi bir asab ustunida boradi. Asab ustunidan xilma-xil asab tolalari, ya'ni markazga intiluvchi va markazdan qochuvchi asab tolaari baravar o'tishi mumkin. Ammo bir asab tolasidasi o'tadigan qo'zg'alish qo'shni asab tolalariga o'tmaydi. Qo'zg'alish asab tolasidan yakka, ajralgan holda o'tganligi tufayli odam juda nozik ayrim harakatlarni bajara oladi. Masalan, rassomning suratlar chizishiga, musiqachining murakkab musiqa asarlarini ijro etishiga, jarrohning eng nozik jarohlik qilishiga sabab shuki, har bir lola asab impulsni mushakka ajratib o'tkazadi va shunday qilib markaziy asab tizimi mushak harakatlarini uyg'unlashlira oladi. Qo'zg'alish boshqa tolalarga o'ta olganda edi, ayrim mushak qisqarishi mumkin bo'lмаган edi, har bir qozg'alishda xilma-xil mushaklar tartibsiz qisqargan bo'lar edi.

Markaziy asab tizimi neyronlarning yig'indisidir. Uni ko'ndalang kesishda rangi bir-biridan farq qiladigan ikki qavatni ko'rish mumkin: bu qavatlardan biri kulrang, ikkinchisi esa oq bo'ladi. Bu ikki modda rangiga qarab **kulrang modda va oq modda** deb ataladi. Kulrang modda asab hujayralarining tana (soma) sidan va oq modda asab o'siqlaridan akson va dendritlardan tashkil topgan.

O'rta yoshdagi odamlarda bosh miya og'irligi 1100 g dan 2000 g gacha, erkaklarga o'rta hisobda 1394 g ni, ayollarda esa 1245 gni tashkil etadi. Bosh miya og'irligi va hajmi kalta odamlarda (20 yoshdan 60 yoshgacha) o'zgarmaydi, 60 yoshdan keyin kamaya boradi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalarda bosh miya og'irligi o'rta hisobda 390 g, qiz bolalarda esa 355 g bo'ladi. 9-10 oylik chaqaloqlarda miya og'irligi ikki baravar, 3-4 yitishga yetganda 3 baravar ko'payadi. 7 yoshdan keyin miya og'irligi va hajmi asta-sekin oshaveradi. 20-29 yoshda u erkaklarda 1355 g, ayollarda esa 1220 g bo'ladi.

### *Uchinchi savol bayoni.*

Markaziy asab tizimi faoliyatining asosiy va o'ziga xos belgisi reflekslarni yuzaga chiqarishdir. I.P.Pavlov bu haqda quyidagilarni yozgan edi: "Murakkab organizm hayotida refleks eng muhim va eng ko'p uchraydigaa asab hodisasidir. Organizm qismlarining doimiy, to'g'ri va aniq o'zaro nisbatli va butun organizmning tevarak-atrofldagi sharoitga munosabati refleks yordamida qaror topadi».

«Refleks» terminini fiziologiyada birinchi marta fransiyalik olim Rene Dekart ishlatgan. Refleks - tashqi yoki ichki muhit o'zgarganda retseplorlarning ta'sirlanishiga javoban

organizmning markaziy asab tizimi yordamida ko'rsatadigan qonuniy reaksiyasidir. Reflekslar orqali organizmning biror faoliyati yuzaga chiqadi, yoki to'xtaliladi: mushaklarning qisqarishi yoki bo'shashuvi, bezlar sekresiyasi yoki sekretsiyaning to'xtatishi, tomirlarning torayishi yoki kengayishi va hokazo.

Organizm reflektor faoliyati tufayli tashqi muhitning yoki o'z ichki hoiatining turli o'zgarishlariga tez reaksiya ko'rsata oladi va shu o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Markaziy asab tizimi reflektor faoliyatining ahamiyati I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning klassik asarlarida to'liq ochib berilgan I.M.Sechenov 1862 yildayoq «Bosh miya reflekslari» degan shoh asarida: «Ongli va ongsiz hayotining hamma faoliyatları kelib chiqish usuli jihatidan reflekslardir»-degan edi.

Rellekslar yoki reflektor faoliyati juda xilma-xiltigi bilan tarq qiladi. Reflekslarni bir qancha belgilariga qarab turli guruhlarga ajratish mumkin.

1) Reflekslar organizmga **biologik** ahamiyati jihatdan ovqat, mudofaa, jinsiy, vaziyat va fazoda tanani harakatlantirish reflekslariga bo'linadi.

2) Retseptorlarga **qayerda joylashganiga** qarab, reflekslar: eksteroreseptiv (ya'ni tana sirtidagi retseptorlarning ta'sirlanishidan kelib chiqadigan), vissero yoki **intero retseptiv** (ichki a'zolar va tomirlardagi retseptorlarning ta'sirlanishidan kelib chiqadigan), **proprioretseptiv** (skelet mushaklari, bo'g'imlar, paylardagi reiseptorlarning ta'sirlanishidan kelib chiqadigan) retlekslarga bo'linadi.

3) Reflekslar yuzaga chiqishi uchun miyaning qaysi bo'limlari zarurligiga qarab ham tasnif qilinadi. Reflekslar shu jihatdan **spinal** (orqa miya neyronlarining ishtirokida kelib chiqadigan), **bulbar** (uzunchoq miyaning ishtirokida), **mezensefal** (o'rta miya ishtirokida), **diensemefal** (oraliq miya ishtirokida) va kortikal (bosh miya yarim sharlari po'stlog'idagi neyronlar ishtiroki bilan) yuzaga chiqadigan reflekslarga bo'linadi.

4) Reflekslar ularda qaysi a'zolarning ishliron etishiga, javob reaksiyasining xarakteriga qarab ham ajratiladi. Masalan, refleks **harakatlantiruvchi**, yoki **motor** (bunda mushaklar ijrochi a'zo hisoblanadi), **sekretor** (bezlar sekretsiyasi bilan tugaydigan), **tomir harakatlantiruvchi** (qon tomirlarining torayishida yoki kengayishida namoyon bo'ladigan) rellekslarga bo'linadi. Bu tasnif bir qadar oddiy reflekslarga to'g'ri keladi, zero markaziy asab tizimining oliy bo'limlaridagi neyronlar ishtirokida yuzaga chiqadigan murakkab reflekslarda esa odatda turli ijrochi a'zolar reflektor reaksiyaga tortiladi.

5) Butun organizmning barcha reflektor faoliyati **shartsiz** va **shartli** reflekslarga bo'linadi. Shartsiz reflekslar-organizmning irsiyat yo'li bilan o'tadigan **tug'ma** reaksiyalaridir. Sharlli reflekslar esa, organizmning individual taraqqiyot jarayonida, «turmush tajribasi» asosida paydo bo'ladilar.

Odam oyoq kaftining terisiga ta'sir etilganda oyoq panjasini va barmoqlari refleks yo'li bilan bukiladi - **oyoq kaftining refleksi** deb shuni aytildi.

Mushak payiga bolg'acha yengilgina urilganda mushakning cho'zilishi uning refleklor qisqarishiga sabab bo'ladi. Bu pay-mushak proprioretseptiv refleksidir. Jumladan, **tizza refleksi** (son to'rt boshli mushakning payiga tizza ko'zining pastidan urilganda oyoqning tizzadan keskin yozilishi) va Axill refleksi (Axill payiga urilganda boldir mushakning keskin qisqarishi) shunday reflekslarga kiradi.

Asab tizimi umuman ikki qismidan iborat; **periferik** va **markaziy asab** tizimi.

**Periferik asab tizimiga** orqa miyadan chiqadigan 31 juft sezuvchi, harakatlantiruvchi asab tolalari, bosh miyadan chiqadigan 12 jufl asablar hamda umurtqa pog'onasi atrofida va ichki a'zolarda joylashgan asab tugunchalari kiradi. **Markaziy asab tizimiga** orqa va bosh miya kiradi.

Markaziy asab tizimining segmentar, ya'ni quyi qismiga orqa miya va bosh miyaning pastki qismilari - uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi, o'rta va oraliq miya hamda miyacha kiradi. Markaziy asab tizimining yuqori segment **usti** qismiga bosh miya yarim sharlari va ularning po'stlog'i kiradi.

Bajaradigan funksiyasiga ko'ra, asab tizimi ikki qismiga bo'linadi: I) **somatik asab tizimi**

odam tanasining sezgi a'zolari va skelet mushaklari ishini boshqaradi. 2) **Vegetativ asab tizimi ichki** a'zolar (nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish,ayrish va h.z.) hamda ichki sekresiya bezlari ishini boshqaradi.

Har qanday refleksning yuazaga chiqishida impulslarning retseptordan ijrochi (ishlovchi) a'zoga o'tadigan yo'li o'sha zanjirlardan hosil bo'ladi. Bu yo'1 reflektor yoy deb ataladi.

Refleklor yoyga quyidagilar kiradi: 1) ta'sirotarni qabul qiluvchi retseptorlar; 2) afferent asab tolalari; 3) markaziy asab tizimida joylashgan oraliq neyronlar (sinapslar); 4) efferent asab tolalari; 5) ijrochi (effektor) a'zo.

Agar refleksni yuzaga chiqaradigan reflcktor yoyi bir sinapsdan tashkil topgan bo'lsa, - **monosinaptik reflektor yoy** deb ataladi. Organizmdagi ko'p reflekslarining yuzaga chiqishida ikkita yoki bir nechta sinapslar ishtirok eiatli, shuning uchun bunday reflektor yoylar ko'p neyronli yoki polisinaptik yoylar deb ataladi.

Odam tanasi ta'sirlanganda muayyan refleks kelib chiqadigan sohasi refleksogen mintaqa yoki refleksnmg reseptiv maydoni deb ataladi.

Odam embrionida dastlabki refleklor reaksiyalar ona qornidagi hayot 3-oyining ikkinchi yarmida aniqlanadi. Avvalo bosh refleksogen mintaqalarining, so'ngra qo'1 va tana refleksogen mintaqalarining, eng keyin oyoq refleksogen mintaqalarining ta'sirlanishiga javoban reflektor harakatlar ro'y beradi.

### *To'rtinchı savol bayoni.*

Muayyan refleksni yuazaga chiqarish yoki muayyan funksiyani boshqarish uchun zarur neyronlar yig'indisi asab markazi deb aytiladi. Asab markazlarining joylanishi bosh miya yoki orqa miyaning turli qismlariga ta'sir etish, cheklangan bir qismini yemirish, olib tashlash (ekstirpatsiya) yoki qirqib qo'yish tajribalari asosida aniqlanadi.

Agar asab tolasida impulslar ikki tomonga o'tkazilishi mumkin bo'lsa, markaziy asab tizimida qo'zg'alish faqat bir tomonga tarqalishi, ya'ni retseptor neyrondan—>oraliq neyronlar orqali—> effektor neyronga o'tkazilishi mumkin. Bu hodisa asab markazlarida qo'zg'alishning bir tomonlama o'tkazilish qonuni deb ataladi.

Qo'zg'alish jarayoni asab tolalaridagiga nisbatan asab markazlarida sekinroq o'tkaziladi. Refleks vaqtining, ya'ni retseptor ta'sirlangan paytdan boshlab javob reaksiyasi yuzaga chiqquncha o'tadigan vaqtning nisbiy uzunligi shu bilan izohlanadi. Bu vaqtning refleksning latent (yashirin) davri deb ham yuritishadi. Latent davr davomida quyidagi jarayonlar ro'y beradi: retseptorlar qo'zg'aladi (A), qo'zg'alish markazga intiluvchi asab tolalari orqali asab markazlariga o'tkaziladi (B), qo'zg'alish markaziy asab tizimining ichida bir xil neyronlardan ikkinchi xil neyronlarga o'tkaziladi (V), (qo'zg'alish markaziy asab tizimidan markazdan qochuvchi (efferent) neyronlarga o'tkaziladi (O), qo'zg'alish asabdan ishlovchi asabga (effektorga) o'tkaziladi (D). Shunday qilib, refleks vaqt (R) shu barcha jarayonlar uzunligining yig'indi ifodasidan iborat;  $R=A+B+V+G+D$ ,

Asab markazi ichida qo'zg'alishning afferent neyronga o'tkaziladigan vaqt (V) refleksning chin, yoki markaziy vaqt deb ataladi. Bu vaqtning aniqlash uchun yuqorida aytilgan boshqa barcha jarayonlarga sarf qilingan vaqtning refleksning umumiyligi vaqtidan chiqarib tashlash zarur  $V=P-(A+B+G+D)$ . Masalan, odam tizz.a refleksining vaqtini hammadan kamroq; u atigi 0,0196-0,0238 soniyani tashkil etadi. Bu reaksiyalarning markaziy vaqtini 0,003 soniyaga teng. Ko'zga ravshan yorug'lik tushganda paydo bo'ladigan ko'z yumish refleksining vaqtini uzunroq, u 0,05-0,2 soniyani tashkil etadi.

Qo'zg'alishni sinaps orqali o'tishi quyidagi 3 asosiy jarayondan iborat: 1) asab oxiriga akson orqali kelgan impulsga javoban mediator ishlab chiqaradi; 2) mediator sinaps yorig'i orqali postsinaptik membranaga diffuziyalanib o'tadi; 3) shu mediator ta'sirida qo'zg'atuvchi postsinaptik potensial vujudga keladi. Asab oxiriga impuls kelgan paytdan boshlab, to qo'zg'atuvchi postsinaptik potensial kelib chiqsa boshlanguncha taxminan 0,5 m soniyaga vaqt o'tadi. Asab oxiridan mediator ajralib chiqishi va postsinapiik membranaga diffuziyalanib o'tishi uchun shuncha vaqt kerak. Bu vaqt sinapsda kechikish deb ataladi.

Qo'zg'alishlarning qo'shilishi (summatsiyasi) asab markazlarining o'ziga sos xususiyati bo'lib, uni I.M.Sechenov 1863 yilda birinchi marta tasvir etgan. Qo'zg'alishlarning qo'shilishi shunda ko'rindaniki, periferik retseptorlarning yoki afferent asablarning ikkita yoki bir nechta ta'siroti qo'shilganda refleksni yuzaga chiqaradi, holbuki shu ta'sirotlardan liar biri alohida ilohida rctlcklor reaksiyani yuzaga chiqarishga kamlik qiladi.

Qo'shilishning ikki turi: ketma-ket (vaqtdagi) va masofa (fazodagi) da qo'shilish bor.

1) Asab markaziga bir xil afferent asab lolalari orqali kalta vaqt oralig'ida kelma-ket keluvchi qo'zg'alishlarning o'zaro **ta'siri ketma-ket qo'shilish** deb ataladi.

2) Bir resepfir maydonga kiradigan turli reiseptorlarga ikkita yoki hir necha ta'sirot bir vaqtda ta'sir etsa, qo'zg'alishlar **masofada qo'shiladi**. Masalan, itda **qashinish** refleksining reseptiv maydoni doirasida terining bir-biridan 10 sm uzoqdagi ikki qismi past kuch bilan bir vaqtda ta'sirlansa bu refleks yuzaga chiqishi mumkin. Aksincha, shunday ta'sirotning har biri alohida qo'llanilganda qashinish reffeksini yuzaga chiqarmaydi, bir vaqtda qo'llanilganda esa, reflektor reaksiya ro'y beradi.

Asab markazlari o'ziga keluvchi impulslar ritmini o'zgartira oladi. Bu jarayon transformatsiya yoki qo'zg'alish ritmining o'zgarishi deb ataladi. Afferenl asab yakka ta'sirga javoban, asab markazlarni ishlovchi a'zoga efferent asab tolalari orqali muayyan ritm bilan ketma-ket boruvchi bir qancha impulsurni yuboradi. Boshqa so'z bilan aytganda, miltiqdan bitta o'q otilganiga asab markazlari pulemyotdan o'qqa tutish bilan javob qaytaradi.

**Markaziy tormozlanish hodisasini** I.M.Sechenov 1862 yilda kashf eigan. Uning asosiy tajribasi quyidagicha edi. Baqa bosh miyasi ko'ruv do'mboqlari sohasidan tilinib, kalla yarim sharları olib tashlanadi. Shundan so'ng baqaning keyingi oyoqlarini sulfal kisloia eritmasiga botirib, shu oyoqlarni tortib olish refleksining vaqtı o'lchanadi (Tyurk usuli). Ko'ruv do'mboqlarining qirqilgan joyiga osh tuzi krislali qo'yilsa, yoki miyaning shu sohasiga kuchsiz elektr toki bilan ta'sir etilsa, refleks vaqtı keskin darajada uzayib ketadi. Shu dalillarga asoslanib, I.M.Sechenov baqa bosh miyasining talamus sohasida orqa miya reflekslarini tormozlovchi asab markazlari bor, degan yuksak xulosaga keldi.

Tormozlanish hodisasi markaziy asab tizimidagi barcha bo'limlar faoliyatida muhim rol o'ynashini ingliz olimi Ch.S.Sherrington va rus olimlari N.Ye.Vvedenskiy va A.A.Uxtomskiy hamda amerika olimlari Jordj Ekkls va D.Purpura ko'rsatib berishdi.

Asab markazi juda tez charchashligi bilan asab tolasidan farq qiladi. Ma'lumki, asab tolesi deyarli charchamaydi. Markazga intiluvchi asabning bir qadar uzoq ta'sirlanishi tufayli reflektor jarayon sekin-asta susayadi, keyinchalik esa tamomila to'xtaydi. N.Ye.Vvedenskiy matkazga intiluvchi asabni ta'sirlab, ta'sirot boshlanganidan 10-40 soniya keyin refleks jarayonining susayganligini va tamomila to'xtab qolganligini ko'rgan. Ayni vaqtda u markazga inliluvchi qo'shni asabni ta'sirlab, refleks paydo bo'lishini kuzatgan. Bu kuzatish xuddi markaziy asab tizimining charchashini ko'rsatdi. Markazga intiluvchi asabni ta'sirlab, refleks yo'qotilsa, so'ngra markazdan qochuvchi asab ta'sirlansa, mushak qisqarish bilan javob beradi. Bu tajriba charchashning xuddi markaziy asab tizimida boshlanganligidan guvohlik beradi.

Refleklor jaiayonlari ularni yozaga chiqargan ta'sirot to'xtashi bilan bir vaqtda tamom bo'lmay, orada bir muncha uzun davr o'tadi. Bu hodisa **reflektor ta'sirot qoldig'i** deb ataladi. Ta'sirot qancha kuchli bo'lib, retseptorlarga qancha uzoq ta'sir etgan bo'lsa, reflektor ta'sirot qoldig'i o'shancha uzun bo'ladi.

### *Beshinchı savol bayoni*

Organizmning butun xilma-xil faoliyati, ozgarib turadigan va turli kombinatsiyalarida ko'rindanigan barcha reflektor harakatlari odamning jismoniy mehnat jarayonida qiladigan juda nozik harakatlari faqat markaziy asab tizimining uyg'unlashtiruvchi (koordinatsiya qiluvchi) faoliyati tufayligina yuzaga chiqishi mumkin.

Refleklor yoyni ko'zdan kechirganimizda ikki neyronli va uch neyronli yoy sxemasi bilan tanishdik. Butun organizmda ham qo'zg'algan asab hujayrasi qaysi neyronga bog'langan bo'lsa, qo'zg'alish o'sha neyronga o'tadi va shunday qilib, xuddi zanjirdan yurgandek mushakga yetib

boradi deb o'ylasa, bo'lar edi. Haqiqatan ham bir reflektor reaksiya markaziy asab tizimining g'oyatda murakkab reaksiyasi hisoblanadi. Har bir ayrim paytda organizmga ko'p va xilma-xil ta'sirotlar kelib turadi. Markaziy asab tizimining uyg'unlantiruvchi ahamiyati shundan iborat: organizm bu ta'sirotlarga javoban shu xildagi refleksni yuzaga chiqaradiki, bu refleks muayyan paytda organizmnning u yashab turgan sharoit bilan muvozanatga kelishini ta'minlaydi. Ana shu javob reaksiyalari vaqtida butun organizmdagi ayrim a'zolar yoki a'zo tizimlari bir-biri bilan bog'langan qismlar sifatida baravar va ketma-ket birlashtirish ishlaysdi.

Shunday qilib, uyg'unlik mushak harakatlarning aniq bajarilishini ta'minlaydi, turli tashqi vaziyatlarga moslashgan reflektor reaksiyalarini yuzaga chiqaradi, bu reflektor reaksiyalar harakatlantiruvchi, sekretor, tomir va boshqa komponentlardan tarkib topadi.

Organizmning- harakat qilishdek uyg'unlashgan faoliyati shuncha bog'liqki, organizm biror ta'sirotg'a javoban ham mushaklarini yoki qanday bo'lmasin mushaklarni emas, balki qatiyan ma'lum mushaklar guruxini qisqartiradi. Organizm shu tariqa harakat qilganda yurak-tomir tizimi, nafas a'zolari va boshqa tizimlarning faoliyati o'zgaradi. Ana shu jarayonlarning hammasi harakat reaksiyasini yuzaga chiqarish uchun eng yangi sharoit tug'diradi.

Murakkab ravishda uyg'unlashgan harakatning yuzaga chiqishida po'stloq ostidagi tuzilmalar (orqa miya, uzunchoq miya, miyacha va shu kabilar) gina emas, balki bosh miya po'stlog'i ham qatnashadi. Masalan, jismoniy mehnat jarayonida qilinadigan harakatlarni yoki sportchi qiladigan harakatlarni uyg'unlashlirishda va shunga o'xshashlarda bosh miya po'silog'inining shartli reflektor faoliyati ayniqsa katta ahamitga egadir. Gap shundaki, harakatlarning juda ko'p shakllari shartli refleklor harakatlardan iborat, harakatlarning kichik bir guruhingina nasldan qolgan, ya'ni shartsiz reflektor harakatdan iboratdir.


Markaziy asab tizimida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari uzlusiz ravishda bir-biriga ta'sir etib turadi, shunga ko'ra g'oyatda murakkab, uyg'un harakallar refleks yo'li bilan yuzaga chiqadi.

Har qanday bo'g'im ikki guruh mushaklar borligi tufayli harakatlana oladi. Bu mushaklar bo'g'imdan oshib o'tgan bo'ladi va qisqarganda harakatni yuzaga chiqaradi. Bu jufl mushaklar yordami bilan faqat bukiladigan va yoziladigan eng oddiy bo'g'imni olaylik. Shu mushaklardan biri qisqarib, bo'g'imni bukadi, ikkinchisi qisqarib yozadi.

Qu'l-oyoq bukilganda bukuvchi mushak qisqarib, ayni vaqtida yozuvchi mushakni tortib cho'zadi, deb o'ylasa bo'lar edi. Ammo yozuvchi mushakning payi suyakdan ajralib qo'yilsa, yozuvchi mushakning baribir bo'shashishi tekshirishlarda ma'lum bo'lган. Bu tajriba markaziy asab turli funksiyalarini o'taydigan mushaklar (bu misolda bukuvchi va yozuvchi mushaklar) bilan bog'langan qismlarida qo'zg'alish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham yoz beradi, degan g'oyani tasdiqladi. Qo'l-oyoq bukilganda yozuvchi mushaklar markazida qo'zg'alish kelib chiqadi, lekin shu bilan bir vaqtida yozuvchi mushaklar markazida tormozlanish jarayoni ro'y beradi.

Bir qo'l yoki oyoqdagi mushaklarning markazlari o'rta sidagina cmas, qarama-qarshi ikki qo'l-oyoqdagi mushaklarning markazlari o'rta sidaga ham muayyan o'zaro munosabatlar bor. Odam yurganda goh bir oyog'i, goh ikkinchi oyog'i bukiladi: ayni vaqtida bir tizza bukilib, ikkinchi tizza esa yozilgan deyaylik, shunga ko'ra, chap oyoqni bukuvchi mushaklarning markazi qo'zg'alish holatida bo'ladi, yozuvchi mushaklarning markazi esa tormozlangan bo'ladi. Qarama-qarshi tomonda teskari hodisa ko'rildi; o'ng oyoqni yozuvchi mushaklarning markazi qo'zg'alib, bukuvchi mushaklarning markazi tormozlangan bo'ladi.

N.Ye.Vvedenskiy kashf etgan shunday bir-biriga bog'liq retsiproq yoki payvasta innervatsiya tufayligina yurish mumkin bo'ladi. Bunda oyoqlarning tegishli markazlarida bo'ladi o'zaro munosabatlar 113-rasmida ko'rsatilgan.



**113-rasm. Resiprok tormozlanish (Ch.S.Sherrington bo'yicha).**  
**Harakatlarning uyg'unlashuvini ko'rsatadigan tasvir:** R-yozuvchi mushaklar, S-bukuvchi mushaklar, Sr-yozuvchi mushaklarning markazi, Ss-bukuvchi mushaklarning markazi. Qo'zg'algan neyronlar qizil rang va tormozlangan neyronlar kutrang chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

Yuqorida tasvir elilgan bir-biriga bog'liq innervatsiya barqaror va doimiy bir narsa emas. Bosh miya ta'sirida bu munosabatlar sharoitga qarab o'zgarishi mumkin. Odam zarur topganda ikkala oyog'ini bir vaqtida bukishi, sakrashi mumkin va h.k.z.

Bosh miya shartli reflekslar asosida ishslash yo'li bilan mavjud nisbatlarni o'zgartira, ya'ni turli kombinasiyalar barpo eta oladi, odamning jismoniy mashqlarda murakkab harakatlarni qilishi yoki suzishdan, akrobatik mashqlarda va shu kabilarda tegishli harakatlarni bajarishi bosh miyaning shu qobiliyatiga bog'liq.

Shunday qilib, uyg'unlashgan murakkab harakailar yuzaga chiqishi uchun markaziy asab tizimining hamma bo'limiari kelishib ishlashi keiak. Bosh miya po'stlog'i esa ana shu bo'limlarning kelishib ishlashini ta'minlaydi.

**Divergensiya (tarqalish).** Xilma-xil retseptorlar bilan bog'liq bo'lган afferent neyronlar orqa miyaga kirib turli tarmoqlarga tarqaladi, ya'ni axborot yetkazuvchi yo'llarni hosil qiladi. Divergensija tufayli afferent axborot bir vaqtning o'zida matkaziy asab tizimining turli qismlariga yetib boradi. Nafaqat afferent neyronlarning aksoni, balki oraliq (assotsiativ) neyronlarning aksonlari ham kollateral hosil qiladi. Natijada markaziy asab tizimining jarayonlari - qo'zg'alish yoki tormozlanishning tarqaladigan yo'llari kengayadi. Bu holat markaziy asab tizimida tarqalishi (irradiatsiyasi) uchun asos yaratadi.

Efferent yo'llar ham divergensiyaga uchraydi. Masalan, bitta harakatlantiruvchi neyron aksoni 10-15 dan 1500-2000 gacha shoxchalar hosil qiladi, ana shu miqdordagi mushak tolalarini innervatsiya qiladi.

**Konvergensiya (qo'shilish).** Markaziy asab tizimiga turli afferent yo'llar bilan keluvchi qo'zg'alish va tormozlanish asab impulsulari oraliq va efferent neyronlarga tushib yig'ilishini konvergensiya deyiadi. Ikki yoki undan ko'proq xilma-xil (polisensor) afferent yo'llaridan keluvchi axborotlar (eshitish, ko'rish, hidlash, harakat, ichki a'zolardan va h.k.z) larning bir afferent neyroniga qo'shilishi natijasida **konvergensiya** kuzatiladi. Masalan, bosh miya yarim sharları po'stlog'ida joylashgan teppa va harakat mintaqalari **asosiy konvergent apparat** hisoblanadi (Ch.S.Sherrington).

## **15 – Mavzu. Sensor tizimlar (retseptorlar-analizatorlar) fiziologiyasi.**

### **Asosiy savollar.**

1. Sezgi a'zolari.
2. Reseptorlarning qo'zg'alish mexanizmi.
3. Analizatorlarning umumiy tuzilishi.
4. Reseptorlar adaptasiyasi.
5. Og'riqni sezuvchi reseptorlar.
6. Termoreseptorlar va ularning adaptasiyasi.
7. Taktikl va bosim resepsiyasi.
8. Hid bilish analizatori.
9. Ta'm bilish analizatori.
10. Eshituv va muvozanat analizatori.
11. Ko'ruv analizatori.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** analizitor, mexanoreseptorlar, taktikl reseptorlar, termoreseptorlar, xemoreseptorlar, fotoreseptorlar, og'riq reseptorlar, elektroreseptorlar, reseptorlar adaptasiyasi, tashqi quloq, ichki quloq, ko'z soqqasi, ko'z akkomodasiyasi, qorachiq, to'r parda.

### **Birinchi savolning bayoni.**

**Sezgi a'zolari (analizatorlar yoki sensor tizimlar)** uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib, murakkablanish, ta'sirotning alohida turlariga moslashib borgan. Evolutsiya davomida odam va hayvonlar organizmida sezuvchi hujayralar retseptorlara maxsuslashgan to'plamlari hosil bo'lgan.

I.M.Sechenov harakat analizatorini o'rganib, sezish reiseptorlari bilan harakat retseptorlari bir-biriga bog'liqligini aniqlagan. Uning fikricha, odamning sezgi a'zolari hayvonlar sezgi a'zolaridan tubdan farq qiladi.

Keyinchalik I.P.Pavlov analizatorlarning morfumksional tuzilishini o'rganib chiqdi. Uning fikricha, ta'sirlovchilar ta'sirini qabul qilishda va asab impulslarini o'kazishda qatnashadigan neyronlarning butun majmuasini, shuningdek, bosh miya po'stlog'inining sensor (sezuvchi) neyronlarini yagona tizim hisoblab, ularni "analizator" deb nomlash mumkin.

Ma'lumki, asab oxirlari-retseptorlarning ta'sirlanishiga javohan albatta asab tizimining ishtiroki bilan organizmda ro'y beradigan reaksiyalar refleks deb ataladi. Turli retseptorlar tuzilmasi va funksiyalari bilan bir-biridan farq qiladi. Ulardan bir qismi muayyan ta'sirotlarni sezishga maxsus moslashgan a'zolarda, masalan, ko'zda, quloqda bo'ladi. Ko'ruv retseptorlari ko'zning to'r pardasida bo'lib, ko'zning optik tizimi yorug'lik nurlarini to'r pardasida fokuslaydi. Quloq tovush tebranishlarini eshituv retseptorlariga o'tkazadi. Turli retseptorlar o'zları uchun adekvat bo'lgan ta'sirtovchilar ta'sirini sezishga moslashgan.

Relseptortarning quyidagi turlari bor; **mexanoretseptorlar - tegishni** sezadigan **taktikl retseptorlar**, cho'zilish va bosilishni sezadigan-**pressoretseptorlar** va **baroretseptorlar**; tovush tebranishlarini sczadigan-**fonoretseptortar** yoki **vestbuloretseptorlar**; **xemoretseptorlar-muayyan** kimyoviy birikmalarning ko'rsatadigan ta'sirini sezadi; **fotoretseptorlar-yorug'lik** ta'sirini sezadi; **osmoretseptorlar-usmotik** bosimning o'zgarishini sezadi.

Retseptorlar analizatorning periferik qismidir. Afferent neyronlar va o'tkazuvchi yo'llar analizatorning markaziy oxirlari hisoblanadi. Morfologik tafovut va fizjologik ixtisoslashganligi jihatdan farq qiladigan ko'pgina retseptor apparatlar hor. Retseptorlarning morfo-fiziologik tafovutiga va retseptortardan ko'pchiligining ixtisoslashgan ko'p hujayrali a'zolar-resepsiya a'zolarida ekanligida namoyon bo'ladi. Resepsiya a'zolari ta'sirotlarni retseptor hujayralariga yoki asb oxirlariga o'tkazishga moslashgandir. **Retseptorlarning ixtisoslashganligi** shunda ko'rindiki, birinchidan ular ta'sirotlarning muayyan turi - yorug'lik, tovush, kimyoviy, mexanik, issiq-sovuq va shunga o'xshash ta'sirotlarni qabul qilishga moslashgan, ikkinchidan,

ular juda yuksak darajada qo'zg'aluvchan bo'ladi, ya'ni minimal miqdordagi tashqi ta'sirot energiyasi bilan qo'zg'ala oladi.

Retseptorlar **ichki** va **tashqi** retseptorlar deb ikkita katta guruhga bo'linadi. Ichki retseptorlar-interoretseptorlar yuboradigan impulslar ichki a'zolarning holati haqida (**visseroretseptorlar**) va tana hamda undagi ayrim qismlarning fazodagi vaziyati, harakati to'g'risida (**vestibuloretseptorlar** va **proprioretseptorlar**) xabar berib turadi. Tashqi retseptorlar-**eksteroretseptorlar-tashqi** olamdag'i narsa va hudisalarning xossalari, ularning organizmga ta'siri to'g'risida signal berib turadi.

Ba'zi retseptorlar organizmdan ancha olisdagi narsalardan keluvchi ta'sirotlarni qabul qila oladi. Bunday retseptorlar **distant** retseptorlar deb ataladi. Ularga ko'rvu, eshituv, hid biluv reseptorlari kiradi. Boshqa-kontakt retseptorlar faqat bevosita o'ziga tegib turgan, ya'ni retseptor tizimi yaqin yotgan narsalardan keluvchi ta'sirotlarni qabul qila oladi.

Shunday qilib, retseptorlar-analizatorning **periferik** bo'limi hisobtanadi, Affereni (sezuvchi) neyronlar va o'tkazuvchi yo'llar analizatorning **o'tkazuvchi** bo'limini lashkil etadi. Bosh miya po'stloqining retseptorlardan qo'zg'alishni qabul qiladigan qismlari analizatorning **markaziy oxirlari** deb ataladi.

Analizatorning periferik bo'limi (retneptor) maxsus asab tuzilmasi bo'lib, tananing turli qismlarida (teri, pay, ko'z, qulqoq, burun, til, ichki a'zolar, qon tomirlari va hokazo) joylashgan. Retseptorlarning soni juda ko'p, masalan, terining  $1 \text{ sm}^2$  sathida 200-400 tagacha, butun sathida esa 8 mln ga yaqin retseptor bor. Barcha ichki a'zolarida taxminan 1 mlrd ga yaqin retseptor mavjud. Tashqi va ichki muhitda paydo bo'lgan axborot retseptorlar orqali qabul qilinadi.

Analizatorlarning o'tkazuvchi qismi-bu sensor (sezuvchi) asab tolasidan iborat bo'lib, u reiseptordan ta'sirotni qabul qilib bosh miya po'stlog'inining proyeksiyon mintaqasiga yetkazadi.

Analizatorning markaziy (po'stloqdagi) qismi bosh miya po'stlog'inining turli sohalarida joylashgan va sezuvchi asab markazlaridan iborat. Bu markazlarda muayyan sezgi a'zolaridagi retseptorlardan kelgan ta'sir tahlil qilinib, ularning mazmuniga ko'ra (sintez) javob reaksiyasi hosil bo'ladi.

Reiseptorlarning adekvat ta'sirlovchilariga qarab: **1. Mexanoretseptorlar** ta'sirlovchining mexanik energiyasini qabul qilshga moslashgan. Bunday reiseptorlar teri, yurak-tomir tizimi, ichki a'zolar, tayanch harakat apparati, eshituv va muvozanatni saqlash tizimlariga xos.

**2. Termoretseptorlar** - harorat o'zgarishini sezadi. Issiqni va sovuqni sezuvchi termoretseptorlarning ko'p qismi terida joylashgan. Ichki a'zolar va markaziy asab tizimida ham shunday retseptorlar bor.

**3. Xemoretseptorlar** - kimyoiy omillar ta'siriga sezgir. Ular ta'm va hid sezuvchi sensor tizimlarning chet qismini tashkil qiladi. Bu tipdagi retseptorlar qon tomirlar tizimining turli qismlarida va ba'zi to'qimalarda ham uchraydi.

**4. Fotoretseptorlar** - nur energiyasini qabul qiladi. Bu retseptorlar yorug'lik energiyasini ajratish va rang ko'rish imkonini beradi.

**5. Og'riq retseptorlari** og'riqni paydo qiluvchi ta'sirotlarni qabul qiladi. Bu sezgi organizmdagi retseptorlarning deyarli hammasiga o'ta ta'sir qilganda paydo bo'ladi.

**6. Elektroretseptorlar** - elektromagnit to'lqinlariga sezgir bo'lib, baliqlar va ba'zi amfibiylarning yon chizig'ida topilgan. Bularga elektrik energiyasini sezuvchi a'zolarining retseptorlari kiradi.

### *Ikkinchı savol bayoni.*

Hamma sensor tizimlar qo'zg'aluvchan bo'ladi. Retseptorlar ta'sirlangancha ularda ta'sirlovchi va retseptor tuzilmasining o'rtasidagi **yordamchi tuzilmalarida** asab impulsleri paydo bo'ladi. Yordamchi tuzilmalar orqali ta'sirot kuchi (energiyası) asab impulslarga aylanadi, bu **transformasiya** deyiladi. Yordamchi tuzilma orqali tashqi ta'sirot reseptiv a'zogacha yetib borib, uning xarakteri aniqlanadi. Bu molekular darajada o'tadigan ta'sirot bilan retseptor o'rtasidagi **birinchi o'zaro ta'sirlanish bosqichi deyiladi**.

Retseptor tomonidan ta'sirlovchini qabul qilib olish jarayoni uning biologik ahamiyatini

aniqlash natijasida **membrana o'tkazuvchanligi** keskin o'zgaradi. Bu retseptor faoliyatining **ikkinchi bosqichi** deyiladi. Bu davr davomida membrana orqali  $\text{Na}^+$  ionlarining o'tkazuvchanligi ortib, mahalliy elektrik potensiali hosil bo'ladi, buning natijasida hosil bo'ladigan potensial **retseptor potensiali** deb ataladi.

Ta'sir potensialining tarqalishi membrananing qarshilik ko'rsatishiga va hajmiga bog'liq bo'lib, elektroton deb ataladi. Shu sababli asab tolalarida retseptor potensialimng sekinlik bilan tarqalishi **elektrotonik tarqalish** deb ataladi. Retseptor potensialining elektrotonik tarqalishi, nevron dendritlari va soma orqali aksonga berilishi relseptor faoliyatining **uchinchi bosqichi** hisoblanadi.

Nihoyat, **to'rtinchchi bosqich** retseptorlarda ta'sirotni asab impulslarga aylanishidan iborat. Hosil bo'lgan axborot impulslari afferent asab tolalari orqali markaziy asab tizimining tegishli sensor mintaqalariga yetkazib beriladi.

### *Uchinchi savol bayoni.*

**1. Ko'p qavatlilik** - analizator tarkibida bir necha qavat nevronlar mavjud. Boshlang'ich nevronlar retseptorga qarashli, oxirgi nevronlar esa miya po'stlog'ining assotsiativ mintaqasidagi nevronlarga konvergensiya bo'ladi. Ko'p qavatlilik bosh miya po'stlog'ining polimodal (turli xarakterga ega bo'lgan) tabiatini ifodalaydi, chunki polimodal signallarning birlamchi afferent sintezi markazi assotsiativ mintaqalar hisoblanadi.

**2. Ko'p kanallik** - organizmning tashqi va ichki muhitidan turli kanallar orqali bir-biriga o'xshamagan turli polisensor informatsiya qabul qilinadi, qaysiki, bosh miya po'stlog'ining turli mintaqalariga yetib boradi. Ammo, oxirgi umimiyy yo'ldan ayni vaqtida organizm uchun kerak bo'lgan eng asosiy va zaruriy axborot o'tadi.

**3. Yonma-yon qavatlarda** asab elementlarining miqdori teng emas. Masalan, ko'rur tizimida reiseptorlar soni 130 million, ko'zdan chiqadigan asabni tashkil qiluvchi nevronlarning soni esa faqat 1 mln 250 mingga yaqin yoki 100 marotaba kam. Bu nisbat miyaning har qaysi yakka retseptorlarda vujudga kelgan impulsni qabul qila olmasligini ko'rsatadi. Buning biologik ahamiyati shimdaki, informatsiya markaziy asab tizimiga yetguncha bir necha marta saralanadi. Ko'p sonli qavatdan unsurlari kam qavatga o'tish jarayonida biologik nuqtayi nazardan ikkinchi darajadagi informasiya olib qolinib, o'tkazilmaydi. Bu torayib boruvchi "voronka" ("Sherrington voronkasi") miyaga o'tkaziladigan informatsiyani kamaytiradi va muhim axborotlarnigina o'tkazadi.

**4. Analizator tuzilmalarining vertikal va gorizontal bo'yicha tarqlanishi.** Bir bo'limda joylashgan analizator elementlarining funksional hossalari har xil bo'lishi munikin. Masalan, ko'rur analizatorining retseptor bo'limi rang sezuvchi kolbachalardan va yorug'lik darajasini sezuvchi tayoqchalardan tashkil topgan. Bu farqlanish gorizontal farqlanish deyiladi.

Retseptorlar **adekvat ta'sirlovchilarga**, ya'ni evolutsiya davomida qaysi tasirotlarni sezishga maxsus moslashgan bo'lsa, o'sha tasirotlarga nisbatan juda yuksak darajada sezuvchanligi bilan farq qiladi. Qo'zg'alish ro'y berishi uchun zarur bo'lgan minimal miqdordagi energiyaga, ya'ni ta'sirot bo'sag'asiga qarab retseptorlarning qo'zg'aluvchanligi o'zgaradi.

**Retseptorlar noadekvat ta'sirlovchilar** ta'sirida ham qo'zg'alishi mumkin. Masalan, ko'zga mexanik kuch (zarb) ta'sir etganda yorug'lik sezgisi kelib chiqadi ("kozim chaqnab ketdi" degan ibora shundan olingan), shu ta'sirlovchilar qulog' quluvchanligi bilan farq qiladi. Lekin noadekvat ta'sirlovchilar ta'sir etganda retseptorlar qo'zg'aluvchanligi ko'p marta kamroq bo'lib chiqadi.

Retseptorlar qo'zg'aluvchanligi doimo bir xilda turmaydi. U bevosita retseptorlar funksional holati o'zgarganda, shuningdek markaziy asab tizimidan keluvchi impulslar ta'sirida ham o'zgarishi mumkin, bular retseptorlarning sezuvchanlik darajasini o'zgartiradi.

### ***To'rtinchi savol bayoni.***

Retseptorlarga ta'sirlovchilar muntazam ta'sir etib hamma vaqt ularning qo'zg'aluvchanligini bir darajada saqlab tura oladi. Ko'proq retseptorlar uzoq muddat ta'sirlanganda ularda qo'zg'aluv u yoki bu darajada susayadi. Bu hodisa **retseptorlar adaptatsiyasi** deyiladi. Buning asosida retseptorlarda va analizatorlarning po'stloqdagi markazlarida qo'zg'atiladigan murakkab fiziologik jarayonlar yotibdi. Masalan, tamaki chekilgan xonaga kirib, kishi bir necha daqiqadan so'ng tamaki hidini sezmay qoladi, chunki hidlov retseptorlari bu omilga moslashadi - adaptatsiya bo'ladi.

Barcha retseptorlar ikki guruhga: I. tezlik bilan adaptatsiya bo'ladigan yoki fazali retseptorlar; 2. sekinlik bilan adaptatsiya bo'ladigan yoki tonik retseptorlar. Bulardan tashqari yana oraliq retseptorlar ham mavjud.

**Fazali retseptorlar** ularning membrana deformasiyasining avvalida yoki oxirida sust (taktil retseptorlar) va kuchli (fonoretseptorlar) mexanik ta'sirlovchilarining ta'siriga javoban qo'zg'aladi. Fazali retseptorlarning yaqqol misoli Pachini tanachalaridir, qaysiki, bor yo'g'i bir-ikki impuls transformatsiya qila oladi va ta'sirlovchi ta'sirining oxirida yana bir-ikki tasir potensialini yuzaga chiqaradi.

**Tonik retseptorlar** esa membrana deformatsiyasi davomida qo'zg'aladi. Masalan, retseptorlarning davomli va sekin cho'zilishi va ularning faolligi bir necha soatlar davomida saqlab qolishi mumkin.

**Oraliq yoki fazali-tonik** retseptorlarning qo'zg'alishi ta'sirotning ta'sir qilish vaqtiga bog'liq, ya'ni ta'sirot qanchaki ko'proq ta'sir qilsa, oraliq retseptorlarning qo'zg'alishi ham o'shancha davomliroq bo'ladi. Biroq retseptor potensialining amplitudasi va tezligi ta'sirotning davomiyligiga qarab pasayib ketaveradi. Bu retseptorlarning potensiali ikki komponentdan iborat boshlang'ich fazali va keyingisi-tonik komponentdir.

Shunday qilib, organizmning ixtiyorida uch tipdag'i retseptorlar mavjud, ular orqali har bir jarayonning avvalidan, o'rtaidan va oxiridan axborot olish mumkin bo'ladi.

Adaptatsiya, ya'ni ta'sirot kuchiga moslashish deyarli barcha retseptorlarning umumiy xossasidir. Adaptatsiya doimo ta'sir etib turgan ta'sirlovchiga nisbatan sezgirlikning kamayishida namoyon bo'ladi. Doimiy ta'sirlovchi-hid, shovqin, kiyim-bosh bosimi va shunga o'xshashlar ta'siriga "o'rganib qolish" adaptatsiyaning subyektiv namoyon bo'lishidir.

### ***Beshinchi savol bayoni.***

Teridagi og'riqni sezuvchi retseptorlarining qo'zg'alishi sezuvchi asab tolalari orqali orqa miyadagi quyi asab markazlariga, ulardan oraliq miyadagi po'stloq osti markaziga va nihoyat, neokorteksning orqa markaziy pushtasida joylashgan -sezish markazlariga boradi. Ichki a'zolarda sodir bo'lgan og'riq, shu a'zolarning miyadagi markazlariga berilishi bilan birga, tananing mazkur a'zo joylashgan teri sohasida ham tarqaladi. Masalan, yurak sanchib og'riganida ko'krak qafasining chap tomonida va chap qo'l sohasida og'riq seziladi.

Ba'zi taddiqotchilarining fikricha, og'rituvchi ta'sirotni "og'riq" asab tolalarining erkin oxirlari sezadi. Masalan, analgeziya holatda og'riq sezilmaydi, lekin tegish sezgisi saqlanadi (har qantiay narkozda, shuningdek orqa miyaning ba'zi kasalliklarida shunday holat kelib chiqadi), shundan keyin terining qirqilishi tegish va bosim sifatida seziladi-yu, lekin og'riq bo'lib sezilmaydi. Terida maxsus og'riq nuqtalar bor: terining turli qismlariga juda ingichka igna sanchilsa, igna sanchilishi bilan oldin tegish sezilmay, darrov og'riq seziladigan nuqtalarni topish mumkin. Asab tolalarining regeneratsiya jarayonida (asab qirqilib ulangan asab tolalarida) avvalo og'riq sezuvchanlik tiklanadi, keyinchalik sezuvchanlikning boshqa turlari tiklanadi. Og'riq sezuvchanlik tiklanganda terining har qanday ta'sirlanishi - unga tegish, uni silash, bosim ko'pincha chidab bo'lmaydigan og'riq sezgisini yuzaga chiqaradi.

Og'riq vaqtida *odam* organizmida bir qancha o'zgarishlar ro'y beradi: qonga adrenalin gormoni ko'proq chiqadi, qondagi qand miqdori ortadi, yurakning qisqarsh kuchi va tezligi oshadi, qonning ivish xossasi ortadi, nafas olish sekinlashib qoladi, qon bosimi ko'tariladi,

qorachiq kengayadi, ter ajraladi. Bu o'zgarishlarning aksariyati simpatik asab tizimi tonusi oshishi va ichki sekretsiya bezlari faoliyatiga bog'liq.

**Og'riqni o'tkazuvchi yo'llar.** Og'riq sezgisini yuzaga chiqaradigan impulslarni ikki tipdagi afferent tolalar o'tkazadi. Bu tolalardan ba'zilari A guruhga mansub, mielinli ingichka tolalar bo'lib, qo'zg'alishni 5-15 m/soniya tezlik bilan o'tkazadi. Boshqalari mielinsiz ingichka tolalar S guruhiga mansub bo'lib, qo'zg'alishni 1-2 m/soniya tezlik bilan o'tkazadi.

Og'riqning eng asosiy sababi-hujayrada metabolizm va pH muhitning o'zgarishidir. Bu jarayonlar nafas fermentlariga toksik moddalarning ta'siri, mexanik, termik ta'sirot va hujayra membranasining shikastlanishi natijasida yuzaga chiqishi mumkin.

Har bir odam yaxshi biladiki, qisqa muddatli og'rituvchi ta'sirida tegishli bosim hissiyoti paydo bo'ladi, keyinchalik birlamchi og'riq hissiyoti va nihoyat uchinchi bosqichda juda qattiq og'riq hissiyoti sodir bo'ladi. Og'rituvchi ta'sirotlar turli-tuman reflektor reaksiyalariga sabab bo'ladi. Ularning xarakterli xususiyati shuki, reflektor reaksiyaning yuzaga chiqishida tananing turli a'zolari ishtirok etadi. Yuqorida sanab o'tilgan vegetativ o'zgarishlar bunga misol bo'la oladi. Ayni vaqtida og'riq hissiyoti qaysi afferent markazlari orqali amalga oshiriladi degan savolga turlicha xulosa qilish mumkin. Adabiyotda asosiy o'tkazuvchi yo'1-bu **spinotalamik yo'1** degan g'oyalar juda ko'p. Lekin, oxirgi yillarda olimlar diqqatini yana bir anatomik **yol-lemnisk yo'li o'ziga** jalb qilib kelmoqda. Agar birinchi (spinotalamik) yo'1 orqali og'riq ta'sirot vaqtida hosil bo'lsa, ikkinchi yo'1 (lemnisk) orqali paydo bo'lgan og'riq bir necha vaqt davomida saqlanib turadi. Og'riq hissiyotining yana bir xususiyati shundaki, u adaptatsiyalanadi. Buni quyidagi tajribada ko'rib chiqish mumkin: teriga igna sanchilsa-yu, u siljtilmasa, igna sanchishdan kelib chiqqan asab impulsleri va og'riq sezgisi paydo bo'ladi, chunki ayni vaqtida igna siljib, adaptasiyalangan yangi og'riq retseptorlari ta'sirlanadi. Badanga igna sanchilgandan keyin uni qimirlatmasak, paydo bo'lgan og'riq bir pasda yo'qoladi. Bu igna atrofidagi retseptorlarning adaptaisiyalanishi natijasidir.

### *Oltinchi savol bayoni.*

Haroratni sezadigan retseptorlar (**termoretseptorlar**) ikki guruhga bo'linadi: 1) **sovuoqni sezuvchi termoretseptorlar** va 2) **issiqni sezuvchi termoretseptorlar**. Ruffini tanachalari issiqni sezuvchi retseptorlar, Krauze kolbachalari esa - sovuqni sezuvchi retseptorlar deb hisoblanadi. Ammo terining sovuq yoki issiqni sezuvchi ba'zi qismlarida Krauze kolbachalari ham, Ruffini tanachalari ham yu'q. Shuni nazarda tutib, afferent asab tolalarining yalang'och oxirlari ham issiq va ham sovuqni sezadigan retseptorlar bo'la oladi deb taxmin qilishadi.

Sovuq va issiq sezuvchi retseptorlar turli chuqurlikda: sovuqni sezuvchi retseptorlar teri yuzidan 0,17 mm pastda, issiqni sezuvchi retseptorlar esa 0,3 mm pastda yotadi. Sovuq ta'siriga ko'rsatiladigan reaksiyalar issiq ta'siriga ko'rsatiladigan reaksiyalardan ko'ra qisqaroq ekanligi shu bilan izohlanadi.

U.Z.Qodirov (1996) fikrlariga ko'ra, termoretseptorlar quyidagi xossalarga ega:

1. Teri harorating barqaror bo'lib turishida bu retseptorlarning qo'zg'alish tezligi teri haroratiga proporsional bo'ladi.
  2. Teri harorati ko'tarilsa yoki pasaysa, bu impulslar tezligi ham ko'payadi yoki pasayadi.
  3. Harorat o'zgarishidan boshqa narsalarga sezgir emas.
  4. Retseptorlar sezgirligi teridagi harorat o'zgarishining sezish bo'sag'asiga yaqin.
  5. Termoresepsiyanı ta'minlovchi afferent tolalar yakka yoki juda kichik guruhdagı retseptorlarga bog'liq. Impulslarning bu tolalardan o'tish tezligi 20 m/soniya dan kam.
- Sovuqni sezuvchi retseptorlar soni issiqni sezuvchi retseptorlar sonidan ko'p. Qo'1 kaftining 1 sm da 1-5 ta sovuq nuqta bo'lsa, issiq nuqtalar soni 0,4 ta. Odam terisidagi sovuqni

sezuvchi retseptorlarning umumiy soni-25000, isiqqni sezuvchi retseptorlar soni-30000.

**Termoretseptorlar adaptasiyasi.** Haroratning muayyan diapazonida sovuq retseptorlar ham, issiq retseptorlari ham impulslarning doimiy razryadini beradi. Masalan, tilning sovuq retseptoridan boshlangan afferent asab tolasidagi harakat putensiallarini qayd qilish tajribasi 38°C da impulslar tezligi bir soniyada 5 ekanligini ko'rsatadi. 30°C haroratda impulslar tezligi bir soniyaga 10-12 ga teng bo'ladi. Pastroq haroratda impulslar tezligi kamayadi va 10°C da sovuq retseptorlardan afferent impulslar kelishi to'xtaydi. Issiq retseptorlatidan boshlanuvchi tolalarda impulslar tezligi 37,5-40°C haroratda bir soniyada 1,5-3,5 ga teng. Teri yoki til yuzasi tezligi bilan 2" sovuganda sovuq retseptoridan keluvchi asab tolasidagi impulslar tezligi 50-140 impuls/soniyani tashkil qiladi, bu teziik keyinchalik siyraklanib qoladi. Qattiq isitishda issiq retseprioridan impuls tashuvchi tolada ham impulslarning tez-tez razryadlari vujudga keladi, **adaptatsiya** tufayli bu razryadlar tez siyraklanib yana qisqa muddatli **tez-tez** razryadlar paydo bo'ladi (**uzilish samarasi**).

Harorat sezgilarining jadalligi bir qancha sabablarga, jumladan ta'sirlanish joyiga, ta'sirlanuvchi yuzaning kattaligiga va tevarak-atrofdagi haroratga bog'liq. Masalan, qo'lni 27°C gacha isitilgan suvga tiqib, 24-25°C haroratli suvga ko'chirilsa sovuq sezgisi kelib chiqadi. Qo'l 34°C isitilgan suvda turgan bo'lsa, 31°C gacha isililgan suv sovuq bo'lib tuyiladi (harorat kontrasti).

### *Yettinchi savol bayoni.*

#### **Taktil (tegish, tarqalish) va bosim retsepsiysi**

Tegish va bosimni sezish **taktil sezgi** deb ataladi. Terida tegish va bosimni sezadigan maxsus retseptorlar bor. Butun badanimizga tegishni va bosimni sezadigan 500000 tacha retseptor bor: o'rta hisob bilan olganda 1 sm<sup>2</sup> teriga 25 ta retseptor to'g'ri keladi. Ammo bu retseptorlar butun badanga bir tekis tarqalgan emas; terining ayrtim qismlarida retseptorlar ko'proq bo'ladi. Taqqoslab ko'rsatish uchun quyidagi misolni keltirish mumkin; boldirning 1 sm<sup>2</sup> terisida 9-10 retseptor bo'lsa, boshning 1 sm<sup>2</sup> terisida 165-300 ta retseptor bor.

Teri so'rg'ichalaridagi Meysner tanachalari barmoqlarning uchlarida va labda ayniqsa ko'p bo'ladigan Merkel diskлari tegish retseplorlari deb ataladi. Tukli teridagi soch (jun) tegishga ayniqsa sezgir bo'ladi. Buning sababi shuki, soch (jun) ildizi asab chigali bilan o'raladi va junga tegish o'sha chigalga o'tib, uni qo'zg'atadi. Junni qirish natijasida terining tegishga sezuvchanligi juda ham kamayadi. Pachini tanachalari **bosim** retseptorlari deb hisoblanadi.

Taktil retseptorlar uzoq vaqt turli ta'sirlovchilarga moslashadi -adaptatsiyalanadi, shu sababli bosimning o'zi emas, balki faqat o'zgarishi seziladi.

Mushuk oyoq kaftining yastiqchasiga yuk qo'yilsa, retseptorda asab jimpulstari vujudga keladi, ularning tezligi 250-300 impuls/soniyaga teng bo'ladi. Bu impulsatsiya bir necha soniyaga cho'ziladi va adaptatsiya boshlanishi tufayli to'xtaydi. Odamda impulslar tezligi kamayishi bilan sezgi kuchi ham kamayadi.

Teridagi har xil retseptorlarning adaptasiya tezligi har xil. Soch (jun) ildizi atrofidagi retseptorlar va Pachini tanachalari tezroq adaptatsiyalanadi. Adaptatsiya tufayli odam kiyimini faqat kiygan vaqtida yoki yurganda terisiga kiyim ishqalangan vaqtida uning bosimini sezadi.

Terining tegishiga va bosimga hammadan ko'p sezgir joylari til uchi bilan barmoqlardir; bo'yin bilan orqaning sezgirligi hammadan kam bo'ladi.

Tegishni va bosimni sezadigan retseptorlar yordami bilan kelib chiqadigan sezgilar ancha aniq bo'ladi, ammo bu ma'lumotlar hamisha boshqa sezgi a'zolari (ko'z) bilan tekshiriladi. Boshqa sezgi a'zolari yetarlicha nazorat qilinmayotgan bo'lsa, ba'zan noto'g'ri tasavvur tug'ilishi mumkin. Bunga Aristotelning tajribasi misol bo'la oladi. Bir-biriga chalishtirilgan ikki barmoq (II va III baromoqlar) orasiga shar yumalatilsa yoki shu baromoqlar bilan buruning uchiga tegilsa, shar ham ikkita bo'lib tuyiladi. Bunday taassurotning kelib chiqishiga sabab shuki, II baromoqning tashqi tomoni va III baromoqning ichki tomoni bilan odatdagи sharoitda hamisha ikki narsaga tegamiz. Baromoqlar holatining o'zgarishi bir narsaning ikki narsa bo'lib sezilishiga

sabab bo'ladi. Taktil sezgini aniqlash usuli **esteziometriya** deyiladi.

### *Sakkizinchı savol bayoni.*

Hid bilish va ta'm bilishni "**kimyoviy sezgilar**" deb atashadi, chunki ular kimyoviy ta'sirlovchilarning retseptorlariga ta'sir etishi natijasida kelib chiqadi. Hid bilish retseptorlari burun bo'shlig'ining shilimshiq pardasida joylashgan bo'lib, ularning soni o'rtacha 30-40 mln ga teng. Bu retseptorlarda ko'plab mayda tukcha bo'lib, ularning uzunligi 1-2 mikron atrofida. Burun bo'shlig'ining hid sezuvchi sathi 5 sm bo'lib, sezuvchi hujayra tukchalarining ko'p bo'lishi hisobiga hid bilish sathi 100-150 marta ortadi.

Odamda 60 mln.ga yaqin hid sezish retseptorlari bor. Hid biluv retseptorlariga turli kimyoviy moddalarning ta'sir etish mexanizmi hozircha aniq emas. Hid sezish retseptorlarining ta'sirlanishi ba'zan atom guruhlarning kimyoviy ta'sirga bog'liq, deb faraz qilinmoqda. Ammo, tizilmasi yoki kimyoviy xossalari bilan bir-biriga yaqin turadigan moddalarning butunlay har xil hidli ekanligi kimyoviy gipotezalarga zid keladi. Hid sezgisi kelib chiqishi uchun modda zarralari hidlov sohasining shilliq pardasiga tushib, hid biluvchi retseptorlarga ta'sir etishi kerak. Hidli moddalarning ta'sir bo'sag'asi juda past, shuning uchun bu moddalar bir necha marta qayta-qayta hidlanadi. Buni moddaning hidini bilmoxchi bo'layotgan kishiga yoki har narsani iskaydigan hayvonga qarab bilish mumkin.

Hid bilish sezgisining jadalligi hidli moddaning kimyoviy tarkibiga, havodagi konsentratsiyasiga va burundan o'tish tezligiga, shuningdek hid bilish retseptorining fiziologik holatiga bog'liq. Hidli modda taralgan havoning burunga kirishi tezligi qancha katta bo'lsa, hid bilish sezgisi o'shancha kuchli bo'ladi.

Hidli moddaning havodagi konsentratsiyasi bir xil bo'lsa, u hid biluv retseptorlariga ta'sir etayotgaii dastlabki paytdagina hid bilish sezgisining intensivligi maksimal bo'ladi. Keyinchalik hid bilish sezgisi susayadi. Buning sahabi shuki, **retseptorlar adaptatsiyasi** tez, taraqqiy etadi, shunga ko'ra retseptorlarning sezuvchanligi pasayadi. Shu sababli hidli moddaning havodagi konsentratsiyasi katta bo'lgan binoda bir necha vaqtgacha bo'lgan odam hid sezmaydigan bo'lib qoladi. Hidli modda uzuksiz ta'sir etsa, hid biluv apparati tezroq adaptatsiyalanadi.

Hid biluv retseptorlarining sezuvchanlik darajasini va adaptatsiya tezligini simpatik asab tizimi idora etadi; simpatik asab tolalari qo'zg'alganda hid biluv asabidagi impulsasiya hid ta'sirida keskin darajada oshadi, bu esa simpatik asab tizimi adaptatsion funksiyasini o'taydi degan L.A.Orbeli nazariyasiga mos keladi. Eslatib o'tamiz, bu nazariyaga muvofiq simpatik asab tizimi modda almashinuvini va qo'zg'aluvchanligini boshqaradi. Adaptaision-trofik funksiyaning biologik ahamiyati shuki, u organizmning faoliyatiga muayyan ravishda moslashishni ta'minlaydi.

Umurlqali hayvotilarning hid bilish retseptorlari ularning filogenetik rivojlanishi va ekologik ixtisoslashganiga qaramay umumiy bir tamoil asosida tuzilgan. Hid bilish retseptorlarining faoliyati ta'sirlovchining fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan bog'liq: ikkinuhisi sustroq va uchinchisi esa retseptor faoliyatiga tormozlovchi omil sifatida ta'sir etadi.

Ma'lumki, umurtqali hayvonlarda ham, odamda ham bir juft hid bilish piyozchalari ham bor. Bu hid bilish piyozchalar 5 qavatdan iborat.

**I-fibroz qavati** hid bilish neyronlar tolalaridan iborat. Bu tolalar oxirlari hid bilish retseptorlarining qo'zg'atuvchi va tormozlovchi sinapslarini hosil bo'lishida qatnashadi.

**II-glomerula qavati** asab tolaiarining oxiri bo'lib, hid bilish analizatorining birlamchi neyronlarini tashkil etadi. Piyozchalari murakkab asab tugunlar paydo qiladi.

**III va IV tashqi va ichki to'rsimon qavatlar;** III-chi qavatda ko'p miqdorda sinapslar joylashgan; IV-chi qavatda esa neyronlarning tanalari joylashgan bo'lib, III-chi qavat bilan vertikal va gorizontal asab tolalari orqali bog'langan.

**V qavat (donali qavat) da** hid sezuvchi donali neyronlar zich joylashgan. Umurtqali hayvonlarda hid bilish piyozchasidan asab tolalari oldinigi miyaga: hid bilish tepachasi, oldingi hidlov yadrosi, prepirimform va po'stloqqa hamda po'stloq ostidagi bodomsimon yadrolarga yetib boradi.

Zamonaviy tadqiqotlar xemoretsepsiya yo'llari adekvat ta'sirlovchilarning birlamchi adsorbsiyasi va ularning xemoretseptorlar membranasiga ta'sir etish mexanizmiga asoslanadi.

Hid sezish analizatorining mexanizmi haligacha aniq bo'lmasan bo'lsa ham uning afferent va efferent yo'llari markaziy asab tizimining eng qadimiy tuzilmasi-hidlov miya markazi orqali o'tishiga hech bir shubha yo'q.

### ***To'qqizinchi savol bayoni.***

Ta'm bilish retseptorlari tilda qisman yumshoq tanglayda joylashgan bo'lib, og'izga kirgan moddalar haqida ma'lumot beradi. Ta'm bilish retseptorlarining ta'sirlanishi hazm a'zolarini ishga soladigan ko'pgina shartsiz reflekslarning qo'zg'atuvchisi hisoblanadi.

Eng ko'p uchraydigan retseptorlar-ta'm bilish so'rg'ichlaridir. Ta'm bilish so'rg'ichlari **ipsimon**, **bargsimon**, **zamburug'simon** va **tarnovsimon** bo'ladi. Bitta so'rg'ichda 250 tagacha retseptor joylashgan.

Ta'm sezgilarini shirin, achchiq, sho'r va nordon deb to'rt guruhga bo'lish mumkin. Shu to'rtta asosiy sezgining aralashmasidan iborat bo'lgan boshqa ta'm sezgilari ham anchagina bor. Modda ta'm biluvchi retseptorga ta'sir eta olishi uchun suyuqlikda erigan bo'lishi kerak.

Ta'm bilish sezgisining kelib chiqishi uchun haroratning ahamiyati juda katta. Qaynoq va sovuq ovqat ta'm bilish sezgilarini susaytiradi. Buni kundalik turmushda ko'rish mumkin. Qandli choy qaynoq bo'lsa, deyarli mazasi yo'qqa o'xshab tuyiladi. Shuningdek og'izda bir chaqmoq qand olib, sovuq suv bilan ichib yuborilsa, shirin mazasining deyarli hech biri sezilmasligi ham ma'lum.

Ta'm bilish analizatorining uchta neyroni farq qilinadi. **Birinchi neyron** tilning shilliq qavatidagi ta'm bilish so'rg'ichlarida tilning ildiz qismi va yutqum sohasida joylashgan bo'lib, uzunchoq miyaga borib tugaydi. **Ikkinci neyron** uzunchoq miyaning birinchi neyron tamom bo'lgan joyidan boshlanib, talamusda tugaydi. **Uchinchi neyron** talamusdan boshlanib, ta'm bilish a'zosining miya po'stlogidagi markazida, ya'ni orqa markaziy pushtaning pastki uchida tugaydi.

Ta'm bilish sezgisini yuzaga chiqaruvchi bir nechta ta'sirlovchi bir vaqtida yoki ketma-ket qo'llanilganda, ta'm bilish kontrasti va ta'mlarning aralashib ketishi mumkin. **Ta'm bilish kontrasti** shundan iboratki, ta'm bilish sezgisini yuzaga chiqaruvchi boshqa bir ta'sirlovchi ta'sirida qanday bo'lmasin bir ta'mni sezish ortadi. Macalan, shirin sezgisini yuzaga chiqaradigan ikki yoki uch ta'sirlovchi bir vaqtida ta'sir etganda ba'zan yangi ta'm sezgisining kelib chiqishi **ta'mlarning aralashib ketishi** deb ataladi; yangi ta'm bilish sevgisi o'z komponentlariga o'xshamaydi.

### ***O'ninchи savol bayoni.***

Hayvonlar va odamlar ovozi, musiqa ohanglari, texnika vositalarining tovushi-bularning barchasi odamning eshituv a'zosiga ta'sir qiladi va tovush sifatida qabul qilinadi.

Quloq murakkab ikki funksiyani bajaradi. Eshituv sezgilarini hosil qilishga yordam beradigan eshituv a'zosi va bundan tashqari, tanamizning muvozanatini saqlaydigan maxsus apparat ham quloqqa qo'shiladi.

Quloq tuzilishi jihatidan uchta asosiy qismlarga bo'linadi: I) **tashqi qufoq** quloq suprasi bilan tashqi eshituv yo'lidan iborat; 2)**o'rta quloq-nog'ora** bo'shlig'idan iborat bo'lib, u chakka stiyagining ichida turadi va uchta eshituv suyakchasini o'z ichiga oladi; 3) **ichki quloq-eshituv** azosining eng muhim qismidir. Ichki quloqda ikkita mustaqil a'xo bnr. Bularidan biri **tovushni sezadigan a'zo** va ikkinchisi muvozanat a'zosi-yarim **doira kanallar**. Ichki quloq chakka suyagining tosh qismida (piramidasida) turadi.

**Tashqi quloq** quloq suprasi va tashqi tovush yo'lidan iborat bo'lib, quloq suprasi hayvonlarda tovushni tutishga yordam beradi, u harakatchan bo'ladi.

Odam quloq suprasining mushaklari yaxshi rivojlanmagani uchun harakat qilmaydi. Istisno tariqasida odamlarda quloq suprasining qimirlashi kuzatiladi. Quluq suprasi egiluvchan tog'aydan tuzilgan teri bilan qoplangan. Uning ichida burmalar bo'lib, ular tovush to'lqinlarining

yo'nalishiga yordam beradi.

Tashqi eshitish yo'li 2-5sm uzunlikda bo'lib, biroz qiyshiq kanaldan iborat. Kanalning ichi tukli, bezli epitely bilan qoplangan. Tuklar himoya vazifasini hajaradi, bezlar esa sariq suyuqlik ishlab chiqaradi.

**O'rta qulqoq** bo'shliq bo'lib, tashqi qulqodan nog'ora parda bilan ajralgan. Nog'ora parda yupqa, pishiq bo'lib, asab tolalari va qon tomirlari bilan ta'minlangan. U egiluvchan pishiq biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan, diametri 9-11 mm, qallinligi 0,1 mm, asab va qon tomirlariga boy bo'ladi. Nog'ora parda mushaklar yordamida to'lqinni o'zgartirmay o'tkazadi.

O'rta qulqoq bo'shlig'i **nog'ora bo'shliq** deyiladi, uning hajmi 0,75 ml ga teng keladi. So'rg'ichsimon bo'shliqlar o'rta qulqoq orqali halqum bilan tutashadi. O'rta qulqoq Yevstaxiyev nayi 4 sm uzunlikda bo'lib, tashqi qulqoq bilan o'rta qulqodagi bosimning muvozanatlashishida ishtirok etadi, o'rta qulqoq bo'shlig'ida uchta eshitish suyakchasi: **bolg'acha, sandon, uzangi** joylashgan bo'lib, boylamlar yordamida bir-biriga birikkan bo'ladi (178-rasm).

**Bolg'acha** dastasi bilan nog'ora pardaga, boshchasi bilan sandonga tushayotgan bo'ladi. **Sandon** o'sig'i bilan uzangiga tutashadi. Bu suyaklar odamning butun hayoti davomida o'smaydi. O'rta qulqodagi mayda mushaklar qisqarishi bilan suyakchalar harakatga kelib, tovush to'lqinlarini ichki qulqqa o'tkazadi.

**Ichki qulqoq** labirint murakkab tuzilgan bo'lib, eshituv analizatorining eng muhim qismidir. Ichki qulqoda **eshitish** va **vestibular apparatning** retseptorlari joylashgan. Vestibular apparat retseptorlari odam kallasining va butun tanasining o'zgarishidan hosil bo'ladigan ta'sirni, proprioretsativ retseptorlardan kelayotgan ta'sirni sezadi.

Ichki qulqoq, ya'ni labirint uch qismidan: qulqoq dahlizi, yarim aylana kanallar va chig'anoqdan iborat. **Labirint** murakkab tuzilgan bo'lib, parda labirint va suyak labirintdan iborat. **Suyak labirint** tashqarisida **perelimfa, parda labirint** ichida **endolimfa** suyuqliklari bo'ladi. Labirint dahlizi oval shakldagi bo'shliq bo'lib, yettita teshigi bor. Ovalsimon feshik bilan o'rta qoloqqa yumaloq teshik bilan chig'anoqqa va qolgan 5 ta teshik bilan yarim doira kanalliga birikadi. Yarim aylana kanallar endolimfa suyuqligi bilan to'la, ichida otolit toshlari bo'ladi.

Chig'anoq-shilliq qurt chig'anog'iga o'xshash gajakdor suyak kanaldir. Chig'anoqning 2, 1/2 buramasi bor. Uning ichida **Kortiy a'zo turadi**. Kortiy a'zo tovushni sezadigan a'zodir. Eshituv asabining shoxchalari shu a'zoda joylashgan. Kortiy a'zo ko'pgina ingichka tolalardan ihorat. Bu tolalar arfa degan musiqa asbobining tolalariga o'xshash tortilgandir. Har bir tola eshituv asabining tolalariga tutashgan. Kortiy a'zoning tolalari 24000 ta bo'ladi.

### **Tana vaziyatini va harakatlarini sezish**

Tana yoki undagi ayrim qismlarning fazodagi vaziyatini bilish uchun odam avvalo ko'zidan foydalananadi. Ammo, bunda ko'ruv a'zoning qatnashishi shart emas. Odam ko'rmasdan, ya'ni ko'zini yumib turib ham o'zining tana vaziyatini biladi. Ko'zdan qolgan kishilar o'z tanasining vaziyatini bemalol va bexato biladilar. Buning sababi shuki, tana yoki undagi qismlarning vaziyati teridagi bosh retseptortari va mushak, bo'g'im, paylardagi proprioretsensorlar bilan seziladi.

Tanamizning qanday bo'lmasin bir qismining vaziyati o'zgarganda (qo'l bukilganda, yozilganda yoki bir oz aylantirilganda) bir yoki bir necha bo'g'im siljiydi, muayyan mushak guruhlari taranglashadi va bo'shashadi, shuningdek terining tarangligi ham o'zgaradi. Proprioretsensorlarning ta'sirlanishi natijasida markaziy asab tizimiga impulslar borib turishi tufayli gavda vaziyati bemalol bilinadi. Odam xoh o'tirgan bo'lsin, xoh yotgan bo'lsin, ko'zini yumib turib, o'zining vaziyatini bemalol aniqlay oladi. Buning sababi shuki, terining muayyan qismlaridagi bosimning o'zgarishi, mushak va paylarning taranglanish darajasi tana vaziyati haqida signal berib turadi.

Tananing vaziyatini va harakatini aniqlashda, shuningdek harakat tezligining o'zgarganini bilishda teri sezgisining retseptorlari bilan proprioretsensorlardan tashqari **vestibular apparatning** faoliyati ham katta rol o'ynaydi. Bu apparat tananing fazodagi vaziyatini va harakatini sezish. shuningdek muvozanatni saqlash a'zosidir. Tana muvozanatining

har bir o'zgarishi tufayli vestibular apparatning retseptorlari ta'sirlanadi, shuning oqibatida tanani rostlashga yordam beradigan muayyan mushak guruhlari refleks yo'li bilan qisqaradi yoki bo'shashadi.

Vestibular apparat ikki qismidan: **dahliz** va **jarim doira kanallardan** iborat.

**Dahliz** endolimfa bilan to'la. Bu suyuqlikda **otolitlar** yoki **statolitlar** deb ataladigan maxsus tuzilmalar bor, ular kalsiy fosfat tuzlaridan iborat. Gavda vaziyati o'zgarganda, jumladan boshning vaziyati o'zgarganda dahliz retseptorlardagi statolitlarning vaziyati o'zgaradi. Bu retseptorlar eshituv asabining vestibular tolalari bilan bog'langan.

Statolitlarning bosim darajasi o'zgarganda retseptorlar ta'sirlanib, qo'zg'alish bilan javob beradi. Dahliz retseptorlarning qo'zg'alishi natijasida ayrim mushak guruhlarining tonusi refleks yo'li bilan o'zgaradi.

Yarim halqa kanallar uchta bo'lib, o'zaro perpendikular *uch* tekislikda turadi. Har bir kanalning uchi kengayib, yo'g'on tortadi, **ampula** deb shuni aytildi. Ampulada maxsus tuzilmalar bor. Eshituv asabining vestibular tolalari shu yerda tugaydi. Endolimfa aylanma harakat qilganda o'zining inertligi va yopishqoqligi tufayli yarim halqa kanallarning devorchalaridan bir mucha uzoqlashadi, shuning natijasida retseptorlarning bosalishi o'zgaradi. Endolimfa bosimining ozgarish darajasi vestibular asabning retseptoriga ta'sir etadi. Vestibular apparatdagi retseptorlar qo'zg'alganda bir qancha reflektor reaksiyalar kelib chiqadi. Tana, qo'l-oyoq, bo'yin va ko'z mushaklarining tonusi refleks yo'li bilan o'zgaradi, ularning qisqarishi tufayli bosh muayyan vaziyalda tutiladi va butun tana vaziyati ozgaradi.

### *O'n birinchi savol bayoni.*

Ko'ruv informszion tizimi boshqa sensor tizimlar orasida alohida o'rin tutadi. Ko'ruv a'zosi g'oyatda sezgir a'zo bo'lib, uning yordamida odam tevarak-atrofidagi buyumlarning tuzilishi, rangi, shakli, hajmi, bir-biridan farqini ajratadi. Odam tashqi dunyoni ko'ruv a'zosi yordamida 90% axborotlarni idrok etadi. Bundan tashqari, ko'ruv analizatori organizmda fotoretseplorlarga (yorug'likni sezuvchi retseptorlarga) ega bo'lgan yagona tizimdir. Bu tizim orqali organizm kunning tunga o'tgani to'g'risida, uzoq-yaqin jismlarning tashqi qiyofasi to'g'risida axborot oladi. Atrofdagi turli-tuman manzaralarni, narsalarni ko'rishimizning sabahi shundaki, qaysi bir manbadan ularga tushgan nur qaytarilib, ko'zga tushadi va fotoretseptorlarda qo'zg'alish hosil bo'ladi. Ko'ruv obrazining shakllanishi aks ettirilgan nurlarni ko'z optik tizimiga – to'r pardaga aniq proyeksiyalashdan boshlanadi va analizatorning po'stloq markazida ko'ruv doirasida qanday jism borligi to'g'risida xulosa qilish bilan tugaydi.

### **Ko'zning optik tizimi**

Ko'zga kiradigan yorug'lik nurlari to'r pardaga tushishdan oldin nur sindiruvchi bir necha yuzalar shox parda, gavhar va shishasimon tananing oldingi va orqa yuzalaridan o'tadi. Nurlarning o'tadigan yo'li shox parda, gavhar va shishasimon tana yuzasining nur sindirish ko'rsatkichlariga va egrilik radiuslariga bog'liq. Ko'z optik tizimining nur sindiruvchi kuchini dioptriya (D) - fokus masofasi 100 sm bo'lgan linzaning nur sindiruvchi kuchidir. Nur sindiruvchi kuch oshganda fokus masofasi kamayadi. Fokus masofasi 50 sm bo'lganda linzaning nur sindiruvchi kuchi 2 D ga, fokus masofasi 25 sm bo'lganda nur sindiruvchi kuchi 4 D ga teng va hokazo.

Uznqdagi narsalarga qaraganda ko'z optik tizimining nur sindiruvchi kuchi umuman 59 D chamasida bo'ladi. Shox pardanining nur sindiruvchi kuchi  $43 \times 0,5$  D, gavharning nur sindiruvchi kuchi uzoqdagi narsalarga qaraganda  $19 \times 11$  D va yaqindagi narsalarga qaraganda esa  $33 \times 0,6$  ga teng.

### **Ko'z akkomodatsiyasi**

Odam ko'zidan uzoqdagi va yaqindagi narsalarni bir xilda ravshan ko'ra olmaydi. Narsani yaxshi ko'rish uchun o'sha narsadan sochiluvchi yorug'lik nurlari to'r pardada to'planishi kerak. Yorug'lik nurlari to'r pardaga tushgandagina narsaning ravshan tasvirini

ko'ramiz. Ko'zning uzoq-yaqin turgan narsalarni ravshan ko'rishga moslashuvi akkomodatsiya deb ataladi. Agar uzqdagi narsa ko'zga sekin-asta yaqinlashtirilsa, 65-70 m masofada akkomodatsiya boshlanadi. Narsa ko'zga yana yaqinlashtirilgan sayin akkomodatsiya kuchi oshadi va 10 sm masofada tugab qoladi. Shunday qilib, yaqindan ko'rish nuqtasi 10 sm masofada bo'ladi. Yosh ulg'aygan sayin gavharning elastikligi asta-sekin kamayadi, binobarin, akkomodatsiya qobiliyati ham o'zgaradi. Yaqindan ravshan ko'rish nuqtasi 10 yashar bolada 7 sm, 20 yoshli kishida 33 sm, 60 yoshli kishida 1 m, 70 yoshli kishida 5 m boladi, 75 yoshda esa akkomodatsiya qobiliyati deyarli yo'qoladi va yaqindan ravshan ko'rish nuqtasi cheksiz nariga suriladi.

Ko'zda nur sinishi (**refraksiya**) ning ikkita anomaliyasi (noto'g'rilik, odatdag'i holatdan chetga chiqish, nuqson): **yaqindan ko'rish (miopiya)** va **uzoqdan ko'rish (gipermetropiya)** mavjud. Bu nuqsonlar odatda nur sindiruvchi muhitlarning kamchiligiga bog'liq bo'lmay, k.o'z soqqasining g'ayri me'yoriy uzunligidan kelib chiqadi, Yaqindan va uzoqdan ko'rish tug'ma bo'lishi, shuningdek hayoti davrida kelib chiqishi mumkin. Yaqindan ko'radigan odamlarda narsaning tasviri to'r pardada hosil bo'lmay, asosiy fokus to'r parda yaqinida bo'ladi, natijada narsaning tasviri ravshan bo'lmay, yoyilib ketadi.

Yaqindan ko'rurvchi odamlarning narsani ravshan ko'rishi uchun uni ko'zlariga yaqin tutishiga sabab shudir. Bunday kishilarda uzoqdan ko'rish nuqtasi ko'zga yaqinlashadi va undan bir oz narida bo'ladi. Yaqindan ko'radigan kishilarga ikki tomoni botiq ko'z oynak buyuriladi.

Uzoqdan ko'rishning sababi shuki, ko'zning uzunasiga ketgan o'qi kalta bo'lib qoladi. Natijada yorug'lik nurlari to'r pardada to'planmay, uning orqasida to'planadi. Asosiy fokusning to'r parda orqasiga to'g'ri kelishi tufayli narsaning tasviri ravshan bo'lmaydi. Uzoqdan ko'radigan odamlarga ikki tomoni qabariq ko'zoynak buyuriladi,

### To'r pardaning tuzilishi va funksiyalari

To'r pardada ko'ruv retseptorlarining fotoretseptorlari joylashgan. Bu retseptorlar ko'ruv asabining oxiri-yorug'ni sezuvchi qismi hisoblanadi. To'r parda murakkab tuzilgan bo'lib, mikroskopda ko'rilmaga 10 qavatdan tuzilganligi aniqlangan. To'r pardadagi asab hujayralari bir-biriga bog'langan uchta neyrondan iborat. Bu neyronlar **tayoqcha** va **kolbacha** shaklda bo'ladi. Odam ko'zida tayoqchasimon neyronlar soni 130 ml gacha yetadi, ular qorong'ida ko'tradi. Kolbachasimon neyronlar esa 9 ml ga yaqin bo'lib, ular kunduzi ko'radi (ragn ajratadi). Tayoqchasimon, kolbachasimon retseptorlarda qabul qilingan impulslar ikkinchi neyronga, ulardan uchinchi neyronga o'tadi.

Uchinchi neyron neyrit (akson) lardan iborai ko'ruv asabini hosil qiladi, u ko'zning orqa qismidan chiqadi va ko'ruv yo'lini hosil qilib, tizzasimon tanachaga boradi. To'r pardaning yorug'ni eng yaxshi sezuvchi qismi-sariq **dog'** deyiladi, u kozning orqa qutbida joylashgan. Sariq dog'ning o'rtasi bir oz chuqurlashgan bo'lib, u **markaziy chuqurcha** deyiladi. Ko'zning oldingi quibi bilan markaziy chuqurcha orasidagi chiziq ko'zning **optik o'qi** deyiladi. Ko'zning optik moslamalariga shox parda, oldingi kamera suyuqligi, ko'z gavhari va shishasimon tana kiradi.

Ko'rish asabining ko'z soqqasidan boshtanadigan qismi **ko'r dog'** deyiladi. To'r pardaning bu qismida yorug'ni sezuvchi retseptorlar bo'lmaydi. Bu yerdan to'r pardani oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlovchi qon tomirlari o'tadi.

To'r pardaning eng tashqi qavati pigmentli epitelyidan tuzilgan, unda **fuksin** degan pigment bor. Bu pigment fotoapparat ichki devorlarining qora rangiga o'xshash yorug'likni yutib, uning qaytishiga va sochilishiga to'sqinlik qiladi va shu bilan ko'ruv sezgisining ravshan chiqishiga imkon beradi.

Ba'zi **tungi hayvonlarda** fotoretseptorlar bilan pigment hujayralar o'rtasida yorug'likni aks ettiruvchi qavat bor, bu qavat maxsus kristallardan yoki iplardan tuzilgan. Ulardan yorug'lik qaytishi tungi hayvonlar ko'zining tashqi yorug'da nur sochishiga sabab bo'ladi. Yorug'likni qaytaradigan qavat borligidan tikka yorug'lik nurlarigina emas, qaytgan yorug'lik nurlari ham fotoretseptorlarga ta'sir etadi, bu esa yorug'lik kam sharoitda yorug'lik sezish imkoniyatini oshiradi.

Fotoretseptorlar hujayralar qavatidan ichkari tomonda **bipolyar neyronlar** qavati bor, bu neyronlarga ichkari tomondan **ganglionar asab** hujayralari qavati taqalib turadi. Tayoqcha va kolbachalar tashqi qavatda yotganligi, ganglionar hujayralar esa to'r pardanining ichki (shishasimon tanaga taqalib turgan) qavatini hosil qilganligi uchun yorug'lik shishasimon tana orqali to'r pardaga tushganda fotoretseptorlarga yetishdan oldin to'r pardanining hamma qavatlaridan o'tishi kerak.

Ganglionar neyronlarning o'siqlari ko'ruv asabining tolalarini tashkil etadi. Shunday qilib, yorug'lik ta'sirida fotoretseptorlarda vujudga kelgan qo'zg'alish ikkita asab hujayrasi - bipolyar va ganglionar neyronlar orqali ko'ruv asabining tolalariga o'tadi. Ana shu asablarining oxirlarida sinapslar hosil bo'ladi. Bu sinapslarda **xolinesteraza** bor, shuning uchun bir neyronдан ikkinchi neyronga impulslar o'tganda **atsetilxolin** ajralib chiqadi.

Bir ganglionar neyronga birlashgan fotoretseptorlar **ganglionar neyronning retseptiv maydoni** hosil qiladi. Turli ganglionar hujayralarning retseptor maydonlari bir-birini yopib o'tadi va o'zaro bog'lanadi. Buning asosiy sababi shuki, to'r pardada **horizontal** (yulduzsimon) va **amakrin** neyronlar bor, ulardan tarmoqlanuvchi o'siqlar chiqadi, bu o'siqlar bipolyar va ganglionar hujayralarni birlashtiradi. Shu sababli bitta ganglionar hujayra bir necha o'ng ming fotoretseptorlar bilan bog'lanishi mumkin.

Markazga intiluvchi tolalardan tashqari, ko'zda markazdan qochuvchi asab tolalari ham topilgan, bu tolalar markaziy asab tizimidan ko'z to'r pardasiga impuls olib ketadi. Markaziy asab tizimi to'r parda neyronlari o'rtasidagi sinapslarning o'tkazuvchanligini o'sha (markazdan qochuvchi) tolalar yordamida o'zgartira oladi va qo'zg'alish jarayoniga tortilgan neyronlar sonini shu tariqa boshqara oladi deb hisoblashadi. To'r pardadagi markazdan qoohuvchi asab tolalarining ikkinchi tipi-tomir harakatlantiravchi tolalardan ihorat. Markaziy asab tizimi to'r parda tomirlarining diametrini shu tolalar yordamida o'zgartira oladi. To'r pardanining o'ziga xos murakkab asab apparati ko'ruv axborotini tahlil qilish va qayta ishlab chiqishda qatnashadi. Ko'z to'r pardasi fotoretseptorlar joylashgan anchayin bir joy emas; u markaziy asab tizimining go'yo periferiyaga chiqarib qo'yilgan bir qismi hamdir.

Tayoqcha va kolbachalarning turli funksiyalari haqidagi tasavvurga **ikki yoqlama nazariya** bo'lgan. Bu nazariyani tasdiqlaydigan bir talay dalillar mavjud. Masalan, tungi hayvonlar - boyqush va ko'rshapalak to'r pardasida tayoqchalar ko'proq bo'lsa, kunduzgi hayvonlar - kaptar, tovuq, kaltakesak ko'zining to'r pardasida kolbachalar ortiqroq. Tayoqchalarning sezuvchanligiga nisbatan kolbachalar sezuvchanligi ko'p marta kam. Shu sababli g'ira-shirada "qosh qoraygan" vaqtida to'r parda markazidagi kolbachalar bilan ko'rish keskin darajada susayib, to'r parda periferiyasidagi tayoqchalar bilan ko'rish ustun turadi. Tayoqchalar ranglarni sezmagani uchun g'ira-shirada odam ranglarning farqiga bormaydi.

Tayoqchalar funksiyasi buzilganda (masalan, ovqatda vitamin A yetishmaganda shunday bo'ladi) g'ira-shirada korish funksiyasi buziladi **shabko'rlik** kelib chiqadi; bunday odam kunduzi bemalol ko'radi-yu, qosh qorayganda ko'zi hech narsani ko'rmaydi. Kolbachalar zararlanganda esa, aksincha, **yoruqqa qarab bo'lmaydi-bunday** odam xira yorug'da yaxshi ko'radi-yu, ravshan yorug'da ko'zi hech narsani ko'rmaydi. Bu holda ranglarni mutlaqo ko'rmaslik - **axromaziya** kelib chiqadi.

XX asrning 80-yillarda hayvorilar kozining to'r pardasida **yorug'likka sezgir pigmentlar** kashf etilgan va bu moddalar yorugda rangsizlanib qolishi ko'rsatib berilgan edi. Ammo, bu pigmentlarning eng ko'p uchraydigan vakili **rodopsin** avval Yu.A.Ovchinnikov (1982 yilda), tomonidan, keyinchalik amerika olimlari mukammalroq o'rganib chiqishdi. Ularning fikriga ko'ra, to'r parda fotoretseptorlari membranasi fotolipidlardan tuzilgan bo'lib fosfatidixolin (40%), fosfatidiletanolamin (38%) va fosfatidilserin (13%) ni tashkil etadi. Fotoretseptorlardagi taxminan 95% oqsillar tarkibi rodopsinning pigmenti tarkibiga mos keladi. Rodopsinning polipeptid zanjiri 348 aminokislordan tarkib topgan.

### Ranglarni sezish

Yorug'lik nuri prizmadan o'tib parchalanganda bir necha rangga bo'linadi. Bu ranglar muayyan tartib bilan joylashadi. Turli ranglarning shu tariqa joylashushi va ularning qo'shni

rangga o'tishi **yorug'lik spektri** deb ataladi. Turli narsalardan qaytadigan, to'lqin uzunligi 400 dan 800 mmk gacha bo'lgan yorug'lik nurlarini odam ko'radi. To'lqin uzunligi har xil bolgan nurlar har xil rangli nurlar deb idrok qilinadi. To'lqin uzunligi 800 mmk dan ortiq (infraqizil) va 400 mmk dan kam (ultrabinafsha) nurlar ko'zga ko'rinxaydi.

Ranglarni turli usullar bilan, masalan aylanuvchi doira (Maksvell disk) yordamida aralashtirish mumkin. Doiraga rang-barang qog'ozchalar shunday yopishtiriladi, har bir rang istagan miqdordagi sektorni egallaydi. Doira yetarli tezlik bilan aylantirilganda qandaydir bir rangga **tekis** bo'yalganday tuyuladi. Shunday doiraga spektrning barcha ranglari surilsa, doira aylantirilganda kul rang bo'lib ko'rinxaydi (bo'yoqlar odatda bir qadar iflos bo'lgani uchun oq ko'rinxaydi, kul rang bo'lib tuyuladi). Spektrdagagi barcha ranglarning yig'indisi bo'yoqsiz, sezgisini beradi.

Bo'yoqsiz sezgisini hosil qilmoq uchun spektrning barcha ranglarini qo'shishning hojati yo'q; ko'rsatilgan ranglardan istagan bir juftini olish kifoya: 1) qizil, yashil va binafsha; 2) sarg'ish va havo rang; 3) sariq va ko'k; 4) sariq, yashil va binafsha; 5) yashil va qizil.

Shu ranglardan har bir jufti aralashtirilganda oq yoki kul rang bolib ko'rinxaydi. Shu sababli ular bir-birini to'ldiruvchi ranglar deb aytildi.

Ma'lumki, spektrdagagi 8 rangning o'rtasida juda ko'p **oraliq** ranglar bor. Bizning **ko'zimiz** 200 ga yaqin oraliq rangni ajratadi.

To'r pardanining rang sezuvchi hujayralari kolbachalardir. Tayoqchalar esa narsaning rangini sezmaydi. Shuning uchun ham kechasi, faqat tayoqichalar yordami bilan ko'rganimizda hamma narsalar bir xilda kul rang bo'lib ko'rinxaydi,

Rang sezish haqida turli-luman nazariyalar mavjud. **Uch komponentli nazariya** umumiyligida qabul qilingan nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra, to'r pardada rangni sezadigan uch xil kolbachalardan maxsus kimyoviy modda boladi. Ba'zi kolbachalarda qizil rangni sezadigan modda, ikkinchi xil kolbalarda yashil rangni sezadigan modda, uchinchi xil kolbachalarda binafsha rangni sezadigan modda bor. Bu nazariyani avval M.V.Lomonosov keyinchalik T.Yong va G.Celmgols ta'riflab bergan edi. Har bir rang kolbachalardagi rang sezuvchi elementlarning uchala turiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rang sezuvchi moddalarning parchalanishi natijasida asab oxiri ta'sirlanadi. Miya po'stlog'iga yetib borgan qo'zg'alishlar bir-biriga qo'shilib, ma'lum bir rang sezgisini beradi.

Shunday qilib, uchta asosiy rangga yarasha uch xil kolbacha -hujayralar bor. Hujayralarning har bir turida shu ranglarning bittasini juda ham sezadigan modda bo'ladi. To'r pardanining reaksiya ko'rsatuvchi bunday elementlari **dominantlar** deb ataladi. To'r pardanining boshqa ganglionar hujayralarida esa to'lqin uzunligi faqat muayyan miqdorda bo'lgan nurlar tushurilgandagina impulslar kelib chiqadi. To'r pardanining **modulatorlar** degan elementlari shunday reaksiya ko'rsatadi. R.Granitning fikricha, to'lqin uzunligi har xil (400 dan 600 mmk gacha) bo'lgan nurlarga reaksiya ko'rsatuvchi 7 modulyator hor.

# **LABORATORIYA MASHG'ULOTLARNI BAJARISH BO'YICHA**

## **USLUBIY KO'RSATMALAR**

### **Laboratoriya mashg'uloti №1**


**Mavzu: Laboratoriya darslarida qo'llaniladigan apparatlar, asboblar va eritmalar.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanidan laboratoriya darslarida qo'llaniladigan apparatlar, asboblar va eritmalar xaqida ma'lumot berish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** elektrostimulyator, kimograf, miograf, katta qaychi, ko'z qaychisi, skalpel, preparoval igna, uchi egilgan pintset, qisqich, anatomik pintset, shtativ.



**Nazariy tushuncha:** Fiziologiya fanining laboratoriya darslarida qo'llaniladigan apparatlarni biz ikki guruhga bo'lismiz mumkin:

A). Stimullovchi, ya'ni ta'sirlovchi - bu apparatlardan eng keng tarqalgani elektrostimulyatorlardir. Masalan: ESL-1.(1-rasm). Bu apparat ko'pincha to'qimalarga ritmik elektr ta'sir berish uchun ishlatiladi. Elektrostimulyator o'rniiga biz oddiy galvanik elementdan ham foydalanishimiz mumkin. Lekin elektrostimulyatorlarning bir qancha afzallik tomonlari bor, ya'ni ular yordamida biz tirik ob'ektga har-xil kuchga, chastotaga va har xil davomiylikdagi (vaqt bo'yicha) bir yoki bir necha elektro ta'sirot berishimiz mumkin. Bu bilan biz har bir to'qimaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin.



**1-rasm. O'quv elektrostimulyatorining umumiyo ko'rinishi.**

B). Registrlovchi apparatlar, ya'ni yozib oluvchi apparatlar. Laboratoriya qo'llaniladigan eng oddiy registrlovchi apparat bu kimograf (2-rasm) va miograflardir (3-rasm). Ular birga ishlovchi apparatlar bo'lib, ularning vazifasi muskullarning ta'sirotlarga bo'lgan javob reaksiyalarini yozib olishdir. Shu maqsadda kimograf barabaniga qog'oz o'raladi va yozishga moslashtirilgan miograf richagining bir uchiga tekkizib qo'yiladi. Miograf richagining ikkinchi uchi esa muskulga ulanadi. Natijada, birga ishlaydigan registrlovchi apparat hosil bo'ladi.




### 2-rasm. Kimograf

1-baraban, 2-soat mexanizmi,  
3-friktsion uzatkich, 4-pirpirak

### 3-rasm. Miograflar

2. Laboratoriya darslarida asosan quyidagi asboblar ishlataladi: skalpel, katta va kichik qaychilar, preparoval nina, pintset, qisqich, kanyula va tirik ob'ektni taxtachaga mixlab qo'yish uchun ishlataladigan maxsus ninalar kerak bo'ladi.



4-rasm. Fiziologiyadan amaliy ish bajarishda qo'llaniladigan asosiy asboblar: 1-katta qaychi, 6-ko'z qaychisi, 3-skalpel, 4-preparoval igna, 5- uchi egilgan, ko'z pintseti, 6-qisqich, 7-anatomik pintset, 8-qisqich, 9-fiksatsiya ignalari, 10-ip.

3. Laboratoriya darslarida qo'llaniladigan eritmalar quyidagi jadvalda berilgan:

Modda-larning nomi	Fiziologik eritma		Baqa uchun ringer eritmasi	Issiqqonlilar uchun ringer-lokk eritmasi	Issiqqonlilar uchun tirode eritmasi
	Sovuqqo nlilar uchun	Issiqqonlilar uchun			
Дисстилланган сув	100мл	100 мл	100 мл	100 мл	100 мл
NaCl	0,65 г	0,9 г	0,65 г	0,9 г	0,8 г
KCl	-	-	0,014 г	0,042 г	0,02 г
CaCl	-	-	0,012г	0,024 г	0,02 г
NaHCO <sub>3</sub>	-	-	0,01 г	0,02 г	0,02 г
MgCl <sub>2</sub>	-	-	-	-	0,01 г
Na <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	-	-	-	-	0,005г
Глюкза	-	-	-	0,1г	0,1г

### Laboratoriya mashg'uloti № 2

**Mavzu: Baqani harakatsiz holatga keltirish usullari**

**Ishning maqsadi:** Baqani harakatsiz holatga keltirish usullari bilan tanishib chiqish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** baqa, preparoval nina, qaychi, efir, spirt, uretan.

#### **Ishning bajarilishi**

Baqani harakatsiz holatga keltirishning 3 ta usuli mavjud:

**1). Bosh miya va orqa miyani buzish.** Baqani chap qo'lga olib, shu qo'lning ko'rsatkich barmoqini baqaning ustki jag'iga qo'yib, boshini pastga egamiz. Shu holatda baqa boshining ensa qismida chuqurcha hosil bo'ladi. Shu chuqurchaga preparoval ninani kiritib, avval orqa miyani, keyin bosh miyani buzamiz. Shunda baqaning barcha muskullari bo'shashib, unda xech qanday reflektor reaksiyalar ro'y bermaydi, baqani harakatsiz holatga keltirishning bu usulida juda kam qon yo'qotiladi.

**2). Bosh miyani dekapitatsiya yo'li bilan olib tashlash va orqa miyani buzish.** Bunda ham baqani chap qo'lga olib, o'ng qo'limizdagi qaychi bilan baqaning yuqorigi jag' qismining nog'ora pardalarining orqa chegarasidan kesib tashlaymiz. Shunda bosh bilan birga bosh miya ham kesilib ketadi. Keyin ochilib qolgan orqa miya kanaliga preparoval ninani kiritib, orqa miyani buzamiz.

**3). Narkoz qo'llash (efir, spirt, uretan).** Baqaga narkoz berish maqsadida 10% li spirt yoki 2% li efir eritmalar qo'llaniladi. Buning uchun baqani shu eritmalaridan biriga 10-15 min. ga tushirib qo'yamiz. Baqa muskullarining bo'shashishi va harakatsizligi narkoz ta'siridan dalolat beradi. Uretan baqaning terisi ostiga yuboriladi. Buning uchun 1 ml 5% li uretan eritmasi bizga etarli bo'ladi. Narkozning ta'siri 10-15 min. dan keyin bilinadi.

### Laboratoriya mashg'uloti №3

**Mavzu: Refleks va refleks yoyini tahlil qilish**

**Ishning maqsadi:** Refleks yoyining 5 ta zvenodan iborat ekanligini laboratoriya sharoitida isbotlash.

**Kerakli jihozlar:** baqa; 0,5% li N<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, novokain yoki 1%-li KCl eritmalari, shtativ, filtr qog'oz, skalpel, qaychi, pintset.

### Ishning bajarilishi

Orqa miyasi butun baqani tayyorlab, pastki jahidan shtativga osib qo'yamiz. Keyin shu baqanining o'ng oyog'ini son qismidagi quymich nervini ochamiz va shu nerv tagidan ip o'tkazib qo'yamiz.

Shundan keyin baqaning oyog'ini pintset bilan qisib ko'ramiz. Agar baqa ta'sirotga javob bersa, quyidagi tajribalarini o'tkazamiz.

#### 1. Retseptorlarning reaktsiyalarda ishtirot etishini aniqlash .

A). Baqa o'ng oyog'ining boldir qismidagi terisiga, 0,5% H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ga shimdirligan filtr qog'ozni yopishtirib qo'yamiz. Bu ta'sirotga baqa juda yaxshi javob beradi. Keyin filtr qog'ozni baqanining terisidan olib tashlab, o'rmini suv bilan yuvib tashlaymiz.

B). Xuddi shu oyoqning boldir qismidan terining bir qismini kesib tashlaymiz va ochiq holgan muskul to'qimasiga yana H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ga shimdirligan filtr qog'ozni yopishtirib ko'yamiz. Bu ta'sirotni baqa sezmaydi. Chunki ta'sirotni sezuvchi retseptorlar kesib tashlangan teri bilan birgalikda ketgan.


#### 2. Afferent tolalarning ahamiyatini aniqlash.

A). Muskuldan kislotani yuvib tashlab, refleks saqlanib qolganini ta'sirot berib aniqlaymiz.

B). O'ng oyog'ida ochilgan quymich nervini ko'tarib, ostiga novokain eritmasiga yoki 1% li KCl eritmasiga botirilgan paxtani qo'yamiz. Bu moddalar nerv tolasining o'tkazuvchanligini buzadi. Ya'ni bunda avval afferent tolalar, keyin efferent tolalar o'tkazuvchanligini yo'qotadi. Buni biz baqanining shu oyog'iga ta'sirotlar berish bilan aniqlab olishimiz mumkin. Bunda falajlangan oyoq ta'sirotlarga javob bermaydi va chap oyoqqa nisbatan uzunroq bo'lib qoladi. Shunday qilib, biz afferent tolalarini refleks yoyining doimiy tarkibiy qismini tashkil etishini bilib olamiz.

**3. Efferent tolalarining ahamiyatini aniqlash.** Afferent tolalarining ahamiyatini aniqlashga doir tajribalarni o'tkazib bo'lganimizdan keyin ana shu baqanining chap oyog'iga mexanik ta'sirot yoki bel qismiga kislota ta'sir ettirsak, har ikkala holda baqa ham chap, ham o'ng oyoqlarini harakatga keltirish bilan javob beradi. Bu tajribadan biz efferent tolalarning o'z o'tkazuvchanligini yuqotmaganligi va refleks yoyida albatta ishtirot etishini bilib olamiz.

**4. Markaziy nerv sistemasining ahamiyatini aniqlash.** Markakaziy nerv sistemasining refleks yoyida qatnashishini isbotlab, biz baqanining orqa va bosh miyalarini preparoval nina bilan buzib, har-xil ta'sirot berib ko'ramiz. Bu ta'sirotlarga baqa hech qanday javob reaktsiyasini bermaydi. Demak tajribalar asosida biz har qanday refleksning refleks yoyida quyidagi zvenolari bor deb hisoblashimiz mumkin (5-rasm).



**5-rasm. Orqa miya reflekslarining refleks yoyi (sxema). O'ngda- somatik, chapda – vegetativ refleks yoyi;** 1-retseptor, 2-afferent yo'l, 3-orqa miya gangliysi, 4 – orqa miya, 5 – oraliq yoki tutashtiruvchi neyron, 6- efferent neyron tana hujayrasi, I-retseptor, II-afferent yul, III-markaziy nerv sistemasi, IV-efferent yo'l, V-effektor.

**Laboratoriya mashg'uloti №4**  
**Mavzu: Ketma-ket induktsiyani kuzatish.**

**Ishning maqsadi:** Baqada orqa miyaning ketma – ket induktsiya hodisasini kuzatish.  
**Kerakli jihozlar:** baqa, pintset, shtativ, filtr qog'oz, 0,3 %li-  $H_2SO_4$ , qaychi.

**Ishning bajarilishi**

**1-tajriba.** Orqa miyasi buzilmagan, shtativ ilmog'iga osilgan baqaning orqa oyoqlariga pintset bilan birin- ketin kuchsiz tasir beriladi. Ikkinchchi ta'sir birinchidan keyin darhol berilishi kerak. Baqa oldin ikkinchi tasirga, keyin birinchi ta'sirga javob beradi.

Bu hol ketma-ket induktsiya qonuniga muvofiq ro'y beradi.

**2-tajriba.** Orqa miyasini buzmasdan shtativ ilmog'iga osilgan baqaning orqa oyoqlaridan biri pintset bilan qattiq qisib turilsa, bunga baqa butunlay javob bermaydi, chunki kuchli tasir natijasida tormozlanish hosil bo'ladi. Agar tasir kursatish to'xtatilsa, baqa kuchli harakat qiladi.

Bu hol tormozlanishdan keyin hosil bo'ladigan ketma-ket musbat induktsiya tufayli ro'y beradi.

Orqa miya reflekslarining koordinatsiyasi bilan tanishish uchun bir parcha filtr qog'ozni sulfat kislotaga qo'llab baqaning chap biqiniga qo'yiladi. Baqa shu qog'ozni chap oyog'i bilan olib tashlashga harakat qiladi.

Agar baqaning chap oyog'i qattiq ushlab turilsa (yoki kesib tashlansa) baqa qog'ozni o'ng oyog'i bilan olib tashlashga harakat qiladi. Bunga nerv markazlarining o'zaro kelishib ishlashi sabab bo'ladi.

Orqa miya nerv markazlarining bir-biri bilan o'zaro kelishib ishlash xususiyati koordinatsiya deyiladi. Koordinatsiya qo'zg'alishning bir nerv markazidan, ikkinchi nerv markaziga o'tishidir.

**Laboratoriya mashg'uloti № 5**  
**Mavzu: Sechenov tormozlanishi.**


**Ishning maqsadi:** Markaziy nerv sistemasidagi tormozlanish hodisasini kuzatish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Baqa, metanol, 0,5%- li  $H_2SO_4$ , osh tuzi kristallari, fiziologik eritma, paxta, bint, filtr qog'oz, qaychi, skalpel.

**Ishning bajarilishi**


Baqani bint bilan o'rab, chap qo'lga olamiz va skalpel bilan burun teshiklari orqa tarafidan terini ko'ndalangiga kesamiz. Keyin ko'ndalangiga kesilgan terini chekkalaridan baqaning bo'yin tarafiga bo'yamasiga kesamiz. Kesilgan teri bo'lagini baqaning elka tarafiga tortib qo'yamiz.

Shundan so'ng ochilib qolgan kalla qutisini xuddi shu o'lchamda ehtiyyotkorlik bilan kesib ochamiz. Ochilib qolgan bosh miya katta yarim sharlarini orqa tarafidan kesib, bosh miyaning boshqa qismlaridan ajratib qo'yamiz va baqani shtativga osib qo'yamiz. 5-7 min. vaqt o'tgach refleksning o'rtacha vaqtini aniqlaymiz.



#### **6-rasm.Baqa bosh miyasini ochish tartibi.**

1-kalla suyagi ustidagi terini kesib ajratilgan holati;  
2-kalla suyagi tomining ochilgan holati



#### **7- rasm. Sechenov tajribasi uchun bosh miya va uning kesiladigan chizig'i.**

1-hid biluv nervi, 2- hid biluv bo'laklari, 3- katta yarim sharlar, 4- kesuv chizig'i, 5-o'rta miya, 6-miyacha, 7-uzunchoq miya.

Keyin bosh miyada to'planib holgan namliklarni filtr qog'ozni bilan quritib, ko'rish bo'rtiqlariga tuz kristallarining bitta kristalini qo'yamiz. Shundan so'ng baqaga biror ta'sir berib, refleks vaqtini aniqlaymiz va olingan natijalarni daftarga yozib boramiz. Odatda tuz ta'sirida refleks vaqt cho'zilishi yoki umuman ro'y bermasligi mumkin. Bu xodisa markaziy nerv sistemasidagi tormozlanish yoki Sechenov tormozlanishi deyiladi.

#### **Laboratoriya mashg'uloti №6**

**Mavzu:** Tyurk usuli bo'yicha refleks vaqtini aniqlash va bu vaqtning ta'sir kuchiga bog'liqligini tekshirish.

**Ishning maqsadi:** Refleks yuzaga kelishi uchun ma'lum vaqt o'tishi kerakligiga va shu vaqtning ta'sir kuchiga bog'liqligiga ishonch hosil qilish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** baqa, ilgakli shtativ, kesish uchun asboblar, sekundomer, sulfat kislotaning 0,1; 0,25; 0,5 va 1,0%-li eritmasi solingan shisha banka yoki stakan.


**Nazariy tushuncha:** Refleks vaqt - retseptor ta'sirlanishidan boshlab to efferent javob yuzaga kelguncha o'tgan vaqt bo'lib, u qator omillarga: markaziy nerv sistemasining funktsional holatiga, ta'sir kuchiga va ishchi organning holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, nerv markazi yoki ishchi organ charchaganda refleks vaqt uzayadi, ta'sir kuchi ortganda esa refleks vaqt qisqaradi.

Refleks vaqtini quyidagi komponentlardan - retseptorlar va effektorlarning yashirin (latent) davrlari (1), qo'zg'alishning markazga intiluvchi va markazdan qoluvchi nerv tolalaridan o'tish vaqtini (2) hamda qo'zg'alishning nerv markazidan o'tish vaqtini (3) yig'indisidan iborat.

Refleks vaqtini Tyurk usuli bo'yicha aniqlash va uning ta'sir kuchiga bog'liqligini orqa miyasi shikastlanmagan baqada kuzatish mumkin.

### Ishning bajarilishi

a) Tyurk usuli buyicha refleks vaqtini aniqlash. Baqaning bosh miyasi kesib tashlanadi va pastki jag'idan shtativ ilgagiga osiladi. Bir oz vaqt (5-6 minut) o'tgandan keyin bir ho'lda sekundomer, ikkinchi ho'lda sulfat kislotaning 0,5%- li eritmasi solingan stakanni ushlab baqaning keyingi oyoqlaridan biri eritmaga tushiriladi. Shu vaqtdan boshlab to baqa oyog'ini tortib olguncha o'tgan vaqt sekundomer bilan o'lchanadi, so'ngra baqa oyog'ini suvli bankaga



tushirib chayiladi.

### 8-rasm. Refleks vaqtini aniqlash buyicha tajriba sxemasi

b) Refleks vaqtining ta'sir kuchiga bog'liqligini tekshirish. Tajriba oldindi ishda tekshirilgan baqada bajariladi. Buning uchun baqaning keyingi oyoqlaridan birini sulfat kislotaning 0,1; 0,25; va 1,0%-li eritmasiga tushirib, refleks vaqtini aniqlanadi. har bir eritma ta'sir ettirilgandan keyin baqa oyog'ini bankadagi suvga tushirib chayiladi.

Olingen natijani quyidagi sxema shaklida daftarga yozing. Ular asosida grafik chizib xulosa chiqaring.

Sulfat kislota (% li)	Refleks vaqtி (sek)
0,1	
0,25	
0,5	
1,0	


**Laboratoriya mashg'uloti № 7**  
**Mavzu: Muskul ishini yozib olish**  
**(ergografiya)**

**Ishning maqsadi:** Charchashning rivojlanishiga ish hajmi va tezligining ta'sirini aniqlash.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Ergograf, 2, 3, 4 kg li toshlar, elektrometronom, sekundometr.

**Nazariy tushuncha:** Ergografiya odam tanasining biror qismining harakat qilib, to charchaguncha bajargan ishini yozib olish demakdir. Muskul ishi ergografda yozib olinadi.

Ergograf ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi qo'lning harakatini cheklash uchun, ikkinchi qismi muskul qisqarishlarini yozib olish uchun xizmat qiladi. Ergografida barmoqni bukib ish bajariladi. Bunda qo'lning bilak qismi va boshqa barmoqlar maxsus moslama yordamida harakatdan to'xtatib qo'yiladi.



**11-rasm. Ergografning umumiy ko'rinishi.**

**Ishning bajarilishi**

Muskul ishini yozib olish va bajariladigan ishning og'irligi hamda ritmik ta'sirini aniqlash uchun sinaluvchi odam ergograf qo'yilgan stol yoniga o'tkaziladi. qo'lini ish bajarishga qulay holatda ergografga joylashtiriladi, bunda yuk osilgan o'rta barmoqqa kiygizilgan charm halqaga bog'langan tros tarang turishi kerak. Bilak va boshqa barmoqlar harakatlanmaydigan qilib quyiladi. So'ngra trosning ilgagiga 2 kg yuk osiladi. harakatni qayd qiluvchi pero barabanga tegizib qo'yiladi. Elektrometronom minutiga 60 marta tebranadigan holatga keltirilib ishga tushiriladi. Sinaluvchi odam metranom tebranishiga barobar tezlikda barmoqini bukish bilan yukni ko'taradi. Ish boshlangan vaqt belgilab qo'yiladi. Sinaluvchi charchaguncha ishlaydi. Ish qancha vaqtida bajarilganligi aniqlanadi. 5-10 minutdan keyin tajriba takrorlanadi va ish qobiliyatni tiklanishi uchun dam olishning foydali ahamiyati belgilanadi. Odam dam olgandan keyin yuk 4 kg ga oshiriladi, lekin ishning bajarilish tezligi avvalgiday (minutiga 60 marta) qoladi. Ergogramma yozib olinadi. Sinaluvchi odam dam olgandan keyin yana metranomning tebranishini minutiga 120 martaga tug'rilib, 2 kg yuk bilan ish bajaradi va qayta yozib olinadi.

Tajriba natijasi quyidagi jadval shaklida ifodalanadi:

Sinaluvchining familiyasi, ismi	Yukning og'irligi (kg)	Yukning 1 minutdagi ko'tarilish tezligi (marta)	Charchaguncha ish bajarish vaqtি
	2	60	
	4	60	
	2	120	

**Topshiriq:** Yozib olingan ergogrammani sxema shaklida chizing. Ergogrammadagi harakat amplitudasining asta-sekin ortib borish vaqtini - ishga kirishish davrini, amplitudasi baland harakatining turg'un davri va charchash - harakat amplitudasining pasaya borish davrini belgilang.

### Laboratoriya mashg'uloti № 8


**Mavzu: Muskul kuchini o'rganish (dinamometriya)**

**Ishning maqsadi:** Odam muskuli kuchini o'lchash usuli bilan tanishish

**Kerakli jihozlar va materiallar:** qo'l (panja) kuchi va gavdaning tiklanish kuchini o'lchaydigan dinamometrlar.

**Nazariy tushuncha:** Ish sharoitida ayrim muskul gruppalarining kuchini o'lchash dinamometriya deb ataladi. U muskul kuchi optimal qisqarish sharoitida ko'tara olgan yuk miqdori bilan o'lchanadi.

Muskul kuchi, uning massasi va fiziologik ko'ndalang kesimiga bog'liq, u asosan dinamometr bilan o'lchanadi.



**12-rasm. Dinamometrlar: 30 kg va 90 kg li qo'l dinamometrlari, gavdaning tiklanish kuchini o'lchaydigan 500 kg li dinamometr**

#### **Ishning bajarilishi**

Sinaluvchi odamning o'ng va chap qo'l (panja) barmoqlarining bukuvchi muskullari kuchi qo'l dinamometri bilan quyidagicha o'lchanadi: oldin sinaluvchi maksimal kuchlanish bilan bog'liq harakat mashqini bajaradi. So'ngra o'ng qo'liga dinamometr olib maksimal kuchlanish bilan 1-2 minut oralatib 5 marta qisadi va olingan eng yuqori ko'rsatkich panja muskullarining maksimal kuchi bo'lib hisoblanadi. Xuddi shu tajriba chap qo'lida amalgalashiriladi. So'ngra o'ng va chap panja muskullari kuchining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi, xatoligi va o'rtacha kvadrat farqlanishi aniqlanadi.

Keyin gavdaning tiklanish kuchini o'lchaydigan dinamometr bilan egilgan gavdani maksimal tiklab, bir necha minutlik tanaffus bilan 5 marta o'lchanadi. Bu tajriba uchun ham o'rtacha arifmetik qiymat, xatolik va o'rtacha arifmetik farqlanishi aniqlanadi.

Har qanday muskullar guruhining kuchi odamning yoshi va jinsiga bog'liq: 20 yoshdan 30 yoshgacha muskul kuchi eng yuqori bo'ladi. Tajriba natijasi quyidagi jadval shaklida ifodalanadi:


Muskullar guruhi	Tekshirish soni					$x \pm m$	$s_x$
	1	2	3	4	5		
1.O'ng qo'l barmoqlarni bukuvchi muskul kuchi (kg)							
2.Chap qo'l barmoqlarining bukuvchi muskul kuchi (kg)							
3.Gavdani tiklovchi muskullarining kuchi (kg)							

### Laboratoriya mashg'uloti № 9 Mavzu: Ko'z o'tkirligini aniqlash

**Ishning maqsadi:** Ko'z o'tkirligini Golovin jadvali orqali aniqlash. Bu jadvalda raqamlar turlicha bo'lib, yuqoridan pastga tomon kichiklashib boradi.

Tekshiruvchi odamni turli masofaga qo'yib, raqamlarni ko'rsatish noqulay bo'lgani uchun normal ko'z 5 metr naridan ko'rib o'qiy oladigan qatorni normal ko'z o'tkirligi deb hisoblanadi.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Golovin jadvali, metr, ko'rsatkich.



**9-rasm. Ko'z o'tkirligini aniqlash uchun Golovin jadvali**

**Nazariy tushuncha:** Normal ko'z o'tkirligi ikki narsaning bir-biriga qo'shilib ketmasdan alohida bo'lib ko'rinishi uchun zarur bo'lgan shu ikki narsa orasidagi eng kichik masofa bilan aniqlanadi.

#### **Ishning bajarilishi**

Ko'z o'tkirligini aniqlash uchun jadval yorug'lik yaxshi tushib turadigan devorga osib qo'yiladi. Bunda tekshiriluvchi odam 5 metr nariga o'tiradi yoki o'sha joyda tik turadi. Bir ko'zini berkitib, jadvalning yuqorisidan pastga tomon har qatordagi raqamlarni o'qiy boshlaydi. Tekshiruvchi jadval oldida turib, har qatordagi raqamlarni ko'rsatgich bilan ko'rsatib turadi. Bunda tekshirilayotgan odam qaysi qatorga kelib xato qilsa, o'sha qatordan yuqoridagi qatorni to'g'ri o'qigan bo'ladi. Masalan: 6-qatorda xato qilsa, u 5-qatorni to'g'ri o'qigan bo'ladi.

Binobarin bunda shu qatorning yonida yozilgan masofaga qarab 12,5 ni ko'ramiz. Demak, uning ko'z o'tkirligi:  $5 : 12,5 = 0,4D$  ga teng.


Savodsiz odamlar uchun jadvalning bir tomoniga ochiq halqalar tushirilgan bo'ladi. Bunda tekshiriluvchi odam shu halqaning qaysi tomoni ochiq ekanligini aytib berishi kerak (o'ng, chap, yuqori, past).

### Laboratoriya mashg'uloti № 10

**Mavzu: Ko'zning ko'r dog'ini aniqlash.**

**Ishning maqsadi:** Laboratoriya sharoitida ko'zning ko'r dog'ini hamda shu dog'ning diametrini aniqlash.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** ko'r dog'ini aniqlaydigan rasm, bir varaq qog'oz, oq qog'ozga o'ralgan qalam, lineyka.



**10-rasm. Ko'r dog'ini aniqlaydigan rasm-sxema**

#### **Ishning bajarilishi**

Ko'zlarimizning oldiga rasmni joylashtirib, o'ng ko'zimizni berkitamiz, chap ko'zimiz bilan esa rasmdagi xochga qaraymiz. Shu holatda rasmni ko'zimizga yaqinlashtirib va uzoqlashtirib boramiz. Shunda ko'zdan ma'lum masofada rasmdagi doira ko'rinnmay qoladi. Chunki bu vaqtida doiradan keluvchi nurlar ko'zning ko'r dog'iga to'g'ri kelib qoladi.

Ko'r dog'ning diametrini aniqlash uchun toza qog'ozning yuqorigi chap burchagiga xochni chizib, (10-rasm) o'ng qo'limiz bilan shu xochga qaraymiz (fiksatsiya qilish). Bunda chap ko'z yopiladi. Shu holatda ko'zning yuqorigi o'ng burchagidan xoch chizilgan chap burchagiga qarab, oq qog'ozga o'ralgan qalamni sekin harakatlantiramiz. Xochdan ma'lum masofada (BS) qalam ko'rinnmay qoladi. Shunda qalamni xochga qarab harakatlantiraversak xochdan ma'lum masofada (AS) u yana ko'rina boshlaydi. A va B nuqtalarni qog'ozda belgilab, ko'zning to'r pardasidagi tasvirni chizib olamiz. Bu tasvirdan quyidagi formula kelib chiqadi.

$$AB : A_1B_1 = OK : OL$$

Bu erda:

AB-qog'ozdagи A va B nuqtalar orasidagi masofa.

OK-qog'ozdan ko'zgacha bo'lган masofa

OL-nurlarning kesishish nuqtasidan ko'zning to'r pardasigacha bo'lган masofa. (17mm)  
Yuqoridagi formuladan ko'r dog'i diametrining formulasini keltirib chiqarsa bo'ladi.

$$A_1B_1 = AB \times \frac{OK}{OL}$$

## **Laboratoriya mashg'uloti № 11**

### **Mavzu: Terining issiqni, sovuqni va og'riqni sezuvchi nuqtalarini aniqlash**

**Ishning maqsadi:** 1 sm<sup>2</sup> teri yuzasidagi issiqni, sovuqni va og'riqni sezuvchi nuqtalarni topish va sanab chiqish.

**Nazariy tushuncha:** Odatda 1 sm<sup>2</sup> teri yuzasida o'rtacha 50 ta og'riqni, 25 ta taktil, 12 ta sovuqni va 1-2 ta issiqni sezuvchi nuqtalar bo'ladi.

#### **Ishning bajarilishi.**

Kafning ustki tomonida ignatugmaning o'tmas tomoni bilan issiqni va sovuqni sezuvchi nuqtalarni topamiz. Buning uchun dastlab ignatugma spirtovkada qizdiriladi yoki sovuq holatda ishlataladi. Keyin ignatugmaning o'tkir tomoni bilan og'riqni sezuvchi nuqtalarni topamiz. Aniqlangan nuqtalarni o'sha zahoti har-xil siyohlar bilan belgilab, ishning oxirida 1sm<sup>2</sup> teridagi ularning sonini sanab chiqamiz.

## **Laboratoriya mashg'uloti № 12**

### **Mavzu: Teri retseptorlarining temperatura adaptatsiyasini aniqlash.**

**Ishning maqsadi:** Teri retseptorlarining har-xil temperaturalarga bo'lgan sezgirligi va adaptatsiyasini (moslashishini) aniqlash.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** suv solingen 3 ta idish: 1- idishdagi suvning temperaturasi 10- 15<sup>0</sup>C, 2-idishdaginiki 20-30<sup>0</sup>C, 3-idishdaginiki 40-45<sup>0</sup>C.

#### **Ishning bajarilishi**

O'ng qo'lni birinchi idishga, chap qo'lni esa 3-idishdagi suvga solamiz. 1-2 min. dan keyin ikkala qo'lni 2-idishdagi suvga solamiz. Shunda biz chap va o'ng qo'limizning shu idishdagi suvning temperaturasiga bo'lgan sezgirligiga e'tibor berishimiz va olingan natijalarning sababini tushuntira olishimiz kerak.

## **Laboratoriya mashg'uloti №13**

### **Mavzu: Mikroskop ostida odam va baqa qonidan tayyorlangan preparatlarni ko'rish**


**Ishning maqsadi:** Baqa va odam qonidagi eritrotsitlarni mikroskop orqali ko'rish va ularni solishtirish.

1.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Mikroskop, odam va baqa qonidan tayyorlangan preparatlar.

#### **Ishning bajarilishi**

Mikroskopni kattalashtirib odam va baqa qonidan tayyorlangan preparatlarni ko'ramiz va ularagi eritrotsitlarning o'lchamini, shakli va yadrolarinining bor yoki yo'qligini solishtiramiz. Keyin odam va baqa qonidagi eritrotsitlarni alohida-alohida rasm daftariga chizib olamiz.



**13-rasm. Qonning shaklli elementlari:** A-odam qoni eritrotsilari; B-baqa qoni eritrotsitlari; V- leykotsitlarning har xil shakllari.


**Laboratoriya mashg'uloti №14**  
**Mavzu: Qondagi gemoglobin miqdorini aniqlash.**

**Ishning maqsadi:** Sali gemometri bilan tanishish, qondagi gemoglobin miqdorini aniqlashni ýrganish.


**Kerakli jihozlar va materiallar:** Sali gemometri, skarifikator, xlorid kislotaning 0,1n. eritmasi, distillangan suv, spirt, efir, paxta tamponi.

**Ishning bajarilishi**

Gemometr bo'sh probirkasining 3 gz% (10) belgisigacha 0,1n xlorid kislota solamiz. Keyin barmoqdan qon chiqarib, birinchi tomchisini paxta bilan artib tashlaymiz. Ikkinchchi tomchisini esa kapillyar pipetkaga  $20 \text{ mm}^3$  qon tortib olamiz va 0,1n. xlorid kislota solingan probirkaga solib, kapillyarni shu probirkadagi xlorid kislotasi bilan bir necha marta chayib tashlaymiz. Probirkadagi aralashmani shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtirib, 3-5 minutga tinch qo'yiladi.



**14-rasm. Gemometr**



**15-rasm. Kapillyar pipetka**

Bunda gemoglobin bilan xlorid kislota reaktsiyaga kirishib to'q jigar rangli gematin gidroxlorid birikmasi hosil bo'ladi. So'ngra bu probirkadagi aralashmaning rangi yonidagi ikkita probirkadagi eritma rangi tenglashguncha unga distillangan suv solamiz. Agar probirkadagi eritmaning yuqori sathi shkaladagi 100 ni ko'rsatsa, unda gemogilabinning miqdori 16,67 gz%

ga teng bo'ladi. Agarda tekshirilayotgan qon aralashmasining sathi 80 ni ko'rsatsa, gemoglabin miqdori

$$\begin{array}{r} 100 \quad 16,67 \text{ gz\%} \\ 80 \quad x \\ \hline & 80 \times 16,67 : 100 = 13,3 \text{ gz\% ga teng} \end{array}$$

bo'ladi.

### Laboratoriya mashg'uloti №15

**Mavzu:** Eritrotsitlarning cho'kish tezligini (EChT) aniqlash.


**Ishning maqsadi:** Odam qonidagi eritrotsitlarning 1 soat davomidagi cho'kish tezligini aniqlashni o'rganish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Panchenkov apparati, natriy sitrat (limon kislota) ning 5 % li eritmasi, skarifikator, spirt, paxta.

#### Ishning bajarilishi

Panchenkov asbobidagi kapillyarlardan biriga eritmada 7,5 gacha tortib olamiz. Nomsiz barmoqni skarifikator yordamida teshamiz va birinchi chiqqan qonni artib tashlaymiz. Shundan keyin barmoqni siqib yana qon chiqariladi va kapillyar orqali uning K belgisigacha tortib olamiz va bu kapillyarni Panchenkov asbobidagi chuqurchaga quyib tik xolatda joylashtiriladi va vaqtini belgilab qo'yamiz. 1 soat o'tgach, eritrotsitlarning cho'kish tezligini tekshirib chiqamiz.

Odatda sog'lom odamlarda EChT: erkaklarda 2-10 mm/soat, ayollarda 2-15 mm/soat.



**16-rasm. Panchenkov apparati**

### Laboratoriya mashg'uloti №16

**Mavzu:** Qon guruhlarini aniqlash.

**Ishning maqsadi:** qon guruhlarini laboratoriya sharoitida aniqlashni o'rganish.

**Nazariy tushuncha.** qon guruhini aniqlash gemoagglyutinatsiya reaktsiyasiga asoslangan. Bir kishi qonining zardobi boshqa kishining eritrotsitlarini yopishtirsa, bu hodisa gemoagglyutinatsiya deb ataladi.


Agglyutinatsiya reaktsiyasiga muvofiq, har bir odamning qoni to'rtta guruhdan bittasiga kirishi aniqlangan. qonni guruhlarga bo'lish uning plazmasi tarkibida bo'ladigan yopishtiruvchi modda-agglyutinin (a va b) hamda eritrotsilarda bo'ladigan yopishuvchi modda agglyutinogen (A va B) borligiga asoslangan. A bilan a, B bilan b uchrashgan holatlarda gemoagglyutinatsiya yuz beradi.

Qon guruhlarini aniqlash qon quyishda amaliy ahamiyatga ega. Qon quyishda donor eritrotsitlarining va retsipient qon plazmasining xossalari hisobga olinadi. Donor qoni plazmasining agglyutinatsiyalanish xossasi nazarga olinmaydi, chunki qon juda kam miqdorda quyiladi, bunda u retsipient qoni bilan aralashib ketib, agglyutinatsiyalanish xossasini yo'qotadi. Donor- qon beruvchi odam qonining va retsipient - qon oluvchi odam qonining xossalari tekshirilgandan keyingina qon quyiladi. I guruh qonli odamlar universal donorlar bo'lib, ular boshqa barcha guruh qonli odamlarga qon bera oladi.

Kerakli jihozlar va materiallar: skarifikator, mikroskop, buyum oynasi, 2 ta shisha tayoqcha, I, II, III gr. qon zardobi, spirt, efir, paxta.

### Ishning bajarilishi

Qon guruhlarini aniqlash uchun I, II, III raqamlar yozilgan buyum oynasini oq qog'oz ustiga qo'yiladi va alohida pipetkalar bilan bir tomchidan odamning qon I, II, III guruh qonining standart zardobi tomiziladi. So'ngra barmoq uchini skarifikator bilan teshib, qon chiqariladi va shisha tayoqcha uchini qonga tegizib I zardob bilan, tayoqchaning ikkinchi uchini qonga tegizib II zardob bilan va boshqa tayoqcha uchini qonga tegizib III zardob bilan aralashtiriladi. 3-5 minut o'tgach, har bir zardob tomchisida agglyutinatsiya ro'y bergan-bermaganligi aniqlanadi. Agglyutinatsiya ro'y berganda eritrotsitlar bir-biriga yopishib cho'kmaga tushadi va aralashma tiniqlashadi. qaysi zardobda agglyutinatsiya ro'y berishiga qarab, qon guruhi aniqlanadi. Uchala guruhdagi zardobda agglyutinatsiya ro'y bermasa, tekshirilgan I guruhga kiradi. Agar I va III guruh zardobda agglyutinatsiya ro'y berib, II guruhda ro'y bermasa, qon II guruhga kiradi. Bordi-yu, I va II guruh zardobda agglyutinatsiya ro'y berib, III zardobida bo'lmasa, tekshirilgan qon III guruhga kiradi. Har uchala zardob tomchisida ham agglyutinatsiya ro'y bersa, qon IV guruhga kiradi (17- rasm).



**17-rasm. Qon guruhlarini aniqlash**

Siz tekshirgan qon qaysi guruhga kirishini aniqlang. O'zingizning qoningiz qaysi guruhga kirishi va qoni qaysi guruhda bo'lgan odamga qon berishingiz yoki qon olishingiz mumkinligini daftarga yozing.

### Laboratoriya mashg'uloti №17 Mavzu: Arterial qon bosimini o'lchash

**Ishning maqsadi:** Odamda arterial qon bosimini o'lchash usulini o'zlashtirish.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** sfigmomanometr, fonendoskop yoki stetoskop, spirt, paxta.

**Nazariy tushuncha.** Arterial qon bosimining baland-pastligi yurak sistolik hajmining kattaligiga va qon tomirlari sistemasidagi periferik qarshilikka ya'ni arteriolalar bilan kapillyarlar devorining tonusiga bog'liq. Sog'lom arterial qon bosimi turg'un bo'lib, yurak faoliyatining fazalariga va nafasga bog'liq holda o'zgarib turadi: yurak qorinchalari qisqarishi oxirida sistolik, ya'ni maksimal bosim, diastola vaqtida esa minimal ya'ni diastolik bosim yuzaga keladi. Sistolik va diastolik bosim o'rtasidagi farq puls bosimi deb yuritiladi. Odatda, nafas olish vaqtida qon bosimi ko'tariladi, nafas chiqarish vaqtida, aksincha pasayadi. Muskul ishi va hayajonlanish (emotsiya) qon bosimining ko'tarilishiga sabab bo'ladi, biroq u sog'lom odamlarda ishdan keyin va hayajonlanish o'tib ketgach yana o'z holatiga qaytadi. Odamda arterial qon bosimi, sfigmomanometr yoki sfigmatonometr yordamida o'lchab aniqlanadi. Bu asbob kovak rezina manjetka (rezina xalta), simobli yoki membranali manometr va manjetika havo haydash uchun ko'llaniladigan rezina nokdan iborat.

### Ishning bajarilishi

Talabaning yalang'ochlangan qo'lining (odatda chap qo'lining) elka qismiga - tirsak bo'g'imidan yuqorisiga manjetka o'rab bog'lanadi. Manjetka nayi manometrga tutashtiriladi. Rezina nok yordamida manometrdagi bosim normadagi maksimal bosimdan taxminan 15-20 mm ortguncha manjetkaga havo haydaladi (buni bilak arteriyasida puls yo'qolishidan bilish mumkin). So'ng stetoskop yoki fonendoskopni tirsak bo'g'imi chuqurchasiga (bilak arteriyasining pulsi seziladigan nuqtaga) qo'yib naydagi ventilni bir oz ochish bilan manjetkadan sekin havo chiqariladi. Bunda birinchi puls tovushi eshitilishi vaqtida manometr ko'rsatgan bosim darajasi maksimal, ya'ni sistolik bosim bo'ladi. Manjetkadagi bosim pasayganda puls tovushi yo'qoladi, shu puls tovushi yuqolgan paytda manometr ko'rsatgan bosim minimal, ya'ni diastolik bosim bo'ladi.

Jismoniy ishdan keyingi qon bosimini o'lchash uchun manjetkani vaqtincha manometrdan ajratib, sinaluvchi kishiga jismoniy ish bajarish (20-30marta tez-tez o'tirib turishi yoki 1minut davomida turgan erida tez yugurishi) taklif etiladi va shu zahoti qon bosimi o'lchanadi. Shundan keyin unga 5 minut dam berib qon bosimi yana qayta o'lchab ko'rildi. Jismoniy ishdan keyin qon bosimining o'zgarishi va puls bosimining kattaligi aniqlanadi. 20-40 yoshli odamning bilak arteriyasidagi sistologik, ya'ni maksimal bosim tinch turganda normada 110-125 mm s.u. ga teng. Jismoniy mashq bilan shug'ullanib, chiniqqan odamda puls soni kamayishi singari arterial qon bosimi ham pasaygan bo'ladi. Bunday holni sport gipotoniyasi deb ataladi.

### Laboratoriya mashg'uloti №18

**Mavzu: Odam qoni tarkibidagi eritrotsitlarning miqdorini aniqlash.**


**Ishning maqsadi:** 1mm<sup>3</sup> odam qoni tarkibidagi eritrotsitlarning sonini aniqlash.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** Mikroskop, Goryaev kamerasi, melanjer (suyultirgich va aralashtirgich), skarifikator, paxta, 3 % li NaCl eritmasi, natriy oksalat eritmasi, spirt, efir, qoplag'ich oyna.


### Ishning bajarilishi

Barmoqni spirt bilan dezinfektsiyalab, skarifikator bilan teshamiz. Barmoqdan chiqqan birinchi tomchi qonni paxta bilan artib tashlab, keyingi tomchisini melanjerga havo pufaklarini qoldirmasdan 0,5 belgisigacha tortib olamiz. Melanjorda havo pufakchasi bo'lmasligi uchun uning uchi doimo qon tomchisi ichida bo'lishi kerak.


Shundan keyin xuddi shu melanjerga 101 belgisigacha NaCl ning 3 % li eritmasini tortib olamiz. Bunda qon 200 marta suyuladi. Melanjerning ikkala uchini qo'limiz bilan berkitib, uni chayqab qonni yaxshilab aralashtiramiz. Qoplag'ich oynani olib, Goryaev kamerasining oynasiga zichlab qo'yamiz va nyuton xalqlari (kamalak) hosil bo'lguncha bosh barmog'imiz bilan bosib turamiz.



**18-rasm. Aralashtirgich; A- eritrotsitlar uchun, B – leykotsitlar uchun**



**19-rasm. Skarifikator bilan qon olish (a), qonni melanjerda aralashtirish (b) va oyna qoplag'ichini Goryaev kamerasiga o'rnatish (v) tartibi.**



**20-rasm. Goryaevning hisob kamerasi va uning to'ri: A- kameraning ustidan ko'rinishi; B – yonidan ko'rinishi; V – kamera to'ri; a – kichik kvadrat, b – katta kvadrat**

Melanjerdagi suyuqlikning 1:3 qismini paxtaga chiqarib, qolgan qismidan bir tomchisini Goryaev kamerasining yon tomonidan qoplag'ich oyna tagiga tomizamiz. Shu holatda tayyor bo'lган preparatni mikroskop ostiga qo'yib, avval kichik, keyin kattalashtirib topib olamiz va eritrotsitlarni 80 ta kichik kvadratda (5 ta katta katak) sanashga kirishamiz. Eritrotsitlarni sanab bo'lgach, quyidagi formulaga qo'yib,  $1\text{mm}^3$  qondagi eritrotsitlarning miqdorini aniqlaymiz:

$$X = E \times 4000 \times 200 : (5 \times 16) \quad \text{Bu erda:}$$


X-1  $\text{mm}^3$  qondagi eritrotsitlar miqdori;  
 E- 5 ta katta katakdagi eritrotsitlar soni; ( $5 \times 16 = 80$ )  
 200- qonning suyulish darajasi.  
 4000-bitta kichik kvadratning hajmi  
 Odatda sog'lom odamning  $1\text{mm}^3$  qonida erkakdarda 4,5-5 mln., ayollarda 4-4,5 mln. eritrotsit bo'ladi.

### **Laboratoriya mashg'uloti №19**

#### **Mavzu: Odam qoni tarkibidagi leykotsitlar miqdorini aniqlash.**

**Ishning maqsadi:** 1  $\text{mm}^3$  odam qoni tarkibidagi leykotsitlar miqdorini aniqlash.

**Kerakli jihozlar va materiallar:** mikroskop, Goryaev kamerasi, leykotsitlar uchun melanjer, skarifikator, paxta, 0,5 % li sırka kislotasining genitsianviolet (100 ml eritmaga 5-6 tomchi genitsianvioletning spirtdagi eritmasi)li eritmasi, spirt, efir, qoplag'ich oyna.



#### **21-rasm. Goryaev kamerasida leykotsitlarni hisoblash**

##### **Ishning bajarilishi**

Leykotsitlarni hisoblash uchun aralashtirgichning 0,5 belgisigacha qon suriladi va metilen kuki bilan bo'yalgan sırka kislotasining 5%-li eritmasi bilan 11 belgisigacha to'ldiriladi. Sırka kislota ta'sirida eritrotsitlar qobig'i parchalanadi, leykotsitlar yadrosi metilen ko'ki bilan bo'yaladi va yaxshiroq ko'rindigan bo'lib qoladi. So'ngra aralashtirgichni chayqab qon yaxshilab aralashtiriladi va 3-5 daqiqa kutiladi. Suyultirilgan qondan Goryaev kamerasining to'ri ustiga bir tomchi tomiziladi va mikroskop ostida 25 ta katta kvadratdagi leykotsitlar soni sanaladi. 1  $\text{mm}^3$  qondagi leykotsitlar soni quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$X = L \times 4000 \times 20 : (25 \times 16); \quad \text{Bu erda:}$$

X-  $1\text{mm}^3$  qondagi leykotsitlarning umumiy miqdori.

L- 25 ta katta yoki 400 ta kichik katakda sanalgan leykotsitlar soni: 20- qonning suyultirilish darajasi.

Odatda sog'lom odamning  $1\text{mm}^3$  qonidagi leykotsitlar 6000- 8000 tagacha bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Lauralee Sherwood. Essentials of Human Physiology. By Elsevier. 2013
2. Stuart Ira Fox Human Physiology. Nhe McGraw Hill Companies. 2011
3. Покровский В. М., Коротко Г. Ф. Физиология человека: Учебник в двух томах. - М.: Медицина, 2001. - 467с
4. Sturkie P.D. Basic Physiology. New York Heidelberg Berlin. 1981. 556 Р.
5. GaryG. Matthews. Cellular Physiology of Nerve and Muscle. Department of Neurobiology state University of New York at Stony Brook. 2003.
6. Linda S. Costanzo. Physiology. Professor of Physiology and Biophysics Virginia Commonwealth University School of Medicine Richmond, Virginia. SaundersElsevier.com. 2014.
7. David Sh et al., Human anatomy and physiology. Boston, Massachusetts. Me Graw Hill, 1996. - 1070c.
8. Алматов К.Т. Алламуратов Ш.И. Одам ва ҳайвонлар физиологияси. Тошкент: ЎзМУ, 2004. – 580 6.
9. Клемешева Л.С., Алматов К.Т., Матчанов А.Т.Физиология кровообращения. Физиология сердца. - Ташкент: НУУз., 2003. - 148с.
10. Клемешева Л.С., Алматов К.Т., Матчанов А.Т.Физиология кровообращения. Физиология сосудистой системы. - Ташкент.: НУУз., 2004. - 120с.
11. Клемешева Л.С., Алматов К.Т., Матчанов А.Т. Қон айланиши физиологияси. Юрак физиологияси. – Ташкент.: ЎзМУ., 2006. – 1476.
12. Алматов К.Т., Кахаров Б.А. Ички муҳит физиологияси. Тошкент: Top Image Media, 2007, 222 С.
13. Ноздрачев А.Д., Баранников И.А., Батуев А.С. и др.Общий курс физиологии человека и животных. - М.: Высшая школа, 1991. 1 кн. - 511с., 2 кн. - 527с.
14. Алматов К.Т. Одам ва ҳайвонлар физиологиясидан ўқув-услубий мажмуа. Тошкент, 2011.
15. Клиническая биохимия под ред. акад., В.А. Ткачука. -М: ГЭОТАР-МЕД, 2002. - 358с.
16. Клемешева Л.М., Алматов К.Т., Матчонов А.Т. Возрастная физиология. - Ташкент: НУУз., 2002. - 123с.
17. Батуев А.С. Малый практикум по физиологии человека и животных, Изд-во С-П. ун-та, 2001. - 345с.
18. Азизходжаева Н.Н. Замонавий педагогик технологиялар. Тошкент. 2002.
19. Махкамов У.И. Олий таълим жараёнида замонавий педагогик технология асосида ўқув фаолиятини ташкил этиш услуг ва воситалари. Тошкент, 2007.

## **MUSTAQIL TA'LIM BUYICHA MATERIALLAR** **( MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI)**

### **Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanidan mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

	<b>Mavzular</b>	<b>Topshiriqlar</b>
1	2	3
1	Odam va hayvonlar fiziologiyasi faniga kirish	<p>1.Fiziologiya fanining predmeti va tekshirish usullarini izohlang.</p> <p>2.Fiziologiya faniga o'z hissasini qo'shgan chet ellik va O'zbekistonlik olimlarni aniqlang hamda ular haqida ma'lumot bering.</p>
2	Qo`zg`aluvchan fiziologiyasi to`qimalar	<p>1.Qo`zg`aluvchan to`qimalar va ularning xususiyatlarini ta'riflang.</p> <p>2.Tinchlik va harakat potensiali nima.</p>
3	Mushak tizimining umumiy fiziologiyasi	<p>1.Targ'il va silliq mushaklarning tuzilishi va innervasiyasini ta'riflang.</p> <p>2.Mushak qisqarishlarining turlari va rejimini izohlang.</p> <p>3. Mushaklarning qisqarish mexanizmini tushuntiring.</p> <p>4. Umurtqali va umurtqasiz hayvonlarning muskullarini ta'riflang.</p>
4	Nerv sistemasining umumiy fiziologiyasi	<p>1. Umurtqali va umurtqasiz hayvonlar nerv sistemasining o'ziga xos taraflarini aniqlang.</p> <p>2.Neyronlarning tuzilishi va funksiyasini ta'riflab bering.</p> <p>3.Sinapslarning turlari va ahamiyatini ta'riflang.</p> <p>4.Markaziy asab tizimidagi tormozlanish hodisasini izohlab bering.</p>
5	Nerv sistemasining xususiy fiziologiyasi	<p>1.Orqa miyaning reflektor faoliyatini taxlil qiling.</p> <p>2.Ketingi, o'rta miya, miyacha va oraliq miyalarning funksiyasini ta'riflang.</p> <p>3.Talamus, gipotalamus va limbik sistema haqida ma'lumot bering.</p> <p>4.Katta yarim sharlar po'stlog'inining sensor va motor sohalarini ta'riflab bering.</p>
6	Vegetativ nerv tizimi va uning xossalari	<p>1.Simpatik, parasimpatik va metasimpatik asab tizimi haqida tushuncha bering.</p> <p>2.Avtonom refleks yoyining efferent va afferent zvenolarini izohlang.</p> <p>3.Vegetativ nerv tizimining reflektor faoliyatini ta'riflang.</p> <p>4.Avtonom asab tizimini boshqaruvchi markazlar haqida ma'lumot bering.</p>
7.	Sensor tizimlar (retseptorlar-analizatorlar) fiziologiyasi	<p>1.Reseptorlarning turlari va faoliyati haqida ma'lumot bering.</p> <p>2.Umurtqali va umurtqasiz hayvonlar ko'rish analizatorlarining o'ziga xos xususiyatlarini</p>

		<p>aniqlang.</p> <p>3. Umurtqali va umurtqasiz hayvonlar eshitish analizatorlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.</p> <p>4. Harorat, og'riqni sezish va xemoreseptor sensor tizimlarning fiziologik xususiyatlarini ta'riflang.</p> <p>5. Umurtqali va umurtqasiz hayvonlarning xemoreseptor sensor tizimlari haqida ma'lumot bering.</p>
8.	Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, uning tiplari	<p>1. Shartli va shartsiz reflekslarni ta'riflab bering.</p> <p>2. Shartli reflekslarning tormozlanishi qanday vujidga keladi.</p> <p>3. Oliy nerv faoliyatining tiplarini ta'riflang.</p> <p>4. Ong, tafakkur, xotira va diqqatning fiziologik xususiyatlarini izohlang</p>
9.	Endokrin tizim	<p>1. Gipotalamo-gipofizar tizim nima.</p> <p>2. Gipofiz va uning gormonlarini ta'riflab bering.</p> <p>3. Adenogipofiz gormonlari tomonidan nazorat qilinadigan endokrin bezlarni izohlang.</p> <p>4. Faoliyatiga gipofiz gormonlari bevosita ta'sir qilmaydigan ichkisekresiya bezlarini tariflang.</p> <p>5. Endokrin tizimning odam va hayvonlar hayotidagi ahamiyatini izohlab bering.</p>

	<b>Mavzular</b>	<b>Topshiriqlar</b>
1	2	3
1.	Qon, limfa va to'qima suyuqligi	<p>1. Organizmning ichki muhitini nimalar tashkil etadi.</p> <p>2. Qonning funksiyasi, tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini ta'riflang.</p> <p>3. Immunitet nima. Tabiiy va sun'iy immunitetning qanday hosil bo'lishini tushuntirib bering.</p> <p>4. Limfa va hujayrolararo suyuqlikning ahamiyatini izohlab bering.</p>
2.	Qon aylanishi	<p>1. Yurakning tuzilishi va funksiyalarini izohlang.</p> <p>2. Yurak avtomatyasi, sikli va tonlari haqida ma'lumot keltiring.</p> <p>3. Yurak faoliyatining boshqarilish mexanizmini tushuntirib bering.</p> <p>4. Arteriya va venalarda qon aylanishining boshqarilish mexanizmini tushunturing</p>
3.	Nafas olish fiziologiyasi	<p>1. Umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning nafas olishini izohlab bering.</p> <p>2. Nafas olish va nafas chiqarish mexanizmlarini tushuntirib bering.</p> <p>3. O'pkada gazlar almashinuvni qanday o'tishini izohlab bering.</p> <p>4. Nafas olishning boshqarilish mexanizmini ta'riflang.</p>
4.	Ayiruv a'zolari sistemasi	1. Ayiruv a'zolari sistemasiga kiramagan

		<p>a'zolarni sanab bering.</p> <p>2.Buyraklar ayiruv funksiyasini tushuntirib bering.</p> <p>3.Siydik hosil bo'lishida simpatik va parasimpatik asablarning ahamiyatini ta'riflab bering.</p> <p>4.Terining ayiruv funksiyasini tushuntirib bering.</p>
5.	Ovqat hazm qilish fiziologiyasi	<p>1.Hayvonlarning oziqa turi va rivojlanish darajasiga ko'ra ovqat hazm qilish sistemasidagi o'ziga xos ta'raflarini aniqlang.</p> <p>2.Ovqat hazm qilish fiziologiyasining rivojlanishi uchun rus olimi I.P.Pavlovning qo'shgan hissasini ta'riflang.</p> <p>3.Odam va hayvonlarda oziqa moddalarning hazm bo'lishi handa so'rilishini izohlab bering.</p> <p>4.Ochlik, ishtaha, chanqov va to'qlikning fiziologik mexanizmini tushuntirib berihg.</p>
6.	Modda va energiya almashinuvi	<p>1.Assimilyasiya va dissimilyasiya nima ekanligini izohlab bering.</p> <p>2.Qqsillar, yog'lar va uglevodlar almashinuvini ta'riflab bering.</p> <p>3.Organizmda suv-tuz almashinuvi qanday boshqarilishini tushuntirib bering.</p> <p>4.Vitaminlarni klassifikasiyalang va ahamiyatini ko'rsatib bering.</p>
7.	Termoregulyasiya va uning xususiyatlari	<p>1.Poykiloterm va goyoterm hayvonlarni belgilab bering.</p> <p>2.Termoregulyatsiya turlarini aniqlang va izohlab bering.</p> <p>3.Termoregulyasiya markazi qayerda joylashgan.</p> <p>4.Issiqlik almashinuvi boshqarilishini tushuntirib bering.</p>
8.	Reproduktiv a'zolar fiziologiyasi	<p>1.Odam va hayvonlar reproduktiv a'zolarining fiziologik xususiyatlarini aniqlang.</p> <p>2.Urug'lanish va homiladorlikning fiziologik mexanizmini izohlang.</p> <p>3.Tug'ruqni gormonlar tomonidan boshqarilishi qanday amalga oshiriladi.</p>

## GLOSARY

Atamaning nomlanishi			Atamaning ma'nosi
O'zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida	
<b>Asidoz</b>	Acidosis	Азидость	qon reaksiyasining kislotali bo'lib qolishi
<b>Alkoloz</b>	Alcohol	Алколоз	qon reaksiyasining ishqoriy bo'lib qolishi
<b>Adaptasiya</b>	Adaptation	Устойчивость	moslashish
<b>Akkomodasiya</b>	Accompanying	Аккомодасия	ko'zning turli masofada ;oylashgan narsalarni aniq ko'rishga moslasha olishi
<b>Astigmatizm</b>	<b>Astigmatism</b>	Астигматизм	kipriksimon nana muskullarining bir xilda qisqarmasligi natijasida ko'z soqqasi nur sindiruvchi qismlarining nurlarni har xil darajada sindirishi
<b>Artrologiya</b>	Arthritis	Артрология	suyaklarni bo'g'im hosil qilib birlashishini o'rganadi
<b>Angiologiya</b>	Angiology	Ангиология	qon tomirlari sistemasini o'rganadi
<b>Auskultasiya</b>	Auscultation	Аускултация	maxsus asbob yordamida eshitib ko'rish
<b>Autopsiya</b>	Autopsy	Аутопсия	organizmni o'lgach uni yorib ko'rish
<b>Akson</b>	Axon	Аксон	nerv hujayrasining uzun o'simtasi
<b>Asteniklar</b>	Asthenics	Астеникность	uzun bo'yli, tor ko'krakli odamlar
<b>Atrofiya</b>	Atrophy	Атрофия	to'qimalar oziqlanishining buzilishi
<b>Antagonist</b>	Antagonist	Антагонист	qarama-qarshi ish bajaruvchi muskullar
<b>Asfiksiya-</b>	Asphyxia	Асфиксия	odamning bo'g'ilishi
<b>Anemiya</b>	Anemia	Анемичний	qonda eritrositlar sonining kamayib ketishi
<b>Atelektaz</b>	Atelectasis	Ателектоз	o'pka to'qimalarining ezilishi sababli o'pkaning puchayib qolishi
<b>Dendrit</b>	Dendrit	Дентрит	nerv hujayrasining kalta o'simtasi
<b>Derma</b>	<b>Derma</b>	Дерма	teri qavati
<b>Distrofiya</b>		Дистрофия	to'qimalar kimyoviy tarkibining sifat o'zgarishlari
<b>Diartroz</b>	Diarrasic	Диатроз	suyaklarning harakatchan birlashuvi
<b>Diastola</b>	Diastola	Диастола	yurakning bo'shashishi
<b>Endokrinologiya</b>	Endocrinology	Эндоскопически е	ichki sekretsiya bezlarini o'rganuvchi bo'lim

<b>Estiziologiya</b>	Estetiology	Эсешзиология	sezgi a'zolarini o'rganuvchi bo'lim
<b>Endoderma</b>	Endoderm	Эндодерма	embrioning ichki qavat varag'i
<b>Ektoderma</b>	<b>Ektoderm</b>	Эктодерма	embrioning tashqi qavat varag'i
<b>Ekspirasiya</b>	Expiration	Экспирация	nafas chiqarish
<b>Endokard</b>	Endocard	Эндокард	yurakning ichki devori
<b>Endokardit-</b>	Endocarditis	Эндокардит	yurak ichki qavatining yalig'lanishi
<b>Fastsiya</b>	Fastsia	Фатсия	muskul ustidagi parda
<b>Gastrit</b>	Gastritis	Гемолиз	me'da ichki shilliq pardasining yalig'lanishi
<b>Gemoliz</b>	We're hemolytic		eritrositlarning parchalanishi
<b>Gipoksiya</b>	Hypoxia	Гипоксия	qonda kislorod yetishmasligi
<b>Gipersteniklar</b>	Hyperstenics	Гиперстеническ ия	keng yelkali past bo'yli odamlar
<b>Giperkapniya</b>	Hypercapnia	Гиперкпния	qondagi CO <sub>2</sub> ning ortishi
<b>Irradiasiya</b>	Irradiation	Иrrадатция	markaziy asab tizimida qo'zg'alishning kelib chiqan zonasidan po'stloqdagi boshqa hujayralarga tarqalishi
<b>Immunitet</b>	Immunity	Иммунитетическ ие	organizmni yuqumli kasalliklardan tozalash faoliyati
<b>Ineksiya</b>	Induction	Инексия	(inectio-lotincha- quyaman)
<b>Inspirasiya</b>	Inspiration	Инспиратция	nafas olish
<b>Latent davr</b>	Latent Period	летентные	kasallikning yashirin davri
<b>Laringit</b>	Laringite	Ларингит	xiqildoqning yalig'lanishi
<b>Labillik</b>	Labial	Лабилность	bu tinchlik holatidan qo'zg'alish holatiga o'tish va bu holatdan chiqish tezligi
<b>Limfa</b>	Lime	Лимфа	tiniq sarg'ish suyuqlik
<b>Miologiya</b>	Miology	Миология	muskullarni o'rganadigan bo'lim
<b>Mezoderma</b>	<b>Mezoderm</b>	Мезодерма	embrioning o'rta qavat varag'i
<b>Medialis</b>	Medialis	Медиалис	o'rtalikda joylashish
<b>Miokard</b>	Miocard	Миокард	yurakning o'rta devori
<b>Neyron</b>	Neuron	Нейрон	nerv hujayrasi
<b>Nekroz</b>	Necrosis	Некроз	tirik organizmda ayrim a'zolarning to'qimalarining o'lishi
<b>Osteologia</b>	Osteologia	Остеология	suyaklarni o'rganuvchi bo'lim
<b>Osteosi t</b>	Osteos t	Остеосит	suyak hujayrasi
<b>Osteoblast</b>	Osteoblast	Остеобласть	suyakni hosil qilishda ishtirok etuvchi hujayralar
<b>Osteoklast</b>	<b>Osteoklast</b>	Остеокласт	rivojlanishdan to'xtagan suyaklarni yemiradigan hujayralar
<b>Oliguriya</b>	Oliguria	Олигурия	siydik ajralishining kamayishi
<b>Patologiya</b>	Pathology	Патология	pathos-kasallik, logos-fan organizmning kasallik davrini

			o'rganadi
<b>Palpatsiya</b>	Palpation	Палпация	paypaslab ko'rib o'rganish
<b>Parabioz</b>	Parabiosis	Парабиоз	ikki organizm o'rtasida biologik uzviylik hosil qilish
<b>Perkussiya</b>	Percussion	Перкуция	barmoq yoki bolg'acha bilan urib ko'rish
<b>Proliferasiya</b>	Proliferation	Пролиферация	yalig'langan joyda hujayralarning ko'payishi

# ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yhatga olindi  
BD -5112000-2.03  
2017-yil «18» 08



## ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI.

### FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lif sohasi: 110000 – Pedagogika  
Bakalavriat yo'nalishi: 5112000 – Jismoniy madaniyat

Toshkent-2017

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2017 -yil "24"  
08 dagi "603" - sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan  
Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi yo'naliishlari bo'yicha o'quv -  
uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2017 - yil "18"  
08 dagi "4" – sonli bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:** **D. A. Mamatqulov** – Zoologiya va anatomiya  
kafedrasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**P.B.Haydarova** – Zoologiya va anatomiya  
kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:** **X.Mavlonov** – Jizzax davlat pedagogika instituti professori,  
biologiya fanlari doktori  
**F.R Mirkamalov** 2-TTESI qoshidagi akademik litsey biologiya fani  
o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv - uslubiy  
kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017 - yil "22" 06 dagi 11 - sonli  
majlis bayonnomasi).

## I. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida odam anatomiyasi fani o'qitilishining asosiy maqsadi –  
talabalarga odam organizmining tuzilishi, organlarning faoliyatini tushuntirish orqali tabiat va  
inson o'rtasidagi munosabatlarni to`g`ri, izchil shakllantirishdan iborat. Bu fanni o'qitish  
davomida talaba inson a`zolarining asosiy sistematik guruhlari, ularning inson hayotidagi  
ahamiyati haqida bilimlarga ega bo`lishadi.

Talabalarning Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning  
ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni  
tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Talabalar bilimiga qo`yiladigan talablar. Odam anatomiyasi fanidan talabalar quyidagilarni  
bilishlari zarur:

- odamdagи sistemalar va ularning turlari;
- sistemalardagi organlarning tuzilishi;
- organlarning bir-biriga bog`liqligini uzviyligi;
- organlar faoliyatining fiziologik asoslari;
- qo`zg`alish, tormozlanish asoslari;

organizmni o`z-o`zini yaratish funksiyalari;

Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar va maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Tarozi", "Bumerang" pedagogik texnologiyalaridan, kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

## **II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

"Odam anatomiyasi va fiziologiyasi" fanini o'qitishdan *maqsad* – talabalarga odam organizmini tuzilishi va funksiyalari, organlarni ontogenet davomida takomilashishini o'rgatishdan iborat. Bu fanlarni o'qitish davomida talabalar organlar sistemasi ularning tuzilishi, fiziologiyasi va kasalliklari to'g'risida bilimga ega bo'ladilar.

*vazifasi* talabalarga odam organizmining tuzilishi va a'zolarning fiziologiyasi hamda rivojlanishi qonuniyatlarini, tashqi muxitning odam organizmga ta'sirini eksperimental fan sifatida o'rghanishdan iborat.

- "Odam anatomiyasi" fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida bakalavr:

- hujayra va uning tuzilishi, odam anatomiyani o'rganishda qo'llaniladigan asosiy metodlar, odam anatomiya fani tarixini bilish, anatomiya o'rganishda qo'llaniladigan asosiy metodlar, anatomiya fani tarixini bilish, odam anatomiyasi ishlataladigan terminlar, organ, organlar sistemasi, odam anatomiyasida satxlar. Suyaklar tuzilishi xillari va birikishi, muskullar va ularning xillari, ichki organlar va ularning turlari, qon aylanish sistemasi, nerv sistemasi, sezgi organlari, ichki sekretsiya bezlarini tuzilishini ***bilishi kerak***;

- atlas, jadvallardagi rasmlarni taniy olishi, fiziologik jarayonlarni izohlash, ko'krak va qorin sohasidagi organlarni ajrata olish, faol harakatda organizmda kechadigan protseslarni ajrata olish ***ko'nikmasiga ega bo'lish kerak***;

- odam organizmi tayanch – harakat sistemasining ishlashi va funktsiyasini boshqarilishi, mashq qilishning organizm muskul va tayanch – harakat sistemasi rivojlanishiga ta'siri, jismoniy mashqning odam salomatligiga ta'siri bo'yicha ***malakalarga ega bo'lish kerak***.

## **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **Odam anatomiyasi fanining nazariy asoslari.**

#### **1-modul. Tayanch – harakat sistemasi**

**1-mavzu:** Tayanch harakat sistemasi organlari. Odam skeleti va suyaklarining tuzilishi. Suyakning tig'iz va g'ovak moddalari va ularning ahamiyati. Suyak shakllari. Suyaklarning O'sishi, rivojlanishi, suyak usti va epifizar tog'ay to'qimasining ahamiyati. Suyaklarning birikishi.

**2-mavzu:** Bo'g'imlar va ularning turlari. Bir o'qli, ikki o'qli, ko'p o'qli, yassi, hamkor bo'g'imlar haqida tushuncha.

**3-mavzu:** Suyaklar birikishining xillari. Sindesmoz, sinxondroz va sinostoz birikish. Xomilaning rivojlanishida suyak to'qimasining shakllanishi va o'sishi to'g'risida ta'limotlar. Suyak segmenti hakida tushuncha.

**4-mavzu:** Tana skeleti: umurtqa pog'anasi skeleti. Umurtqa pog'anasi suyaklarning tuzilishi va birikishi. Umurtqa pog'onaning bo'limalri. Bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum umurtqalarining ta'rifi. Bolalar umurtqa pog'onasining tuzilishi xususiyatlari. Umurtqa pog'onasining bir butunligi. Ko'krak qafasi skeleti. Qovurg'alar va to'shning tuzilishi, ularning o'zaro birikishi. Umurtqalar pog'onasi va ko'krak qafasining bir butunligi. Gavda skeletining yoshga qarab o'zgarishi.

**5-mavzu:** Qo'l va elka kamari skeleti. O'mrov va kurak suyaklari, ularning tuzilishi va o'zaro birikishi. Bo'g'imlarning aylanishi o'qi. Erkin qo'l skeletining tuzilishi, birikishi va bo'g'imlari. Aylana o'qi.

**6-mavzu:** Oyoq va oyoq kamari skeleti, ularning funksiyasi. Birikish bo‘g‘imlari va ularning xarakatlanishi. Kamar skeleti suyaklarining shakllanishi va yoshga qarab o‘zgarishi.

**7-mavzu:** Bosh skeleti. Bosh skeletining miya va yuz bo‘limlari. Bosh skelet suyaklarining birikishi, choklari, pastki jag‘ bo‘g‘ini. Bosh skeletining umurtqa pog‘onasiga bog‘lanishi. Bosh suyagining asosiy shakllari. Yuz bo‘shliqlari (ko‘z kosasi, burun) ning ta’rifi.

## 2-modul. Muskul sistemasi.

**1-mavzu:** Muskullar va ularning funksiyasi. Organizm uchun muskullarning ahamiyati. Muskullarning tuzilishi, shakli. Muskullarning ishlashi, charchashi. Richaglar qonuni. Antagonist va sinergetik muskullar. Muskullar yordamchi apparatlari (paylar, fassiyalar, g‘altaklar, xaltalar) ning ta’rifi. Muskul qisqarishi turlari va kuchi. Muskullar rivojlanishining odam yoshiga va ish faoliyatiga qarab o‘zgarishi.

**2-mavzu:** Bosh, bo‘yin, mimika va chaynov muskullari. Bosh fassiyasi. Bo‘yin muskullari va fassiyasi. Bo‘yining yuza muskullari, til osti suyagiga birikuvchi muskullari. Til osti suyagidan pastda joylashgan muskullar, ularning birikishi va funksiyasi.

**3-mavzu:** Gavda va muskullarning joylashishi, ahamiyati. Oro‘aning yuza va chuqur muskullari. Ko‘krak va qorin muskullari funksiyalari va tanada joylashishi. Gavda muskullarning fassiyalari, birikishi va boylamlari. Nafas olish muskullari va qorinni tarang saqlaydigan muskullarning rivojlanishiga mashq qilishning ta’siri. Qorin muskullarning bo‘sh qismidan dabba (churra) hoslil bo‘lishi.

**4-mavzu:** Qo‘l-oyoq muskullari. Elka kamari va qo‘l muskullari, ularning gavda bo‘g‘imlari bilan bog‘lanishi, funksiyasi. Chanoq kamari va oyoq erkin muskullarining ta’rifi, funksiyasi, fassiyalari va boylamlari. Odam harakat tayanch sistemasining o‘ziga xos xususiyatlari. Maktab yoshidagi bolalar qaddi-qomatining shakllanishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Yassi oyoqli. Odam gavdasining statikasi va dinamikasi.

**5-mavzu:** Odam tanasi harakatining kinematikasi hakida tushunchalar: masofa, joy o‘zgartirish, tezlik, tezlanish, aylanma harakatlar va erkinlik darajalari hakida tushunchalar. Bo‘g‘imlardagi harakatlar, harakat o‘qlari.

**6-mavzu:** Odam tanasi harakatining dinamikasi, uning asosiy qonuniyatlar. Odam tanasi bo‘laklarining umumiyligi va xususiy og‘irlilik markazlari.

Mexanik ish hakida tushuncha, energiyaning saqlanish qonuni. Joy o‘zgartiruvchi harakatlardagi muskullarning ishlashi.

## 3-modul. Ichki organlar. Ovqat hazm qilish sistemasi.

**1-mavzu:** Ichki organlarning umumiyligi tavsifi, ularning klassifikatsiyasi va funksiyasi.

**2-mavzu:** Tananing bo‘yi, ko‘krak va qorin bo‘shlig‘idagi organlari. Ichki a’zolar devoridagi seroz parda, muskul qavat, shilliq pardanining ta’rifi, ularning shakllanishi.

**3 -mavzu:** Ovqat hazm qilish organlari va ularning shakllanishi. Og‘iz bo‘shlig‘i, bo‘g‘iz bodomchalari, tanglay devorlarining tuzilishi.

**4-mavzu:** Nafas olish va ovqat moddalarni qabul qilishda ularning ahamiyati. **5-mavzu:** Qizilo‘ngach, uning filogenezi. Me‘da-ichak kanali. Me‘da va me‘da osti bezi. Jigar, o‘t pufagi va ichaklarning tanada joylanishi, ularning tuzilishi va ahamiyati. Me‘da ichak qismlarining funksional ahamiyati.

**6-mavzu:** Ovqat hazm qilish organlarining evolyusiyasi va yoshga bog‘liqlik xususiyatlari. Turli xildagi jismoniy harakatlar vaqtida oshqozon-ichaklar sistemasida bo‘ladigan o‘zgarishlar.

## 4-modul. Nafas olish sistemasi.

**1-mavzu:** Burun bo'shlig'i, xiqildoq, traxeya, bronxlar va o'pkalarning tuzilishi, tanada joylashishi.

**2-mavzu:** Xiqildoq, tog'aylar, muskullari, bo'g'imlari va boylanmalari. Xiqildoqning tovush hosil kilish

### **5-modul. Siyidik va tanosil organlar sistemasi.**

**1-mavzu:** Siyidik organlari, ularning rivojlanishi va anomaliyalari.

**2-mavzu:** Buyraklarning mikro-makro tuzilishi va rivojlanishi. Buyraklarda qon aylanishining o'ziga xos xususiyatlari.

**3-mavzu:** Siyidik yo'llari, qovuq, siyidik pufagi, ularning ahamiyati va yoshga bog'lik xususiyatlari.

### **6-modul. Yurak – qon tomirlari sistemasi.**

**1-mavzu:** Qon aylanish va limfa sistemasining ta'rifi. Qon tomirlarinint turlari, joylanishi. Kapilyarlar, venalar, arteriyalar va aorta. qon tomirlari devorining tuzilishi. Tomirlarning tarmoqlanishi.

**2-mavzu:** Qon aylanish doiralari. Arteriya qon tomirlari ontogenezi. Aorta va uning tarmoqlari.

**3-mavzu:** Katta va kichik qon aylanish doirasidagi tomirlarning joylanishi va tavsifi. Vena tomirlar sistemasi, yuqori va pastki kovak venalar, kichik va katta vena doiralari haqida tushuncha. Yurakning xususiy qon tomirlari. Arteriya va vena sistemasining filogenezi va tomirlarning anomaliyasi. Anastomozlar va kollarterial haqida tushuncha.

**4-mavzu:** Qon aylanishning ahamiyati. Embrionda qon aylanishi, bola tug'ilgandan so'ng qon aylanishining o'zgarishi.

**5-mavzu:** Yurakning ahamiyati va tuzilishi. Yurak devorlari, bo'shliqlari, klapanlari va muskullari haqida tushuncha.

**6-mavzu:** Yurakning toj tomirlari va o'tkazuvchi sistemasi. Yurak va limfa tomirlari, yurak xaltasi va uning topografiyasi.

**7-mavzu:** Yurakning filogenezi va anomaliyalari. bo'shliqlari, klapanlari va muskullari haqida tushuncha. Bola va katta odam yurak tomir sistemasining o'ziga xos xususiyatlari.

**8-mavzu:** Limfa sistemasining ahamiyati, uning tarkibi, tomirlari va oqimlari. Organizmda limfa sistemasining joylanishi (yuza va chuqur limfalar). Limfa tugunlari, ularning vazifalari.

**9-mavzu:** Organizmda infeksiyaning tarqalishida limfa sistemasini ahamiyati. Limfa sistemasi filogenezi va ontogenezi.

**10-mavzu:** Limfa sistemasining yoshga xos xususiyatlari.

### **7-modul. Nerv sistemasi.**

**1-mavzu:** Nerv sistemasi va uning ahamiyati.

**2-mavzu:** Nerv sistemasining struktura birligi neyronning tuzilishi, turlari va ahamiyati. Nerv tolasining tuzilishi.

**3-mavzu:** Miyaning oq va kul rang moddalari.

**4-mavzu:** Nerv sistemasi markaziy va pereferik bo'limlari tavsifi. Nerv sistemasining embriogenezi.

**5-mavzu:** Orqa miyaning tashqi va ichki tuzilishi, sistemalari. Orqa miyani o'rovchi pardalar. Orqa miyaning rivojlanishi. Orqa miya ildizlari. Orqa miya nervlarining tarqalishi va chiqish joylari. Orqa miya nervlari shoxlari va bo'linish joylari. O'tkazuvchi yo'llar. Oldingi va orqa shoxlarning joylanish xususiyatlari. Orqa miyaning bo'yin, elka, bel, dumg'aza va qovurg'alararo chigallari, ularning asosiy tarmoqlari va tolalari. Orqa miyaning yosh bilan bog'lik xususiyatlari.

**6-mavzu:** Bosh miya va uning rivojlanishi.

**7-mavzu:** Bosh miya bo'limlari: uzunchoq miya, Voroliev ko'prigi, miyacha, o'rta miya, oraliq miya, ularning morfologiysi, ahamiyati va tavsifi. To'rt tepalik haqida tushuncha. Oq va kul

rang moddalarning joylanishi. Bosh miyaning nerv markazlari va o'tkazuvchi yo'llari. Katta yarim sharlarning bo'limlari, egatlari va burmalari.

**8-mavzu:** Bosh miya yarim sharlarining mirkoskopik tuzilishi. Limbik sistema. Retikulyar formatsiya. Bosh miyaning kishi yoshiga binoan shakllanishi.

**9-mavzu:** Bosh miya nervlari, ularning soni, kelib chiqishi, tolalarning tarkibi va tarqalishi.

**10-mavzu:** Nerv sistemasining vegetativ avtonom qismi, uning asosiy anatomik xususiyatlari.

**11-mavzu:** Vegetativ nerv sistemasining simpatik bo'limi, chegara stvoli, simpatik tugunlari va nervlari.

**12-mavzu:** Parasimpatik nervlar, ularning markaziy neyronlari. Parasimpatik tolalarning periferiyaga chiqish yo'llari, ularning tugunlari.

## **8-modul. Analizatorlar.**

**1-mavzu:** Eshitish, ko'rish, ta'm bilish va teri analizatorlarining organizmdagi ahamiyati.

**2-mavzu:** Ta'm bilish organi, ta'm bilish boylamalari, ularning joylanishi, periferik, o'tkazuvchi va markaziy bo'limlar.

**3-mavzu:** Eshitish va vestibulyar analizatorlar. Tashqi, o'rtalik qulok. Eshitish naylari, ularning funksional ahamiyati va tuzilishi. Suyak va pardali labirentlar. Chig'anoq, uning tuzilishi va ahamiyati. Odam nutqini rivojlanishiga binoan chig'anoqning takomillashib borishi.

**4-mavzu:** Ko'rish analizatori. Ko'zning tuzilishi. Ko'z soqqasi va uning pardalari. Ko'z gavhari va yordamchi apparatlar. Ko'zning qon tomirlari va nervlari. Ko'z innervatsiyasi, ko'z anomaliyalari. Yaqindan va uzoqdan ko'rish. Ko'rish qobiliyatining kishi yoshiga binoan o'zgarish xususiyatlari.

**5-mavzu:** Teri analizatori. Terining tuzilishi, pigmentlanish xususiyati va uning ahamiyati. Soch va tirnoqlar, teri innervatsiyasi.

**6-mavzu:** Teri gigienasi va chiniqtirishning ahamiyati.

## **IV. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar odam organlari tuzilishini vizual va atlas yordamida ko'nikma va malakalar hosil qilishadi. Laboratoriya ishlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Suyaklarning tuzilishi, xillari. Suyak tarkibidagi organik va anorganik moddalar laboratoriya sharoitidagi dekelsinatsiya va yondirib ko'rish bilan tekshirib ko'rish.

Qo'l va elka kamarini suyaklarini tuzilishi, ko'krak, o'mrov, ko'krak suyaklari. Erkin harakat qismi suyaklari: elka, bilak, tirsak, bilak uzuk, kaft va barmoq suyaklari va ularni o'zaroborikishi turlarini o'zgarish panja barmoqlari bo'g'imlari turini o'rganish.

Erkinlik bosqichlari va harakat bog'lari, biokinematik zanjirdagi richaglar tushunchasi.

Oyoq, tos kamarining suyaklari. Chanoq va dumg'aza suyaklarini birikishi. Son va tizza bo'g'imlari. Meniska, boldir – oyoq, panja, tovon va oshiq osti bo'g'imlari tovon, kaft, barmoq bo'g'imlarini o'rganish. Biokinematik mayatniklar.

Miya qutisi suyaklari. Yuz suyaklarini o'rganish. Kalla suyagining ichki va tashqi tuzilishi. Bo'shliqlar funksiyasi. O'g'il bolalarning balog'atga etish davrida tovush gigienasi. Qon aylanishning gaz almashishi funksiyasi bilan bog'lik bo'lgan xususiyatlari. Plevra bo'shlig'i va uning ahamiyati. Yoshga qarab nafas olish sistemasi tuzilishining o'zgarishi. Jismoniy tarbiya va mashqlarni nafas olish sistemasi rivojlanishiga ta'siri.

Gavda muskullari. Orqa va ko'krak qismidagi muskullari. Trapetsiyasimon muskul, orqaning keng muskuli, rombsimon, ko'krakni ko'taruvchi, katta va kichik dumaloq va oldingi tishli muskullari.

Nafas olish va chiqarish muskullari. Ko'krak fassiyasi, barcha muskullarning birikishi va vazifalari.

Bo‘yin muskullari. Bo‘yin va teri osti muskullari. To‘sh, o‘mrov, so‘rg‘ichsimon muskullari. Til osti suyagiga birikuvchi muskullari.

Qovurgalararo muskullar, ko‘krakiing ko‘ndalang muskuli. Diafragma, oldingi, o‘rta va keyingi narvonsimon muskullarning birikishi va funksiyalari.

Qorin muskullari. Chov boylami va chov kanali muskullari.

Qo‘lning erkin muskullari. Qo‘l panjasining bukuvchi bilak, tirsak va kaft usti muskullari.

Elka-bilak muskullari. Bosh barmoq, va barmoqlarni bukuvchi muskullari. Panjani yozuvchi, bosh barmoqlari va barmoqlarni yozuvchi muskullar. Barmoqlarni uzoqlashtiruvchi va jumjiloq muskullari.

Elka, bilak-panja, bilak-tirsak bo‘g‘inlari muskullari.

Tishlar, til va yumshoq tanglay. Til osti, jag‘ osti, quloq oldi so‘lak bezlari, ularning anotomik tuzilishi. Halkum, qizilo‘ngach, oshqozon. Oshqozonning turli bo‘limlari va ularda joylashgan sekretor hujayralar. Ingichka ichak va uning bo‘limlari.

Hazm kanali turlari bo‘limlaridagi shilliq pardalar, ularning ahamiyati. Vorsinkalar, sfinktorlar hakida tushuncha. Jigar, o‘t pufagi va uning yo‘llari. Jigarning mikroskopik tuzilishi. Oshqozon osti bezi va uning yo‘llari. Yo‘g‘on ichak, ko‘r ichak va to‘g‘ri ichaklarni o‘rganish.

Burun bo‘shlig‘i. Hiqildoq, traxeya va bronxlar. O‘pkalar, ularning tuzilishi xususiyatlari. Plevra va uning funksiyasi. Nafas olish a‘zolari topografiyasini o‘rganish.

Buyraklarning shakli, makroskopik va mikroskopik tuzilishi. Nefron, uning tuzilishi va ahamiyatini o‘rganish. Siyidik yo‘li va siyidik pufagi, topografiysi.

Ayirish organlari. Buyraklarning shakli, makroskopik va mikroskopik tuzilishi. Nefron, uning tuzilishi va ahamiyatini o‘rganish. Siyidik yo‘li va siyidik pufagi, topografiysi.

Yurak anatomiyasnni o‘rganish. Yurak devorlari qavati, kameralari, klapanlari va ularning vazifalari. Yurakka keluvchi va yurakdan chiquvchi qon tomirlari. Gavda va bo‘yin qon tomirlari. Aorta bo‘yi, uyqu arteriyalari. Yurakning toj tomirlari. Ko‘krak va qovurg‘alararo arteriyalari. Qorin aortasi va uning tarmoqlarini o‘rganish.

Yurak kovak venalari. Jigar darvoza venasi. Pastki kovak vena. Jigar, buyrak va umumi yonbosh venalari.

Qo‘l-oyoq qon tomirlari. O‘mrov osti, elka, bilak va tirsak arteriyalari, ularning anastomozlari. Panja arterial yoylari. Qo‘lning teri osti chuqur venalari. Son arteriyalari va venasi. Bosh va bo‘yinni qon tomirlarini o‘rganish. Limfa sistemasi. Limfa sistemasi va tugunlari o‘rganish.

Endokrin sistemasi. Endokrin bezlarining xillari, tuzilishi, ahamiyati va topografiyasini o‘rganish.

Orqa va bosh miyaning umumi qismlari. Orqa miyaning oldingi va orqa egati ildizlari. Umurtqalararo tugunlar, orqa miya po‘stlog‘i. Orqa miya ko‘ndalang kesimining tuzilishi.

Bosh miyaning tuzilishi, uning bo‘limlari. Bosh miya nervlarini chiqishi. Hidlash, ko‘rish, ko‘zni harakatga keltiruvchi g‘altaksimon va uzoqlashtiruvchi nervlarning umumi topografiysi. Uchlamchi nerv, uning tuguni. Ko‘z kosasi, yuqori va pastki jag‘larning nervlari. Yuz nervlari. Eshitish va til-tarmok iervlari. Adashgan nerv, uning topografiysi.

Bosh miya po‘stlog‘i. Miyaning qattiq po‘stlog‘i va teshiklari. Vena bo‘shliqlari. Uzunchoq miya nervlari bilan ta‘minlanishi. Miyachani tuzilishi. O‘rta miya, oraliq miya va ularning tuzilishi.

Ko‘z. Ko‘zning tuzilishi, ko‘z pardalari, g‘ovaklari, kamalak parda, oldingi va keyingi kameralari, shishasimon tana.

Quloq. Tashqi, o‘rta, ichki quloqning tuzilishi.

## V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Odam tanasining shakllari
2. Suyaklarning tuzilishi

3. Suyaklarning birikishi.
4. Muskullarning tuzilishi
5. Muskullarning ishi
6. Tana muskullari
7. Bosh va bo‘yin muskullari
8. Nafas a’zolarining tuzilishi
9. Bo‘g‘im yuzalari va bo‘g‘im turlari
10. Ovqat hazm qilish a’zolarining tuzilishi
11. Splanchnologiya asoslari
12. Hiqildoqning tuzilishi
13. Nefronning tuzilishi
14. Yurak va qon tomirlarining tuzilishi
15. Angiologiya asoslari
16. Taloqning tuzilishi
17. Nerv sistemasiningtuzilishi
18. Bosh miyaning tuzilishi
19. Orqa miyaning tuzilishi
20. Vegetativ nerv sitemasi
21. Gipofiz
22. Epifiz

Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## **II - Bo‘lim. Odam fiziologiyasi. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)**

### **I. 1-modul. Fiziologyaning asosiy qonuniyatları va fiziologik tushunchalari**

**1-mavzu:** Organizm va tashqi muhit. Organizmning yashash sharoitiga moslanishi. Gomeostaz va uni saqllovchi vositalar.

**2-mavzu:** Moddalar va energiya almashinushi. Assimilyasiya va dissimilyasiya. Fiziologik reaksiyalar: ta’sirlanish, ta’sirlovchilar va ularning turlari.

**3-mavzu:** Qo‘zg‘aluvchanlik va uning yuzaga kelishida hujayra membranasining ahamiyati. Reflektor reaksiyalar. Organizmning funksional sistemalari haqidagi ma’lumot.

### **2-modul. Qon sistemasi fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Organizmning muhiti haqida tushuncha. Qon sistemasi, qonning miqdori va tarkibi. Qon hosil qiluvchi organlar va qon deposi.

**2-mavzu:** Qonning fiziologik vazifalari. Qonning yopishqoqligi va nisbiy zichligi. Qonning o’rnini bosuvchi eritmalar.

**3-mavzu:** Qon plazmasining tarkibi. Qonning shaklli elementlari: eritrotsitlar, leykotsitlar. Ularning tuzilishi, miqdori. Odamning jismoniy ishi, mehnati va tinch holatidagi gemoglobin miqdori. Eritrotsitlarning rezistentligi va gemolizi. Leykotsitlarning miqdori tuzilishi va funksiyasi. Agronulotsitlar va granulotsitlarning turlari. Leykotsitar formula. Trombotsitlarning miqdori, tuzilishi va funksiyasi,

**4-mavzu:** Qon ivishidagi ahamiyati. Qonning ivishi.

**5-mavzu:** Immunitet. Immunitet turlari. Qonning immunobiologik reaksiyasi. Eritrotsitlarning agglyutinatsiya reaksiyaları. Qon guruhları. Qonning agglyutinnogenları va agglyutininlari. Rezus-faktor tushunchasi. Gemoliz.

### **3-modul. Qon va limfa aylanishi sistemalari fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Yurak-qon tomirlari sistemasi.

**2-mavzu:** Qon aylanishining ahamiyati. Katta, kichik va koranar qon aylanish doiralari. Yurak muskullarining funksional xususiyatlari. Yurakni qon bilan ta'minlanishi. Yurak avtomatiyasi. Yurakning o'tkazuvchi sistemasi, uning ahamiyati. Qisqaruvchanligi, refrakterlik xususiyatlari. Yurak bo'limlari va qorinchalarining funksional ahamiyati.

**3-mavzu:** Yurak sikli, fazalari, yurak tonlari. Elektrokordiografiyani o'rganish metodlari. Yurakning xususiy muskullarini qon bilan ta'minlashdagi ahamiyati.

**4-mavzu:** Qon tomirlari fiziologiyasi. Arteriya, vena va kapillyarlardagi qon bosimi. Arteriya pulsi. Kapillyar mikrotsirkulyasiyasi. Venalarda qon oqishining xususiyatlari.

**5-mavzu:** Limfa sistemasi, uning tarkibi, funksiyasi. Limfaning hosil bo'lishi va organizmdagi ahamiyati.

### **4-modul. Nafas sistemasi fiziologisi**

**1-mavzu:** Nafas ahamiyati. Nafas olish mexanizmi. Nafas jarayonining asosiy fazalari: tashqi nafas, alveolalar va to'qimalarda gaz almashinushi. Nafas olish va chiqarish mexanizmi. Nafas aktida diafragma va qovurg'alararo muskullarning ahamiyati.

**2-mavzu:** O'pkaning kengayish qobiliyati. Nafas vaqtida plevra bo'shlig'i bosimining o'zgarishi. Nafas sikli. O'pka hajmlari va o'pka ventilyasiyasi. Pnevmotraks. O'pkaning tiriklik sig'imi. Nafas olish koefitsenti haqida tushuncha.

**3-mavzu:** Jismoniy mehnat va mushak mashqida o'pka ventilyasiyasi o'zgarishi. Atmosfera, alveola va chiqarilgan nafas havosining gaz tarkibi. O'pkada gazlar almashinushi mexanizmi. Alveolalar havosidagi gazlarning ( $O_2$  va  $SO_2$ ) porsial bosimi. Nafas markazining avtomatik va nerv-gumoral, reflektor boshqarilishi mexanizmlari.

### **5-modul. Ovqat hazm qilish sistemasi fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Ovqat hazm bo'lishi va uni o'rganish usullari. Hujayrada ovqat hazm bo'lishi. Ovqatning tarkibi va ahamiyati. Hazm shiralarining ahamiyati. **2-mavzu:** Og'iz bo'shlig'da ovqatning hazm bo'lishi, so'lakning tarkibi va xossasi. So'lak ajralishi jarayonida shartli va shartsiz reflekslarning mohiyati. Me'dada ajraladigan xlorid kislotasi va fermentlarining ovqatga ta'siri. Me'da harakati.

**3-mavzu:** Me'daning evakuator funksiyasi. Me'dada ovqatning saqlanishi va ovqatni hazm bo'lishi. Me'dada rezeksiya yo'li bilan, tajriba o'tkazish. Me'da osti bezi shirasining tarkibi va sekretsiya jarayonining kashf etilishi.

**4-mavzu:** Odam me'dasining sekretor funksiyasini o'rganish metodlari. Toza me'da shirasini olish va ularni. Me'da sekretor funksiyasining nerv va gumoral boshqarilishi. Me'da sekretsiyasining tormozlanish mexanizmi.

**5-mavzu:** Me'da va o'n ikki barmoqli ichakda ovqat hazm bo'lishi. Me'da osti bezining sekretor funksiyasi. Me'da osti bezi shirasini. Tarkibi va xossasi, uning oqsillar, yog'lar, karbon suvlar va nuklein kislotalarga ta'siri. Uning boshqarilishi. Reflektor va gumoral fazalar. Me'da osti bezi shirasining ajralishiga ovqat sifatining ta'siri.

**6-mavzu:** O'tning tarkibi, xossalari va ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Jigarning o't hosil qilish va o't ajratish funksiyalari. Toza o't olish yo'llari. O'tni o't pufagiga o'tishi va uning o'zgarishi. O'tning o'n ikki barmoqli ichakka quylishi.

**7-mavzu:** Ingichka va yo'g'on ichakda ovqat hazm bo'lishi. Ichak shirasining tarkibi, xossalari va uning ovqat hazm qilishdagi ahamiyati. Ichakning sekretor funksiyasini o'rganish usullari. Ingichka ichakning motor funksiyasi va uning boshqarilishi.

**8-mavzu:** Yo'g'on ichakning motor funksiyasi. Ichakning bakterial florasi. So'rilibishning fiziologik mohiyati. Oziq moddalari so'rilibishida ingichka ichakdagagi vorsinkalarini tutgan o'rni.

**9-mavzu:** Hujayralar ichida va membrana hazmi. So‘rilish mexanizmi: filtratsiya, diffuziya, osmosning so‘rilish jarayonidagi ahamiyati.

**10-mavzu:** Organik moddalar, suv va tuzlarning so‘rilish xususiyatlari. Qonga so‘rilgan moddalarni zararlantirishda jigarning o‘rni. Me’da-ichak trakti harakati: tonik qisqarishi, segmentativ, moyatniksimon harakat, peristaltiksimon, to‘lqin, ichak bo‘ylab ovqatning siljishi. Silliq muskulli sfinkterlarni o‘ziga xos boshqarilishi.

### **6-modul. Modda va energiya almashinuvi fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Moddalar va energiya almashinuvi haqida tushuncha. Anabolizm va katabolizm. Oqsillar almashinuvi. Azot balansi. Oqsillarning biologik qiymati. Oqsil almashinuvining oxirgi mahsulotlari. Jismoniy mashq faoliyatida oqsil almashinuvining o‘zgarishi .

**2-mavzu:** Karbon suvlaring aerob va anaerob parchalanishi jarayonlari va ularning energiya hosil bo‘lishida ahamiyati. Glyukozaning qondagi miqdori. Giper va gipoglikemiya.

**3-mavzu:** Uglevodlar almashinuvining boshqarilishi va uning muskullar ishida o‘zgarishi. Yog‘ kislotalarining muskullar ishida energiya sifatida ishlatalishi. Moddalar almashinuvi jarayonining gumoral va reflektor boshqarilishi.

**4-mavzu:** Organizmda suvning miqdori. Oragnizmning mineral tuzlarga ehtiyoji va suv-tuz muvozanati. Suv va mineral tuzlar almashinuvi.

**5-mavzu:** Organizmning mineral tuzlarga ehtiyoji. Vitaminlar haqida tushuncha. Suvda va yog‘da eriydigan vitaminlar tasnifi. Vitaminlarning fiziologik ahamiyati. Avitaminoz. Organizmda suv-mineral moddalar va vitaminlarning boshqarilishida gormonlarning tutgan o‘rni.

**6-mavzu:** Organizmda energiya almashinuvi. Energiya almashinuvining moddalar almashinuvi bilan o‘zaro munosabati: yog‘lar, karbon suvlari va oqsillar energiya hosil qiluvchi manba ekani. Energiya balansi. Ozuqa moddalarining kallorik qiymati. Asosiy almashinuv va uning ahamiyati. Turli ish jarayonida energiya sarfi.

**7-mavzu:** Organizmda energiyaning to‘planishi va sarflanishi. Fiziologik ovqatlanish normalari. Jismoniy mashq faoliyatida energiya sarfining o‘zgarishi. Organizmda energiyaning to‘planishi va sarflanishi muvozanati.

**8-mavzu:** Fiziologik ovqatlanish normalari. Sutkalik ratsionda hayvon va o‘simlik yog‘larining nisbati. Ovqat ratsionining kalloriyasi.

**9-mavzu:** Ovqatlanish rejimi va gigienasining fiziologik asoslanishi. Organizmning yoshiga, bajaradigan ishiga, holatiga, tashqi haroratga va jinsiga qarab oqsilga sutkalik talabning o‘zgarishi.

### **7-modul. Issiqlik almashinuvi fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Organizmning issiqlik balansi haqida tushuncha. Gomoyotermiya va poykolotermiya. Organizmda issiqlik ishlab chiqish va issiqlik ajratish jarayonlari. Uning markaziy va periferik mexanizmlari.

**2-mavzu:** Ichki organlarning termoreceptorlari. Tana sathining termoreceptorlari. Sovuqni va issiqni sezuvchi retseptorlar. Tashqi muhitning harorati o‘zgarishida tana haroratinining doimiyligini saqlovchi mexanizmlar.

**3-mavzu:** Tana sathidan issiqliknii chiqarish usullari: nurlanish, o‘tkazish, konveksiya. Odam tanasi haroratining boshqarilishi va uning markazlari. Termoregulyasiyaning nerv va gumoral mexanizmlari.

**4-mavzu:** Ter ajratishning ahamiyati. Issiqlik almashinuvini boshqarish markazlari.

### **8-modul. Ayiruv jarayonlari fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Ayiruv organlarning asosiy vazifasi, ahamiyati. Ayiruv jarayoni organizmning ichki muhiti doimiyligini ta’minlovchi murakkab jarayon ekani.

**2-mavzu:** O‘pka va me’da-ichak traktining ayiruv funksiyasi.

**3-mavzu:** Buyraklar strukturasi va funksional birligi-nefron haqida tushuncha. Filtratsiya reabsorbsiya, sekretsiya. Siyidik hosil bo‘lishi nazariyasi. Qonning kimyoviy tarkibining siyidik hosil bo‘lishiga ta’siri.

**4-mavzu:** Siyidikning miqdori va tarkibi. Birlamchi va ikkilamchi burmalar, Genli qovuzloqlari haqida tushuncha. Majburiy va ixtiyoriy reabsorbsiya. Buyrakda moddalarning sekretsiya jarayoni, oxirgi siyidikning tarkibi va xossasi. Buyrakning ichki sekretor faoliyati.

**5-mavzu:** Ayrishini reflektor va gumoral boshqarilishi. Siyidik ajratish mexanizmi. Turli gormonlarning siyidik hosil bo‘lishi jarayoniga ta’siri (antidiuretik, andosteron, adrenalin, vazopresin).

**6-mavzu:** Sun’iy buyrakning ahamiyati. Jismoniy mashq va mehnat jarayonlarida ayirish organlari ishining o‘ziga xos xususiyatlari.

## 9-modul. Teri fiziologiyasi

**1-mavzu:** Teri fiziologiyasi.

**2-mavzu:** Ter ajratishda tomir-harakat reaksiyasining ahamiyati. Issiq va sovuqqa teri bezlarining reaksiyasi.

**3-mavzu:** Organizmning chiniqishida terining ahamiyati.

## 10-modul. Endokrin sistemasining fiziologiyasi

**1-mavzu:** Ichki sekretsiya bezlarining tasnifi va funksiyasi. Gormonlar tushunchasi, ularning biologik xarakteristikasi. Ichki sekretsiya bezlarining fiziologik roli va o‘rganish metodlari. Gipofiz bezi funksiyasi.

**2-mavzu:** Qalqonsimon bez va uning oldidagi bezlarning funksiyasi va boshqarilishi. Gormonlar va ularning moddalar almashinuviga ta’siri.

**3-mavzu:** Buyrak usti bezining po‘stloq va mag‘iz qismi gormonlari hamda ularining asab sistemasiga ta’siri. Po‘stloq qavatining gormonlari: mineralokortikoidlar va glyukokortikoidlar. Me’da osti bezining endokrin vazifasi. **4-mavzu:** Epifiz va jinsiy bezlarining vazifalari. Jinsiy gormonlarning odam o‘sishi va rivojlanishi hamda mehnat faoliyatiga ta’siri. Balog‘atga etishda jinsiy gormonlarning ahamiyati.

## 11-modul. Nerv-mushak apparatining fiziologiyasi

**1-mavzu:** Harakat apparati haqidagi tushuncha. Nerv-mushak birligi harakat apparatining asosiy qismi ekanligi.

**2-mavzu:** Mushak turlari,tuzilishining xususiyatlari. Ko‘ndalang targ‘il va silliq muskul tolalarining vazifasi.

**3-mavzu:** Muskul to‘qimasining fiziologik xossalari. Qo‘zg‘aluvchanlik, o‘tkazuvchanlik va qisqaruvchanlik.

**4-mavzu:** Qo‘zg‘aluvchan to‘qimalar haqida tushuncha. Muskak qisqarganda sodir bo‘ladigan elektr hodisalar. Qo‘zg‘alishning tarqalish mexanizmi.

**5-mavzu:** Qo‘zg‘alishning fazalari: labillik, parabioz haqida tushuncha. N.E.Vvedenskiy, A.A.Uxtomskiy nazariyalari. Skelet muskullarining tonusi. Muskulning izotermik, izotonik va yakka qisqarishlari haqida tushuncha. Tabiiy sharoitda tetanius, pogona osti va pogona usti kuchlari haqida tushuncha. Muskulning tinch holati va qisqarish vaqtida kuzatiladigan bioelektrik, kimyoviy va issiqlik jarayonlari.

**6-mavzu:** Muskul qisqarishining kuchi. Muskul ishi. Muskulning charchashi. Simpatik nerv sistemasining muskul apparatiga trofik ta’siri. Silliq muskullar strukturasining funksional xususiyatlari. Silliq muskullarning ishlashi va avtomatiyasi.

**7-mavzu:** Nerv tolalarining tuzilish i qo‘zg‘alishning miyadagi tolalardan tarqalish mexanizmi. Periferiya nervlarning tuzilish. Afferent, efferent nerv tolalari. Periferik nervlardan qo‘zg‘alishning o‘tish qonunlari va qo‘zg‘alishning tarqalish turlari. Nerv tolasining funksional bir butunligi haqida tushuncha .

**8-mavzu:** Nerv-muskul sinapslari fiziologiyasi. Sinapslar ularning turlari. Nerv-muskul sinapsidan qo‘zg‘alishning o‘tishi va tarqalish mexanizmi. Mediator nazariyasi.

## **12-modul. Markaziy nerv tizimi fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Markaziy nerv tizimining umumiy vazifalari, periferik nerv tizimi. MNSning reflektor tamoyili.

**2-mavzu:** Refleks va uning turlari. Neyronlar vazifalari va ularning ta’rifi.

Nerv hujayrasi membranasining xususiyatlari.

**3-mavzu:** Qo‘zg‘atuvchi va tormozlovchi sinapslar. Nerv tolasi bo‘ylab impulslar o‘tishi mexanizmi. Markaziy tormozlanishning mexanizmlari: uygulashish va jarayonlarida tormozlanishning ahamiyati. Postsinaptik va presinaptik tormozlanish tushunchalari.

**4-mavzu:** MNS markazlarining funksional tuzilish va lokalizatsiyasi haqida I.P.Pavlov ta’limoti. Konvergensiya, divergensiya, irradatsiya, summatsiya, umumiy oxirgi yo‘l, teskari bog‘lanish va dominanta tamoyillari haqida ta’limotlar. Orqa miyaning oldingi va orqa ildizlari vazifalari: orqa miyaning reflektor va o‘tkazuvchanlik vazifasi. Orqa miya bilan bosh miyaning funksional bog‘lanishi.

**5-mavzu:** Uzunchoq miya fiziologiyasi. Uzunchoq miya reflektor markazlari va ularning vazifasi. Uzunchoq miyada chiqadigan bosh miya nervlarining vazifasi va o‘z-o‘zini boshqarishda tutgan o‘rni.

**6-mavzu:** Nafas va tomirlar harakati markazlari. Uzunchoq miyaning muskul tonusini boshqarishda tutgan o‘rni. Uzunchoq miyaning o‘tkazuvchanlik vazifasi, harakat va vegetativ reaksiyalarni hosil qilishdagi ahamiyati.

**7-mavzu:** O‘rta miya fiziologiyasi. O‘rta miyaning reflektor faoliyati. O‘rta miyadan chiqadigan bosh miya nervlarning funksiyasi. O‘rta miyaning qizil va vestibulyar moddalari funksiyalari.

**8-mavzu:** O‘rta miyaning qizil yadrolari va qora moddasining muskul tonusini va gavda vaziyatini boshqarishi roli. Tana muvozanatini saqlovchi, o‘z-o‘zini idora etadigan mexanizmlar. To‘rt tepalik bo‘rtiqlarining funksiyasi .

**9-mavzu:** Varoliev ko‘prigi va miyachaning fiziologiyasi. Miyachaning funksiyalari, organizmning harakat funksiyasiga ta’siri. Miyachani po‘stlog‘i bilan funksional bog‘liqligi. Varoley ko‘prigi funksiyasi, undagi markazlar.

**10-mavzu:** Oralik miya va miya stvolining fiziologik roli. Ko‘rish bo‘rtiqlari (thalamus) bo‘rtiq osti sohasi (gipotalamus)ning ahamiyati Murakkab harakat funksiyalarini boshqarishda yo‘l-yo‘l tana bilan shaffof tananing mohiyati. Gipotalamusning emotsiya va motivikatsiya shakllanishida tutgan o‘rni.

**11-mavzu:** Miya stvolining retikulyar formatsiyasi, uning fiziologik roli. Retikulyar formatsiyaning nafas, qon aylanishi va ichki organlar funksiyasiga ta’siri. Bosh miya katta yarim sharları po‘stlog‘ining tuzilishi.

**12-mavzu:** Bosh miya po‘stlog‘ining turli sohalarining funksional ahamiyati. Miya po‘stlog‘ining uch xil zonası: birlamchi proekcion zona-tana sezuvchanligini boshqaruvchi qism: ikkilamchi zona-axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlash qismi: uchlamlchi (assotsiativ) zona-shartli reflekslarni shakllantiradigan, odamning hulq-atvori faoliyatini boshqaradigan va nazorat qiladigan qismlarining ahamiyati.

**13-mavzu:** Po‘stloq bilan po‘stloq osti to‘qimalarining o‘zaro ta’siri.

**14-mavzu:** Odam miyasi katta yarim sharlaridagi bo‘limlar funksiyasining lokalizatsiyasi.

## **13-modul. Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Oliy nerv faoliyati haqida tushuncha. Shartsiz refleks va instinktlar.

**2-mavzu:** I.P.Pavlovning reflektor nazariyasi prinsiplari. Sharli reflekslarning hosil bo‘lishi xususiyatlari va mexanizmlari.

**3-mavzu:** Organizmlarning yashash muhitiga moslashishida sharli reflekslarning ahamiyati. Sharli reflekslarning tormozlanishi. Tashqi va ichki tormozlanish. Jismoniy mashq va mehnat faoliyatida ularning ahamiyati.

**4-mavzu:** Ichki tormozlanish turlari (sinuvchi, shartli tormoz, differensirovka, kechiktiruvchi tormozlanish). Ijobiy va salbiy: I,II,III oliv tartibli shartli reflekslar.

**5-mavzu:** Shartli reflekslarning harakat malakalari hosil bo‘lishida ahamiyati. Katta yarim sharlar po‘stlog‘i ishidagi tartiblilik (dinamik, stereotik avtomatlashgan harakat malakasining fiziologik mohiyati. Emotsiyaning biologik ahamiyati.

**6-mavzu:** Odamning oliv nerv faoliyatini xususiyatlari. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari. Olyi nerv faoliyatining tiplari, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda uning ahamiyati.

**7-mavzu:** Olyi nerv faoliyatining shikastlanishi. Nevrozlar. Xotira, uning ahamiyati va fiziologik mexanizmlari. Uyqu fiziologiyasi, uning fazalari. Xotira va fikrlashning fiziologik mexanizmlari.

#### **14-modul. Sezgi organlar (analizatorlar) fiziologiyasi**

**1-mavzu:** Sezgi organlari (analizatorlar) fiziolgiyasi. Sezgi organlarning fiziologik ahamiyati. I.P.Pavlovning analizator to‘g‘risidagi ta’limoti.

**2-mavzu:** Retseptorlar klassifikatsiyasi. Retseptorlardan qo‘zg‘alishning paydo bo‘lishi mexanizmlari.

**3-mavzu:** Sezgi organlari organizmning ichki va tashqi muhiti to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manba ekanligi. Informatsiyaning uzatilishi, qayta ishlanishi, saqlanish mexanizmlari. Sensor sistemalarining harakatlar boshqarilishidagi ahamiyati.

**4-mavzu:** Ko‘rish analizatori. Ko‘rish organining tuzilishi va retseptorlari. To‘r pardaning yorug‘ni sezuvchi elementlari. Akkomodatsiya mexanizmi.

**5-mavzu:** Retseptorlarning sezgirligi o‘zgarishi. Adaptatsiya. Rang ko‘rish nazariyasi. Ko‘rish gigienasi. Yaqindan va uzoqdan ko‘rishning mohiyati. Qorachiq reflekslari.

**6-mavzu:** Eshitish analizatorlari. Quloqning tuzilishi va fiziologiyasi. Ichki quloqning retseptor apparati tuzilishi.

**7-mavzu:** Tovush tebranishlarining o‘tkazilishi va qo‘zg‘alishi, paydo bo‘lishi. Eshitish analizatorlarning adaptatsiyasi. Vestibulyar apparat. Vestibulyar apparat. Muskul tonusi boshqarilishida, apparatning roli.

**8-mavzu:** Hid, ta’m bilish, teri, taktil va termo, sensor sistemalarning funksiyalari. Bu sensor sistemalarning retseptorlari, ularni qo‘zg‘atadigan adekvat ta’siri.

**9-mavzu:** Ekstro va introseptiv analizatorlarning o‘zaro munosabati. Og‘riqning biologik ahamiyati.

## **II. Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar odam organlari funksiyalarini vizual, tajribalar yordamida ko‘nikma va malakalar hosil qilishadi. Laboratoriya ishlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Eritmaning osmotik bosimining eritrotsitlarga ta’siri (gipotonik, gipertonik eritmaning ta’sirini mikroskop yordamida kuzatish).
2. Gemoliz.
3. Eritrotsitlarning cho‘kish tezligini aniqlash. Eritrotsitlarning osmotik chidamliligini aniqlash.
4. Qon gruppalarini aniqlash.
5. Yurak avtomatizmi, sinus-bo‘lmacha tuguning baqa yuragi avtomatizmidan etakchi roli. (Gaskell tajribasi).
6. Yurakning reflektor davri va ekstrasistola.
7. Odamning yurak tonlarini tekshirish.
8. O‘pka orqali gazlarning diffuziyasi. Donders modeli.
9. O‘pkaning tiriklik sig‘imini o‘rganish (spirometriya), nafas hajmi va o‘pkaning maksimal ventilyasiyasini aniqlash.

10. So‘lak bezlari faoliyatini tekshirish.
11. Ichak perestaltikasini kuzatish.
12. Asosiy almashinuvni jadval va histogrammalar yordamida hisoblash.
13. O‘tkir tajribada siyidik (diurezini) tarkibini o‘rganish.
14. Insulinning qondagi shakarning miqdoriga ta’siri (quyonda tajriba).
15. Insulin ortiqligining oq sichqonlarga ta’siri.
16. Baqaning asab-muskul preparatini tayyorlash.
17. Ajratilgan muskulning yakka, tishli va tekis tetanik qisqarishlarini o‘rganish
18. Muskullarning turli tok kuchiga qisqarishi.
19. Bioelektrik hodisalar (Galvani tajribasi).
20. Markaziy nerv sistemasida qo‘zg‘alishning irradatsiyasi (tarqalishi).
21. Bosh miyaning turli bo‘limlarini olib tashlashning baqa harakati reaksiyalariga ta’siri.
22. Shartli reflekslarning hosil bo‘lishi va uning tormozlanishi.
23. Shartli reflekslarning tormozlanishi va differensirovka hosil qilish.
24. Odamning yurak- tomir ishiga shartli refleks hosil qilish. Markaziy nerv sistemasida qo‘zg‘alishning irradatsiyasi (tarqalishi).
25. Nerv markazlaridagi qo‘zg‘alish summatsiyasi.
26. Ko‘rish va eshitish sezgirligini aniqlash:
27. Tovush yo‘nalishini aniqlash.

### **III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ta’lim tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalarning boblari va mavzularini o‘rganish. Bunday tashkiliy shakl, odatda, birinchi kurs talabalari uchun tavsiya etiladi, chunki bu toifa talabalarda mustaqil tahsil olish tajribasi kam bo‘ladi. Bunday ish natijalari laboratoriya mashg‘ulotlarida, kollokviumlarda hamda referatlar, individual berilgan vazifalar bo‘yicha tekshiriladi.

- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismlarini o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma’ruza uchun 5-8 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

- o‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtrilgan tizimlari bilan ishslash. Bu usul ma’ruza mashg‘ulotlari hamda laboratoriya mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilinishi mumkin.

- o‘z –o‘zini baxolash orqali bilimni uzlusiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimni o‘zi baxolaydi va maxsus nazorat daftariga qayd etib boradi.

- fanning boblari va mavzulari ustida ishslash. Bu maxsus va ilmiy adabiyotlar (monografiya, maqolalar) referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Mustaqil tahsilning bu shakli barcha kurs talabalariga tavsiya etiladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

### **IV. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar xamda axborot manbalari.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Adolf Faller., Michael Schuenke-The Human Body - “An Introduction to Structure and Function” ThiemeStuttgart · New York <http://www.bestmedbook.com/2004>
2. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.L. “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” T.: Tib. Kitob. 2010 y.
3. Nuriddinov.E.N. “Odam fiziologiyasi” T.: “A’loqachi” 2005 y.
4. Xudoyberdiev.R.E.,I.K.Axmedov. “Odam anatomiyasi” T.: “Ibn Sino” 1993 y.
5. Ahmedov.A. “Odam Anatomiysi” T.: “Iqtisod moliya” 2007 y.
6. R.Boxodiroy “Odam anatomiyasi” T.: “O‘zbekiston”, 2006 y.
7. I.K.Axmedov “Atlas odam anatomiyasi” T.: “Uzb. Milliy ensiklopediyasi” 1998 y.

**Qo‘shimcha adabiyotlar.**

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 6-son, 70-modda*.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi-T.:O‘zbekiston, 2014.-46b.
12. F.N.Bohodirov. “Odam anatomiyasi”. T.: O‘zbekiston. 2006 y.
13. Maxmudov.E. “Vozrastnaya fiziologiya i osnovi gigiyeni” T.: Izd. Lit.Fonda sayuza pisateley RUz. 2006.

### **Internet saytlari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.physiology.ru/handbooks.html](http://www.physiology.ru/handbooks.html)
4. [www.curator.ru/e-books/b22.html](http://www.curator.ru/e-books/b22.html)

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ГУЛИСТОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
БИОЛОГИЯ КАФЕДРАСИ**

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
Гулистан Давлат Университети  
Ўқув ишлари проректори.  
\_\_\_\_\_ Баракаев Н.  
«\_\_\_\_\_» 2017 й.

**Одам физиологияси фани бўйича  
ишчи ўқув дастури**

**-5112000 Жисмоний маданият;**

Умумий ўқув соати	– 140
Шу жумладан:	
Маъруза	– 30
Лаборатория	– 30
Амалий семинар	– 16
Мустақил таълим соати	– 64

ГУЛИСТОН – 2017 й.

Фаннинг ишчи ўқув дастури намунавий ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилди.

**Тузувчи:**                   О. Юнусов – ГулДУ “Биологи” кафедраси ўқитувчиси

\_\_\_\_\_ (имзо)

**Такризчи:** М.Алламуродов – ГулДУ “Биология” кафедраси доцент, б.ф.н

\_\_\_\_\_ (имзо)

Фаннинг ишчи ўқув дастури “Биология” кафедрасининг 2017 йил “\_\_\_”  
даги \_\_\_ - сонли мажлисида кўриб чиқилиб, факультет Илмий-услубий Кенгашида кўриб  
чиқиш учун тавсия қилинди.

**Кафедра мудири:**

**Абдикулов З.У.**

Фаннинг ишчи ўқув дастури “Табиий фанлар” факультети Илмий-услубий  
Кенгашининг 2017 йил “\_\_\_” \_\_\_\_\_ даги “\_\_\_” - сонли мажлисида тасдиқланди.

Факультет Илмий-услубий  
Кенгashi раиси:

Х. Қушиев

## **Кириш.**

Одам анатомияси ва физиологияси дастури икки бўлимдан иборат бўлиб, биринчи бўлими одам анатомиясига, иккинчи бўлими эса одам физиологиясига бағишланган. Унда одам организмининг анатомияси; скелет, мускул, ички органлар, нерв системаси тузилишининг ўзига хос хусусиятларини ўз ичига олади. Бундан ташқари орган ва органлар системасининг физиологияси, организм фаол ҳаракатланиш жараёнида юзага келадиган функционал ва структур ўзгаришлар ҳақидаги маълумотларни замонавий педагогик технологиялар асосида ўрганишга бағишланган.

### **Фанининг мақсади ва вазифалари**

Фанни ўқитишдан мақсад - талабаларга одам организмини тузилиши ва функциялари, органларни онтогенез давомида такомилашишини ўргатишдан иборат. Бу фанларни ўқитиши давомида талабалар органлар системаси уларнинг тузилиши, физиологияси ва қасалликлари тўғрисида билимга эга бўладилар. Фанининг вазифаси талабаларга одам организмининг тузилиши ва аъзоларнинг физиологияси ҳамда ривожланиши қонуниятларини, ташқи мухитнинг одам организмга таъсирини экспериментал фан сифатида ўрганишдан иборат.

**Фан буйича талабаларнинг билимига, кўнишка малакасига қўйиладиган талаблар**

**«Одам физиология» ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:**

- хужайра ва унинг тузилиши, одам анатомияни ўрганишда қўлланиладиган асосий методлар, одам физиология фани тарихини билиш, одам физиология ишлатиладиган терминлар, орган, органлар системаси, одам физиологиясида сатхлар. Суяклар тузилиши хиллари ва бирикиши, мускуллар ва уларнинг хиллари, ички органлар ва уларнинг турлари, қон айланиш системаси, нерв системаси, сезги органлари, ички секреция безларини тузилишини билиши керак;

атлас, жадваллардаги расмларни таний олиши, физиологик жараёнларни изохлаш, кўкрак ва қорин соҳасидаги органларни ажратта олиш, фаол ҳаракатда организмда кечадиган процессларни ажратта олиш кўнишка масига эга бўлиши керак; одам организмни таянч - ҳаракат системасининг ишлаши ва функциясини бошқарилиши, машқ қилишнинг организм мускул ва таянч - ҳаракат системаси ривожланишига таъсири, жисмоний машқнинг одам саломатлигига таъсири бўйича малакага эга бўлиши керак.

Фанининг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлигина ва услубий жиҳатидан узвийлиги ва кетма - кетлиги

**Одам анатомияси ва физиологияси фани, I ва II - семестрлар давомида ўқитилади. У табиий фанлар физиология, гистология, цитология, биомеханика, биокимё, биофизика, генетика фанлари билан узвий ҳамкорликда бўлиб, уларнинг усулларига ва ютуқларига таянади.**

**Дастурни амалга ошириш ўрта мактаб лицей ва колледжларда ўқитиладиган зоология, одам ва унинг саломатлиги, умумий биология фанларидан умумий билим ва кўнишкаларга эга бўлишлик талаб этилади.**

### **Фанининг таълимдаги ўрни**

**Одам анатомияси ва физиологияси талабаларга турли шароитда болалар ва ўсмиirlар организмни соғломлаштириш, Ўзбекистан келажаги бўлган соғлом авлодни тарбиялаш йулида ўз билимларини ошириш имконини беради ва бу олган билимларини етук мутахасис сифатида таълим**

**1.2.тарбия жараёнини соғломлаштириш йўл йўриқларини ишлаб чикишга йўналтирадилар.**

**Фанни ўқитишида фойдаланиладиган замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

**Талабаларнинг Одам анатомияси ва физиологияси фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишининг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги информацион педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳмиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, Ўқув ва услубий кўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуал стендлар ва макетларидан фойдаланилади. Маъруза, амалий ва лаборатория дарсларига мос равишдаги илғор педагогик технологиялардан фойдаланилади**

**Фандан ўтиладиган мавзуулар ва улар бўйича машғулот тўрларига ажратилган соатларнинг тақсимоти**

№	<b>Фаннинг бўлими ва мавзуси, маъруза мазмуни</b>	Соатлар				
		Жами	Маъруза	Лаборатория	Амалий маш	Мустақилим таълим
1	<b>Кириш - Одам физиологияси фанининг предмети, мақсади, вазифалари, методлари ва ривожланиш тарихи.</b> Одам физиологияси фанининг предмети, мақсади, вазифалари ва текшириш усуллари. Табииёт фанлари системасида тутган ўрни. Педагогика, психология, гигиена, медицина, биология, анатомия, кимё ва жисмоний тарбия фанлари учун аҳамияти. Физиологиянинг обьекти ва тажриба ўтказиш усуллари. Физиология фани тарихига дойр маълумотлар.	6	2	-	-	4
2	<b>Физиологиянинг асосий қонуниятлари ва физиологик тушунчалари.</b> Организм ва ташқи мухит. Организмнинг яшаш шароитига мосланиши. Гомеостаз ва ўни сақловчи воситалар. Моддалар ва энергия алмашинуви. Ассимиляция ва диссимилляция. Физиологик реакциялар: таъсирланиш, таъсирловчилар ва уларнинг тўрлари. Қўзғалувчанлик ва уинг юзага келишида хужайра мемранасининг аҳамияти. Рефлектор реакциялар. Организмнинг функционал системалари хақидаги маълумот.	8	2	2	-	4

3	<b>Қон системаси физиологияси.</b> Организмнинг мухити хақида тушунча. Қон системаси, Қоннинг миқдори ва таркиби. Қон ҳосил қилувчи органлар ва Қон депоси. Қоннинг физиологик вазифалари. Қоннинг ёпишқоқлиги ва нисбий зичлиги. Одамнинг жисмоний иши, меҳнати ва тинч ҳолатидаги гемоглабин миқдори. Эритроцитларнинг резистентлиги ва гемолизи. Лейкоцитларнинг миқдори тузилиши ва функцияси. Агронулоцитлар ва грануллоцитларнинг турлари.	12	2	4	2	4
4	<b>Қон ва лимфа айланиши системалари физиологияси.</b> Юрак-Қон томирлари системаси. Қон айланишининг ахамияти. Катта, кичик ва коранар Қон айланиш доиралари. Юрак мускулларининг функционал хусусиятлари. Юракни Қон билан таъминланиши. Юрак автоматияси. Юракнинг ўтказувчи системаси, унинг ахамияти. Қисқарувчанлиги, рефрактерлик хусусиятлари. Юрак бўлимлари ва қоринчаларининг функционал ахамияти. Юрак цикли, фазалари, юрак тонлари. Электрокордиографияни ўрганиш методлари.	12	2	2	2	6
5	<b>Нафас системаси физиологияси.</b> Нафас ахамияти. Нафас олиш механизми. Нафас жараёнининг асосий фазалари: ташки нафас, альвеолалар ва тўқималарда газ алмашинуви. Нафас олиш ва чиқариш механизми. Нафас актида диафрагма ва ковургаларапо мускулларнинг ахамияти. Ўпканинг кенгайиш қобилияти. Нафас вақтида плевра бўшлифи босимининг ўзгариши. Нафас цикли. Ўпка ҳажмлари ва ўпка вентиляцияси.	10	2	2	2	4
	ОН					
6	<b>Овқат ҳазим қилиш системаси физиологияси.</b> Овқат ҳазим бўлиши ва ўни ўрганиш усуллари. Хужайрада овқат ҳазим бўлиши. Овқатнинг таркиби ва ахамияти. Ҳазим шираларининг ахамияти. Оғиз бўшлиғида овқатнинг ҳазим бўлиши, сўлакнинг таркиби ва хоссаси. Сўлак ажралиши жараёнида шартли ва шартсиз рефлексларнинг мояхияти.	12	2	2	2	6
7	<b>Модда ва энергия алмашинуви физиологияси.</b> Моддалар ва энергия алмашинуви хақида тушунча. Анаболизм ва катаболизм. Оқсиллар алмашинуви. Азот баланси. Оқсилларнинг биологик қиймати.	8	2	2	-	4

	Оқсил алмашинувининг оҳирги махсулотлари. Жисмоний машқ фаолиятида оқсил алмашинувининг ўзгариши . Карбон сувларининг аэроб ва анаэроб парчаланиши жараёнлари ва уларнинг энергия ҳосил бўлишида ахамияти. Глюкозанинг қондаги микдори. Ёг кислоталарининг мускуллар ишида энергия сифатида ишлатилиши.					
<b>8</b>	<b>Иссиқлик алмашинуви физиологияси.</b> Организмнинг иссиқлик баланси ҳақида тушунча. Гомойотермия ва пойколотермия. Организмда иссиқлик ишлаб чиқиш ва иссиқлик ажратиш жараёнлари. Унинг марказий ва периферик механизмлари. Ички органларнинг терморецепторлари. Тана сатхининг терморецепторлари.	10	2	2	2	4
<b>9</b>	<b>Айирув жараёнлари физиологияси.</b> Айирув органларининг асосий вазифаси, ахамияти. Айирув жараёни организмнинг ички муҳити доимийлигини таъминловчи мураккаб жараён экани. Ўпка ва меъда-ичак трактининг айирув функцияси. Буйраклар структураси ва функционал бирлиги-нефрон ҳақида тушунча. Фильтрация реабсорбция, секреция. Сийдик ҳосил бўлиши назарияси.	10	2	2	2	4
<b>10</b>	<b>Тери физиологияси.</b> Тери физиологияси. Тер ажратища томир-харакат реакциясининг ахамияти. Иссиқ ва совуққа тери безларининг реакцияси. Организмнинг чиникишида терининг ахамияти.	10	2	2	2	4
<b>11</b>	<b>Эндокрин системасининг физиологияси.</b> Ички секреция безларининг таснифи ва функцияси. Гормонлар тушунчаси, уларнинг биологик характеристикаси. Ички секреция безларининг физиологик роли ва ўрганиш методлари. Гипофиз бези функцияси. Қалқонсимон без ва унинг олдидаги безларнинг функцияси ва бошқарилиши.	10	2	2	2	4
<b>12</b>	<b>Нерв мушак аппаратининг физиологияси.</b> Харакат аппарата ҳақидаги тушунча. Нерв-мушак бирлиги харакат аппаратининг асосий қисми эканлиги. Мушак турлари, тузилишининг хусусиятлари. Кўндаланг тарғил ва силлиқ мускул толаларининг вазифаси. Мускул тўқимасининг физиологик хоссалари. Кўзғалувчанлик, ўтказувчанлик ва қисқарувчанлик. Кўзғалувчан тўқималар ҳақида тушунча. Мушак қисқарганда содир бўладиган электр ходисалар. Кўзғалишининг тарқалиш механизми.	8	2	2	-	4
<b>13</b>	<b>Марказий нерв тизими физиологияси.</b> Марказий нерв тизимининг умумий	8	2	2	-	4

	вазифалари, периферик нерв тизими. Рефлекс ва унинг турлари. Нейронлар вазифалари ва уларнинг таърифи. Нерв хужайраси мембраннынг хусусиятлари. Кўзгатувчи ва тормозловчи синапслар. Нерв толаси бўйлаб импульслар ўтиши механизми. Марказий тормозланишнииг механизмлари: уйғунлашиш ва жараёнларида тормозланишнинг ахамияти. Орқа миянииг олдинги ва орқа илдизлари вазифалари: орқа миянииг рефлектор ва ўтказувчанлик вазифаси.					
14	<b>Олий нерв фаолияти физиологияси.</b> Олий нерв фаолияти ҳақида тушунча. Шартсиз рефлекс ва инстинктлар. И.П.Павловнинг рефлектор назарияси принциплари. Шартли рефлексларнинг ҳосил бўлиши хусусиятлари ва механизмлари. Организмларнинг яшаш муҳитига мослашишида шартли рефлексларнинг ахамияти. Шартли рефлексларнинг тормозланиши. Ташки ва ички тормозланиш. Жисмоний машқ ва меҳнат фаолиятида уларнинг ахамияти. Ички тормозланиш тўрлари (синувчи, шартли тормоз, дифференсировка, кечикирувчи тормозланиш).	8	2	2	-	4
15	<b>Сезги органлари (анализаторлар) физиологияси.</b> Сезги органларнинг физиологик ахамияти. И.П.Павловнинг анализатор тўғрисидаги таълимоти. Рецепторлар классификацияси. Рецепторлардан қўзғалишнинг пайдо бўлиши механизмлари. Сезги органлари организмнинг ички ва ташки муҳити тўғрисида маълумот берувчи манба эканлиги. Информациянинг узатилиши, қайта ишланиши, сақланиш механизмлари.	8	2	2	-	4
	ОН					
	ЯН					
	Жами	140	30	30	16	64

**Асосий қисм**  
**Ўқув машғулотларининг мазмуни**

**Маъруза машғулотларининг мавзулари.**

- Кириш - Одам физиологияси фанининг предмети, мақсади, вазифалари, методлари ва ривожланиш тарихи.** Тибиёт фанлари системасида тутган ўрни. Педагогика, психология, гигиена, медицина, биология, анатомия, кимё ва жисмоний тарбия фанлари учун аҳамияти. (2 соат), (А. 3-16, А. 5-22, К. 4-14).
- Физиологиянинг асосий қонуниятлари ва физиологик тушунчалари.** Ассимиляция ва диссимилляция. Физиологик реакциялар: таъсирланиш, таъсирловчилар ва уларнинг тўрлари. Кўзғалувчанлик ва унинг юзага келишида хужайра мембраннынг ахамияти. (2соат). (А. 21-31, А. 30-55. К. 20-31).

**3. Қон системаси физиологияси.** Қон ҳосил қилувчи органлар ва Қон депоси. Қоннинг физиологик вазифалари. Қоннинг ёпишқоқлиги ва нисбий зичлиги. Одамнинг жисмоний иши, меҳнати ва тинч ҳолатидаги гемоглабин миқдори. (2 соат), (А. 197-226, А. 126-200, Қ. 200-220).

**4. Қон ва лимфа айланиши системалари физиологияси.** Юрак мускуларининг функционал хусусиятлари. Юракни Қон билан таъминланиши. Юрак автоматияси. Юракнинг ўтказувчи системаси, унинг аҳамияти. Қисқарувчанлиги, рефрактерлик хусусиятлари. Юрак бўлимлари ва қоринчаларининг функционал аҳамияти. (2 соат), (А.172-196, А. 212-231, Қ. 170-195).

**5. Нафас системаси физиологияси.** Пневмотракс. Ўпканинг тириклик сигими. Жисмоний меҳнат ва мушак машқида ўпка вентиляцияси ўзгариши. Ўпкада газлар алмашинуви механизми. Альвеолалар хавосидаги газларнинг ( $O_2$  ва  $CO_2$ ) порциал босими. Нафас марказининг автоматик ва нерв-гуморал, рефлектор бошқарилиши механизmlари. (2 соат), (А. 228-239, А. 230-265, Қ. 190-210).

**6. Овқат ҳазим қилиш системаси физиологияси.** Одам меъдасининг секретор функциясини ўрганиш методлари. Меъда секретор функциясининг нерв ва гуморал бошқарилиши. Меъда секрециясининг тормозланиш механизми. Меъда ва ўн икки бармоқли ичакда овқат ҳазм бўлиши. Меъда ости безининг секретор функцияси. Меъда ости бези ширасини. Таркиби ва хоссаси, унинг оксиллар, ёглар, карбон сувлар ва нуклеин кислоталарга таъсири. (2 соат), (А. 259-285, А. 170-190, Қ. 222-265).

**7. Модда ва энергия алмашинуви физиологияси.** Моддалар алмашинуви жараёнининг гуморал ва рефлектор бошқарилиши. Организмда сувнинг миқдори. Орагнизмнинг минерал тузларга эҳтиёжи ва сув-туз мувозанати. Сув ва минерал тузлар алмашинуви. Организмнинг минерал тузларга эҳтиёжи. Витаминлар хақида тушунча. Сувда ва ёғда эрийдиган витаминлар таснифи. Витаминларнинг физиологик аҳамияти. Авитаминоз. Организмда сув-минерал моддалар ва витаминларнинг бошқарилишида гормонларнинг тутган ўрни. (2 соат), (А. 287-316, А. 193-202, Қ. 310-385).

**8. Иссиклик алмашинуви физиологияси.** Совукни ва иссиқни сезувчи рецепторлар. Ташқи мухитнинг ҳарорати ўзгаришида тана ҳароратининг доимийлигини сакловчи механизmlар. Тана сатхидан иссиқликни чиқариш усуслари: нурланиш, ўтказиш, конвекция. Одам танаси ҳароратининг бошқарилиши ва унинг марказлари. Терморегуляциянинг нерв ва гуморал механизmlари. Тер ажратишнинг аҳамияти. Иссиқлик алмашинувини бошқариш марказлари. (2 соат), (А. 205-225, А. 340-385, Қ. 345-396).

**9. Айирув жараёнлари физиологияси.** Қоннинг кимёвий таркибининг сийдик ҳосил бўлишига таъсири. Сийдикнинг миқдори ва таркиби. Бирламчи ва иккиламчи бурмалар, Генли ковузлоклари хақида тушунча. Мажбурий ва ихтиёрий реабсорбция. Буйракда моддаларнинг секреция жараёни, охирги сийдикнинг таркиби ва хоссаси. Буйракнинг ички секретор фаолияти. (2 соат), (А. 317-362, А.232-253, Қ. 400-420).

**10. Тери физиологияси. Тери физиологияси. Тер ажратишда томир-харакат реакциясининг аҳамияти. Иссиқ ва совукқа тери безларининг реакцияси. Организмнинг чиниқишида терининг аҳамияти.** (2 соат), (А. 251-253, А.420-475, Қ. 380-410).

**11. Эндокрин системасининг физиологияси.** Гормонлар ва уларнинг моддалар алмашинувига таъсири. Буйрак усти безининг пўстлоқ ва мағиз қисми гормонлари хамда уларининг асаб системасига таъсири. Пўстлоқ қаватининг гормонлари: минеролокортикоидлар ва глюкокортикоидлар. Меъда ости безининг эндокрин вазифаси. (2 соат), (А. 240-257, А. 255-286, Қ. 189-222).

**12. Нерв мушак аппаратининг физиологияси.** Кўзғалишнинг фазалари: лабиллик, парабиоз ҳақида тушунча. Н.Е.Веденский, А.А.Ухтомский назариялари. Скелет мускуларининг тонуси. Мускулнинг изотермик, изотоник ва якка қисқаришлари ҳақида тушунча. Табиий шароитда тетаниус, пофона ости ва пофона усти кучлари ҳақида тушунча. Мускулнинг тинч холати ва қисқариш вақтида кузатиладиган биоэлектрик, кимёвий ва иссиқлик жараёнлари. Мускул қисқаришининг кучи. Мускул иши. Мускулнинг чарчаши. (2 соат), (А. 45-55, А. 315-335, К. 50-98).

**13. Марказий нерв тизими физиологияси.** Узунчоқ миянинг мускул тонусини бошқаришда тутган ўрни. Узунчоқ миянинг ўзгарувчанлик вазифаси, харакат ва вегетатив реакцияларни ҳосил қилишдаги аҳамияти. Ўрта мия физиологияси. Ўрта миянинг рефлектор фаолияти. Ўрта миядан чиқадиган бош мия нервларнинг функцияси. Ўрта миянинг қизил ва вестибуляр моддалари функциялари. Ўрта миянинг қизил ядролари ва қора моддасининг мускул тонусини ва гавда вазиятини бошқариши роли. Тана мувозанатини сақловчи, ўз-ўзини идора этадиган механизмлар. (2 соат), (А. 56-128, А. 445-526, К.280-310).

**14. Олий нерв фаолияти физиологияси.** **Одамнинг олий нерв фаолияти** хусусиятлари. Биринчи ва иккинчи сигнал системалари. Олий нерв фаолиятининг типлари, жисмоний машқлар билан шуғулланишда унинг аҳамияти. Олий нерв фаолиятининг шикастланиши. Неврозлар. Хотира, унинг аҳамияти ва физиологик механизмлари. Уйқу физиологияси, унинг фазалари. Хотира ва фикрлашнинг физиологик механизмлари. (2 соат), (А. 129-172, А. 536-561, К. 155-190).

**15. Сезги органлари (анализаторлар) физиологияси.** Товуш тебранишларининг ўтказилиши ва қўзғалиши, пайдо булиши. Эшитиш анализаторларининг адаптацияси. Вестибуляр аппарат. Мускул тонуси бошқарилишида, аппаратнинг роли. Ҳид, таъм билиш, тери, тактил ва термо, сенсор системаларнинг функциялари. Оғриқнинг биологик аҳамияти. (2 соат), (А. 143-161, А. 200-220, К. 355-387).

#### **Талабалар лаборатория мавзулари**

1. Эритманинг осмотик босимининг эритроцитларга таъсири.(гипотоник, гипертоник эритманинг таъсирини микроскоп ёрдамида кузатиш) 2соат (А. 4-6, А. 2-4, К. 3-5).
2. Эритроцитларнинг чўкиш тезлигини аниқлаш. 2 соат (А. 6-8, А. 4-6, К. 4-7).
3. Одам юрак тонларини текшириш. 2 соат (А. 197-226, А. 126-200, К. 200-220).
4. Ўпканинг тириклик сигимини ўрганиш (спирометрия), нафас ҳажми ва ўпканинг максимал вентиляциясини аниқлаш. (2 соат), (А. 228-239, А. 230-265, К. 190-210).
5. Сўлак безлари фаолиятини текшириш. 2 соат (А. 26-28, А. 18-20, К. 12-14).
6. Ичак пересталтикасини кузатиш.2 соат (А. 50-54, А. 23-26, К. 20-24).
7. Ўtkir тажрибада сийдик (диурезини) таркибини ўрганиш. 2 соат (А. 30-32, А. 25-27, К. 40-49)
8. Инсулиннинг қондаги шакарнинг миқдорига таъсири (қуён тажриба). 2соат (А. 90-101, А. 55-60, К. 78-98).
9. Бақанинг асаб-мускул препаратини тайёрлаш. 2 соат (А. 5-8, А. 6-9, К. 12-19).
10. Ажратилган мускулнинг якка, тишли ва текис тетаник қисқаришларини ўрганиш. 2 соат (А. 8-10, А. 20-26, К. 15-19).
11. Мускулларнинг турли ток кучига қисқариши. 2 соат (А. 45-55, А. 315-335, К. 50-98 ).
12. Бош мия турли бўлимларини олиб ташлашнинг бақа ҳаракатисиз реакцияларига таъсири. (2 соат), (А. 56-128, А. 445-526, К.280-310).

13. Шартли рефлексларнинг ҳосил бўлиши ва унинг тормозланиши. (2 соат), (A. 129-172, A. 536-561, К. 155-190).
14. Одамнинг юрак-томир ишига шартли рефлекс ҳосил қилиш. (2 соат), (A. 129-172, A. 536-561, К. 155-190).
15. Кўриш ва эшитиш сезгиларини аниқлаш. (2 соат), (A. 143-161, A. 200-220, К. 355-387

**Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва таъсиялар**

1. Қон гурухларини аниқлаш. (2 с). (A. 197-226, A. 200-210, К. 110-150).
2. Ўпка оралик газларнинг диффузияси. Дондерс мадели. (2 с), (A. 228-239, A. 265-300, К. 150-180).
3. Сўлак безлари фаолиятини текшириш. (2 с), (A. 40-60, A. 120-18, К. 200-220).
4. Организмнинг нисбий тинч ҳолатида ва жисмоний машқлардан сўнг калориметрия усули бўйича энергия сарифини аниқлаш. (2 с), (A. 150-170, A. 180-200, К. 120-150).
5. Ажратиб олинган скелет мушагинингқисқариш (куйи, юқори, энг юқори) даражасини таъсирлаш кучига боғлиқлиги. (2 с), (A. 45-55, A. 315-335, К. 180-190).
6. Мускул кучини аниқлаш. (2 с). (A. 150-190, A. 90-100, К. 70-80).
7. Биоэлектрик хадисалар. (2 с). (A. 287-316, A. 193-202, К. 160-190).
8. Марказий нерв системасида қўзғалишнинг ирродацияси (тарқалиши). (2 с). (A. 56-128, A. 445-526, К. 260-280).

**Талабанинг амалий машғулотларни ўзлаштириш даражаси қўйидаги мезон асосида аниқланади**

Баҳолаш кўрсат- кичи	Баҳолаш мезонлари	Баҳо
Аъло, 5	Етарли назарий билимга эга. Топшириқларни мустақил ечган. Берилган саволларга тўлиқ жавоб беради. Масаланинг моҳиятига тўлиқ тушўнади. Расмларни тўлиқ ва аниқ чизган ҳамда кўрсатиб бераоладиган. Аудиторияда фаол. Ўқув тартиб интизомига тўлиқ риоя қиласди. Топшириқларни намўнали расмийлаштирган.	5
Яхши, 4	Етарли назарий билимга эга. Топшириқларни ечган. Берилган саволларга етарли жавоб беради. Масаланинг моҳиятини тушўнади. Расмларни тўлиқ ва аниқ чизган. Ўқув тартиб интизомига тўлиқ риоя қиласди.	4
Коникарли , 3	Топшириқларни ечишга ҳаракат қиласди. Берилган саволларга жавоб беришга ҳаракат қиласди. Масаланинг моҳиятини чала тушўнган. Расмларни тўлиқ, лекин аниқ чизмаган. Ўқув тартиб интизомига риоя қиласди.	3

Кониқарсиз 2	Талаба амалий машғулот дарси мавзусига назарий тфйёрланиб келмаса, мавзу бўйича топшириқ ва саволларига жавоб бера олмаса, расмларни тўлиқ чизмаса ҳамда дарсга суст қатнашса билим даражаси қониқарсиз баҳоланади	2
-----------------	--	---

**Талабанинг лаборатория машғулотларини ўзлаштириш даражаси  
қўйидаги мезон асосида аниқланади**

Баҳолаш кўрсат- кичи	Баҳолаш мезонлари	Баҳо
Аъло, 5	Лаборатория ишини мавзусининг назарий асослари бўйича мукаммал билимга эга. Лаборатория ишларини ижодий ёндошган ҳолда тушинтиради. Ҳисоблашларни мустақил равишда амалга оширади. Лаборатория ишини мустақил бажара олади. Олган натижаларни мустақил таҳлил қиласи. Ҳисобот тўлиқ расмийлаштирилган. Олинган натижалар тўғри ва аниқ таҳлил қилинган.	5
Яхши, 4	Лаборатория ишини мавзуси назарий асослари бўйича етарли билимга эга. Лаборатория иши мазмунини яхши тушунади. Ҳисоблаш ишларини бажарган. Тажрибаларни кўрсатма бўйича ўтказиб, олган натижаларни тушунтира олади. Ҳисобот яхши расмийлаштирилган. Олинган натижалар таҳлил қилинган ва тўғри.	4
Кониқарли 3	Лаборатория ишини мавзуси назарий асослари бўйича билими кам. Лаборатория ишлари мазмунини билади. Ҳисоблаш ишларини бажарган. Тажрибаларни лаборант назоратида ўтказиб, натижа олган. Ҳисобот расмийлаштирилган. Олинган натижалар тўғри.	3
Кониқарси 3 2	Талаба лаборатория машғулоти бўйича колеквиум топшира олмаса, тайёрланмаган бўлса лаборатория ишини бажаришга рухсат берилмайди, талабани билим даражаси қониқарсиз баҳоланади.	2

### 3.3. ОННИ БАҲОЛАШ

Оралиқ назорат “Одам физиология” фанининг бир неча мавзуларини қамраб олган бўлими бўйича, тегишли назарий ва амалий машғулотлар ўтиб бўлингандан сўнг ёзма равишида амалга оширилади. Бўндан мақсад талабаларнинг тегишли саволларни билиши ёки муаммоларни ечиш кўникмалари ва малакалари аниқланади. Ўкув йилининг 2-семестрда 2-та ОН ўтказиш режалаштирилган бўлиб 5 баҳодан иборат. ОН назорат ишлари ёзма иш ва тест усулида ўтказилиши назарда тўтилган, ёзма иш ва тест соволлари ишчи ўкув дастур асосида тайёрланади. ОН га ажратилган баҳодан 3 дан паст баҳо тўплаган талаба ўзлаштирулган ҳисобланади. ОН ни ўзлаштирулган талабаларга қайта топшириш имконияти берилади. ОН бўйича олинадиган тестлар кафедра мудири раҳбарлигида ташкил этилади ва кафедрада ўкув йилининг охиригача сақланади.

### 3.4. ЯННИ БАҲОЛАШ

Якўний назорат “Одам физиологияси” фанининг барча мавзуларини қамраб олган бўлиб, назарий ва амалий машғулотлар ўтиб бўлингандан сўнг ёзма равишида амалга оширилади. Бўндан мақсад талабаларнинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичлари, яъни билим даражаси ёки муаммоларни ечиш кўникмалари ва малакалари аниқланади. ЯН назорат ишлари тест усулида ҳам ўтказилиши назарда тўтилган, тест соволлари ишчи ўкув

дастури асосида тайёрланади. ОНларга ажратилган баҳодан З дан паст баҳо тўплаган талаба ўзлаштиргмаган ҳисобланади. ЯНни ўзлаштиргмаган талабаларга қайта топшириш имконияти берилади. ЯН бўйича олинадиган ёзма иш вариантлари кафедра мудири раҳбарлигига тузилади ва деканатларга топширилади.

## ИНФОРМАЦИОН-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТ

### АОСИЙ АДАБИЁТЛАР

№	Муаллиф, адабиёт номи, тўри, нашриёт, йили, хажми	Кўтубхонада мавжуд нусхаси
1.	Adolf Faller.Michael Schuenke-The Human Body –“An Introduction to Structure and Function” ThiemeStuttgart. New Yorkhttp. 2004	
2.	Ражамуродов З.Т. «Одам ва ҳайвонлар физиологияси» Тиб. Китоб, 2010 й.	60
3.	Ахмедов Н. Содиков З. «Нармол анатомия ва физиология» Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Т.Давлат илмий нашриёт. 2008 й.	
4.	Нуридинов Е.Н. «Одам физиологияси» Тошкент. «Алоқачи» 2005 й	50
5.	Алматов К.Т. Алламуродов Ш.И. «Одам ва ҳайвонлар физиологияси». Т. Университет. 2004 й.	

### 4.2. ҚЎШИМЧА АДАБИЁТЛАР

№	Муаллиф, номи, тўри, йили, хажми, сақланиш жойи, электрон адреси	
1.	Алматов К.Т. Улғайиш физиологияси. М.Улуғбек номидаги ЎзМУ босмохонаси. Т.2004.	
2.	Атлас нервной системы человека строения и нарушения. Под.ред. Астапов В.М. М.2006	
3.	Боянович Ю.В. Атлас анатомия человека. Для студентов медицинских ВУЗов Ростов-на-Дону, Феникс Харьков. «Торсинг», 2005	
4.	Козлов В.И. Практикум по анатомии человека. Для студентов педагогических ВУЗов. Москва.2005.	
5.	Шахмўрова Г.А., Маматкулов Да.А. «Спорт анатомияси» Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2007 й.	

## *1-илюса*

**Ишчи ўқув дастурга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида**

\_\_\_\_\_ ўкув йили учён ишчи ўкув дастурига қўйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилмоқда:

## Ўзгартириш ва қўшимчаларни киритувчилар:

(профессор-ўқитувчининг И.Ф.О.)

(имзоси)

Ишчи ўқув дастурга кириллган ўзгартириш ва қўшимчалар “Табиий фанлар” факультети Илмий-услубий Кенгашида муҳокама этилди ва маъқулланди ( \_\_\_\_\_ йил “\_\_\_\_\_” даги “\_\_\_\_\_” - сонли баённома).

## Факультет Илмий-услубий Кенгаши раиси:

## TEST SAVOLLARI

**1. Qo'zg'aluvchan to'qimalarga qaysi to'qimalar kiradi?**

- A. Asab, mushak va ayrim bez to'qimalari
- B. Mushak, skelet to'qimasi
- C. Asab va biriktiruvchi to'qima
- D. Mushak va epiteliy to'qimasi

**2. Odamlarda asab hujayralarining tinchlik potentsiali qancha mV ga teng?**

- A. 70 mV
- B. 90 mV
- C. 7-10 mV
- D. 30-40 mV

**3. Odamning asab hujayralari qo'zg'algan paytda harakat potentsiali qanchaga teng bo'ladi?**

- A. 100-110 mV
- B. 140-150 mV
- C. 80-90 mV
- D. 10-20 mV

**4. Ta'sirotning bo'sag'a kuchi deb nimaga aytildi?**

- A. Membrana potentsialini kritik darajagacha o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lan ta'sirot kuchiga
- B. Harakat potentsialini vujudga keltirilmaydigan kuchga
- C. Juda qisqa vaqt ichida harakat potentsialini vujudga keltiradigan kuchga
- D. Harakat potentsialini vujudga keltiradigan har qanday kuchga

**5. Mushak qisqarishlarining qanday tiplari mavjud?**

- A. izotonik , izometrik
- B. iobarik , izotonik
- C. izoxorik , auksotonik
- D. izometrik , miografik

**6. Mushak qisqarishlarining aralash tipi qanday nomlanadi?**

- A. auksotonik
- B. izotonik
- C. izometrik
- D. izoxorik

**7. Qonga kelib tushadigan sut kislotasi jigarga o'tib nimaga aylanadi?**

- A. Gilyukozaga
- B. ATF ga
- C. SO<sub>2</sub> va N<sub>2</sub>O
- D. Kreatinga

**8. Odamning miyasida qancha miqdorda neyronlar mavjud?**

- A. 25 mlrd
- B. 25 mln
- C. 50 mlrd
- D. 15 mlrd

**9. Neyronlarning kalta o'simtasi nima deb ataladi?**

- A. Dendrit
- B. Soma
- C. Akson
- D. Neyrofibrilla

**10. Neyronlarning uzun o'simtasi nima deb nomlanadi?**

- A. akson
- B. dendrit
- C. neyrofibrilla
- D. soma

**11. Aksonning shoxlangan terminal uchlari nima deb nomlanadi?**

- A. telodendronlar
- B. sinapslar
- C. teloaksonlar
- D. effektorlar

**12. Bitta o'simtaga ega bo'lgan neyronlar .....neyronlar deb nomlanadi.**

- A. unipolyar
- B. bipolyar
- C. multipolyar
- D. kontakt

**13. Ikkitadan ko'p o'simtaga ega bo'lgan neyronlar .....neyronlar deb ataladi.**

- A. multipolyar
- B. bipolyar
- C. unipolyar
- D. psevdounipolyar

**14. Tanasi va o'simtalari markaziy asab tizmi chegarasidan chiqmaydigan neyronlar qanday nomlanadi?**

- A. kontakt
- B. psevdounipolyar
- C. afferent
- D. efferent

**15. Necha xil neyrogliya hujayralari bo'ladi?**

- A. 5 xil
- B. 3 xil
- C. 6 xil
- D. 2 xil

**16. Asab tolalaridagi mielin qobig'i qanday hujayralar mahsulidir?**

- A. Shvann
- B. Ranve
- C. Ependimal
- D. Astrotsit

**17. Mielinli asab tolalarida qo'zg'alishning o'tkazishlish vaqtini nimaga to'g'ri proporsional bo'ladi?**

- A. Ranve bo'g'irlari oralig'idagi masofaga
- B. Mielin qobig'ining qalnligiga
- C. Ta'sirot kuchiga
- D. Asab tolasining shoxlanish darajasiga

**18. Qo'zg'alishni o'tkazish tezligiga asoslanib issiq qonli hayvonlarning asab tolalari qanday tiplarga ajratiladi?**

- A. A, V, S tiplarga
- B. unipolyar va psevdounipolyar
- C. bipolar va multipolyar
- D. kontakt va oraliq

**19. Asablar qo'zg'algan paytda energiya asosan qaysi nasosning ishi uchun sarflanadi?**

- A. kaliy- natriy
- B. kaltsiy- natriy
- C. natriy- xlor
- D. magniy- kaltsiy

**20. Asab impluslarini bir neyrondan boshqa neyron, mushak va bez hujayralariga o'tkazilishini nimalar ta'minlaydi?**

- A. sinapslar
- B. neyrogliya hujayralari
- C. mielinli nerv tolalari
- D. mielinsiz nerv tolalari

**21. Sinapslar neyronning qaysi qismida joylashishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?**

- A. 3 guruhga
- B. 5 guruhga
- C. 2 guruhga
- D. 6 guruhga

**22. Bitta neyronda taxminan nechta sinaps mavjud bulishi mumkin?**

- A. 40 ming
- B. 80 ming
- C. 5-10 ming
- D. 300-500 ming

**23. Umurtqali hayvonlarda asosan qanday sinapslar uchraydi?**

- A. Kimyoviy va qisman elektr
- B. Qo'zg'atuvchi
- C. Tormozlovchi
- D. Neyronal

**24. Sinapslarning turli a'zolarga bog'lanishiga ko'ra qanday turlari mavjud?**

- A. Miocenevral, aksovaskulyar, neyro-sekretor
- B. Aksodendritli va aksosomatik
- C. Miocenevral va aksoaksonal
- D. Kimyoviy va elektr

**25. Qo'zg'alishni sinapslar orqali uzatilishida qanday moddalar vositachi rolini bajaradi?**

- A. Mediatorlar
- B. Enzimlar

- S. Nuklein kislotalar
- D. Monosaxaridlar

**26. Propriotseptiv reflekslarning retseptorlari qaerda joylashgan bo'ladi?**

- A. Mushak, pay va bo'g'implarda
- B. Ichki a'zolarda
- C. Teri yuzasida
- D. Ko'zning to'r pardasida

**27. Retseptorlar joylashishiga ko'ra necha guruxga bo'linadi?**

- A. 3 guruxga
- B. 5 guruxga
- C. 2 guruxga
- D. 6 guruxga

**28. Quyidagi tormozlanishning qaysi biri 1- lamchi tormozlanishga kiradi?**

- A. Retsiprok va qaytar
- B. Antagonist va qaytmas
- C. Afferent va efferent
- D. Somatik va vegetativ

**29. Tormozlanishdan so'ng paydo bo'ladigan ko'zg'alish qanday induktsiya deb nomlanadi?**

- A. Musbat
- B. Manfiy
- C. Neytral
- D. Qaytar

**30. Proektsion nerv tolalariga qanday tolalar kiradi?**

- A. Afferent va efferent
- B. Markazdan qochuvchi
- C. Markazga intiluvchi
- D. Dendritlar

**31. Funktsional xususiyatiga ko'ra qanday asab tolalari mavjud?**

- A. Assotsiativ, komissural, proektsion
- B. Afferent va efferent
- C. Harakatlantiruvchi
- D. Sezuvchi

**32. To'rt tepalik qaysi miyaga tegishli?**

- A. O'rta miyaga
- B. Ketinga miyaga
- C. Oraliq miyaga
- D. Oldingi miyaga

**33. Uzunchoq miya va Varoliy ko'prigi qaysi miyani hosil kiladi?**

- A. Ketinga miyani
- B. O'rta miyani
- C. Oldingi miyani
- D. Oraliq miyani

**34. Oraliq miya qanday qismlardan iborat?**

- A. Epitalamus, talamus va gipotalamus
- B. Miyacha va Varoliy kuprigi
- C. To'rt tepalik va miyacha
- D. Retikulyar formatsiya va Varoliy kuprigi

**35. Gipotalamus qanday gormonlarni ishlab chiqaradi?**

- A. Rilizing
- B. Trop
- C. Neyrogormonlar
- D. Gistogormonlar

**36. Katta yarim sharlar po'stlog'i filogenetik jihatdan qaysi qismlarga bo'linadi?**

- A. Arxiokorteks, paleokorteks, neokorteks
- B. Qadimiy va yangi
- C. O'ng va chap
- D. Oldingi va ketingi

**37. Gippokamp qaysi pustloq tarkibiga kiradi?**

- A. Eski
- B. Qadimgi
- C. Yangi
- D. Oldingi

**38. Elektroentsefalogamma qaysi organning elektr faolligini aniklaydi?**

- A. Miya po'stlog'ining
- B. Yurakning
- C. Oshqozonning
- D. O'pkaning

**39. Avtonom asab tizimi qaysi qismlarga bo'linadi?**

- A. Simpatik, parasimpatik va metasimpatik
- B. Simpatik va parasimpatik
- C. Gipotalamik
- D. Somatik va markaziy

**40. Simpatik asab tizimining markazlari qaerda joylashgan?**

- A. Birinchi ko'krak segmentidan uchinchi bel segmentigacha
- B. O'rta va uzunchoq miyada
- C. Orqa va bosh miyada
- D. Orqa miyaning dumg'aza segmentlarida

**41. Parasimpatik asab tizimining markazlari qaerda joylashgan?**

- A. O'rta, uzunchoq miya va orqa miyaning dumg'aza segmentlarida
- B. Orqa miyaning ko'krak va dumg'aza segmentlarida
- C. Orqa miyaning bo'yin va ko'krak segmentlarida
- D. Orqa miyaning bo'yin va dumg'aza segmentlarida

**42. Metasimpatik asab tizimining markazlari joylashgan organni aniqlang?**

- A. Ichki organlarning o'zida
- B. Uzinchoq miya
- C. Orqa miya

D. Bosh miya

**43. Avtonom asab tizimida qanday sinaptik o'tkazishlar mavjud?**

- A. Elektrli, kemyoviy va aralash
- B. Kemyoviy va mexanik
- C. Elektrli
- D. Kontaktli

**44. Serotonin qaysi asab tizimining mediatoridir?**

- A. Metasimpatik
- B. Parasimpatik
- C. Simpatik
- D. Somatik

**45. Ko'z qorachiqlarining kengayishi qaysi asab tizimi ta'sirida ro'y beradi?**

- A. Simpatik
- B. Parasimpatik
- C. Somatik
- D. Metasimpatik

**46. Bronxlarning torayishida qaysi asab tizimi ishtirok etadi?**

- A. Parasimpatik
- B. Simpatik
- C. Metasimpatik
- D. Somatik

**47. Kolbachalar va tayoqchalar qaysi retseptorlar turiga kiradi?**

- A. Fotoretseptorlar
- B. Xemoretseptorlar
- C. Termoretseptorlar
- D. Elektroretseptorlar

**48. Odamning ko'zi ko'ra oladigan yorug'lik nuri qanday diapazonda yotadi?**

- A. 400-750 nm
- B. 300-900 nm
- C. 250-500 nm
- D. 500-950 nm

**49. Infraqizil nurlarning to'ljin uzunligi qanchaga teng?**

- A. 900 nm dan yuqori
- B. 300 nm dan past
- C. 600-750 nm oralig'ida
- D. 400-500 nm oralig'ida

**50. Inson ko'zi necha xil rangni ajrata oladi?**

- A. 7 mln. ga yaqin
- B. 7 xil
- C. 70 xil
- D. 120 xil

**51. Rang ko'rishning 3 komponentli nazariyasi kim tomonidan yaratilgan?**

- A. T. Yung

- B. E. Gering
- S. I.P. Pavlov
- D. I.M.Sechenov

**52. Qizil rangni ko'rmaydigan odamlar qanday nom bilan ataladi?**

- A. Protanopiklar
- B. Deyteranopiklar
- C. Tritanopiklar
- D. Axromaziya

**53. To'liq rang ko'rmaslik qanday nomlanadi?**

- A. Axromaziya
- B. Deyteranopiya
- C. Protanopiya
- D. Tritanopiya

**54. Ko'zning optik tizimiga nimalar kiradi?**

- A. Shox parda, gavhar, shishasimon parda
- B. Kipriklar, kamalak parda, gavhar
- C. Kamalak parda, qorachiq, to'r parda
- D. Gavhar, to'r parda

**55. Qaysi vaqtida gavharning qavariqligi ortadi?**

- A. Kipriksimon tana silliq mushaklari qisqarganda
- B. Tsinn boylamlari tarangligi ortganda
- C. Kipriksimon tana silliq mushaklari bo'shashganda
- D. Ko'z qorachig'i torayganda

**56. Ko'zning to'r pardadan turli masofda turgan narsalarni aniq va ravshan ko'rishga moslashuvi nima deb ataladi?**

- A. Akkomodatsiya
- B. Presbiopiya
- C. Miopiya
- D. Gipermetropiya

**57. Qarilikda uzoqdan ko'rish qanday nomlanadi?**

- A. Presbiopiya
- B. Miopiya
- C. Gipermetropiya
- D. Axromaziya

**58. Uzoqdan ko'rish nima deb ataladi?**

- A. Gipermetropiya
- B. Presbiopiya
- C. Miopiya
- D. Axromaziya

**59. Yaqindan ko'rish nima deb ataladi?**

- A. Miopiya
- B. Gipermetropiya
- C. Presbiopiya
- D. Axromaziya

**60. Simpatik asab tizimi ta'sirida qorachiq qanday holatga keladi?**

- A. Kengayadi
- B. Torayadi
- C. O'zgarmaydi
- D. To'liq yopiladi

**61. Nega qorachiq doimo qora rangda bo'ladi?**

- A. Fustin pigmenti qora rangli bo'lgani uchun
- B. To'r pardaning ko'r dog'iga to'g'ri kelgani uchun
- C. Kolbacha va tayoqchalar ta'siri natijasida
- D. Ko'zning ichiga tushgan nurlar to'liq qaytgani uchun

**62. Odamning ko'zida nechta kolbacha bor?**

- A. 6-7 mln.
- B. 10-12 mln.
- C. 125 mln.
- D. 5-10 ming

**63. Odamning ko'zida nechta tayoqchalar mavjud?**

- A. 125 mln.
- B. 6-7 mln.
- C. 5-6 ming
- D. 175 mln.

**64. To'r pardaning fotoretseptorlarga ega bo'limgan qismi qanday nomlanadi?**

- A. Ko'r dog'
- B. Sariq dog'
- C. Markaziy chuqurcha
- D. Ko'ruv o'zagi

**65. To'r pardaning eng o'tkir ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi nima deb ataladi?**

- A. Sariq dog'
- B. Ko'r dog'
- C. Kon'yuktiva
- D. Markaz

**66. Odam qulog'i eshita oladigan tovush to'lqinlari qanday oraliqda yotadi?**

- A. 20 GTs dan 20000 GTs gacha
- B. 10 GTs dan 20 GTs gacha
- C. 20000 GTs dan 35000 GTs gacha
- D. 20 GTs dan 2000 GTs gacha

**67. Tovush to'lqinlarini eshitish suyaklari orqali o'tar ekan, uning kuchi necha marta oshadi.**

- A. 22 marta
- B. 12 marta
- C. 3-4 marta
- D. 25marta

**68. Ichki qulogning eshituv retseptori qaysi qismda joylashgan?**

- A. Kortiy a'zosida

- B. Reysner membranasida
- S. Oval darchada
- D. Dahlizda

**69. Hasharotlar tovush to'lqinlarini qaysi a'zolari yordamida qabul qiladi?**

- A.Tuksimon sensillalar va timpanal a'zolari
- B. Ichki quloqlari
- S.Ko'krak segmentlari
- D.Qorin segmentlari

**70. Kortiev a'zosi qaysi membranada joylashgan bo'ladi?**

- A. Bazilyar
- B. Reysner
- S. Timpanal
- D. Vestibulyar

**71. Odamning vestibulyar analizatorlar qaerda joylashgan?**

- A. Yarim doira kanalchalarining ampulasida
- B. Bazilyar membranada
- S. Reysner membranasida
- D. Dahlizda

**72. Qo'l kaftining  $1 \text{ sm}^2$  yuzasida nechta sovuqni sezuvchi retseptorlar bo'ladi?**

- A. 12 ta
- B. 25ta
- S. 50ta
- D. 1-2 ta

**73.Odamda ta'm bilish kurtaklari jami nechtaga etadi?**

- A. 10 ming taga
- B. 100 ming taga
- S. 2.5 ming taga
- D. 35 ming taga

**74. Ta'm bilish retseptorlari har necha kunda yangilanib turadi?**

- A. 10 kunda
- B. 30 kunda
- S. 2-3 kunda
- D. 18-20 kungda

**75. Odamda hid bilish retseptorlarining soni nechta?**

- A. 10 mln. atrofida
- B. 10 mingga yaqin
- S. 100 ming atrofida
- D. 120 mln. ga yaqin.

**76. Dominanta talimoti kim tomonidan ishlab chiqilgan?**

- A. A.A.Uxtomkiy
- B. I.P.Pavlov
- S. P.K.Anoxin
- D. Ch. Sherrington.

**77. Qo'zg'alishning bir markazda hosil bo'lib, boshqa markazlarga tarqalishi ..... deyiladi.**

- A. Irradiatsiya
- B. Kontsentratsiya
- C. Induktsiya
- D. Tormozlanish

**78. Qo'zg'alish natijasida kelib chiqadigan tormozlanish ..... deyiladi.**

- A. Manfiy induktsiya
- B. Irradiatsiya
- C. Musbat induktsiya
- D. Umumiy tormozlanish

**79. Ibn Sino odamlarni mijoziga ko'ra qanday guruhlarga bo'lgan?**

- A. Issiq, o'rtacha, sovuq
- B. Kuchli, harakatchan, muvozanatlashmagan
- C. Kuchli, kam harakat, muvozanatlashgan
- D. Kuchsiz, o'rtacha, issiq

**80. I.P.Pavlov asab jarayonlarining kuchiga, muvozanatlashganlik darajasiga harakatchanligiga ko'ra odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lган nechta tipga bo'lган?**

- A. 4 ta
- B. 3 ta
- C. 5 ta
- D. 7 ta

**81. Melanxolik qandy tip?**

- A. Kuchsiz
- B. Kuchli, kamharakat
- C. Kuchli, harakatchan
- D. Kuchli, qo'zg'aluvchan

**82. Sangvinik qanday tip bo'lib hisoblanadi?**

- A. Kuchli, harakatchan, muvozanatlashgan
- B. Kuchli, kamharakat, muvozanatlashgan
- C. Kuchli, harakatchan, muvozanatlashmagan
- D. Kuchsiz

**83. Flegmatik qanday tip?**

- A. Kuchli, kamharakat, muvozanatlashgan
- B. Kuchsiz
- C. Kuchli, harakatchan, muvozanatlashgan
- D. Kuchli, harakatchan, muvozanatlashmagan

**84. Insonlarda I.P.Pavlov bo'yicha odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lган tiplardan tashqari yana qanday tiplar mavjud.**

- A. Badiiy, fikrlash, o'rtacha
- B. Badiiy, fikrlash
- C. Aralash, o'rtacha, badiiy
- D. Aralash, badiiy

**85. Tafakkur qilish kimlarga hos xususiyatdir?**

- A. Odam va hayvonlarga
- B. Barcha odamlarga
- S. Odam, hayvon va o'simliklarga
- D. Faqat iqtidorli odamlarga

**86. Ikkinchি signal tizimiga nima kiradi?**

- A. Nutq
- B. Ong
- C. Tafakkur
- D. Idrok

**87. Uyqu kimlarga xos xususiyatdir?**

- A. Odamlar, hayvonlar va o'simliklarga
- B. Faqat odamlarga
- C. Faqat o'simliklarga
- D. Odam va hayvonlarga

**88. Kechki yoki kunduzgi uyqu qaysi uyqu turiga kiradi?**

- A. Davriy
- B. Gipnotik
- C. Faslli
- D. Odatdagи

**89. Letargik uyqu qanday uyqu turiga kiradi?**

- A. Patologik
- B. Gipnotik
- C. Narkotik
- D. Davriy

**90. Katta yoshli odamda tez uyqu necha soat davom etadi?**

- A. 1,5-2 soat
- B. 5,5-6 soat
- C. 0,5-1 soat
- D. 2,5-3 soat

**91. Odamning doimo uyqusirab yurishi va uyquga to'ymasligi ..... deyiladi.**

- A. Narkolepsiya
- B. Letargiya
- C. Somnabolizm
- D. Mudrash

**92. Nevrozga ko'proq qanday tipdagi odamlar uchraydi?**

- A. Xolerik va melanxolik
- B. Flegmatik
- C. Sangvinik
- D. Aralash tipdagi

**93. Gipnozning qanday davrlari mavjud?**

- A. Mudrash, yuzaki uyqu, somnabolizm
- B. Somnabolizm, yuzaki uyqu
- C. Mudrash, somnabolizm
- D. Yuzaki uyqu, chuqr uyqu

**94. Endokrin bezlarning mahsuloti nima deb ataladi?**

- A. Gormonlar
- B. Fermentlar
- C. Yog'lar
- D. Uglevodlar

**95. Gipotalamusdan qanday gormonlar ishlab chiqariladi?**

- A. Liberinlar va statinlar
- B. Trop gormonlar
- C. Gistogormonlar
- D. Enterinlar

**96. Gipofizdan necha hil trop gormonlar sintezlanadi?**

- A. 7 xil
- B. 6 xil
- C. 5 xil
- D. 3 xil

**97. Adenogipofizdan necha hil gormon hosil bo'ladi?**

- A. 6 xil
- B. 7 xil
- C. 4 xil
- D. 8 xil

**98. Quyidagi gormonlarning qaysi biri gipofizning oraliq bo'lagidan hosil bo'ladi?**

- A. Melonotsitlarni rag'batlantiruvchi
- B. Tireotrop
- C. Lyuteinlovchi
- D. Prolaktin

**99. Quyidagi bezlarning qaysi biri adenogipofiz gormonlari tomonidan nazorat qilinadi?**

- A. Qalqonsimon, buyrak usti bezining po'stloq qavati, gonadalar
- B. Buyrak usti bezining mag'iz qavati, qalqonsimon bezoldi bezi, oshqozon osti bezi
- C. Gonadalar, oshqozon osti bezi
- D. Buyrak usti bezi po'stloq qavati, qalqonsimon bezning S-hujayralari

**100. Paratgormon qondagi qaysi moddaning ko'payishiga olib keladi?**

- A. Kaltsiy
- B. Suv
- C. Glyukoza
- D. Temir

## TARQATMA MATERIALLAR

*1. Mayjud vaziyat  
(topshiriqli keys)*

**5. 1-Topshiriq. Qo'zg'aluvchan to'qimalarga qaysi to'qimalar kiradi?**

*Ko'rsatma: talabalar guruhlariga savol bilan murojaat etiladi. 2 minut vaqt beriladi.*

**6. Savol : Kўзгалувчан тўқималарга қайси тўқималар киради?**

*To'g'ri javob :*

- 1-guruh** – Asab, mushak va ayrim bez to'qimalari.
- 2-guruh** – Mushak, skelet to'qimasi
- 3-guruh** – Asab va biriktiruvchi to'qima
- 4-guruh** – Mushak va epiteliy to'qimasi

*Baholash tartibi : 1- , 2- , 3- guruhnigina to'g'ri topgan guruhga 1 balldan beriladi. G'olib gurux elon qilinadi.*

*1. Mayjud vaziyat*

*(topshiriqli keys)*

**7. Topshiriq. Ta'sirotning bo'sag'a kuchi deb nimaga aytildi?**

.

*Ko'rsatma: Fitogarmonlar va ingibitorlarni turlari **Exib** qo'yiladi.*

- 1.Auksinlar**
- 2.Gibberilinlar**
- 3.Tsistominlar**
- 4.Etilen**
- 5.Defeliantlar**
- 6. Dessikantlar**
- 7.Retordantlar**
- 8.Gerbitsidlar**

*Talabalar bir nechta guruhlarga bo'linadi. Rasmda fitogarmonlar va ingibitorlar to'plami beriladi ikki minutda ularni ajratib berish etiladi va baholanadi.*

*Baholash tartibi : Eng ko'p va to'g'ri topilgan fitogarmonlar va ingibitorlar soni hisobga olinadi.*

**3. Mayjud vaziyat**  
*(topshiriqli keys)*

*Topshiriq. «O'simliklarni majburiy tinim xolatiga olib keluvchi omillarni belgilang».*

*Ko'rsatma: O'simliklarda majburiy tinimni belgilovchi omillarni*

*ro'yxatini ikki minut ichida tuzing. Masalan: fasllarni davriy o'zgarishi, tun va kun uzunligi, xarorat o'zgarishi, èrug'likning mavsumiy o'zgarishi.*

*Baholash tartibi: har bir guruhdagi to'g'ri ajratilgan omillar soni va ajratishga ulgurilmay qolganlari soni hamda noto'g'ri ajratilganlari soni hisoblanadi, va guruh talabalari baholanadi.*

*4. Mavjud vaziyat*

*(topshiriqli keys)*

*Ekspert qog'ozlari – topshiriqlar.*

*Baholash tartibi: har bir guruhdagi to'g'ri ajratilgan eksport qog'ozdagi savollarga ulgurilmay qolganlari juftliklar soni hamda noto'g'ri ajratilganlari juftliklar soni hisoblanadi.*

**1-guruh**

1. Oqsil deb qanday birikmalarga aytildi?
2. Oqsil molekulasining qanday tuzilish darajalarini bilasiz?
3. Xujayrada oqsillar qanday funksiyani bajaradi? (Aniq misollar keltiring).
4. Protein va proteid nima?

**2-guruh**

1. Nuklein kislotalar qanday kashf qilingan.
2. Nuklein kislotaning tarkibi nimadan iborat?
3. Nukleotid va nukleozid tarkibi qanday?
4. DNK molekulalari RNKmolekulalaridan nima bilan farq qiladi?

3-guruh

1. Modda almashinuvi deganda qanday jaraen tushuniladi.

2. Anabolizm, katabolizm (assimilyatsiya va dissimilyatsiya)

jaraenlariga misollar keltiring?

3. Xujayra metabolizmi qanday amalga oshadi?

4. Nuklein kislota va oqsil orasida qanday uzviylik bor?

Baholash tartibi: *har bir guruhdagi to'g'ri ajratilgan eksport qog'ozdagi savollarga ulgurilmay qolganlari juftliklar soni hamda noto'g'ri ajratilganlari juftliklar soni hisoblanadi.*

5. Mavjud vaziyat  
(topshiriqli keys)

*Quyidagi jadvaldan foydalanib DNK va RNK molekulalarining tarkibidagi umumiylikni aniqlang va Venn diagrammasini to'ldiring.  
Nuklein kislotalarining tarkibi.*

*Komponentlari*

*RNK*

*DNK*

*Fosfat kislota*

*N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub>*

*N<sub>3</sub>RO<sub>4</sub>*

*Uglevod-monosaxarid*

*pentoza*

*Riboza*

*Dezoksiriboza*

*Azot asoslari*

*Purin asoslari*

*Adenin, Guanin*

*Adenin, Guanin*

*Pirimidin asoslari*

*Tsitozin, Uratsil*


*Tsitozin, Timin*

*Venn diagrammasini to'ldirish qoidasi:*

*1. Ma'lumotlarni doiranining kesishmaydigan tomonlariga e'zib chiqing.*

**2. Doiranining kesishgan joyiga har ikki tomondagisi ma'lumotlarning umumiy bo'lgan jihatlar nomerini ezing.**

VENN DIAGRAMMASI DNK VA RNK molekulalarini solishtiring.



Baholash tartibi : **har bir guruhdagi to'g'ri va noto'g'ri ajratilgan savollar soni hamda ajratishga ulgurolmagan savollar soni hisobga olinadi.**

6. Mavjud vaziyat  
( mashqlari KEYS)  
Toifalash jadvalini to'ldiriting

**“Bug'doy urug'i tarkibidagi uglevodlar va oqsillarning hillari”**

<i>Uglevodlar</i>	<i>Oqsillar</i>	<i>%</i>
<i>Xillarini ezb chiqing?</i>	<i>Xillarini ko'rsating</i>	<i>Miqdorini aytинг</i>

“Muammoli vaziyat” uslubi

Ushbu uslub muammo turini, kelib chiqish sabablarini aniqlash va vaziyatdan chiqib ketishharakatlarini izlab topish imkonini beradi. Talabalarni muammo ustida ishlashga undaydi. Mantiqiy xulosalar chiqarishga yo'naltiradi

«Muammoli vaziyat» jadvalini to'ldiriting

«Muammoli vaziyat» Turi	«Muammoli vaziyat» sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
O'simliklarning noqulay sharoitga chidamliligi	( shurga chidamlilik) Sho'rlanish turlari sanang	Qanday sho'rlanishdan so'ng tuproq strukturasi yuqori zararlanadi

Baholash tartibi : *har bir guruhdagi to'g'ri va noto'g'ri ajratilgan savollar soni hamda ajratishga ulgurolmaganlari soni hisobga olinadi.*

7. Mavjud vaziyat  
( mashqli KEYS)  
“O'simliklarning suvga to'yintirish asoratlari”

Afzallilarik	Kamchiliklari
Fotosintezdagi o'zgarishlar, osmotik bosim kuchi, transpirantsiya, erkin va birikan suvlar, tuproqdagi suv shakllari.	So'lish koefentsenti, dimiqish, tuproq aeratsiyasi, bo'kish, tuproqdagi suv shakllari.

*Baholash mezoni va ko'rsatkichlari*

№	Guruqli loyihada quyidagilar baholanadi	ballar
1.	<i>Har bir talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida (mavzular bo'yicha) qismlari</i>	<i>Eng yuqori 2 ball</i>
2.	<i>Hisobot</i>	<i>Eng yuqori 3 ball</i>
3.	<i>MS Power Point loyiha taqdimoti</i>	<i>Eng yuqori 2 ball</i>
4.	<i>Og'zaki taqdimot va loyiha himoyasi</i>	<i>Eng yuqori 2 ball</i>